

T.N. PARDAYEV, A.M. SUYUNOV,  
A.A. SHADMANKULOV

# BOJXONA QIYMATI

TOSHKENT

**UO'K: 339.5(075)**

**KBK 65.428**

**P-21**

- P-21 T.N. Pardayev, A.M.Suyunov, A.A.Sbadmankulov.  
Bojxona qiymati. (Darslik). –T.: «Barkamol fayz  
media», 2016, 304 bet.**

**ISBN 978-9943-11-353-4**

Darslikda import yo‘nalishidagi tovarlarning bojxona qiymatining mohiyati, inkoterms xalqaro qoidalarini qo‘llash, bojxona qiymati va uni chiqarish usullari, narx ma’lumotlari byulletenidan foydalanish, bojxona qiymatini deklaratsiyalash, bojxona qiymatini o‘zgartirish, eksport yo‘nalishidagi tovarlarning bojxona qiymatini belgilash va deklaratsiyalash kabi masalalar keng yoritilgan.

**UO'K: 339.5(075)**

**KBK 65.428**

***Taqrizchilar:***

**B.Turdiyev** – DBQ Bojxona tariflarini tartibga solish va to‘lovlar hisobini yuritish Bosh boshqarmasi boshlig‘i o‘rnibosari, bojxona xizmati polkovnigi;

**Q.Karimqulov** – OHBI «Tovarlarni simflash va sertifikatlash» kafedrasi boshlig‘i, bojxona xizmati polkovnigi, t.f.d., professor;

**M.Komilov** – DSQ Soliq akademiyasi Soliq va soliqqa tortish kafedrasi mudiri, i.f.n., I darajali soliq maslahatchisi.

**ISBN 978-9943-**



© «Barkamol fayz media» nashriyoti, 2016.

**«Soliq solish va bojxona rasmiy-lashtirushi bo'yicha xizmatlarni interfaol shaklda ko'rsatishga o'tishni tezroq amalga oshirish zarur va elektron tijoratni rivojlantirishni jadallashtirish muhim ahamiyatga ega»**

*Islom Karimov*

## KIRISH

Mazkur darslik oliy o'quv yurtlari, xususan Oliy harbiy bojxona institutida «Bojxona ishi» hamda «Bojxona huquqi» yo'nalishlarida ta'lif olayotgan tinglovchilariga bojxona qiymatiga oid mavzular keng yoritilgan bo'lib, kitobxonlarga mukammal bilim va amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishga nazarii jihatdan yordam beradi.

Darslikda import yo'nalishidagi tovarlarning bojxona qiymati ning mohiyati, inkoterms xalqaro qoidalarini qo'llash, bojxona qiymati va uni chiqarish usullari, narx ma'lumotlari byulletenidan foydalanish, bojxona qiymatini deklaratsiyalash, bojxona qiymatini o'zgartirish, eksport yo'nalishidagi tovarlarning bojxona qiymatini belgilash va deklaratsiyalash tartibi chuqr yoritilgan.

Mazkur darslik oliy o'quv yurtlarining «Bojxona ishi» hamda «Bojxona huquqi» yo'nalishlarida ta'lif olayotganlarga, bojxona organi xodimlariga, tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanuv-chilarga, deklarantlarga hamda bojxona qiymatini o'rGANISHGA qiziqishi bo'lgan boshqa kitobxonlarga ham mo'ljallangan bo'lib, nazariy hamda tavsiyaviy adabiyot hisoblanadi.

Mazkur darslik tasdiqlangan o'quv dasturi mavzulariga mos holda yozilgan. Darslikni yozish jarayonida 2016-yil 20-aprel holatida amalda bo'lgan huquqiy-me'yoriy hujjatlar talablaridan foydalaniilgan. Ushbu kitob mamlakatimizda «Bojxona qiymati» fani bo'yicha ilk adabiyotlardan hisoblanadi. Shu sababli,

kitobxonlarning fikr-mulohazalari mualliflar tomonidan shubhasiz qabul qilinadi.

Darslikni yaratish jarayonida yaqindan yordam bergan Davlat bojxona qo'mitasi Bojxona tariflarini tartibga solish va to'lovlar hisobini yuritish Bosh boshqarmasi shaxsiy tarkibiga minnatdorchilik bildiramiz.

## **I BOB. BOJXONA QIYMATINING MOHIYATI VA AHAMIYATI**

**Reja:**

- 1. Bojxona qiymatining mohiyati, predmeti, obyekti va vazifalari.**
- 2. Bojxona qiymatining huquqiy asoslari.**
- 3. Bojxona qiymatini belgilash hamda uni nazorat qilish.**

### **1. Bojxona qiymatining mohiyati, predmeti, obyekti va vazifalari**

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining barqaror rivojlani-shmi ta'minlash, tashqi savdoni davlat tomonidan tartibga solish, ichki ishlab chiqaruvchilarni rag'batlantirish va ular uchun qulay tadbirdorlik muhitini yaratishda bojxona xizmati muhim ahamiyat kasb etadi. Tashqi iqtisodiy faoliyatda bojxona sivosatini to'g'ri amalga oshirish tashqi iqtisodiy faoliyat subyektilarini qo'llab-quvvatlash, import o'mini bosuvchi tovarlar ishlab chiqaruvchi korxonalarini rag'batlantirish, qulay investitsiya muhitini yaratish, eksport tovarlarini jahon bozorlaridagi raqobatbardoshlik darajasini oshirish mamlakatimiz iqtisodiyotining jahon xo'jaligi tizimiga samarali integratsiyalashuvini ta'minlash bilan birga, davlat budgeti daromadlar qismini boyitishga hamda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashga imkoniyat yaratadi. Bu borada mamlakatimiz Birinchi Prezidenti I.Karimov o'z nutqlarida o'ta muhim masalalar qatorida litsenziya va ruxsat berish tartib-taomillarini elektron shaklda taqdim etish, kommunal xizmatlar, shuningdek, soliq solish va bojxona rasmiylashtirushi bo'yicha xizmatlarni interfaol shaklda ko'rsatishga o'tishni tezroq amalga oshirish zarurligi va elektron tijoratni

rivojlantirishni jadallashtirish muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatib o'tganlar<sup>1</sup>.

Boj tarifini qo'llashning asosida bojxona qiymatini aniqlash yotadi. Tovarlarni bojxona qiymatini aniqlashni optimallashtirish tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlanishiga ta'sir etadi.

☞ **Bojxona hududiga olib kiriladigan tovarning bojxona qiymati – tovarning bojxona qiymatini aniqlash usullaridan biri orqali aniqlanadigan va bojxona to'lovlarini hisoblash maqsadida foydalaniladigan tovar qiymatidir.**

O'zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirilayotgan va olib chiqilayotgan tovarlarga bojxona qiymatini to'g'ri aniqlash orqali davlat budjeti daromadlar qismiga pul mablag'larni to'liq tushishiga olib kelib, davlat iqtisodiyotini jahon iqtisodiy tizimiga integratsiyalashuvini tezlashtiradi, iqtisodiyotni rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Bular esa, o'z navbatida bojxona organları uchun tayyorlanadigan bo'lg'usi xodimlarga bojxona qiymatini bo'yicha mukammal bilim va ko'nikmalarni egallashlarini taqozo etadi. Shu sababli «Bojxona ishi» va «Bojxona huquqi» ta'lim yo'nalishlari tinglovchilariga «Bojxona qiymati» fani o'rgatiladi.

**Fanni o'qitishdan maqsad** – tinglovchilarda bojxona qiymatini to'g'ri aniqlash, deklaratsiyalash taffakkurini shakllantirish va rivojlantirish, o'zining fikr-mulohaza, xulosalarini asosli tarzda aniq bayon etishga o'rgatish hamda egallangan bilimlar bo'yicha, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdir.

**Fanning vazifasi** – tinglovchilarga bojxona qiymatini to'g'ri aniqlash, deklaratsiyalash va nazorat qilish bo'yicha bilimlarni egallashga hamda uni qo'llashga, shuningdek, bojxona qiymatini belgilash va tahvil qilishga o'rgatishdan iborat.

<sup>1</sup>O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.Karimovning 2013-yilning asosiy yakunlari va 2014-yilda O'zbekistoni ijtimoiy - iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 18-yanvar majlisidagi «2014-yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izhil davom ettirish-yili bo'fad»ma'ruzasi.

**Bojxona qiymati fanining predmeti** – bojxona hududiga olib kiriladigan va undan olib chiqiladigan tovarlarga nisbatan sarflangan xarajatlar hamda eksport va import qilinayotgan tovarlar bo'yicha mavjud ma'lumotlardan foydalangan holda, bojxona qiymatini aniqlash usullarini qo'llash orqali bojxona organlariga bojxona qiymatini deklaratsiyalashni nazorat qilish jarayoni o'r ganiladi.

**Bojxona qiymati fanining obyekti** bo'lib – bojxona chegarasi orqali olib o'tiladigan tovarlarga nisbatan sarflangan mablag'larni tasdiqlovchi tovar va transport hujjatlari, tashqi savdo narx ma'lumotlari, tegishli xalqaro hamda milliy qonunchilikda belgilangan huquq normalari xizmat qiladi.

Tovarlar bojxona qiymatining mazmun-mohiyatini ko'radigan bo'lsak, masalan, eksport qiladigan mamlakatda tovar 100 dollar turadi, uning hisobvara qda ko'rsatilgan import narxi esa – 80 dollar, uning import qilinayotgan mamlakat bozoridagi narxi esa 150 dollarni tashkil etadi. Bojni qaysi narxdan undirish lozim degan muammo paydo bo'ladi. Agar undiriladigan boj miqdorini eng ko'p darajada ko'paytirishga amal qilinadigan bo'lsa, 150 dollarlik narxni asos qilib olish va undan boj undirish lozim bo'ladi. Agar import qiluvchining manfaatlaridan kelib chiqiladigan bo'lsa, boj hisobvara qda ko'rsatilgan tovar narxidan kelib chiqib belgilanadi. Ushbu holda deklaratsiyada deklaratsiya narxlarni ko'rsatishda hamda bojxona ma'murlarining xatti-harakatlarida erkinlik uchun keng imkoniyatlar ochiladi.

Shu sababli, tovarlar tasniflanishini xalqaro bixillashirish jarayoni bilan birlgilikda tovarning bojxona qiymatini aniqlashning xalqaro tizimi ham ishlab chiqildi. Bunday tizim 1950-yilda qabul qilingan va o'shandan boshlab 120 dan ortiq mamlakatda amal qilinayotgan bojxona qiymati to'g'risidagi Bryussel konvensiyasi bilan deyarli bir vaqtida kuchga kirdi.

Biroq 1970-yillar oxirlarida GATT (Tarif va savdolar bo'yicha bosh kelishuv) doirasida o'tkazilgan ko'p tomonlama savdo muzokalarini natijasida (bu «Tokio raundi» deb ataladi) bojni hisoblash uchun tovar narxini belgilashning yanada takomillashgan xalqaro tizimi ishlab chiqildi. Ushbu tizim besh-olti yil davomida yaratildi. Bunda tovarning bojxona narxini belgilashga asos qilib olinadigan prinsiplar to'g'risidagi masala atrofida keskin munozaralar yuzaga

keldi. 1979-yil 12-aprelda boshqa kodekslar bilan birgalikda bojxonada baholash to‘g‘risida nizom qabul qilindi. Uning rasmiy nomi – «GATTning 7-moddasini qo‘llash to‘g‘risida kelishuv» deb ataladi. Hozirgi vaqtida ushbu hujjat bilan nazarda tutilgan bojxona qiymatini hisoblab chiqishning xalqaro tizimi AQSH, Yaponiya, Yevropaning barcha mamlakatlariida va bir qancha rivojlanayotgan mamlakatlarda qo‘llaniladi.

Bojxona qiymati bo‘yicha maxsus Texnikaviy qo‘mita mazkur Kelishuvni talqin qilish va har xil mojaroli masalalarni hal etish bilan shug‘ullanadi. Qo‘mitaning qarorgohi Bryusselda joylashgan (u Bojxona hamkorligi bo‘yicha kengash va GATT bilan birgalikda tashkil etilgan). Bundan tashqari, maxsus hukumatlararo organ – Bojxona qiymati bo‘yicha qo‘mita ham faoliyat ko‘rsatadi.

MDHga a’zo davlatlar bojxona xizmatlari rahbarlari kengashining 1995-yil 14-sentabrdagi qarori bilan «Tovarlarning bojxona qiymatini e’lon qilish va nazorat etish prosedurasining yagona qoidalari» qabul qilingan.

Shuningdek, MDH davlatlari bojxona xizmatlari o‘rtasidagi «Tovarlarning bojxona qiymatini aniqlash va nazorat qilish bo‘yicha zarur bo‘lgan ma’lumotlarni o‘zaro almashish to‘g‘risidagi bayonnomma»da ma’lumotlarni o‘zaro almashish tartibi keltirilgan bo‘lib, uning ilovasida tovarlarning bojxona qiymatini aniqlash va nazorat qilish bo‘yicha zarur bo‘lgan va o‘zaro almashinadigan ma’lumotlarning tarkibida quyidagilar bo‘lishi belgilangan:

- eksport BYuDsining registratsiya nomeri;
- bojxona prosedurasi (rejim);
- tovarlarning umumiyligi;
- tovarning kelib chiqish mamlakati;
- tovar jo‘natiladigan mamlakat;
- qabul qiluvchi mamlakat;
- savdo qiluvchi mamlakat;
- XYT nomeri;
- transport turi;
- jo‘natish vaqtidagi transport vositasining nomeri;
- tashqi savdo shartnomasi, invoysning nomeri va sanasi;
- shartnoma valutasi kodi va qiymati;


- shartnoma valutasi kursi;
- yetkazib berish sharti (bazis sharti va yetkazib berish joyining geografik nomi);
- eksport BYuDsidiagi tovar nomeri;
- netto vazni;
- brutto vazni;
- TIF TN asosida tovar kodi;
- bojxona deklaratsiyasidagi tovar tavsifi;
- tovarning modeli va markasi;
- qo'shimcha o'chov birligi;
- qo'shimcha o'chov birligidagi tovarning miqdori;
- faktura qiymati;
- bojxona qiymati (agar mavjud bo'lsa);
- statistik qiymati;
- tovar chiqarib yuborilgan sana.

O'zbekiston o'z boj tarifini ishlab chiqar ekan, ushbu sohada jahon amaliyoti yutuqlarini hisobga olib hamda unga ko'pchilik davlatlar e'tirof etadigan va foydalanadigan bojxona baholash tamoyillarini asos qilib oldi.

Bojxona qiymati – zamonaviy bojxona-tarif tizimlarining g'oyatda muhim jihatı hisoblanadi. Shuningdek, u fiskal manfaatlar yo'lida bojni hisoblash va milliy sanoat tarmoqlarini rag'batlantirish va himoya qilish vositası sifatida ham muhimdir. Bojxona qiymati bojxona statistikasi, litsenziyalash va kvotalash bo'yicha kelishuvlar, tovarlar importida va preferensial tizimlardan foydalanishda undiriladigan soliqlar va aksizlar kabi tashqi savdoning muhim omillari sirasiga kiradi.

Olib kelinadigan tovarlarning bojxona qiymatini belgilash undirilishi bojxona organlariga yuklatilgan bojxona boji. yig'imlar va boshqa to'lovlarni hisoblash, shuningdek, bojxona statistikasini yuritish, bojxonaga doir boshqa maqsadlarda tovarlar qiymatini belgilash, shu jumladan, bojxonaga oid huquqbazarliklar uchun O'zbekiston Respublikasi qonunlarida nazarda tutilgan choralarining qo'llanilishi uchun real bazani (negizni) aniqlash maqsadida amalga oshiriladi. Bundan tashqari, tovarlarning bojxona qiymatini belgilash

tizimidan valuta nazoratini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan axborotlarni to'plash va tahlil etish maqsadida ham foydalanilishi mumkin.



*1-rasm. Olib kiriladigan tovarlar bojxona qiymatidan foydalanish maqsadlari.*

O'zbekistan Respublikasi bojxona hududiga olib kiriladigan va undan olib chiqiladigan tovarlarning bojxona qiymatini belgilash tartibi, O'zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksi va uning asosida qabul qilingan me'yoriy hujjatlar bilan belgilanadi.

Tovarning bojxona qiymati bojxona qiymati deklaratsiyasini to'ldirgan holda tovarlarni deklaratsiyalashda deklarant yoki bojxona brokeri tomonidan bojxona organiga ma'lum qilinadi.

Deklarant yoki bojxona brokeri tomonidan ma'lum qilinadigan tovarning bojxona qiymati va uni aniqlashga taalluqli taqdim etiladigan ma'lumotlar to'g'ri, miqdoriy jihatdan aniqlash mumkin

bo'lgan va hujjatlar bilan tasdiqlangan axborotga asoslanishi kerak.

Bunday hujjatlarning ro'yxati – O'zbekiston Respublikasi hudofiga olib kelinadigan tovarlar bojxona qiymatini e'lon qilish va nazorat qilish Qoidalarining (AVdan 899-raqam bilan o'tgan Yo'riq-noma, 22.02.2000y.) 2-qisimi 5 va 6-bandlarida ko'rsatib o'tilgan.

O'zbekiston Respublikasida joriy etiladigan tovarlarning bojxona qiymati xalqaro amaliyatda qo'llaniladigan bojxonada aniqlashning umumiy qoidalariga asoslanadi.

Bojxona qiymati deklarant tomonidan O'zbekiston Respublikasi bojxona organiga tovarni bojxonada rasmiylashtirish paytida bayon qilinadi (deklaratsiyalanadi). Bojxona qiymatini deklaratsiyalash bojxona qiymati deklaratsiyasining belgilangan BQD-1 va BQD-2 shakllari bo'yicha amalga oshiriladi. Bunda bojxona qiymati deklaratsiyasi (BQD) bojxona qiymati 1000 AQSH dollariga teng yoki undan kam bo'lgan tovarlarga doir bitimlar uchun to'ldirilmaydi. BQD to'ldirilmaydigan tovarlar yuzasidan bojxona qiymati schyot-fakturalar, invoyslar, tovar-transport yukxatlari va tovarlarning bojxona qiymatini aniq belgilashga imkon beradigan boshqa hujjatlardan foydalanib belgilanadi.

Tovarning bojxona qiymati deklarant tomonidan bojxona qiymatini aniqlashning mavjud usullariga binoan belgilanadi.

Bojxona qiymatining to'g'ri belgilanishi ustidan nazoratni bojxona organlari amalga oshiradi

## 2. Bojxona qiymatining huquqiy asoslari

O'zbekiston Respublikasida bojxona qiymatini qo'llashning huquqiy asoslari quyidagilar:

GATTning (Tarif va savdo bo'yicha bosh kelishuv) 1979-yil 12-aprelda («Tokio raundi» deb ataluvchi) qabul qilingan Bojxonada baholash to'g'risida nizom «GATTning 7-moddasini qo'llash to'g'-risida kelishuv»;

MDHga a'zo davlatlar bojxona xizmatlari rahbarlari kengashining 1995-yil 14-sentabrdagi qarori bilan qabul qilingan «Tovarlarning bojxona qiymatini e'lon qilish va nazorat qilish prosedurasining yagona qoidalari»;

MDH davlatlari bojxona xizmatlari o'rtasidagi «Tovarlarning bojxona qiymatini aniqlash va nazorat qilish bo'yicha zarur bo'lgan ma'lumotlarni o'zaro almashish to'g'risidagi bayonnomasi»;

O'zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksi (301-321 moddalari);

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007-yil 19-sentabrdagi 198-sodan qarori bilan tasdiqlangan «O'zbekiston Respublikasining bojxona hududidan olib chiqilayotgan tovarlarning bojxona qiymatini belgilash va deklaratsiyalash tartibi to'g'risidagi nizom»;

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan 1998-yil 13-yanvarda 390-sodan bilan ro'yxatdan o'tgan «O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kelinadigan tovarlarning bojxona qiymatini belgilash bo'yicha yo'riqnomasi»;

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan 1998-yil 13-yanvarda 391-raqam bilan ro'yxatdan o'tgan «Bojxona qiymati deklaratsiyasini to'ldirish tartibi»;

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan 2000-yil 22-fevralda 899-raqam bilan ro'yxatdan o'tgan «O'zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kelinadigan tovarlarning bojxona qiymatini belgilash va uni nazorat qilish tartibi bo'yicha yo'riqnomasi»;

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan 2000-yil 20-fevralda 920-raqam bilan ro'yxatdan o'tgan «Bojxona qiymatini o'zgartirish bo'yicha KTS-1 va KTS-2 deklaratsiya shakllarini to'ldirish tartibi bo'yicha yo'riqnomasi»;

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan 2008-yil 5-mayda 1803-raqam bilan ro'yxatdan o'tgan «O'zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqiladigan tovarlarga bojxona qiymati deklaratsiyasini to'ldirish tartibi bo'yicha yo'riqnomasi»;

Davlat bojxona qo'mitasining 2009-yil 18-maydagi «Eksport va import qilinayotgan tovarlar narx ma'lumotlari byulletenining elektron bazasini yuritish tartibini tasdiqlash to'g'risida»gi 135-sodan buyrug'i;

Davlat bojxona qo'mitasining 2009-yil 19-sentabrdagi «Eksport va import qilinayotgan tovarlar narx ma'lumotlari byulletenini ishlab chiqish tartibi bo'yicha vaqtinchalik yo'riqnomani tasdiqlash to'g'risida»gi 275-sodan buyrug'i;

Davlat bojxona qo'mitasining 2010-yil 12-apreldagi «Import qilinayotgan tovarlarning bojxona qiymatini belgilanishini DBQ Yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimi asosida nazorat qilish bo'yicha vaqtinchalik yo'riqnomani amaliyotga kiritish to'g'risida»gi 92-son buyrug'i;

Davlat bojxona qo'mitasining 2011-yil 9-fevraldag'i «INKOTERMS-2010 xalqaro savdo shartlarini amaliyotga kiritilganligi to'g'risida»gi 1-son ko'rsatmasi.

### **3. Bojxona qiymatini belgilash hamda uni nazorat qilish**

Bojxona qiymatini ma'lum qilish hamda uni nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksining 318-319-moddalarida berilgan.

#### **☞ Tovarning bojxona qiymatini ma'lum qilish.**

Tovarning bojxona qiymati bojxona qiymati deklaratsiyasini to'ldirgan holda tovarlarni deklaratsiyalashda deklarant yoki bojxona brokeri tomonidan bojxona organiga ma'lum qilinadi.

Bojxona qiymati deklaratsiyasi bojxona yuk deklaratsiyasining ajralmas qismi bo'lib, tovarning bojxona qiymati to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rsatilgan va deklarant yoki bojxona brokeri tomonidan bojxona organiga bojxona yuk deklaratsiyasi bilan bir paytda topshiriladigan hujjat hisoblanadi.

Bojxona qiymati deklaratsiyasining shakli va uni to'ldirish tartibi O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi tomonidan belgilanadi.

Deklarant yoki bojxona brokeri tomonidan ma'lum qilinadigan tovarning bojxona qiymati va uni aniqlashga taalluqli taqdim etiladigan ma'lumotlar to'g'ri, miqdoriy jihatdan aniqlash mumkin bo'lgan va hujjatlar bilan tasdiqlangan axborotga asoslanishi kerak.

Deklarant yoki bojxona brokeri deklaratsiyalanadigan tovarning bojxona qiymati ma'lum qilinguniga qadar aniqlangan tovar turkumining tovarning yo'qolishi, kamomadi, shikastlanishi hajmlariga

mos birlikka keltirilgan bojxona qiymatini ma'lum qilish huquqiga ega. Tovarning yo'qolishi, kamomadi, shikastlanishi fakti ekspertiza xulosasi va bojxona ko'zdan kechiruvi dalolatnomasi bilan tasdiqlangan bo'lishi kerak.

Bojxona qiymati deklaratsiyasi bojxona to'lovlarini to'lashni nazarda tutuvchi bojxona rejimlari ma'lum qilinganda bojxona chegarasi orqali olib o'tiladigan barcha tovarlar uchun to'ldiriladi. quyida nazarda tutilgan hollar mustasno.

Bojxona qiymati deklaratsiyasi quyidagi hollarda to'ldirilmaydi va bojxona qiymati bojxona yuk deklaratsiyasida ma'lum qilinadi, agar:

bojxona hududiga olib kirilayotgan tovarlar turkumining bojxona qiymati bir ming AQSH dollariga teng ekvivalent summadan oshmasa, bundan bitta kontrakt (shartnoma, kelishuv) doirasida bir necha marta tovar yetkazib berish, shuningdek, turli kontraktlar (shartnomalar, kelishuvlar) bo'yicha ayni o'sha tovarni bir jo'naturuvchi tomonidan o'sha bitta oluvchining manziliga takror-takror yetkazib berish mustasno;

olib o'tiladigan tovarlar bojxona to'lovlarini to'lashdan ozod etilgan bo'lsa.

### ■ Tovarning bojxona qiymatini nazorat qilish.

Bojxona organi deklarant yoki bojxona brokeri tomonidan tanlangan tovarning bojxona qiymatini aniqlash usulining va ma'lum qilingan bojxona qiymati hisoblab chiqarilishining to'g'riligini quyidagilar asosida aniqlaydi:

- deklarant yoki bojxona brokeri tomonidan taqdim etilgan bojxona qiymati deklaratsiyasi, hujjatlar va ma'lumotlar;
- tovarning bojxona qiymatini aniqlashda foydalaniladigan, o'z ixtiyorida mavjud bo'lgan axborot.

Bojxona organi tovarning bojxona qiymatini aniqlash uchun tanlangan usulga quyidagi hollarda rozi bo'lmaslikka va deklarantga yoki bojxona brokeriga bojxona qiymatini aniqlashning boshqa usulidan foydalanib, bojxona qiymatini aniqlashni taklif etishga haqli:

– deklarant yoki bojxona brokeri tomonidan ma'lum qilingan tovarning bojxona qiymati to'g'ri aniqlanganligini tasdiqlovchi hujjalatlar va ma'lumotlar mavjud bo'lmasa;

– tovarning bojxona qiymatini aniqlash uchun bojxona organi tomonidan so'ralsan zarur qo'shimcha hujjalatlar deklarant yoki bojxona brokeri tomonidan taqdım etilmagan bo'lsa;

– deklarant yoki bojxona brokeri tomonidan taqdım etilgan hujjalatlar va ma'lumotlar noto'g'ri ekanligining belgilari aniqlansa.

Bunday hollarda bojxona organi va deklarant yoki bojxona brokeri o'rtasida tovarning bojxona qiymatini aniqlash usulini tanlash xususida maslahatlashuvlar o'tkazilishi mumkin.

Agar deklarant yoki bojxona brokeri tovarning bojxona organi tomonidan aniqlangan bojxona qiymatiga rozi bo'lmasa, deklarant yoki bojxona brokeri o'zi ma'lum qilgan bojxona qiymati qaysi sabablarga ko'ra qabul qilinmaganligini tushuntirib berishni bojxona organidan so'rashga haqli, bundan shartli bojxona qiymatining qo'llanilishi holati mustasno.

Bojxona organi deklarant yoki bojxona brokeri tomonidan ma'lum qilingan tovarning bojxona qiymati nima uchun bojxona organi tomonidan qaysi sabablarga ko'ra qabul qilinmaganligini deklarantning yoki bojxona brokerining arizasiga binoan yozma shaklda yoxud elektron shaklda tushuntirish berishi shart.

Bojxona yuk deklaratsiyasi rasmiylashtirilayotganda aniqlangan va bojxona organi tomonidan qabul qilingan tovarning bojxona qiymatini aniqlash usuli va bojxona qiymati summasining hisob-kitobi faqat Kodeksda nazarda tutilgan hollarda hamda tovarning bojxona qiymatiga va (yoki) bojxona to'lovlariiga tuzatishlar kiritish zarurligini tasdiqlovchi hujjalatlar mavjud bo'lganda qayta ko'rib chiqilishi mumkin.

### Nazorat uchun savollar

1. Bojxona qiymatining huquqiy asoslari qaysi hujjalardan iborat.
2. Bojxona qiymatining mohiyati.
3. Bojxona qiymati qaysi maqsadlarda aniqlanadi.
4. Tovarning bojxona qiymatini ma'lum qilish.
5. Tovarning bojxona qiymatini nazorat qilish.

## **Adabiyotlar ro'yxati**

1. I.Karimov. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralar. Toshkent: «O'zbekiston», 2009 y.
2. GATTning (Tarif va savdo bo'yicha bosh kelishuv) 1979-yil 12-aprelda «Tokio raundi» deb ataluvchi yig'ilishida qabul qilingan Bojxonada baholash to'g'risida nizom «GATTning 7-moddasini qo'llash to'g'risida kelishuv».
3. MDHga a'zo davlatlar bojxona xizmatlari rahbarlari kengashining 1995-yil 14-sentabrdagi qarori bilan qabul qilingan «Tovarlarining bojxona qiymatini e'lom qilish va nazorat qilish prosedurasining yagona qoidalari» .
4. MDH davlatlari bojxona xizmatlari o'rtaсидаги «Tovarlarining bojxona qiymatini aniqlash va nazorat qilish bo'yicha zarur bo'lgan ma'lumotlarni o'zaro almashish to'g'risidagi bayonnomma».
5. O'zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksi.
6. O'zbekiston Respublikasining «Davlat bojxona xizmati to'g'risida»gi qonuni.
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007-yil 19-sentabrdagi 198-sun qarori bilan tasdiqlangan «O'zbekiston Respublikasining bojxona hududidan olib chiqilayotgan tovarlarning bojxona qiymatini belgilash va deklaratsiyalash tartibi to'g'risidagi nizom».
8. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan 1998-yil 13-yanvarda 390-raqam bilan ro'yxatdan o'tgan «O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kelinadigan tovarlarning bojxona qiymatini belgilash bo'yicha yo'riqnomma».
9. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan 1998-yil 13-yanvarda 391-raqam bilan ro'yxatdan o'tgan «Bojxona qiymati deklaratsiyasini to'ldirish tartibi».
10. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan 2000-yil 22-fevralda 899-raqam bilan ro'yxatdan o'tgan «O'zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kelinadigan tovarlarga bojxona qiymatini belgilash va uni nazorat qilish tartibi bo'yicha yo'riqnomma».
11. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan 2000-yil 20-fevralda 920-raqam bilan ro'yxatdan o'tgan «Bojxona qiymatini

o'zgartirish bo'yicha KTS-1 va KTS-2 deklaratsiya shakllarini to'ldirish tartibi bo'yicha yo'riqnomasi».

12. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan 2008-yil 5-mayda 1803-raqam bilan ro'yxatdan o'tgan «O'zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqiladigan tovarlarga bojxona qiymatini deklaratsiyasini to'ldirish tartibi bo'yicha yo'riqnomasi».

13. Davlat bojxona qo'mitasining 2009-yil 18-maydagi «Eksport va import qilinayotgan tovarlar narx ma'lumotlari byulleteni elektron bazasini yuritish tartibini tasdiqlash to'g'risida»gi 135-son buyrug'i.

14. Davlat bojxona qo'mitasining 2009-yil 19-sentabrdağı «Eksport va import qilinayotgan tovarlar narx ma'lumotlari byulleteni»ni ishlab chiqish tartibi bo'yicha vaqtinchalik yo'riqnomani tasdiqlash to'g'risida»gi 275-son buyrug'i.

15. Davlat bojxona qo'mitasining 2010-yil 12-apreldagi «Import qilinayotgan tovarlarning bojxona qiymatini belgilanishini DBQ Yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimi asosida nazorat qilish bo'yicha vaqtinchalik yo'riqnomani amaliyotga kiritish to'g'risida»gi 92-son buyrug'i.

16. Davlat bojxona qo'mitasining 2011-yil 9-fevraldagı «INKOTERMS-2010 xalqaro savdo shartlarini amaliyotga kiritilganligi to'g'risida»gi 1-son ko'rsatmasi.

17. Davlat bojxona qo'mitasining 2003-yil 23-yanvardagi «Import qilinayotgan tovarlarni bojxona qiymati ustidan nazoratni kuchaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi 15-son ko'rsatma xati.



## **II BOB. BOJXONA ISHIDA INKOTERMS-2010 XALQARO QOIDALARINING QO'LLANILISHI**

**Reja:**

- 1. Inkoterms xalqaro qoidalarining mohiyati va uni yaratilish tarixi.**
- 2. Tovarlarni yetkazib berishning tijorat shartlarining turlari.**

### **1 . Inkoterms xalqaro qoidalarining mohiyati va uni yaratilish tarixi**

Tashqi savdo sohasida eng keng foydalaniladigan savdo atamalarini talqin qilish bo'yicha xalqaro qoidalar talablarini kompleks ta'minlash Inkotermsning maqsadi hisoblanadi. Shu tariqa turli mamlakatlarda bunday atamalarni turlicha talqin qilishga yo'l qoymaslik yoki hech bo'lmasganda, bu boradagi noaniqlikni muayyan darajada qisqartirish mumkin.

Aksariyat hollarda shartnoma tuzuvchilar tegishli mamlakatlarda savdoni yuritishning turli amaliyoti bilan tanish bo'lishmaydi. Bu behuda vaqt va mablag'lar sarflanishini keltirib chiqaradigan bahslarga, tushummovchiliklarga va sudlashuvlarga sabab bo'lishi mumkin. Ushbu muammolarni hal etish uchun Xalqaro savdo palatasi savdo atamalarini aniq belgilash maqsadida 1936-yilda ilk marta xalqaro qoidalar to'plamini chop etdi. Mazkur qoidalar - «Inkoterms – 1936» keyinchalik, ushbu qoidalarni hozirgi zamon xalqaro savdo amaliyoti bilan muvofiqlashtirish uchun ularga 1953, 1967, 1976, 1980, 1990, 2000 va oxirgi marta – 2010-yilda tuzatishlar va qo'shimchalar kiritildi.

Shuni qayd etish lozimki, Inkotermsning amal qilish sohasi oldisotdi shartnomasi tomonlarining sotilgan yuklarini berish borasidagi huquqlari va majburiyatlariga bog'liq masalalar bilan cheklangan (bu o'rinda yuklar so'zi «moddiy yuklar» ma'nosini anglatadi,

kompyuterli dastur bilan ta'minlash kabi «nomoddiy yuklar» bundan mustasno).

Amaliyotda Inkotermsni noto'g'ri tushunishning ikki xil shakli ko'plab uchraydi. Ulardan birinchisi – Inkotermsni oldi-sotdi shartnomasiga emas, balki tashish shartnomasiga ko'proq tegishli deb noto'g'ri tushunish hisoblanadi. Ikkinchisi – ba'zan, ular tomonidan shartnomaga kiritishni xohlaydigan barcha majburiyatlarni qamrab olishi kerak, deb noto'g'ri tushunishdir.

Xalqaro savdo palatasi tomonidan har doim ta'kidlab kelinganidek, Inkoterms faqat oldi-sotdi shartnomaları doirasida, xususan, faqat muayyan jihatlarda sotuvchilar va xaridorlar o'rtasidagi munosabatlarga taalluqlidir.

Ayni bir vaqtدا eksportyorlar ham, importyorlar ham xalqaro sotish bitimini amalga oshirish uchun (bunda nafaqat oldi-sotdi shartnomasi, balki tashish, sug'urta qilish va moliyalashtirish shartnomalari ham zarur bo'ladi) turli shartnomalar o'rtasidagi mavjud munosabatlarni hisobga olishlari muhimdir. Bunda Inkoterms faqat ushbu shartnomalardan biriga xususan, oldi-sotdi shartnomasiga taalluqli bo'ladi.

Shu bilan birga, tomonlarning muayyan atamalardan foydalanishi boshqa barcha shartnomalar uchun ham ahamiyatga egadir. Bunga misol qilib quyidagilarni keltirib o'tamiz: sotuvchi CFR yoki CIF shartlariga rozi bo'lgani holda ushbu shartnomani dengiz transportidan tashqari birorta ham transport turi bilan bajara olmaydi, chunki ushbu shartlarga ko'ra u sotib oluvchiga konosament yoki boshqa dengiz transporti hujjatini taqdim etishi kerak, chunki boshqa transport turlaridan foydalanimagan transport vositasiga bog'liq bo'ladi.

Ikkinchidan, Inkoterms tomonlarning ba'zi muayyan majburiyatlarga - sotuvchining yukni xaridor tasarrufiga yoki uni tashish yoxud manziliga yetkazib berish majburiyati bilan hamda ushbu hollarda tomonlar o'rtasida tavakkalchilikning taqsimlanishiga taalluqli bo'ladi.

Shuningdek, ular eksport va import uchun yukni tozalash, idishga joylash majburiyatları bilan, xaridorning yetkazib berilgan yukni qabul qilib olish majburiyati, shuningdek tegishli majburiyatlarning zarur darajada bajarilganligini tasdiqlovchi hujjatni taqdim etish

majburiyati bilan bog'liqdir. Inkoterms oldi-sotdi shartnomasini amalga oshirish uchun g'oyat muhim bo'lsa-da, bunday shartnomada paydo bo'lishi mumkin bo'lgan ko'plab muammolar, masalan, egalik qilish huquqini berish boshqa mulkiy huquqlar, ahdlashuvning buzilishi va uning oqibatlari, shuningdek muayyan vaziyatlarda javobgarlikdan ozod qilish kabi muammolar umuman ko'rib chiqilmaydi. Shuni ta'kidlash lozimki, Inkoterms normativ shartlarni kiritish yoxud yakka tartibda kelishilgan shartlar vositasida oldi-sotdi shartnomasi uchun zarur bo'lgan shartnomalar shartlarini almashtirishga mo'ljallanmagan.

Inkoterms shartnomalar shartnomasining boshqa shartlari va tegishli qonunlar bilan hal etilishi kerak

Inkoterms ilgaridan har doim yuklarni milliy chegaralar orqali yetkazib berish uchun sotilgan hollarda foydalanish uchun mo'ljalangan, demak, u xalqaro savdo atamalaridir.

2011-yil 1-yanvardan boshlab Xalqaro savdo palatasi – Jahon biznes tashkiloti (International Chamber of Commerce, ICC) tomonidan ishlab chiqilgan Inkoterms-2010 (Incoterms-2010)ning yangi tahriri kuchga kirdi.

Xalqaro yetkazib berish tijorat shartlarining ushbu tahriri DBQning 2011-yil 9-fevraldag'i «INKOTERMS-2010 xalqaro savdo shartlari amaliyotga kiritilganligi to'g'risida»gi 1-son ko'rsatmasi bilan bojxona amaliyotiga joriy qilindi.

Biroq bu mamlakatimizdag'i TIF ishtiroychilar tomonidan tuzilgan tovarlar oldi-sotdi shartnomalarining hammasi uning shartlariga asoslanishi kerak degan ma'noni anglatmaydi. Ammo «Inkoterms-2010»ga muvofiq holda tuzilmaydigan shartnomalarda albatta «Inkoterms»ning tanlangan versiyasi to'g'risida axborot bo'lishi kerak.

Inkoterms – butun dunyodagi hukumat organlari, yuridik kompaniyalar va biznes vakillari tomonidan xalqaro savdoda eng ko'p qo'llaniladigan atamalarning talqini sifatida e'tirof etilgan xalqaro qoidalar demak. Uning amal qilish sohasi oldi-sotdi shartnomasi bo'yicha taraflarning tovarlarni yetkazib berish (yetkazib berish shartlari) borasidagi huquq va majburiyatlariga tatbiq etiladi. Ular

xalqaro savdo shartnomalarining muhim elementi hisoblanadi, bugungi kunda TIF va xalqaro savdo ularsiz butkul boshqacha amalgamoshirilgan bo'lar edi. Inkoterms atamalari tovarlarni sotuvchidan xaridorga yetkazishdagi chiqimlar va xatarlarni tavsiflaydi, shuningdek, yuk ortish-tushirish ishlari, tovarlarni tashish, ularni sug'urtalash va bojxonada rasmiylashtirish bo'yicha taraflarmng majburiyatlarim tartibga soladi.

Qoidalarning yangicha yondashishga Inkoterms atamalarini yanada aniqroq va ravshanroq ta'riflash maqsadi sabab bo'ldi. Inkoterms-2010 qoidalari 2000-yildagi qoidalarning oxirgi tahriri chiqarilganidan keyin shakllangan xalqaro savdom rivojlantirishning hozirgi tamoyillarini aks ettiradi. Ular orasida - 2001-yil 11-sentabrda AQSHda sodir bo'lgan voqealaridan keyin yanada dolzarb tus olgan tashishlarning xavfsizligi, shuningdek, tijorat bitimlarini tuzayotganda elektron vositalardan foydalanishni kengaytirish masalasi ham bor.

Inkoterms qoidalaringin 2010-yil tahriridagi yangi versiyasi bir qator muhim o'zgartishlar va yangiliklarni o'z ichiga oladi. Atamalar miqdori 13 tadan 11 atamaga qisqardi, buning ustiga ulardan ikkitasi DAT (terminalgacha yetkazib berishlar) va DAP (belgilangan punktga yetkazib berishlar) mutlaqo yangi atamalar.

Inkoterms-2010 da har bir atamaga uning ma'nosi tushuntiriladigan qisqacha tushuntirish berilgan, bu esa ko'pincha tadbirkorlarga shartnomalar tuzayotganda xatolarga yo'l qo'ymaslik va kerakli atamani tanlash imkonini beradi. Qoidalarning yangi versiyasida FOB, CFR va CIF atamalariga qo'shimchalar kiritildi. Shuningdek, unda yuklarning xavfsizligi masalalari bat afsil yoritilgan, xususan, ikkala tarafning bojxonada rasmiylashtiruv o'tkaziladigan hollarda so'raladigan barcha zarur axborotni taqdim etish majburiyati joriy etilgan.

Londonlik sug'urtalovchilar institutining (Institute Cargo Clauses) huquqiy tizimlarning farqlardagi hisob tuzatishlarini e'tiborga olgan holda sug'urtalash shartlari bat afsil qayd etilgan. Qoidalarda zamonaviy konteyner transportining talablari hisobga olingan. Savdo oboroti ishtirokchilari tomonidan an'anaviy «qog'oz» hujjatlar bilan bir qatorda ularning elektron ekvivalentlaridan foydalanish masalalari yangiliklardan biri hisoblanadi.

Inkoterms-2010 qoidalarini qo'llash sohasining yanada kengaygani ularning shubhasiz afzalligidir. Ushbu qoidalarni bir davlat yoki Yel va MDH singari integratsiya birlashmalari doirasida xalqaro va ichki savdoda qo'llash imkonini beradi.

Savdo-sanoat palatasi yangi qoidalarni milliy darajada omma-vylashtirish bo'yicha bir qator tadbirlar o'tkazishda manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan hamkorlik qilmoqda. Bunda Inkoterms-2010 qoidalardan foydalanishning shartnoma ijrosini nazorat qilish va tartibga solish, savdoni moliyalashtirish, transport masalalari, yuklab jo'natish hujjatlari va yuklarni sug'ortalashga ta'sir etishiga oid ko'p masalalar hal qilinmoqda.

Tovar yetkazib berishning barcha shartlari sotuvchi bilan xaridor o'rtasidagi shartnomada ko'rsatiladi. Ular tovarni sotuvchidan xaridorga yetkazib berish bilan bog'liq xarajatlarni kim bajarishiga bog'liq holda tovar narxining bazisini (negizini) belgilagani uchun ham yetkazib berishning tijorat shartlari bazis shartlar deb ataladi. Shartnoma bo'yicha bitim narxi odatda, sotuvchi o'z majburiyatlariga binoan yetkazib berishning tijorat shartlari bo'yicha zimmasiga oladigan va hisobvaraq-fakturaga kiritadigan xarajatlardan tashkil topadi.

Yetkazib berishning bazis shartlari talablariga binoan bojxona hududiga olib kelinadigan tovarlarning bojxona qiymati va tovarlarning statistik qiymati belgilanadi. Import va eksport qilinadigan tovarlarni deklaratsiyalash jarayonida (shartnomada ko'zda tutilgan yetkazib berish shartlaridan qat'i nazar) tovarlar narxi va ularning qiymati taqqoslanishini ta'minlash uchun Inkoterms-2010 yagona bazis shartlariga keltirilishi kerak.

O'zbekistonga olib kelinayotgan tovarlarning bojxona qiymatini belgilash, chegarada **CIF** (qiymat, sug'urta va fraxt) yoki **CIP** (tashish va sug'urta xarajatlari belgilangan joyga qadar to'langan) yetkazib berishlar sharti bilan, O'zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksiga binoan amalga oshiriladi.

Ma'lumotlar taqqoslanishini ta'minlash uchun eksport qilinayotgan tovarning bojxona qiymatini baholash **DAF** yetkazib berish shartlarida amalga oshiriladi.

Inkoterms-2010 shartlaridan har biri, javobgarlikning barcha turlari xaridor zimmasiga yuklanadigan shartdan boshlab barcha

javobgarlik sotuvchi zimmasiga tushadigan shartga qadar, xatarlar, xarajatlar va javobgarlikning xaridor bilan sotuvchi o'rtasida maxsus taqsimlanishini anglatadi.

Inkotrems-2010 da sotuvchi va xaridorning majburiyatları nazarda tutilgan. Ular ikki bo'limdan: kodi shartlı ravishda A harfi bilan belgilanadigan sotuvchi majburiyatları va kodi shartli ravishda V harfi bilan belgilanadigan xaridor majburiyatlaridan tashkil topgan.

Har bir bo'limda majburiyatlar 10 band bo'yicha guruhlangan bo'lib, A va V bo'limlarida quyidagi tartibda o'zining yaqqol ifodasini topadi.

#### ☞ Sotuvchining majburiyatları:

- A1. Shartnomaga (kontraktga) muvofiq tovar bilan ta'minlash.
- A2. Litsenziyalar, ruxsatnomalar va rasmiylashtirishlar.
- A3. Tashish va sug'urta shartnomasi.
- A4. Yetkazib berish.
- A5. Xatarlarning o'tishi.
- A6 Xarajatlarni taqsimlash.
- A7. Xaridorni xabardor qilish.
- A8. Yetkazib berish isboti-transport hujjati yoki muqobil elektron aloqasi.
- A9. Tekshirish, o'rab-joylash, markirovkalash.
- A10. Boshqa majburiyatlar.

#### ☞ Xaridorning majburiyatları

- V1. Haqini to'lash.
- V2. Litsenziyalar, ruxsatnomalar va rasmiylashtirishlar.
- V3. Tashish shartnomasi.
- V4. Yetkazib berilgan tovarni qabul qilish.
- V5. Xatarlarning o'tishi.
- V6. Xarajatlarni taqsimlash.
- V7. Sotuvchini xabardor qilish.

V8. Yetkazib berish isboti-transport hujjati yoki muqobil elektron aloqasi.

V9. Tovarni tekshirib turish.

V10. Boshqa majburiyatlar.

## **2. Tovarlarni yetkazib berishning tijorat shartlarining turlari**

Inkotrems-2010 bo'yicha 11ta yetkazib berish shartlari bo'lib, ular shartli ravishda 4 ta (E, F, C, D) guruhlarga bo'lingan.

### **E guruhi (Yuklab jo'natish)**

Transportning istalgan turida tashish.

**EXW- EX Works (...named place) - Franko - zavod (...joy nomi).**

Ushbu shartning mazmuni shundan iboratki, agar sotuvchi tovarni xaridorning tasarrufiga o'z korxonasida (ya'ni zavodi, fabrikasi, ombori va h.k.da) taqdim etgan bo'lsa, uning tovar yetkazib berish bo'yicha majburiyati bajarilgan deb hisoblanadi. Ushbu shartga binoan, agar boshqa shartlar kelishib olinmagan bo'lsa, sotuvchi tovarni xaridor keltirgan transport vositasiga yuklash uchun ham, eksport uchun tovarni bojxonada rasmiylashtirish uchun ham javobgar bo'lmaydi. Xaridor, tovarni sotuvchining korxonasidan belgilangan zarur punktga olib chiqish bilan bog'liq, shuningdek, davlatlarning bojxona chegaralarini kesib o'tish paytida eksport rasmiyatçiliklarini bajarish bilan bog'liq barcha xarajat va xatarlarni o'z zimmasiga oladi.

### **F guruhi (Asosiy tashish haqini sotuvchi to'lamagan)**

Dengiz orqali va ichki suvlarda tashishlar.

F guruhining o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, bu guruhda sotuvchi xaridor oldida tashish shartnomasi bilan bog'liq majburiyatining yo'qligidir. Shuningdek, sotuvchi tovarlarni tashuvchiga yoki xaridor ishonchnoma bergen shaxsga topshirgandan boshlab barcha xavf-xatarlardan holi bo'ladi hamda amalda barcha majburiyatlarni bajargan hisoblanadi.

Yuk tashuvchi-shartnomaga muvofiq o‘z zimmasiga tovarni xaridorga yetkazib berish yoki yetkazib berishni ta’minlash majburiyatini oladigan shaxsdir.

F guruhi 3 ta yetkazib berish shartni o‘z ichiga oladi.

**FCA** Free Carrier (... named place) – Franko – tashuvchi (.. tayinlangan joy nomi). Ushbu shartga binoan, bojxona rasmiylashtiruvidan o‘tkazilgan tovarni eksport mamlakatidagi kelishilgan joy yoki punktda, xaridor tomonidan nominatsiyalangan (tayinlangan) yuk tashuvchi tasarrufiga bergen bo‘lsa, sotuvchining tovar yetkazib berishga doir majburiyati bajarilgan deb hisoblanadi. Yetkazib berishning ushbu shartida transportning istalgan turı (avtotransport, aviatashish, havo, dengiz, daryo, temir yo‘l transporti va boshqalar), shu jumladan multimodal turı uchun foydalansa bo‘ladi.

**FAS** Free Alongside Ship (... named port of shipment) – Kema borti bo‘ylab erkin (...yuklab jo‘natish porti nomi). Ushbu shart shartnomada eksport mamlakatidagi yuklab jo‘natish porti kelishilganligini bildiradi. Eksport rasmiyatchiligidan o‘tkazilgan tovar kema borti yonidagi prichalda yoki ko‘rsatilgan yuklab jo‘natish portidagi lixterlarda jovlashtirilgan taqdirda sotuvchi tovar yetkazib berish bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajargan deb hisoblaydi. Xaridor tovar kema bortida jovlashtirgan paytdan boshlab uning yo‘qolishi yoxud shikastlanishi xatarini hamda bo‘lishi mumkin bo‘lgan barcha xarajatlarni o‘z zimmasiga oladi.

«Kema borti yonidan erkin» atamasi xaridordan tovarni eksport uchun bojxona rasmiylashtiruvini o‘tkazishni amalga oshirishni taqozo etadi. Mazkur atama faqat dengiz va daryo orqali tashishlar uchun qo‘llaniladi.

**FOB** Free On Board (... named port of shipment) – Kema ustida erkin (...yuklab jo‘natish porti nomi). Ushbu shart sotuvchi eksport rasmiyatchiligidan o‘tkazilgan tovar kemaga yuklanganda o‘z majburiyatlarini bajargan deb hisoblashini anglatadi. Xaridor shu paytdan boshlab barcha xarajatlar va butun xatarni o‘z zimmasiga olishi, yo‘qolgan yoki shikastlangan tovar haqqini to‘lashi kerak. Mazkur atama faqat dengiz va daryoda tashishlar uchun qo‘llaniladi.

**S guruhi (Asosiy tashish haqini sotuvchi to‘lagan)**

Transportning istalgan turida tashish.

Bu guruhning o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, sotuvchi tashish shartnomasini tuzish majburiyatini oladi. Biroq barcha xatarlar va xarajatlar xaridor zimmasida bo‘ladi.

S guruhi 4 ta yetkazib berish shartni o‘z ichiga oladi.

**CFR Cost and Freight** (... named port of destination) – Qiymat va fraxt (...tayinlangan port nomi). Ushbu shart sotuvchi zimmasiga tovarni ko‘rsatilgan belgilangan portga yetkazib berish uchun zarur xarajatlar va kira haqi yuklamasi kira haqi importchi mamlakatidagi kelishilgan belgilangan portga qadar to‘langanini bildiradi. Sotuvchidan tovarni eksport uchun bojxonada holi qilishni amalga oshirish, ya’ni eksport bo‘yicha barcha xarajatlarni eksportchining mamlakatida to‘lash talab qilinadi.

**CIF Cost, Insurance and Freight** (... named port of destination) – Qiymat, sug‘urta va fraxt (...tayinlangan port nomi). Bunda sotuvchi «qiymat va fraxt (kira haqi)» shartlaridagidek majburiyatlarni o‘z zimmasiga olishini anglatadi, lekin u xaridorning xatarini yukni yo‘qolish yoki shikastlanishdan dengizda sug‘urtalash bilan ta‘minlashi shartligi qo‘srimcha qilinadi. Sotuvchi sug‘urta shartnomasini tuzadi va sug‘urta badalini to‘laydi. Xaridor shuni nazarda tutishi lozimki, CIF shartlarida sotuvchidan faqat sug‘urtani mas’uliyatning eng kam hajmi bo‘yicha ta‘minlash talab qilinadi.

**CPT Carriage Paid To** (... named place of destination) – Fraxt/tashish haqi ...gacha (...tayinlangan punkt nomi) to‘langan. Bunda «tashish haqi to‘langan» sharti sotuvchi importchi chegarasining kelishilgan belgilangan joyiga qadar tovarni tashish uchun kira haqini to‘lashini anglatadi. Tovarni buzish yoki shikastlanish xatari, shuningdek, tovar tashuvchiga yetkazib berilganidan keyin yuzaga kelgan voqealar oqibatida istalgan vaziyatda qo‘srimcha xarajatlar sotuvchidan xaridorga tovar tashuvchiga berilgan paytda o‘tadi. Tashuvchi-tashish shartnomasiga muvofiq o‘z zimmasiga shartnomasi yukini temir yo‘l, avtomobil, dengiz, havo va daryo transportida yoki ana shu transport turlari birikuvida tashishni amalga oshirish yoxud ta‘minlash majburiyatini oladigan shaxsdir. Agar kelishilgan belgilangan punktga qadar tashish uchun bir nechta tashuvchidan foydalanilsa, xatar birinchi tashuvchidan tovarni topshirish paytda ikkinchi tashuvchiga va hokazolarga o‘tadi.

**CIP** Carriage and Insurance Paid To (... named place of destination) – Fraxt/tashish va sug‘urta haqi ...gacha (...tayinlangan punkt nomi) to‘langan. Ushbu yetkazib berish sharti bo‘yicha sotuvchi eksport uchun tovarni bojxonada holi qilishni ta’minlashi kerak. Ushbu shartdan tovarni istalgan turdag‘i transportda, shu jumladan multimodal transportda tashish paytida foydalanish mumkin. CIP shartida sotuvchidan faqat sug‘urtani mas’uliyatning eng kam hajmi bo‘yicha ta’minlash talab qilinadi.

### **D guruhi (Yetkazib berish)**

Transportning istalgan turida tashish.

D guruhi 3 ta yetkazib berish shartni o‘z ichiga oladi.

**DAT** Delivered At Terminal (... named terminal of destination) – Terminalda (...terminal nomi) yetkazib berish. Bunda tovar xaridorning ixtiyoriga transport vositasidan tushirilmagan holda taqdim-tiladi Ko‘proq multimodal tashuvlar uchun qo‘llaniladi. Logistika bo‘yicha ekspertlarning baholashlaricha, terminalgacha yetkazib berish ko‘proq portda logistika amaliyotiga mos keladi.

**DAP** Delivered At Point (... named point of destination) – Punktda (...punkt nomi) yetkazib berish. Tayinlangan joyga yetkazib berish shuni anglatadiki, kelishilgan tayinlangan joyga kelgan, yukdan tushirishga tayyor transport vositasida tovar xaridorning tasarrufiga taqdim etilganda sotuvchi yetkazib berishni amalga oshirgan hisoblanadi. Sotuvchi tovarni aytilgan joyga yetkazib berish bilan bog‘liq barcha xatarlarni o‘z zimmasiga oladi.

Taraflarga kelishilgan tayinlangan joy punktini aniq belgilash tavsya qilinadi, chunki ungacha xatarlar sotuvchi zimmasida bo‘ladi. Unga bunday tanlov aniq aks ettirilgan tashish shartnomalarini ta minlash tavsiya qilinadi. Agar sotuvchi uning tashish shartnomasiga ko‘ra kelishilgan tayinlangan joydagi yukdan tushirish xarajatlarini to‘lasa, u xaridordan ularni qoplashni talab qilishga, agar taraflar boshqacha kelishuv tuzmagan bo‘lsalar. haqli bo‘lmaydi. DAP sotuvchidan olib chiqish uchun bojxona rasmiyatshiliklarini bajarishni, agar ular qo‘llansa, talab qiladi


**DDP** Delivered Duty Paid (... named place of destination) – Boj to‘lagan holda (...tayinlangan joy nomi) yetkazib berish. «Boj to‘lagan holda yetkazib berish» sharti tovar import qiluvchi

mamakatning kelishilgan joyida xaridor tasarrufiga berilganda sotuvchining yetkazib berish bo'yicha majburiyatlari bajarilgan deb hisoblanishini anglatadi. Sotuvchi import bo'yicha bojxona tozalashi (rasmiylashtiruvi) dan o'tgan tovarni topshirish joyiga qadar yetkazib berish bilan bog'liq barcha xatarlar va xarajatlarga, shu jumladan bojlar, soliqlar va boshqa yig'implarga mas'ul bo'lishi kerak. Agar sotuvchi import litsenziyasini olishning bevosita yoki bilvosita imkoniyatiga ega bo'lmasa, u holda mazkur yetkazib berish shartidan foydalanmaslik kerak.

T/r	Yetkazib berish shartining nomi	Kodi	
		raqamli	harfli
1.	Franko zavod ...	01	EXW
2.	Franko tashuvchi ...	02	FCA
3.	Kema borti yonida erkin ...	03	FAS
4.	Kema bortida erkin ...	04	FOB
5.	Qiymat va fraxt ...	05	CFR
6.	Qiymat, sug'urta va fraxt ...	06	CIF
7.	Tashish to'langan ... gacha	07	CPT
8.	Tashish va sug'urta to'langan ... gacha	08	CIP
9.	Franko chegaragacha yetkazib berish ...	09	DAF
10.	Franko kemagacha yetkazib berish ...	10	DES
11.	Franko portgacha yetkazib berish ...	11	DEQ
12.	Boj to'lamasdan yetkazib berish ...	12	DDU
13.	Bojni to'lagan holda yetkazib berish ...	13	DDP
14.	Yetkazib berilgan ... gacha	14	DAR
15.	Terminalga yetkazib berilgan ...	15	DAT
16.	Boshqa nomlanishdagi yetkazib berish sharti	99	...

\* Yetkazib berish shartining harfli kodi ko'rsatiladi.

Ø Jadvalda yetkazib berish shartlari klassifikatorlari ko'rsatib o'tilgan.



#### БАЗИС ГУРУХЛАР

- EX WORKS - ФРАНКИНГ
- FREE - БОРДА
- CARAGE - ЧЕЗАРЯ
- DECKED - БОРДА

#### ШАРТЛИ БЕЛГИЛАР

- Ф - ТАКСИДА ШАРТЛОСАСИРЛУЧИ  
МАХСУСИТИЧИСИ: ИЗДАЧИ  
С - СУПРА ШАРТЛОСАСИРЛУЧИ  
МАХСУСИТИЧИСИ БЕГИ
- Э - ЭКСПОРТДА БОЛСОНА  
РАСМИИЛШИЧИСИ  
И - ИМПОРТДА БОЛСОНА  
РАСМИИЛШИЧИСИ

↳ Rasmida INKOTERMS-2010 yetkazib berish shartlari va unda xaridor va sotuvchi majburiyatlar tasvirlangan.

BYuDni to'ldirish tartibiga asosan shartnomada ko'rsatilgan yetkazib berish sharti BYuDning 20 - grafasida aks ettiriladi. Agar deklaratsiya qilinayotgan tovarlar O'zbekiston chegarasiga oldi-sotdi shartnomasi asosida olib kirilayotgan bo'lsa, ushbu grafa to'ldiriladi. Grafaning birinchi bo'limida yetkazib berish shartlari klassifikatori asosida yetkazib berishning raqamli kodi yoziladi. Ikkinchisi bo'limda shartnoma bo'yicha yetkazib berish shartining uchta harfli qisqacha nomi, geografik yo'nalishi (yetib kelish manzili) yoziladi.

Masalan, shartnomada Nukus shahriga FSA sharti asosida tovar olib kelinayotgan bo'lsa BYuDning 20-grafasi quyidagicha ko'rinishda bo'ladi:



*2-rasm. BYuD va BQDlarning tegishli grafalarida yetkazib berish shartlarining aks ettirilishi (namuna nusxasi).*


Tovarlarning bojxona qiymati deklaratsiyasi BQD-1 shaklining 1-varag'i 3-grafasi – «Yetkazib berish sharti» ustunida tovar yetkazib berish shartining harflarda qisqartirilgan nomi va geografik joy nomi ko'rsatiladi va yuqoridagicha ko'rinishda bo'ladi.

20. Условия поставки

08 СИП Карши

**3-rasm.** BQKning tegishli grafasida yetkazib berish shartlarining aks ettirilishi (namuna musxasi).

Keyinchalik tovarga nisbatan bojxona qiymatini o'zgartirish deklaratsiyasi (KTS-1) to'ldirilsa, 20-grafada bojxona qiymati aniqlangan tovarlarning yetkazib berish sharti yoziladi (grafaning to'ldirilishi yuqoridagi ko'rinishda bo'ladi).



*J-rasm. 2010-2012-yillarda import shartnomalarida yetkazib berish shartlari diagrammasi.*

*Narba: DBQ ma'lumotlari asosida tayyorlangan*

## **Nazorat uchun savollar**

1. Tovarlarni yetkazib berish tijorat shartlari bo'yicha tovarni narxini hisoblashda yagona bazis nima?
2. «Inkoterms» xalqaro qoidani kiritishdan maqsad?
3. Tovarning bitim narxi nimalardan tashkil topadi?
- 4 Bojaxona ishida Inkoterms-2010 xalqaro qoidalar qo'llanilishining ahamiyati nimadan iborat?
5. Nima uchun Inkoterms xalqaro qoidaları o'zgarib turadi?
6. «Inkoterms-2010» ning «Inkoterms-2000» dan nima farqi bor?
7. Tovar yetkazib berish tijorat shartlarini sharhlashning xalqaro qoidalarini belgilashdan maqsad nima?
8. Hozirgi paytda yetkazib berishlarning bazis shartlari qanday xalqaro hujjatga asosan tartibga solinadi?
9. «Yetkazib berishlarning bazis shartlari» deganda nima tushuniladi?
10. Yetkazib berish shartlarini guruhsalar bo'yicha tasniflab bering?
11. Yetkazib berish shartlarini tasniflash qanday prinsiplarga asoslanadi?
12. Xaridor va sotuvchining majburiyatları qanday tarkibga ega?

## **Foydalanimgan adabiyotlar**

- 1 O'zbekiston Respublikasining Bojaxona kodeksi.
- 2 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007-yil 19-sentabrda 198-son qarori bilan tasdiqlangan «O'zbekiston Respublikasining bojaxona hududidan olib chiqilayotgan tovarlarning bojaxona qiymatini belgilash va deklaratsiyalash tartibi to'g'risidagi Nizom» .
3. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan 1998-yil 13-yanvarda 390-raqam bilan ro'yxatdan o'tgan «O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kiriladigan tovarlarning bojaxona qiymatini belgilash bo'yicha Yo'riqnomasi».

4. Davlat bojxona qo'mitasining 2014-yil 10-yanvardagi «O'zbekiston Respublikasi tashqi savdo bojxona statistikasi uslubiyatini tasdiqlash to'g'risida»gi 11-son buyrug'i.
5. Davlat bojxona qo'mitasining 2013-yil 28-dekabrdagi «MDH Hukumat rahbarlari kengashining 2013-yil 20-noyabrdagi «MDHga a'zo davlatlar tashqi savdo bojxona statistikasi yagona uslubiyati to'g'risida» qarori ijrosi to'g'risida»gi 374-son buyrug'i.
6. Davlat bojxona qo'mitasining 2011-yil 9-fevraldag'i «INKOTERMS-2010 xalqaro savdo shartlarini amaliyatga kiritilganligi to'g'risida»gi 1-son ko'rsatmasi.

### **III BOB. BOJXONA QIYMATINI ANIQLASHDA TOVARLARNI YETKAZIB BERISH E VA F GURUH TIJORAT SHARTLARINING MOHIYATI HAMDA XARAJATLARINING TARKIBI**

**Reja:**

- 1. Xalqaro yetkazib berish shartlarida xarajatlarni hisobga olgan holda bojxona qiymatini aniqlash formulalari.**
- 2. Tovarlarni yetkazib berish E guruh tijorat shartida xarajatlarining tarkibi.**
- 3. Bojxona qiymatini aniqlashda tovarlarni yetkazib berish F guruh tijorat shartlarining mohiyati hamda xarajatlarining tarkibi.**

#### **1. Xalqaro yetkazib berish shartlarida xarajatlarni hisobga olgan holda bojxona qiymatini aniqlash formulalari**

O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga olib kelinadigan tovarning bojxona qiymati O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kelinadigan tovarlarning bojxona qiymatini belgilash bo'yicha Yo'riqnomalar qoidaları asosida aniqlanadi. Ushbu yo'riqnomaga muvofiq olib kelinadigan tovarning bojxona qiymati CIF yoki CIP shartlari bo'yicha, ya'ni quyidagi xarajatlarni albatta kiritgan holda hisoblab chiqariladi.

Tovar yetkazib berishning bazis shartlarini hisobga olgan holda asosiy usul bo'yicha bojxona qiymatini aniqlashda quyidagi formulalarning biridan foydalilanadi.

1. Agar tovar O'zbekiston Respublikasi bojxona hududiga (chegarasigacha) EXW, FCA, FOB yetkazib berish shartlarida olib kirilsa, tovarning bojxona qiymati quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$BQ = S + F + S + P$$

2. Agar tovar O'zbekiston Respublikasi bojxona hududiga (chegarasigacha) CFR, SRT yetkazib berish shartlarida olib kirlsa, bojxona qiymati quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$BQ = S + S + P$$

Chunki ushbu yetkazib berish shartlarida asosiy kira haqini to'lash majburiy talab bo'lib, u tovarning shartnoma narxiga kiritiladi.

3. Agar tovar O'zbekiston Respublikasi bojxona hududiga (chegarasigacha) CIF yoki CIP shartlarida olib kirlsa, tovarning bojxona qiymati quyidagi ko'rinishda shartnoma narxi bo'yicha olib kirlgan tovarning shartnoma qiymatiga aynan teng bo'ladi:

$$BQ = S$$

Xarajatlar turi	Shartli belgisi
■ Tovar qivmati	S
■ Fraxt bo'yicha xarajatlar (tashish, yuklash, yukni tushirish va b.)	F
■ Sug'urta badalı summasi (sug'urtalash mukofoti)	S
■ Tovarni importchi mamlakat chegarasiga qadar olib o'tish bilan bog'liq boshqa xarajatlar	P
■ O'zbekiston Respublikasi bojxona hududi ichida tovarni olib o'tish bilan bog'liq boshqa xarajatlar	R
■ Olib kirladigan tovarning bojxona qiymati	TS

## 2. Tovarlarni yetkazib berish E guruhi tijorat shartida xarajatlarining tarkibi

**Yetkazib berish shartining E guruhi faqatgina EXW (Franko-zavod (kelishilgan joy) shartini o'z ichiga oladi.**

EXW (Franko-zavod) shartining mazmuni shundan iboratki, agar sotuvchi tovarni xaridorning tasarrufiga o'z korxonasida (ya'ni zavodi, fabrikasi, ombori va h.k.da) taqdim etgan bo'lsa, uning tovar yetkazib berish bo'yicha majburiyati bajarilgan deb hisoblanadi.

Ushbu shartga binoan, agar boshqa shartlar kelishib olinmagan bo'lsa sotuvchi tovarni xaridor keltirgan transport vositasiga yuklash uchun ham, eksport uchun tovarni bojxonada tozalash uchun ham javobgar bo'lmaydi. Xaridor tovarni sotuvchining korxonasidan belgilangan zarur punktga olib chiqish bilan bog'liq, shuningdek, davlatlarning bojxona chegaralarini kesib o'tish paytida eksport rasmiyatchiliklarini bajarish bilan bog'liq barcha xarajat va xatarlarni o'z zimmasiga oladi.

Tovarlar O'zbekiston Respublikasidan «Franko-zavod (kelishilgan joy)» yetkazib berish sharti bilan eksport qilinganida deklarant (bojxona deklaratsiyasini to'ldiruvchi mas'ul shaxs) va bojxona organi inspektori tovar xaridorining bojxona hududidan olib chiqish bilan bog'liq qo'shimcha xarajatlarini o'rGANADILAR, bu xarajatlar eksport qilinayotgan tovarning statistik qiymatini belgilashda va bojxona to'lovlarini hisoblab yozish asosini belgilash uchun hisobga olinadi.

Tovarni olib chiqish bilan bog'liq qo'shimcha xarajatlarga xaridor (importchi)ning kelishilgan joyga, odatda, yuk bojxona chegarasini kesib o'tgan joyga qadar qilgan xarajatlari kiritilishi mumkin, bunga sotuvchining omborida saqlash, yuklash, tushirish xarajatlari, sotuvchi (eksport) mamlakatining bojxona chegarasi-gacha tashish xarajatlari, bojxona hududida sug'urta yig'imlari summasi, eksportchi davlat hududida to'langan bojxona to'lovleri summasi va hokazolar kiradi.

### **EXW yetkazib berishning bazis shartlarida tomonlarning asosiy majburiyatları**

#### **A. Sotuvchi majburiyatları**

#### **V. Xaridor majburiyatları**

##### **A.1. Tovarni kontraktga mu-vofiq ta'minlash**

Oldi-sotdi shartnomasiga mu-vofiq xaridorga tovar, uning hisobvaraq-fakturasi yoki unga ekvivalent bo'lgan elektron hujjat, shuningdek, tovarning kontrakt

##### **V.1. Tovar narxini to'lash**

Tovarning kontraktda nazarda tilig'an narxini (qiymatini) to'lash

chartlariga muvofiqligi bo'yicha boshqa har qanday tasdiqlarni taqdim etish

**A.2. Litsenziyalar, ruxsatnomalar va rasmiylashtirishlar**  
Xaridorning iltimosiga ko'ra va uning hisobidan, uning javobgarligida, agar lozim bo'lsa (14-bandga qaralsin) eksport uchun litsenziya yoki eksport uchun boshqa rasmiy ruxsatnomani olishda unga har tomonlama yordam ko'rsatish.

### **A.3. Tashish va sug'urta shartnomasi**

- a) tashish shartnomasi bo'yicha majburiyatlar yo'q.
- b) sug'urta shartnomasi bo'yicha majburiyatlar yo'q.

### **A.4. Yetkazib berish**

Tovarni belgilangan joy yoki punktda tashuvchiga yoki xaridor tayinlangan yoxud sotuvchitanlagan boshqa shaxsga taqdim etish.

### **A.5. Xatarlarning o'tishi**

V.5-bandini hisobga olgan holda barcha xatarlarga javob berish. tovar A.4-bandiga binoan yetkazib berilgan paytga qadar tovarning yo'qolgan yoki shikastlangani uchun haq to'lash.

**V.2. Litsenziyalar, ruxsatnomalar va rasmiylashtirishlar**  
Xatarlarni o'z zimmasiga olgan holda va o'z hisobidan eksport, import litsenziysi yoki boshqa rasmiy ruxsatnomalarni olish hamda tovarni eksport qilish bo'yicha barcha bojxona rasmiyatchiliklarini bajarish.

### **V.3. Tashish shartnomasi**

Agar shartnomada boshqacha ko'rsatilmasa, o'z hisobidan tovarni kelishilgan joydan tashish shartnomasini tuzish.

### **V.4. Yetkazib berilgan tovarni qabul qilish**

Tovar yetkazib berishni shartnomaga binoan qilish.

### **V.5. Xatarlarning o'tishi**

Tovar A.4-bandiga binoan uning tasarrufiga taqdim etilgan paytdan boshlab barcha xatarlarga hamda tovarning vo'qolishi yoki shikastlanishi uchun javob berish.

#### **A.6. Xarajatlarning taqsimlaniши**

V.6-bandini hisobga olgan holda tashuvchiga taqdim etilgan paytga qadar tovarga doir barcha xarajatlarni to‘lash A.4-bandiga binoan – bojaxona rasmiylashtirishlarini bajarishga doir xarajatlarini, shuningdek bojaxona to‘lovlari, soliqlar va eksport qilishda undiriladigan boshqa yig‘imlarni to‘lash.

#### **V.6. Xarajatlarning taqsimlaniши**

A.4-bandiga binoan tovar taqdim etilgan paytdan boshlab unga taalluqli bo‘lgan barcha xarajatlarni to‘lash. Tovar tashuvchi tomonidan qabul qilinishi bilan bog‘liq har qanday qo‘srimcha xarajatlarni to‘lash. Barcha bojlar, soliqlar va boshqa yig‘imlarni, shuningdek, import munosabati bilan va, agar zarur bo‘lsa, uning uchinchi mamlakat orqali tranziti munosabati bilan bojaxona rasmiylashtirishlarini bajarishga doir xarajatlarni to‘lash.

#### **A.7. Xaridorni xabardor qilish**

Xaridorga tovar tashuvchiga topshirilgani to‘g‘risida o‘z vaqtida xabarnoma yuborish. Agar tashuvchi tovarning kelishilgan muddatda qabul qilinishini ta’milamasa, bu haqda xaridorni xabardor qilish.

#### **V.7. Sotuvchini xabardor qilish**

Tashuvchingining nomini ko‘rsatib, tashish usuli, tovarni topshirish sanasi yoki muddatini, tovar tashuvchiga topshirilishi kerak bo‘lgan joy darajasida punktni aniqlashtirib, sotuvchiga o‘z vaqtida xabarnoma yuborish.

#### **A.8. Yetkazib berish dalili – transport hujjati yoki muqobil elektron axborot**

Xaridorni A.4-bandiga binoan tovar yetkazib berilishini tasdiqlaydigan odadagi hujjat bilan ta‘minlash. Agar mazkur hujjat transport hujjati bo‘lmasa, tashish shartnomasi bo‘yicha transport hujjatlarini olishda yordam ko‘rsatish (masalan,

#### **V.8. Yetkazib berish dalili – transport hujjati yoki muqobil elektron axboroti**

Yetkazib berish dalilini A.8-bandiga binoan qabul qilish.

tovarni tasarruf etish konosamenti, tovarni tasarruf etmaslik konosamenti, daryo konosamenti, aviatsiya yukxati, temir yo'l yukxati, avtomobil yukxati yoki multimodal transport hujjati).

#### **A.9. Tekshirish, o'rab-joylash, V.9. Tovarni tekshirib chiqish markirovkalash**

Tovarni xaridorga taqdim etish uchun zarur bo'lgan sifatni tekshirish, o'lchashlarni amalga oshirish, tarozida tortish, qayta sanashga doir operatsiyalar bilan bog'liq xarajatlarni qilish, tovarni o'rab-joylash va markirovkalashni o'z hisobidan ta'minlash.

#### **A.10. Boshqa majburiyatlar**

Xaridorga tovar importi uchun va, agar zarur bo'lsa, tranzit uchun talab qilinishi mumkin bo'lgan hujjatlar yoki elektron axborotlarni olishda yordam ko'rsatish. Xaridor iltimosiga binoan sug'urtaga oid axborotni taqdim etish.

Agar boshqa narsa ko'rsatilgan bo'lmasa, yuklab jo'natishga qadar tovarni tekshirib chiqishga doir xarajatlarni to'lash, tekshirib chiqish eksportchi mammalakatning hokimiyat organlari tomonidan belgilangan hol bundan mustasno.

#### **V.10. Boshqa majburiyatlar**

A.10-bandida tilga olingan hujjatlar yoki elektron axborotlarni olish bilan bog'liq barcha xarajatlarni to'lash va sotuvchining hujjatlarni olishda va A.3-bandiga binoan tashish shartnomasini tuzishda yordam ko'rsatib, qilgan xarajatlarini unga to'lash.

### **3. Bojxona qiymatini aniqlashda tovarlarni yetkazib berish F guruhi tijorat shartlarining mohiyati hamda xarajatlarining tarkibi**

#### **A) Yetkazib berish shartining F guruhi (asosiy tashish haqi to'lanmagan)ning qisqacha tavsifi.**

**Yetkazib berish shartining F guruhi FCA** (franko-yuk tashuvchi), FAS (kema borti yonidan erkin), FOB (bortda erkin) shartlarini o'z ichiga oladi.

FCA (Franko-yuk tashuvchi) shartiga binoan, agar sotuvchi tovarni bojxona tozalashidan so'ng kelishilgan joy yoki punktda, xaridor tomonidan nominatsiyalangan (tayinlangan) yuk tashuvchi tasarrufiga bergen bo'lsa, sotuvchining tovar yetkazib berishga doir majburiyati bajarilgan deb hisoblanadi. Yetkazib berishning ushbu shartida transportning istalgan tur'i (avtotransport, aviatashish, havo, dengiz, daryo, temir yo'l transporti va boshqalar), shu jumladan multimodal turi uchun foydalansa bo'ladi.

Yuk tashuvchi – shartnomaga muvofiq o'z zimmasiga tovarni xaridorga yetkazib berish yoki yetkazib berishni ta'minlash majburiyatini oladigan shaxsdir.

**FAS** – kema borti yonida erkin (kelishilgan yuklab jo'natish porti) sharti kontraktda yuklab jo'natish porti kelishilganligini bildiradi. Tovar kema borti yonidagi prichalda yoki ko'rsatilgan yuklab jo'natish portidagi lixterlarda joylashtirilgan taqdirda sotuvchi tovar yetkazib berish bo'yicha o'z majburiyatlarini bajargan deb hisoblaydi. Xaridor barcha xarajatlarga javob beradi va tovarni kema bortida joylashtirgan paytdan boshlab uning yo'qolishi yoxud shikastlanishi xatarini to'laydi.

«Kema borti yonidan erkin» atamasi xaridordan tovarni eksport uchun bojxona tozalashini o'tkazishni amalga oshirishni taqozo etadi. Mazkur atama faqat dengiz va daryo orqali tashishlar uchun qo'llaniladi.

**FOB** – «Bortda erkin» sharti sotuvchi tovarni yetkazib berish bo'yicha o'z majburiyatlarini bajargan deb hisoblashini anglatadi, tovar kema tutqichi ortidan ko'rsatilgan yuklab jo'natish portiga topshiriladi. Xaridor shu paytdan boshlab barcha xarajatlar va butun xatarni o'z zimmasiga olishi, yo'qolgan yoki shikastlangan tovar haqini to'lashi kerak. «Bortda erkin» atamasi sotuvchidan eksportchi mamlakatiga eksport qilish uchun tovarni bojxonada tozalash o'tkazilishini talab etadi. Mazkur atama faqat dengiz va daryoda tashishlar uchun qo'llaniladi.



**FSA yetkazib berish shartida sotuvchi va xaridorning majburiyatları:**

## 1 FSA(FREE SARRIER) – franko tashuvchi (... joyning nomi)

«Franko tashuvchi» atamasi bojxonada rasmiylashtirilgan yukning xaridor tomonidan ko'rsatilgan tashuvchiga aytilgan joyga sotuvchi tomonidan yetkazib berilishini anglatadi. Shuni qayd etish kerakki, yetkazib berish joyimi tanlash mazkur joyda tovarni yuklash va tushirish majburiyatiga ta'sir ko'rsatadi. Agar yetkazib berish sotuvchi binosida amalga oshirilsa, yuklab jo'natish uchun sotuvchi javob beradi. Agar yetkazib berish boshqa joyda amalga oshirilsa, sotuvchi tovarning yuklab jo'natilishi uchun javob beradi.

Ushbu atamadan har qanday transport turi bilan, shu jumladan aralash tashishlarda foydalaniлади. «Tashuvchi» deganda tashish shartnomasiga muvofiq tovarni temir yo'l, avtomobil, havo, dengiz va ichki suv transportida yoki ularning kombinatsiyasi bilan tashishni amalga oshirish va ta'minlash majburiyatini olgan har qanday shaxs tushuniladi.

Agar xaridor yukni qabul qilib olishni tashuvchi bo'lmagan boshqa shaxsga ishonib topshirsa, sotuvchi yuk maxsus shaxsga topshirilgan vaqtdan boshlab yukni yetkazib berish bo'yicha o'z majburiyatini bajargan hisoblanadi.

### FCA yetkazib berishning bazis shartlarida tomonlarning asosiy majburiyatları

A. Sotuvchi	V. Xaridor
<b>A.1. Tovarni kontraktga muvofiq ta'minlash</b> Tovarni hisobvaraq-faktura bilan yoki kontraktga muvofiq muqobil ma'lumot va tovarning kontraktda nazarda tutilgan shartlariga muvofiqligining har qanday boshqa tasdig'i bilan ta'minlash	<b>V.1. Tovar narxini to'lash</b> Tovarning oldi-sotdi kontraktida nazarda tutilgan narxini (qiyomatini) to'lash

## A.2. Litsenziyalar, ruxsatnomalar va rasmiylashtirishlar

Tavakkal qilgan holda va o‘z hisobidan eksport litsenziyasi yoki boshqa rasmiy ruxsatnomani olish hamda tovar eksporti uchun zarur bo‘lgan barcha bojxona rasmiylashtirishlarini bajarish.

## V.2. Litsenziyalar, ruxsatnomalar va rasmiylashtirishlar

Tavakkal qilgan holda va o‘z hisobidan, import litsenziyasi yoki boshqa rasmiy ruxsatnomalarni olish hamda tovarning importi bo‘yicha va zarur bo‘lsa, uning uchinchi manzlakat orqali tranziti bo‘yicha barcha bojxona rasmiylashtirishlarini bajarish.

## A.3. Tashish va sug‘urta shartnomasi

- a) tashish shartnomasi bo‘yicha majburiyatlar yo‘q.
- b) sug‘urta shartnomasi bo‘yicha majburiyatlar yo‘q.

## V.3. Tashish shartnomasi

Agar shartnomada boshqa narsa ko‘rsatilgan bo‘lmasa, o‘z hisobidan tovarni kelishilgan joydan tashish shartnomasini tuzish

## A.4. Yetkazib berish

Tovarni belgilangan joy yoki punktda tashuvchiga yoki xaridor tayinlangan yoxud sotuvchi tanlagan boshqa shaxsga taqdim etish.

## V.4. Yetkazib berilgan tovarni qabul qilish

Tovar yetkazib berishni shartnomaga binoan qilish

## A.5. Xatarlarning o‘tishi

V.5-bandini hisobga olgan holda barcha xatarlarga javob berish, tovar A.4-bandiga binoan yetkazib berilgan paytga qadar tovarning yo‘qolgan yoki shikastlangani uchun haq to‘lash

## V.5. Xatarlarning o‘tishi

Tovar A.4-bandiga binoan uning tasarrufiga taqdim etilgan paytdan boshlab barcha xatarlarga hamda tovarning yo‘qolishi yoki shikastlanishi uchun javob berish

## **A.6. Xarajatlarning taqsimlanishi**

V.6-bandini hisobga olgan holda tashuvchiga taqdim etilgan paytga qadar tovarga doir barcha xarajatlarni to'lash A.4-bandiga binoan – bojxona rasmiylashtirishlarini bajarishga doir xarajatlarni, shuningdek, bojxona to'lovlari, soliqlar va eksport qilishda undiriladigan boshqa yig'imlarni to'lash.

## **V.6. Xarajatlarning taqsimlanishi**

A.4-bandiga binoan tovar taqdim etilgan paytdan boshlab unga taalluqli bo'lgan barcha xarajatlarni to'lash. Tovar tashuvchi tomonidan qabul qilinishi bilan bog'liq har qanday qo'shimcha xarajatlarni to'lash. Barcha bojlar, soliqlar va boshqa yig'imlarni, shuningdek, import munosabati bilan va, agar zarur bo'lsa, uning uchinchi mamlakat orqali tranziti munosabati bilan bojxona rasmiylashtirishlarini bajarishga doir xarajatlarni to'lash.

## **A.7. Xaridorni xabardor qilish**

Xaridorga tovar tashuvchiga topshirilganı to'g'risida o'z vaqtida xabarnoma yuborish. Agar tashuvchi tovarning kelishilgan muddatda qabul qilinishini ta'minlamasa, bu haqda xaridorni xabardor qilish.

## **V.7. Sotuvchini xabardor qilish**

Tashuvchining nomini ko'rsatib, tashish usuli, tovarni topshirish sanasi yoki muddatini, tovar tashuvchiga topshirilishi kerak bo'lgan joy darajasida punktni aniqlashtirib, sotuvchiga o'z vaqtida xabarnoma yuborish.

## **A.8. Yetkazib berish dalili – transport hujjati yoki muqobil elektron axborot**

Xaridorni A.4-bandiga binoan tovar yetkazib berilishini tasdiqlaydigan odatdag'i hujjat bilan ta'minlash. Agar mazkur hujjat transport hujjati bo'lmasa, tashish shartnomasi bo'yicha transport hujjatlarini olishda

## **V.8. Yetkazib berish dalili – transport hujjati yoki muqobil elektron axboroti**

Yetkazib berish dalilini A.8-bandiga binoan qabul qilish.

yordam ko'rsatish (masalan, tovarni tasarruf etish konosamenti, tovarni tasarruf etmaslik konosamenti, daryo konosamenti, aviatsiya yukxati, temir yo'l yukxati, avtomobil yukxati yoki multimodal transport hujjati)

#### **A.9. Tekshirish, o'rab-joylash, V.9. Tovarni tekshirib chiqish markirovkalash**

Tovarni xaridorga taqdim etish uchun zarur bo'lgan sifatni tekshirish, o'lchashlarni amalgalashirish, tarozida tortish, qayta sanashga doir operatsiyalar bilan bog'liq xarajatlarni qilish, tovarni o'rab-joylash va markirovkalashni o'z hisobidan ta'minlash.

#### **A.10. Boshqa majburiyatlar**

Xaridorga tovar importi uchun va, agar zarur bo'lsa, tranzit uchun talab qilinishi mumkin bo'lgan hujjatlar yoki elektron axborotlarni olishda yordam ko'rsatish. Xaridor iltimosiga binoan sug'urtaga oid axborotni taqdim etish.

Agar boshqa narsa ko'rsatilgan bo'lmasa, yuklab jo'natishga qadar tovarni tekshirib chiqishga doir xarajatlarni to'lash, tekshirib chiqish eksportchi mamlakatning hokimiyat organlari tomonidan belgilangan hol bundan mustasno.

#### **V.10. Boshqa majburiyatlar**

A.10-bandida tilga olingan hujjatlar yoki elektron axborotlarni olish bilan bog'liq barcha xarajatlarni to'lash va sotuvchining hujjatlarni olishda va A.3-bandiga binoan tashish shartnomasini tuzishda yordam ko'rsatib, qilgan xarajatlarini unga to'lash.

### **FAS yetkazib berishning bazis shartlarida tomonlarning asosiy majburiyatları**

**FAS (free alongside ship) –** kema borti bo'y lab franko (..yuklab jo'natish punktining nomi). «Kema borti yonida erkin» sharti kontraktda yuklab jo'natish porti kelishilganligini bildiradi. Tovar

kema borti yonidagi prichalda yoki ko'rsatilgan yuklab jo'natish portidagi lixterlarda joylashtirilgan taqdirda sotuvchi tovar yetkazib berish bo'yicha o'z majburiyatlarini bajargan deb hisoblaydi. Xaridor barcha xarajatlarga javob beradi va tovarni kema bortida joylashtirgan paytdan boshlab uning yo'qolishi yoxud shikastlanishi xatarini to'laydi.

«Kema borti yonidan erkin» atamasи xaridordan tovarni eksport uchun bojxona tozalashini o'tkazishni amalga oshirishni taqozo etadi. Mazkur atama faqat dengiz va daryo orqali tashishlar uchun qo'llaniladi.



FAS yetkazib berish shartida sotuvchi va xaridorning majburiyatları:

### A. Sotuvchi

### V.Xaridor

#### A.1. Tovarni kontraktga V.1. Tovar narxini to'lash muvofiq ta'minlash

Tovarni oldi-sotdi kontraktiga muvofiq hisobvaraql-faktura bilan (yoki muqobil elektron axboroti) yoxud tovarning kontraktda nazarda tutilgan shartlarga muvofiqligining har kunda boshqa tasdig'i bilan ta'minlash.

Tovarning oldi-sotdi kontraktida nazarda tutilgan narxini to'lash.

**A.2. Litsenziyalar, ruxsatnomalar va rasmiylashtirishlar**  
Xaridorga uning iltimosiga ko'ra, uning tavakkal qilishiga va hisobidan eksport litsenziyasini yoki tovar eksporti uchun zarur bo'lgan boshqa rasmiy ruxsatnomani olishda har tomonlama yordam ko'rsatish.

**V.2. Litsenziyalar, ruxsatnomalar va rasmiylashtirishlar**  
Tavakkal qilgan holda va o'z hisobidan eksport va import litsenziyasini olish yoki boshqa rasmiy ruxsatnomani olish hamda tovarning eksporti va importi bo'yicha va, agar zarur bo'lsa, uning uchinchi mamlakat orqali tranziti bo'yicha barcha

boxona rasmiylashtirishlarini bajarish.

### A.3. Tashish va sug'urta shartnomalari

- A) tashish shartnomasi bo'yicha majburiyatlar yo'q.  
B) sug'urta shartnomasi bo'yicha majburiyatlar yo'q.

### V.3. Tashish shartnomasi

O'z hisobidan kelishilgan yuklab jo'natish portidan yuk tashish shartnomasini tuzish.

### A.4. Yetkazib berish

Tovarni nominatsiyalangan (aytilgan) kema borti yonida xaridor tomonidan belgilangan joyda, kelishib olingan yuklab jo'natish portida belgilangan kunda yoki belgilangan davr mobaynida port qoidalariga javob beradigan usul bilan qo'yish.

### V.4. Yetkazib berilgan tovarni qabul qilish

A.4-bandiga binoan yetkazib berilgan tovarni qabul qilish.

### A.5.Xatarlarning o'tishi

V.5-bandini hisobga olgan holda tovar A.4-bandiga binoan yetkazib berilgan paytga qadar tovar yo'qolishi yoki shikastlanishiining barcha xatarlariga javob berish.

### V.5. Xatarlarning o'tishi

Tovar A.4-bandiga binoan yetkazib berilgan paytdan boshlab barcha xatarlarga javob berish hamda uning yo'qolishi va shikastlanishini to'lash. Agar xaridor o'zining V.2-bandiga binoan majburiyatlarini bajarmasa, barcha qo'shimcha xatarlarga mas'ul bo'lish va ana shu sababga ko'ra yuzaga kelgan yo'qolgan yoki shikastlangan tovar haqini to'lash, agar V.7-bandiga ko'ra xabarmoma berilmagan yoki xaridor tomonidan nominatsiyalangan (aytilgan) kemaning tez

yetib kelishi ta'minlanmagan yoxud agar kema tovarni yuklab jo'natish uchun tayyor bo'lma-gan yoki yuklash operatsiyalari ilgari kelishilgan muddatdan oldm tugallanmagan bo'lsa, barcha xatarlarga mas'ul bo'lish, kelishilgan sanadan yoki nazarda ту tilgan tovar yetkazib berish dav-rining tugash sanasidan boshlab tovar yo'qolishi yoki shikast-lanishiga haq to'lash, bunda to-var kontraktga muvofiq individuallashtirilishi, ya'nı aniq ajra-tib qo'yilishi yoki kontrakt tovari sifatida boshqacha tarzda identi-fikatsiya qilinishi kerak.

#### A.6. Xarajatlarning taqsimla-nishi

V.6-bandini hisobga olgan holda tovarni A.4-bandiga binoan yetkazib berish paytiga qadar unga taalluqli bo'lgan barcha xarajatlarni to'lash.

#### V.6. Xarajatlarning taqsimla-nishi

A.4-bandiga binoan tovarni yet-kazib berish paytidan boshlab unga, taalluqli bo'lgan barcha xarajatlarni to'lash. Nominat-siyalangan (aytilgan) kemaning o'z vaqtida kelmasligi yoki ke-maning tovarni yuklashga tayyor emasligi yoxud yuklash operat-sivalarining ilgari kelishilgan muddatdan oldin tugashi yoki V.2-bandiga binoan o'z majbu-riyatlarini bajarmasligi yoxud V.7-bandiga binoan tegishli xabarnomani ta'minlamasligi oqibatida qilingan barcha qo'shim-cha xarajatlarni to'lash, bunda biroq tovar kontraktga muvofiq

individuallashtirilishi, ya’ni aniq ajratib qo‘yilishi yoki kontrakt sifatida boshqacha tarzda identifikasiya qilinishi kerak.

Barcha bojlar, soliqlar va boshqa yig‘imlarni, shuningdek, tovar eksporti, importi va zarur bo‘lsa, uchinchi mamlakat orqali uning tranziti munosabati bilan undirladigan bojxona rasmiylashtirishlarini bajarish xarajatlarini to‘lash.

A.2-bandiga binoan, yordam ko‘rsatishda sotuvchi qilgan barcha xarajatlar va yig‘imlarni to‘lash.

#### **A.7. Xaridorni xabardor qilish**

Tovar nominatsiyalangan (aytilgan) kema bortiga yetkazilganim to‘g‘risida xaridorga o‘z vaqtida xabarnoma yuborish.

#### **V.7. Sotuvchini xabardor qilish**

Kemaning nomi, yuklab jo‘natish joyi va yetkazib berishning zarur muddati to‘g‘risida sotuvchiga o‘z vaqtida xabarnoma yuborish.

#### **A.8. Yetkazib berish dalil – transport hujjati yoki muqobil elektron axboroti**

Xaridorni tovar A.4-bandiga binoan yetkazib berilishini tasdiqlaydigan odatdagи hujjat bilan ta’minlash. Agar bunday hujjat transport hujjati hisoblanmasa, xaridorga uning tavakkal qilish va hisobidan transport hujjatini (masalan, tovarni tasarruf etish konosamenti, tovarni tasarruf

#### **V.8. Yetkazib berish dalili – transport hujjati yoki muqobil elektron axboroti**

Yetkazib berish dalilini A.8-bandiga binoan qabul qilish.

etmaslik dengiz yukxati, daryo konosamentini) olishda xardorga har tomonlama yordam ko'rsatish. Agar sotuvchi va xaridor elektron aloqa to'g'risida kelishib olishgan bo'lsa, bunday hujjat axborotni elektron ayirboshlash EDI tizimida muqobil axborot bilan almashtirilishi mumkin.

#### **A.9. Tekshirish, o'rab-joylash, V.9. Tovarni tekshirib chiqish markirovkalash**

Tovarni xaridor tasarrufiga etaqdim etish uchun zarur bo'lgan nazorat operatsiyalari (sifatni tekshirish, o'lchash, tarozida trotish, joylar miqdorini sanab chiqish) xarajatlarini to'lash. Tovarni tashish uchun zarur bo'lgan o'rab-joylashni o'z hisobidan ta'minlash (agar kontrakt konditsiyalaridagi tovarni yuklab jo'natish savdoning ushbu tarmog'i uchun odatdagи hol hisoblanmasa), bunda sotuvchi kontraktni tuzishga qadar tashish shartlari (masalan, tashish usuli, belgilangan joy) xususida qay darajada xabardor qilingani hisobga olinadi. O'ramga tegishli markirovka qilinishi kerak.

#### **A.10. Boshqa majburiyatlar**

Xaridorga uning iltimosiga ko'ra, tavakkal qilishiga binoan va uning hisobidan, xaridorga

Agar boshqa narsa qayd etil magan bo'lsa, tovarni uni yuklab jo'natishga qadar tekshirib chiqish (shu jumladan eksport qiluvchi mamlakat hokimiyyat organlari ko'rsatgan tekshirib chiqish) xarajatlarini to'lash.

#### **V.10. Boshqa majburiyatlar**

A.10-bandda tilga olingan hujjatlar yoki muqobil elektron axborotlarni olish bilan bog'liq

tovar importi uchun va, agar barcha xarajatlar va yig'implarni zarur bo'lsa, uning uchinchi to'lash hamda sotuvchiga uning mamlakat orqali tranziti uchun hujjatlarni olishda yordam ko'rnatlab qilinishi mumkin bo'lgan, tovar yuklab jo'natilgan va/yoki satganda qilgan xarajatlarini qoplash.

kelib chiqqan mamlakatida yozilgan yoxud EDI tizimi orqali berilgan istalgan hujjatlar yoki muqobil elektron axborotlarni (A.8-bandda tilga olinganlaridan tashqari) olishda har tomonlama yordam ko'rsatish. Xaridorni uning iltimosiga ko'ra sug'urtani rasmiylashtirishga doir zarur axborot bilan ta'minlash.

### **FOB yetkazib berish bazis shartlari paytida taraflarning asosiy majburiyatları**

«Bortda erkin» sharti sotuvchi tovarni yetkazib berish bo'yicha o'z majburiyatlarini bajargan deb hisoblashini anglatadi, tovar kema tutqichi ortidan ko'rsatilgan yuklab jo'natish portiga topshiriladi. Xaridor shu paytdan boshlab barcha xarajatlar va butun xatarni o'z zimmasiga olishi, yo'qolgan yoki shikastlangan tovar haqini to'lashi kerak. «Bortda erkin» atamasi sotuvchidan eksportchi mamlakatiga eksport qilish uchun tovarni bojxonada tozalash o'tkazilishini talab etadi. Mazkur atama faqat dengiz va daryoda tashishlar uchun qo'llaniladi.

☞ **FOB yetkazib berish shartida sotuvchi va xaridorning majburiyatları:**

### A.1. Tovarni kontraktga muvofiq ta'minlash

Oldi-sotdi kontraktiga muvofiq tovarni hisob-varaq-faktura yoki muqobil elektron axboroti hamda tovarning kontraktda nazarda tutilgan shartlarga muvofiqligining har qanday boshqa tasdig'i bilan ta'minlash.

### A.2. Litsenziyalar, ruxsatnomalar va rasmiylashtirishlar

O'z tavakkalchiligi bilan va o'z hisobidan eksport litsenziyasini yoki boshqa ruxsatnomani olish hamda tovar eksporti uchun zarur barcha bojxona rasmiylashtirishlarini bajarish.

### A.3. Tashish va sug'urta shartnomalari

- A) tashish shartnomasi bo'yicha majburiyatlar yo'q.
- B) sug'urta shartnomasi bo'yicha majburiyatlar yo'q.

### A.4. Tovarni yetkazib berish

Tovarni xaridor tomonidan nominatsiyalangan (aytilgan) kema bortiga va kelishilgan yuklab jo'natish portiga belgilangan kunda yoki belgilangan davr mobaynida

### V.1. Tovar narxini to'lash

Tovarning oldi-sotdi kontraktida nazarda tutilgan narxini to'lash.

### V.2. Litsenziyalar, ruxsatnomalar va rasmiylashtirishlar

O'z tavakkalchiligi bilan va o'z hisobidan import litsenziyasini yoki boshqa ruxsatnomani olish hamda tovar importi bo'yicha va, agar zarur bo'lsa, uning uchinchisi mamlakat orqali tranziti bo'yicha barcha bojxona rasmiylashtirishlarini bajarish.

### V.3 Tashish shartnomasi

Kelishilgan yuklab jo'natish portidan tashish shartnomasini o'z hisobidan tuzish

### V.4. Yetkazib berilgan tovarni qabul qilish

Yetkazib berilgan tovarni A.4-bandiga binoan qabul qilish.

port shartlariga javob beradigan usul bilan yetkazib berish.

#### A.5. Xatarlarni o'tishi

V.5-bandini hisobga olgan holda tovar kelishilgan yuklab jo'natish portida kema tutqichi orqali o'tgan paytiga qadar tovarning yo'qolishi yoki shikastlanishiga doir barcha xatarlarga mas'ul bo'lish.

#### V.5. Xatarlarni o'tishi

Tovar kelishilgan yuklab jo'natish portida kema tutqichi orqali o'tgan paytidan boshlab tovarning yo'qolishi yoki shikastlanishiga doir barcha xatarlarga mas'ul bo'lish.

Agar xaridor V.7-bandiga binoan bildiruvnomaga yubormagan yoki nominatsiyalangan kemaning o'z vaqtida kelishini ta'minlamagan yoxud kema tovarni yuklab jo'natishga tayyor bo'limgan yoki yuklab jo'natish operatsiyalari kelishilgan muddatdan oldinreq tugallangan bo'lsa, yoxud kelishilgan sanadan yoxud yetkazib berish nazarda tutilgan davr tugagan sanadan boshlab barcha xatarlarga mas'ul bo'lish, yo'qolgan yoxud shikastlangan tovar uchun haq to'lash, bunda tovar kontraktga muvofiq tegishlicha individuallashtirilgan bo'lishi ya'ni aniq ajratilib qo'yishi yoki kontrakt tovari sifatida boshqa usul bilan identifikasiya qilin-gan bo'lishi kerak.

#### A.6. Xarajatlarni taqsimlash

V.6-bandini hisobga olib kelishilgan yuklab jo'natish portida kema tutqichidan o'tishi

#### V.6. Xarajatlarni taqsimlash

A.4-bandiga binoan yetkazib berilishi paytidan boshlab

paytiga qadar tovarga taalluqli bo‘lgan barcha xarajatlarni to‘lash; eksport uchun nazarda tutilgan bojxona rasmiylashtiruvlarini bajarishga doir xarajatlarni, shuningdek tovar eksporti paytida undiriladigan bojlar, soliqlar va boshqa rasmiy yig‘imlarni to‘lash.

tovarga taalluqli barcha xara-jatlarni to‘lash;

Nominatsiyalangan (aytilgan) kemaning o‘z vaqtida kelma-ganligi yoki kemaning tovarni yukalb jo‘natishga tayyor emas-ligi yoxud yuklab jo‘natish ope-ratsiyalarining kelishilgan mud-datdan oldin tugallanganligi yoki V.2-bandiga binoan o‘z majburiyatlarini bajarmasligi yoxud V.7-bandiga binoan tegishli bildiruvnoma bilan ta-minlanmaganligi oqibatida qilingan barcha qo‘srimcha xara-jatlarni to‘lash, biroq tovar kontraktga muvofiq tegishlicha individuallashtirilishi, ya’ni aniq ajratib qo‘yilishi yoki kont-rakt tovari sifatida boshqacha tarzda identifikatsiya qilinishi kerak;

Tovar importi va agar zarur bo‘lsa, uning uchinchi mamlakat orqadi tranziti munosabati bilan undiriladigan barcha bojlar, soliqlar va boshqa rasmiy yig‘imlarni, shuningdek, bojxona rasmiylashtiruvlarini bajarishga doir xarajatlarni to‘lash.

#### A.7 Xaridorni xabardor qilish

Tovar kema botiga yetkazib be-rilgani to‘g‘risida xaridorga o‘z vaqtida bildiruvnoma yuborish.

#### V.7. Sotuvchini xabardor qilish

Kemaning nomi, yuklab jo‘na-tish punkti va yetkazib berish-ning zarur muddati to‘g‘risida

sotuvchiga o‘z vaqtida bil-diruvnomaga yuborish.

#### A.8. Yetkazib berish dalili-transport hujjati yoki muqobil elektron xabari

Xaridorni sotuvchi hisobidan A.4-bandiga binoan yetkazib berilishini tasdiqlaydigan odatdag'i hujjat bilan ta'minlash.

#### A.9. Tekshirish, o'rab-joylash va markirovkalash

A.4-bandiga binoan tovar yetkazib berilishi uchun zarur nazorat operatsiyalari (sifatni tekshirish, o'lhash, tarozida tortish, o'rinalar sonini sanash) xarakatlarini to'lash. Tovarni tashish uchun zarur bo'lgan o'rab-joylashni o'z hisobidan ta'minlash (agar o'ralmagan kontrakt kunditsiyalaridagi tovarni yuklab jo'natish mazkur savdo tarmog'ida odatdag'i hol bo'lmasa), bunda sotuvchi kontrakt tuzilgunga qadar tashish shartlari (masalan, teshish usuli, belgilangan joy) haqida qay darajada xabardor etilgani e'tiborga olinadi. O'ramga tegishli markirovka qo'yilishi kerak.

#### A.10. Boshqa majburiyatlar

Xaridorga uning iltimosiga ko'ra, Xaridorga uning iltimosiga ko'ra, jatlar yoki muqobil elektron uning hisobidan, xaridorga tovar axborotlarni olish bilan bog'liq importi va zarur bo'lsa, uning barcha xarakatlar va yig'imlarni

#### V.8. Yetkazib berish dalili-transport hujjati yoki muqobil elektron xabari

A.8-bandiga binoan tovar yetkazib berilganligi haqidagi tasdig'ini qabul qilish.

#### A.9. Tovarni tekshirib chiqish

Agar boshqa hol nazarda tutilmagan bo'lsa, yuklab jo'natishga qadar tovarlarni tekshirib chiqishga doir xarakatlarni to'lash, bundan eksport qiluvchi mamlakatning hokimiyat organlari tayinlangan tekshirib chiqish mustasno.

#### V.10. Boshqa majburiyatlar

A.10-bandida tilga olingan hujtavakkal qilishiga binoan va jatlar yoki muqobil elektron uning hisobidan, xaridorga tovar axborotlarni olish bilan bog'liq importi va zarur bo'lsa, uning barcha xarakatlar va yig'imlarni

uchinchi mamlakat orqali tranziti to'lash hamda sotuvchiga uning uchun talab qilinishi mumkin hujjalarni olishda yordam ko'rbo'lgan, tovar yuklab jo'natilgan satganda qilgan xarajatlarni va/yoki kelib chiqqan mamla-qoplash.

katida yo'zilgan yoxud EDI tizimi orqali berilgan istalgan hujjalarni yoki muqobil elektron axborotlarni (A.8-bandida tilga olinganlaridan tashqari) olishda har tomonlama yordam ko'rsatish.

### Nazorat uchun savollar

1. Yetkazib berish shartlari xalqaro tijorat atamalarining rasmiy qisqarmalari ro'yxatini gapirib bering?
2. Tovarlarni yetkazib berishning tijorat shartlarining qisqacha tasnifi.
3. Yetkazib berish shartining E guruhi (jo'natish)nimg qisqacha tavsifi
4. Tovarlarni yetkazib berish E guruh tijorat shartida sotuvchining majburiyatlari.
5. Tovarlarni yetkazib berish E guruh tijorat shartida xaridorning majburiyatlari.
6. F guruh yetkazib berish shartlari xalqaro tijorat atamalarining rasmiy qisqartmalari ro'yxatini gapirib bering?
7. F guruh tovarlarni yetkazib berishning tijorat shartlarining qisqacha tasnifi.
8. FSA yetkazib berish shartida sotuvchi va xaridorning majburiyatlari.
9. FAS yetkazib berish shartida sotuvchi va xaridorning majburiyatlari.
10. FOB yetkazib berish shartida sotuvchi va xaridorning majburiyatlari.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksi.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007-yil 19-sentabrdagi 198-son qarori bilan tasdiqlangan «O‘zbekiston Respublikasining bojxona hududidan olib chiqilayotgan tovarlarning bojxona qiymatini belgilash va deklaratsiyalash tartibi to‘g‘risidagi Nizom».
3. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 1998-yil 13-yanvarda 390-raqam bilan ro‘yxatdan o‘tgan «O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kiriladigan tovarlarning bojxona qiymatini belgilash bo‘yicha Yo‘riqnomasi».
4. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2016-yil 6-aprelida 2773-raqam bilan ro‘yxatdan o‘tgan «Bojxona yuk deklarat-siyasini to‘ldirish tartibi to‘g‘risidagi Yo‘riqnomasi».
5. Davlat bojxona qo‘mitasimng 2011-yil 9-fevraldag‘i «INKOTERMS-2010 xalqaro savdo shartlarini amaliyotga kiritil-ganligi to‘g‘risida»gi 1-son ko‘rsatmasi.

## **IV BOB. BOJXONA QIYMATINI ANIQLASHDA TOVARLARNI YETKAZIB BERISH S VA D GURUH TIJORAT SHARTLARINING MOHIYATI HAMDA XARAJATLARINING TARKIBI**

**Reja:**

- 1. Yetkazib berish shartining S guruhining tavsifi.**
- 2. Yetkazib berish shartining D guruhining tavsifi.**

### **1. Yetkazib berish shartining S guruhining tavsifi**

**Yetkazib berish shartining S guruhি CFR** (Qiymat va fraxt (kira haqi)), CIF (Qiymat, sug'urta va fraxt (kira haqi)), CPT (...belgilangan joyga qadar tashish haqi to'langan), CIP (...belgilangan joyga qadar tashish va sug'urta haqi to'langan) shartlarni o'z ichiga oladi.

**CFR** – «Qiymat va fraxt (kira haqi)» sharti sotuvchi zimmasiga tovarni ko'rsatilgan belgilangan portga yetkazib berish uchun zarur xarajatlar va kira haqi yuklamasi kira xaqi importchi mamlakatidagi kelishilgan belgilangan portga qadar to'langanini bildiradi. Sotuvchidan tovarni eksport uchun bojxonada xoli qilishni amalga oshirish, ya'ni eksport bo'yicha barcha xarajatlarni eksportchining mamlakatida to'lash talab qilinadi.

**CIF** – «Qiymat, sug'urta va fraxt (kira haqi)» sharti sotuvchi «qiymat va fraxt (kira haqi)» shartlaridagidek majburiyatlarni o'z zimmasiga olishini anglatadi, lekin u xaridorning xatarini yukni yo'qolish yoki shikastlanishdan dengizda sug'urtalash bilan ta'minlashi shartligi qo'shimcha qilinadi. Sotuvchi sug'urta shartnomasini tuzadi va sug'urta badalini to'laydi. Xaridor shuni nazarda tutishi lozimki, CIF shartlarida sotuvchidan faqat sug'urtani mas'uliyatning eng kam hajmi bo'yicha ta'minlash talab qilinadi. Mas'uliyatning eng kam hajmi deganda sotuvchi tomonidan xaridor hisobidan harbiy harakatlar, ish tashlashlar, fuqarolar g'alayonlari va tartibsizliklari singari xatar turlari yukni sug'urtalashning ta'minlanishi tushuniladi.

Sug'urta mas'uliyatining eng kam hajmi shartnomada ko'rsatilgan narxni qoplashi, 10% qo'shilishi (ya'ni umuman 110% bo'lishi) va 10% sug'urta badali hisoblanadigan shartnomada nazarda tutilgan valutada ta'minlanishi kerak.

**CPT** – «belgilangan joyga qadar tashish haqi to'langan» sharti sotuvchi importchi chegarasining kelishilgan belgilangan joyiga qadar tovarni tashish uchun kira haqini to'lashini anglatadi. Tovarni buzish yoki shikastlanish xatari, shuningdek tovar tashuvchiga yetkazib berilganidan keyin yuz bergen voqealar oqibatida yuz bergen istalgan qo'shimcha xarajatlar sotuvchidan xaridorga tovar tashuvchiga berilgan paytda o'tadi. Tashuvchi-tashish shartnomasiga muvofiq o'z zimmasiga kontrakt yukini temir yo'l, avtomobil, dengiz, havo va daryo transportida yoki ana shu transport turlari birikuvida tashishni amalga oshirish yoxud ta'minlash majburiyatini oladigan shaxsdir. Agar kelishilgan belgilangan punktga qadar tashish uchun bir nechta tashuvchidan foydalanilsa, xatar birinchi tashuvchidan tovarni topshirish paytda ikkinchi tashuvchiga va hokazolarga o'tadi.

**CIP** «... belgilangan joyga qadar tashish va sug'urta haqi to'langan) yetkazib berish sharti bo'yicha sotuvchi eksport uchun tovarni bojxonada holi qilishni ta'minlashi kerak. Ushbu shartdan tovarni istalgan turdag'i transportda, shu jumladan multimodal transportda tashish paytda foydalanish mumkin.

### **SFR yetkazib berish shartida sotuvchi va xaridorning majburiyatlari**

«Qiymat va fraxt (kira haqi)» sharti sotuvchi zimmasiga tovarni ko'rsatilgan belgilangan portga yetkazib berish uchun zarur xarajatlar va kira haqi yuklamasi kira haqi importchi mamlakatidagi kelishilgan belgilangan portga qadar to'langanini bildiradi. Sotuvchidan tovarni eksport uchun bojxonada xoli qilishni amalga oshirish, ya'ni eksport bo'yicha barcha xarajatlarni eksportchining mamlakatida to'lash talab qilinadi.

☞ CFR yetkazib berish bazis shartlari paytida taraflarning asosiy majburiyatları:

### A. Sotuvchi

### V. Xaridor

#### A.1. Tovarni kontraktga muvofiq ta'minlash

Oldi-sotdi kontraktiga muvofiq Tovarning oldi-sotdi kontraktovarni hisob-varaq-faktura yoki tida nazarda tutilgan narxini muqobil elektron axboroti hamda to'lash.  
tovarning kontraktda nazarda tutilgan shartlarga muvofiqligining har qanday boshqa tasdig'i bilan ta'minlash.

#### A.2. Litsenziyalar, ro'yxatnomalar va rasmiylashtirishlar

O'z tavakkalchiligi bilan va o'z hisobidan eksport litsenziyasini yoki boshqa ruxsatnomani olish hamda tovar eksporti uchun zarur barcha bojxona rasmiylashtirishlarini bajarish.

#### V.2. Litsenziyalar, ro'yxatnomalar va rasmiylashtirishlar

O'z tavakkalchiligi bilan va o'z hisobidan import litsenziyasini yoki boshqa rasmiy ruxsatnomani olish hamda tovar importi bo'yicha va, agar zarur bo'lsa, uning uchinchi mammakat orqali tranziti bo'yicha barcha bojxona rasmiylashtirishlarini bajarish

#### A.3. Tashish va sug'urta shartnomalari

A) tashish shartnomasi bo'yicha: odadagi shartlarda o'z hisobidan kontrakt konditsiyalaridagi tovarni tashish uchun maromida foydalaniladigan turdag'i dengiz kemasida (yoki daryo kemasida)

#### V.3. Tashish shartnomalari

Majburiyatlar yo'q.

umumiy qabul qilingan yo'nalish bo'yicha kelishilgan belgilangan portga qadar tovar tashish shartnomasini tuzish.

B) sug'urta shartnomasi bo'yicha Majburiyatlar yo'q.

#### A.4. Tovarni yetkazib berish

Tovarni kema bortiga yuklab jo'natish portida tayinlangan kunda yoki belgilangan davr davomida yetkazib berish.

#### A.5. Xatarlarning o'tishi

V.5-bandini hisobga olgan holda tovar kelishilgan yuklab jo'natish portida kema tutqichi orqali o'tgan paytiga qadar barcha xatarlarga mas'ul bo'lish va tovarning yo'qolishi yoki shikastlanishini to'lash.

#### V.4. Yetkazib berilgan tovarni qabul qilish

Agar u A.4-bandiga binoan yetkazib berilgan bo'lsa, yetkazib berilgan tovarni qabul qilish va uni tashuvchidan kelishilgan belgilangan portda olish.

#### V.5. Xatarlarning o'tishi

Tovar yuklab jo'natish paytida kema tutqichi orqali o'tgan paytidan boshlab barcha xatarlarga mas'ul bo'lish va tovarning yo'qolishi yoki shikastlanishini to'lash. Agar xaridor V.7-bandiga binoan bildiruv-noma yubormagan bo'lsa, kelishilgan sanadan yoki yuklab jo'natish nazarda tutilgan davr tugallangan sanadan boshlab barcha xatarlarga mas'ul bo'lish hamda tovarning yo'qolishi yoki shikastlamshini to'lash, bunda, biroq tovar kontraktga muvofiq tegishlicha individual-lashtirilgan bo'lishi, ya'ni aniq ajratilib qo'yishi yoki kontrakt tovari sifatida boshqacha tarzda identifikasiya qilingan bo'lishi kerak.

## A.6. Xarajatlarni taqsimlash

V.6-bandini hisobga olib: tovarni A.4-bandiga binoan yetkazib berish paytiga qadar unga taalluqli barcha xarajatlarni, shuningdek, A.3-bandidan kelib chiqadigan kira haqi va barcha boshqa xarajatlarni, shu jumladan, tashish shartnomasi doiralarida dengiz liniyaları tomonidan undirilishi mumkin bo'lgan yukdan tushirish portidagi yuklab jo'natish xarajatlarini to'lash.

## V.6. Xarajatlarni taqsimlash

A.3-bandini hisobga olgan holda u A.4-bandiga binoan yetkazib berilgan paytidan boshlab tovarga doir barcha xarajatlarni to'lash, agar bunday xarajatlar va yig'imlar muntazam dengiz liniyaları tomonidan tashish shartnomasi dorirasida undirilmagan bo'lsa, tovarga doir va belgilangan portga kelishiga qadar tashish jarayonida paydo bo'lgan barcha xarajatlar va yig'imlarni, shu jumladan lixterga ortish xarajatlari va prichal yig'imlarini to'lash.

V.7-bandiga binoan tegishli bildiruvnomalar bilan ta'minlanmaygan taqdirda kelishilgan sana dan yoki yukni tushirish uchun belgilangan nazarda tutilgan davr tugagan sanadan boshlab tovarga taalluqli, ushbu sababga ko'ra qilingan qo'shimcha xarajatlarni to'lash, biroq tovar kontraktga muvofiq tegishlicha individuallashtirilishi, ya'ni aniq ajratib qo'yilishi yoki kontrakt tovari sifatida boshqacha tarzda identifikasiya qilinishi kerak.

Tovar importi va, agar zarur bo'lsa, uning uchinchi mammalakat orqali tranziti munosabati bilan undiriladigan barcha boj-

lar, soliqlar va boshqa yig‘im-larni, shuningdek, bojxona ras-mylashtiruvlarini bajarishga doir xarajatlarini to‘lash.

#### A.7. Xaridorni xabardor qilish

Tovar kema bortiga yetkazib berilgani to‘g‘risida xaridorga o‘z vaqtida bildiruvnoma, shuning-dek, xaridor tovarni qabul qilish uchun odatdagи choralarni ko‘ra uolishi uchun zarur boshqa bildiruvnomani yuborish.

#### A.8. Yetkazib berish dalili-transport hujjati yoki muqobil elektron xabari

Agar boshqa narsa nazarda tutilmagan bo‘lsa, o‘z hisobidan xaridorni darhol kelishilgan belgilangan portga qadar odatdagи transport hujjati bilan ta’minlash. Ushbu hujjat (masalan, tovarni tasarruf etish konosamenti, tovarni tasarruf etmaslik konosamenti) kontraktda nazarda tutilgan tovar summasiga muvofiq kelishi, unga kelishilgan yuklab jo‘natish davri doirasida sana qo‘yilishi, xaridorni tovarni tashuvchidan belgilangan portda olish imkoniyatini ta minlashi va, agar buning iloji bo‘lmasa, xaridorga hujjatni yangi xaridorga topshirish (tovarni tasarruf etish konosamenti) yo‘li bilan tovarni qayta sotishga

#### V.7. Sotuvchini xabardor qilish

Xaridorga tovarni yuklab jo‘natish porti va yoki tayinlangan portni beliglash huquqi berilgan hollarda sotuvchiga bu haqda o‘z vaqtida bildiruvnoma yuborish.

#### V.8. Yetkazib berish dalili-transport hujjati yoki muqobil elektron xabari

A.8-bandiga binoan, agar ukontrakt talablariga javob berса, trasnport hujjatini qabul qilish.

imkon berish yoki tashuvchini xabardor qilish.

Transport hujjati bir nechta asl nusxalarda yozilgan hollarda xaridorga asl nusxalarning to‘liq majumi taqdim etilishi kerak.

Agar transport hujjatida charter-partiya bog‘lamasi mavjud bo‘lsa, sotuvchi uning nusxasini ham taqdim etishi kerak.

Agar sotuvchi bilan xaridor elektron aloqa to‘g‘risida kelishib olishsa, avvalgi xatboshlarida eslatilgan hujjat elektron axborot ayirboshlash tizimi EDIda muqobil axborot bilan almashtirilishi mumkin.

#### **A.9. Tekshirish, o‘rab-joylash V.9. Tovarni tekshirib chiqish va markirovkalash**

A.4-bandiga binoan tovar yetkazib berilishi uchun zarur nazorat operatsiyalari (sifatni tekshirish, o‘lchash, tarozida tortish, o‘rinlar sonini sanash) xarajatlarini to‘lash, tovarning tashkil etilayotgan tashilishi uchun zarur bo‘lgan o‘rab-joylashni o‘z hisobidan ta-

Agar boshqa hol nazarda tutilib bo‘lsa, yuklab jo‘nalariga tishga qadar tovarlarni tekshirib chiqish xarajatlarini to‘lash, bundan eksport qiluvchi mammalash, tovarning tashkil etilayotgan tashilishi uchun zarur bo‘lgan tayinlangan tekshirib chiqish o‘rab-joylashni o‘z hisobidan ta-

mustasno.

minlash (agar ushbu savdo tarmog‘ida o‘ralmagan kontrakt konditsiyalaridagi tovar odatdag‘i hol bo‘lma gandagina). O‘ramga tegishli markirovka qo‘yilishi kerak.

#### **A.10 Boshqa majburiyatlar**

Xaridorga uning iltimosiga ko'ra, tavakkal qilishiga binoan va uning hisobidan, yuklab jo'natish va/yoki tovarning kelib chiqish mamlakatida va, agar zarur bo'lса, uning uchinchi mamlakat orqali tranziti uchun yozilgan yoki EDI tizimi orqali berilgan har qanday hujjatlar yoki muqobil elektron axborotlarni (A.8-bandida eslatilganlaridan tashqari) olishda har tomonlama yordam ko'rsatish.

Xaridorni uning iltimosiga ko'ra sug'urtani rasmiylashtirishga doir zarur axborot bilan ta'minlash

#### **V.10. Boshqa majburiyatlar**

A.10-bandida tilga olingan hujjatlar yoki muqobil elektron axborotlarni olish bilan bog'liq barcha xarajatlar va yig'implarni to'lash hamda sotuvchiga uning hujjatlarni olishda yordam ko'r-satganda qilgan xarajatlarini qoplash.

### **SIF yetkazib berish shartida sotuvchi va xaridorning majburiyatları**

«Qiymat, sug'urta va fraxt (kira haqi)» sharti sotuvchi «qiymat va fraxt (kira haqi)» shartlaridagidek majburiyatlar o'z zimmasiga olishini anglatadi, lekin u xaridorning xatarini yukni yo'qolish yoki shikastlanishdan dengizda sug'ortalash bilan ta'minlashi shartligi qo'shimcha qilinadi. Sotuvchi sug'urta shartnomasini tuzadi va sug'urta badalini to'laydi. Xaridor shuni nazarda tutishi lozimki, CIF shartlarida sotuvchidan faqat sug'urtani mas'uliyatning eng kam hajmi bo'yicha ta'minlash talab qilinadi. Mas'uliyatning eng kam hajmi deganda sotuvchi tomonidan xaridor hisobidan harbiy harakatlar, ish tashlashlar, fuqarolar g'alavonlari va tartibsizliklari singari xatar turlari yukni sug'ortalashning ta'minlanishi tushuniladi. Sug'urta mas'uliyatining eng kam hajmi shartnomada ko'rsatilgan narxni qoplashi, 10% qo'shilishi (ya'ni umuman 110% bo'lishi) va

10% sug'urta badali hisoblanadigan shartnomada nazarda tutilgan valutada ta'minlanishi kerak.

☞ CIF yetkazib berish bazis shartlari paytida taraflarning asosiy majburiyatları:

A. Sotuvchi	V. Xaridor
<b>A.1. Tovarni kontraktga muvofiq ta'minlash</b> Oldi-sotdi kontraktiga muvofiq Tovarning oldi-sotdi kontraktida tovarni hisob-varaq-faktura yoki nazarda tutilgan narxini to'lash. muqobil elektron axboroti hamda tovarning kontraktda nazarda tutilgan shartlarga muvofiqligining har qanday boshqa tasdig'i bilan ta'minlash.	<b>V.1. Tovar narxini to'lash</b>
<b>A.2. Litsenziyalar, ro'yxatnomalar va rasmiylashtirishlar</b> O'z tavakkalchiligi bilan va o'z hisobidan eksport litsenziyasini yoki boshqa ruxsatnomani olish hamda tovar eksporti uchun zarur barcha bojxona rasmiylashtirishlarini bajarish.	<b>V.2. Litsenziyalar, ro'yxatnomalar va rasmiylashtirishlar</b> O'z tavakkalchiligi bilan va o'z hisobidan import litsenziyasini yoki boshqa rasmiy ruxsatnomani olish hamda tovar importi bo'yicha va, agar zarur bo'lsa, uning uchinchi mamlakat orqali tranziti bo'yicha barcha bojxona rasmiylashtirishlarini bajarish.
<b>A.3. Tashish va sug'urta shartnomalari</b> A) tashish shartnomasi bo'yicha: Majburiyatlar yo'q.	<b>V.3. Tashish shartnomalari</b>

odatdagı shartlarda o‘z hisobidan kontrakt konditsiyalaridağı tovarni tashish uchun odatda foydalaniladigan turdagı dengiz kemasida (yoki daryo kemasida) umumiy qabul qilingan yo‘nalish bo‘yicha kelishilgan belgilangan portga qadar tovar tashish shartnomasini tuzish.

B) sug‘urta shartnomasi bo‘yicha:

xaridor yoki tovarni sug‘urta-lashdan manfaatdor har qanday boshqa shaxs bevosita sug‘urta-lovchiga da’vo bildirish huquqiga ega bo‘lishi uchun kontraktda nazarda tutilgan shartlarda o‘z hisobidan sug‘urta shartnomasini tuzish.

Xaridorni sug‘urta polisi yoki sug‘urta xatarları qoplanishini tasdiqlaydigan boshqa hujjat bilan ta’minlash.

Sug‘urta shartnomasini obronufuzga ega sug‘urtalovchilar yoki sug‘urta kompaniyasi bilan tuzish va boshqa alohida kelishuv bo‘limgan holda London sug‘urtalovchilari birlashmasining yuklarni sug‘urtalash qoidalari yoki har qanday shu singari boshqa qoidalar nazarda tutilgan mas’uliyatning eng kam hajmini qoplashi kerak. Sug‘urta ta’mintonining amal qilish muddati V.5 va V.4-bandlarga muvofiq kelishi kerak. Xaridorning

talabiga binoan va uning hisobidan sotuvchi, agar buning iloji bo'lsa, harbiy xatarlar, ish tashlashlar, fuqarolar g'elayonlari va tartibsizliklari xatarlardan sug'urta qilishni ta'minlashi kerak. Sug'urta summasining eng kam miqdori tovarning kontrakt qiymatini qoplashi va unga 10% qo'shilishi (ya'ni 110% bo'lishi) hamda kontrakt valutasida ifodalanishi kerak.

#### A.4. Tovarni yetkazib berish

Tovarni kema bortiga yuklab jo'natish portida tayinlangan kunda yoki belgilangan davr davomida yetkazib berish.

#### V.4. Yetkazib berilgan tovarni qabul qilish

Agar u A.4-bandiga binoan yetkazib berilgan bo'lsa, yetkazib berilgan tovarni qabul qilish va uni tashuvchidan kelishilgan belgilangan portda olish.

#### A.5. Xatarlarning o'tishi

V.5-bandini hisobga olgan holda tovar kelishilgan yuklab jo'natish portida kema tutqichi orqali o'tgan paytdan boshlab tovarning yo'qolish yoki shikastlanish xatarlarining hammasiga mas'ul bo'lish va tovarning yo'qolishi yok shikastlanishini to'lash.

#### V.5. Xatarlarning o'tishi

Tovar yuklab jo'natish portida kema tutqichi orqali o'tgan paytdan boshlab tovarning yo'qolish yoki shikastlanish xatarlarining hammasiga mas'ul bo'lish.

Agar xaridor V.7-bandiga binoan bildiruvnomaga yubormagan bo'lsa, kelishilgan sanadan yoki yuklab jo'natish nazarda tutilgan davr tugallangan sanadan boshlab tovarning yo'qolishi yoki shikastlanishi barcha xatarlariga mas'ul bo'lish, biroq tovar kontraktga muvofiq tegishlicha in-

dividuallashtirilgan bo‘lishi, ya’ni aniq ajratilib qo‘yishi yoki kontrakt tovari sifatida boshqacha tarzda identifikatsiya qilingan bo‘lishi kerak.

#### A.6. Xarajatlarni taqsimlash

V.6-bandini hisobga olib:

Tovarni A.4-bandiga binoan yetkazib berish paytiga qadar unga taalluqli barcha xarajatlarni, shuningdek A.3-bandidan kelib chiqadigan kira haqi va barcha boshqa xarajatlarni, shu jumladan tashish shartnomasi doiralarida dengiz liniyalari tomonidan undirilishi mumkin bo‘lgan tovarni kema bortida yuklash xarajatlari va belgilangan portdag‘i barcha yuklash xarajatlari;

Eksport uchun nazarda tutilgan bojxona rasmiylashtiruvlarini bajarishga doir xarajatlarni, shuningdek tovar eksporti paytida undiriladigan bojlar, solqlar va boshqa yig‘imlarni to‘lash

#### V.6. Xarajatlarni taqsimlash

A.3-bandini hisobga olib:

u A.4-bandiga binoan yetkazib berilgan paytidan boshlab tovarga doir barcha xarajatlarni to‘lash va, agar bunday xarajatlar va yig‘imlar muntazam dengiz liniyalari tomonidan tashish shartnomasi dorirasida undirilmagan bo‘lsa, tovarga doir va belgilangan portga kelishiga qadar tashish jarayonida paydo bo‘lgan barcha xarajatlar va yig‘imlarni, shuningdek yukni bo‘shatish, shu jumladan lixterga ortish xarajatlari va prichal yig‘imlarni to‘lash.

V.7-bandiga binoan tegishli bildiruvnoma bilan ta’minlanmagan taqdirda kelishilgan sanadan yoki yukni tushirish uchun belgilangan nazarda tutilgan davr tugagan sanadan boshlab tovarga taalluqli, ushbu sababga ko‘ra qilingan qo‘sishimcha xarajatlarni to‘lash, bunda tovar kontraktga muvofiq tegishlichka individuallashtirilishi, ya’ni aniq ajratib qo‘yilishi yoki kontrakt tovari sifatida boshqacha tarzda identifikatsiya qilinishi kerak.

Tovar importi va, agar zarur bo'lsa, uning uchinchi mamlakat orqali tranziti munosabati bilan undiriladigan barcha bojlar, soliqlar va boshqa yig'implarni, shuningdek, bojxona rasmiylash-tiruvlarini bajarishga doir xarajatlarini to'lash.

#### A.7. Xaridorni xabardor qilish

Tovar kema bortiga yetkazib berilgani to'g'risida xaridorga o'z vaqtida bildiruvnoma, shuningdek, xaridor tovarni qabul qilish uchun odatdag'i choralarни ko'ra olishi uchun zarur boshqa bildiruvnomani yuborish.

#### A.8. Yetkazib berish dalili-transport hujjati yoki muqobil elektron xabari

Agar boshqa narsa nazarda tutilmagan bo'lsa, o'z hisobidan xaridorni darhol kelishilgan belgilangan portga qadar odatdag'i transport hujjati bilan ta'minlash. Ushbu hujjat (masalan, tovarni tasarruf etish konosamenti, tovarni tasarruf etmaslik dengiz yuk xati yoki daryo konosamenti) kontrakt tovarini qoplashi, kelishilgan yuklab jo'natish davri doirasida sana qoyilishi, xaridorni tovarni tashuvchidan belgilangan portda olish imkoniyatini ta'minlashi va, agar

#### V.7. Sotuvchini xabardor qilish

Xaridorga tovarni yuklab jo'natish muddati va/yoki portini belgilash huquqi berilgan holalarda sotuvchiga bu haqda o'z vaqtida bildiruvnoma yuborish.

#### V.8. Yetkazib berish dalili-transport hujjati yoki muqobil elektron xabari

A.8-bandiga binoan agar u kontrakt talablariga javob bersa, trasnport hujjatini qabul qilish.

kelishilmagan bo'lsa, xaridorga tovarni yangi xaridorga hujjatni (tovarni tasarruf etish konsamenti) topshirish yoki tashuvini xabardor qilish yo'li bilan qayta sotish imkonini berish.

Transport hujjati bir nechta asl nusxalarda yozilgan hollarda xaridorga asl nusxalarning to'liq majumi taqdim etilishi kerak.

Agar transport hujjatida charter-partiya bog'lamasi mavjud bo'lsa, sotuvchi uning nusxasini ham taqdim etishi kerak. Agar sotuvchi bilan xaridor elektron aloqa to'g'risida kelishib olishsa, avvalgi xatboshlarida eslatilgan hujjat elektron axborot ayrboshlash tizimi EDI da muqobil axborot bilan almashtirilishi mumkin.

#### **A.9. Tekshirish, o'rabiyojlash V.9. Tovarni tekshirib chiqish va markirovkalash**

A.4-bandiga binoan tovar yetkazib berilishi uchun zarur nazorat operatsiyalari (sifatni tekshirish, o'lchash, tarozida tortish, o'rirlar sonini sanash) xaratjatlarini to'lash. Tovarning tashkil etilayotgan tashilishi uchun zarur bo'lgan o'rabiyojlashni o'z hisobidan ta'minlash (agar ushbu savdo tarmog'ida o'ralmagan kontrakt konditsiyalaridagi tovarni yuklab jo'natish odatdagi

Agar boshqa hol nazarda tutilmagan bo'lsa, yuklab jo'natishga qadar tovarlarni tekshirib chiqish xaratjatlarini to'lash, bundan eksport qiluvchi mamlakatning hokimiyat organlari tavilangan, tekshirib chiqish mustasno.

hol bo‘lmasa). O‘ramga tegishli markirovka qo‘yilishi kerak.

#### A.10 boshqa majburiyatlar

Xaridorga uning iltimosiga ko‘ra, tavakkal qilishiga binoan va uning hisobidan, yuklab jo‘natish va/yoki uning kelib chiqish mamlakatida, agar zarur bo‘lsa, uning uchinchi mamlakat orqali tranziti uchun yozilgan yoki EDI tizimi orqali berilgan har qanday hujjatlar yoki muqobil elektron axborotlarni (A.8-bandida eslatilganlaridan tashqari) olishda har tomonlama yordam ko‘rsatish.

#### V.10. Boshqa majburiyatlar

A.10-bandida tilga olingan hujjatlar yoki muqobil elektron axborotlarni olish bilan bog‘liq barcha xarajatlar va yig‘imlarni to‘lash hamda sotuvchiga uning hujjatlarni olishda yordam ko‘rsatganda qilgan xarajatlarini qoplash

Sotuvchining uning iltimosiga ko‘ra sug‘urtani rasmiylashtirishiga doir zarur axborot bilan ta‘minlash.

### SRT yetkazib berish shartida sotuvchi va xaridorning majburiyatları

**CPT** – «...ga qadar (importchining chegarasiga qadar) tashish haqi to‘langan» sharti sotuvchi importchi chegarasining kelishilgan belgilangan joyiga qadar tovarni tashish uchun kira haqini to‘lashini anglatadi. Tovarni buzish yoki shikastlanish xatari, shuningdek, tovar tashuvchiga yetkazib berilganidan keyin yuz bergen voqealar oqibatida yuz bergen istalgan qo‘srimcha xarajatlar sotuvchidan xaridorga tovar tashuvchiga berilgan paytda o‘tadi. Tashuvchi-tashish shartnomasiga muvofiq o‘z zimmasiga kontrakt yukini temir yo‘l, avtomobil, dengiz, havo va daryo transportida yoki ana shu transport turlari birikuvida tashishni amalga oshirish yoxud ta‘minlash majburiyatini oladigan shaxsdir. Agar kelishilgan belgilangan punktga qadar tashish uchun bir nechta tashuvchidan foydalanilsa, xatar birinchi tashuvchidan tovarni topshirish paytda ikkinchi tashuvchiga va hokazolarga o‘tadi.

CPT yetkazib berish sharti bo‘yicha sotuvchi eksport uchun tovarni bojxonada holi qilishni ta‘minlashi kerak. Ushbu shartdan

tovarni istalgan turdag'i transportda, shu jumladan, multimodal transportda tashish paytida foydalanish mumkin.

☞ CPT yetkazib berish bazis shartlari paytida taraflarning asosiy majburiyatlari:

A. Sotuvchi	V. Xaridor
<b>A.1. Tovarni kontraktga muvofiq ta'minlash</b> Oldi-sotdi kontraktiga muvofiq tovarni hisob-varaq-fakturna yoki muqobil elektron axboroti hamda tovarning kontraktida nazarda tutilgan shartlarga muvofiqligining har qanday boshqa tasdig'i bilan ta'minlash.	<b>V.1. Tovar narxini to'lash</b> Tovarning oldi-sotdi kontraktida nazarda tutilgan narxini to'lash.
<b>A.2. Litsenziyalar, ro'yxatnomalar va rasmiylashtirishlar</b> O'z tavakkalchiligi bilan va o'z hisobidan eksport litsenziyasini yoki boshqa ruxsatnomani olish hamda tovar eksporti uchun zarur barcha bojaxona rasmiylashtirishlarini bajarish.	<b>V.2. Litsenziyalar, ro'yxatnomalar va rasmiylashtirishlar</b> O'z tavakkalchiligi bilan va o'z hisobidan import litsenziyasini yoki boshqa ruxsatnomani olish hamda tovar importi bo'yicha va, agar zarur bo'lsa, uning uchinchi mamlakat orqali tranziti bo'yicha barcha bojaxona rasmiylashtirishlarini bajarish.
<b>A.3. Tashish va sug'urta shartnomalari</b> A) tashish shartnomasi bo'yicha Odatdag'i shartlarda tovarni nazarda tutilgan belgilangan	<b>V.3. Tashish shartnomalari</b> Majburiyatlar yo'q.

joyda kelishilgan punktga qadar odatdagi yo‘nalish bilan va umumiy qabul qilingan usulda tashish shartnomasini tuzish. Agar punkt kelishilmagan yoki belgilanmagan bo‘lsa, sotuvchining o‘zi nazarda tutilgan joyda eng maqbul deb biladigan punktni tanlab olishi mumkin:

B) sug‘urta shartnomasi bo‘yicha

Majburiyatlar yo‘q.

#### A.4. Tovarni yetkazib berish

Belgilangan kunda yoki belgilangan davr davomida kelishilgan belgilangan joyga qadar tashish uchun tovarni tashuvchiga yoki bir nechta tashuvchidan foydalanilganda ulardan birinchisiga yetkazib berish.

#### A.5. Xatarlarning o‘tishi

V.5-bandini hisobga olgan holda uni A.4-bandiga binoan yetkazib berish paytiga qadar tovarning yo‘qolishi yoki shikastlanishiga doir barcha xatarlarga mas’ul bo‘lish.

#### V.4. Yetkazib berilgan tovarni qabul qilish

#### V.5. Xatarlarning o‘tishi

A.4-bandiga binoan yetkazib berilgan paytdan boshlab tovarning yo‘qolishi yoki shikastlanishiga doir barcha xatarlarga mas’ul bo‘lish.

Agar xaridor V.7-bandiga binoan bildiruvnoma yubormagan bo‘lsa, kelishilgan sanadan yoki nazarda tutilgan yetkazib berish davrining tugash sanasidan boshlab tovarga taalluqli barcha xatarlariga mas’ul bo‘lish, biroq tovar kontraktga

muvofiq tegishlicha individual-lashtirilgan bo'lishi, ya'nı aniq ajratilib qo'yishi yoki kontrakt tovari sifatida boshqacha tarzda identifikatsiya qilingan bo'lishi kerak.

#### A.6. Xarajatlarni taqsimlash

V.6-bandini hisobga olib. V.6-bandini hisobga olib. tovarni A.4-bandiga binoan yetkazib berish paytiga qadar unga taalluqli barcha xarajatlarni, shuningdek, A.3.a)-bandidan kelib chiqadigan kira haqi va barcha boshqa xarajatlarni, shu jumladan, kira haqiga kiritilgan yoki sotuvchi tashish sharhnomasiga binoan yuklab ortish va belgilangan joyda yukni tushirish xarajatlari; Eksport uchun nazarda tutilgan bojxona rasmiylashtishlarini bajarishga doir xarajatlarni, shuningdek, tovar eksporti paytida undiriladigan bojlar, soliqlar va boshqa yig'imlarni to'lash.

#### V.6. Xarajatlarni taqsimlash

A.3-bandini hisobga olgan holda u A.4-bandiga binoan yetkazib berilgan paytidan boshlab tovarga doir barcha xarajatlarni to'lash va, agar bunday xarajatlar va yig'imlar kira haqiga kiritilmagan yoki sotuvchi talafotlarni A.3.a)-bandiga binoan tashish sharhnomasi doirasidagina sodir etgan bo'lsa, kelishilgan belgilangan joyga qadar tovarga taalluqli bo'lган va tashish jarayonida paydo bo'lган barcha xarajatlar va yig'imlarni, shuningdek tushirish xarajatlarni to'lash.

V.7-bandiga binoan tegishli bildiruvnoma bilan ta'minlanmagan taqdirda kelishilgan sanadan yoki yukni jo'natishning nazarda tutilgan muddatining tugash sanasidan boshlab tovarga taalluqli, ushbu sababga ko'ra qilingan qo'shimcha xarajatlarni to'lash, bunda tovar kontraktga muvofiq tegishlicha individual-lashtirilishi, ya'nı aniq ajratib qo'yilishi yoki kontrakt tovari sifatida boshqacha tarzda identifikatsiya qilinishi kerak.

Tovar importi va, agar zarur bo'lsa, uning uchinchi mamlakat orqali tranziti munosabati bilan undiriladigan barcha bojlar, soliqlar va boshqa rasmiy yig'implarni, shuningdek, bojxona rasmiylash-tiruvlarini bajarishga doir xarat-jatlarini to'lash.

#### **A.7. Xaridorni xabardor V.7. Sotuvchini xabardor qilish qilish**

Tovar kema bortiga yetkazib berilgani to'g'risida xaridorga jo'natish muddatini va/yoki tayin-o'z vaqtida bildiruvnoma, shuningdek, xaridor tovarni qabul qilish uchun odatdagi chora-larni ko'ra olishi uchun zarur yuborish. Agar xaridorga tovarni yuklab berilgan bo'lsa, sotuvchiga bu haqda o'z vaqtida bildiruvnoma yuborish.

#### **A.8. Yetkazib berish dalili-transport hujjati yoki muqobil elektron xabari**

Xaridorni sotuvchi hisobidan odatdagi transport hujjati (masalan, tovarni tasarruf etish konosamenti, aviatsiya yukxati, temir yo'l yukxati, avtomobil yukxati yoki multimodal transport hujjati) bilan ta'minlash.

Agar sotuvchi bilan xaridor elektron aloqa to'g'risida keli-shib olishgan bo'lsa, oldingi xatboshida tilga olingan hujjat elektron axborot ayirboshlash tizimi EDI da muqobil axborot bilan almashtirilishi mumkin.

#### **V.8. Yetkazib berish dalili-transport hujjati yoki muqobil elektron xabari**

Agar u kontrakt talablariga javob bersa, trasnport hujjatmi A.8-bandiga binoan qabul qlish.

## A.9. Tekshirish, o'rab-joylash va markirovkalash

A 4-bandiga binoan tovar yet-kazib berilishi uchun zarur nazorat operatsiyalari (sifatni tekshirish, o'lchash, tarozida tortish o'rinnlar sonini sanash) xarajatlarini to'lash. Tovarning tashkil etilayotgan tashilishi uchun zarur bo'lgan o'rab-joylashni o'z hisobidan ta'minlash (agar ushbu savdo tarmog'ida o'ralmagan kontrakt konditsiyalaridagi tovarni yuklab jo'natish odatdagi hol bo'lmasa). O'ramga tegishli markirovka qo'yilishi kerak.

## A.10. Boshqa majburiyatlar

Xaridorga uning iltimosiga ko'ra, tavakkal qilishiga binoan va uning hisobidan, yuklab jo'natish va/yoki uning kelib chiqish mamlakatida va, agar zarur bo'lsa, uning uchinchi mamlakat orqali tranziti uchun yozilgan yoki EDI tizimi orqali berilgan har qanday hujjatlar yoki muqobil elektron axborotlarni (A.8-bandida eslatilganlaridan tashqari) olishda har tomonlama yordam ko'rsatish. Xaridorni uning iltimosiga ko'ra sug'urtani rasmiylashtirishiga doir zarur axborot bilan ta'minlash.

## V.9. Tovarni tekshirib chiqish

Agar boshqa hol nazarda tutilmagan bo'lsa, yuklab jo'natishga qadar tovarlarni tekshirib chiqish xarajatlarini to'lash, bundan eksport qiluvchi mamlakatning hokimiyat organlari tayinlangan, tekshirib chiqish mustasno.

## V.10. Boshqa majburiyatlar

A.10-bandida tilga olingan hujjatlar yoki muqobil elektron axborotlarni olish bilan bog'liq barcha xarajatlar va yig'imlarni to'lash hamda sotuvchiga uning hujjatlarni olishda yordam ko'rsatganda qilgan xarajatlarini qoplash.

## SIR yetkazib berish shartida sotuvchi va xaridorning majburiyatları

A.Sotuvchi	V.Xaridor
------------	-----------

### A.1. Tovarni kontraktga muvofiq ta'minlash

Oldi-sotdi kontraktga muvofiq tovarni hisob-varaq-fakturna yoki muqobil elektron axboroti hamda tovarning kontraktda nazarda tutilgan shartlarga muvofiqligining har qanday boshqa tasdig'i bilan ta'minlash.

### A.2. Litsenziyalar, ruxsatnomalar va rasmiylashtirishlar

O'z tavakkalchiligi bilan va o'z hisobidan eksport litsenziyasini yoki boshqa ruxsatnomani olish hamda tovar importi uchun zarur barcha bojxona rasmiylashtirishlarini bajarish.

### A.3. Tashish va sug'urta shartnomalari

A) tashish shartnomasi bo'yicha:  
odatdag'i shartlarda o'z hisobidan importchi chegarasidagi nazarda tutilgan belgilangan joyda kelishilgan punktga qadar oddiy yo'nalishda va

### V.1. Tovar narxini to'lash

Tovarning oldi-sotdi kontraktida nazarda tutilgan narxini to'lash.

### V.2. Litsenziyalar, ruxsatnomalar va rasmiylashtirishlar

O'z tavakkalchiligi bilan va o'z hisobidan import litsenziyasini yoki boshqa ruxsatnomani olish hamda tovar importi bo'yicha va, agar zarur bo'lsa, uning uchinchi mamlakat orqali tranziti bo'yicha barcha bojxona rasmiylashtirishlarini bajarish.

### V.3. Tashish shartnomasi

Majburiyatlar yo'q.

umumiyl qabul qilingan usul bilan tashish shartnomasini tuzish. Agar punkt kelishilmagan yoki belgilanmagan bo'lsa, sotuvchining o'zi eng maqbul deb biladigan nazarda tutilgan belgilangan joyda punktni tanlashi mumkin.

#### A.4 Tovarni yetkazib berish

Tovarni tashuvchining ixtiyoriga yoki, agar bir nechta tashuvchi nazarda tutilgan bo'lsa, ularda birlinchisining ixtiyoricha ko'rsatilgan belgilangan joyga, shartlangan sanaga yoki belgilangan davr davomida tashish uchun yetkazib berish.

#### A.5. Xatarlarning o'tishi

Tovar A.4-bandiga binoan yetkazib beriladigan vaqtga qadar tovarning yo'qolishi yoki shikastlanishining butun xatariga mas'ul bo'lish.

#### V.4. Yetkazib berilgan tovarni qabul qilish

A.4-bandiga binoan yetkazib berilganidan keyin tovarni qabul qilish yoki uni tashuvchidan ko'rsatilgan belgilangan joyda olish.

#### V.5. Xatarlarning o'tishi

A.4-bandiga binoan tovar yetkazib berilgan vaqtidan boshlab tovar yo'qolishi yoki shikastlanishining butun xatariga mas'ul bo'lish

Agar sotuvchi V.7-bandiga binoan ogohlantirilmagan bo'lsa, kelishilgan sanadan yoki yetkazib berish uchun belgilangan davrning tugash sanasidan boshlab tovarning yo'qolishi yoki shikastlanishining butun xatariga mas'ul bo'lish, bunda tovar mazkur shartnomanmg ashyosida sifatida tegishli

tarzda identifikasiya qilinishi kerak.

#### A.6. Xarajatlarni taqsimlash

V.6-bandini hisobga olib:

tovarni A.4-bandiga binoan yetkazib berish paytiga qadar unga taalluqli barcha xarajatlarni, shuningdek A.3. a)-bandidan kelib chiqadigan kira haqi va barcha boshqa xarajatlarni, shu jumladan. tovarni yuklab jo'natishga va uni belgilangan joyda bo'shatishga doir, kira haqiga kiritilgan yoki sotuvchi qilgan xarajatlarni to'lash;

eksport uchun nazarda tutilgan bojxona rasmiy lashtiruvlarini bajarishga doir xarajatlarni, shuningdek, tovar eksporti paytida undiriladigan barcha bojlar, soliqlar va boshqa rasmiy yig'implarni to'lash.

#### V.6. Xarajatlarni taqsimlash

A.3-bandini hisobga olib, u A.4-bandiga binoan yetkazib berilgan paytidan boshlab tovarga doir barcha xarajatlarni to'lash va, agar bunday xarajatlar va yig'implar kira haqiga kiritilmagan yoki sotuvchi tomonidan A.3. a)-bandiga binoan tashish shartnomasi doirasida ziyon yetkazilgan bo'lsa, tovarga doir va kelishilgan belgilangan joyga kelishiga qadar tashish jarayonida paydo bo'lgan barcha xarajatlar va yig'implarni, shuningdek, yukni bo'shatish xarajatlarini to'lash V.7-bandiga binoan bildiruvnomaga bilan ta'minlanmagan taqdirda kelishilgan sanadan yoki nazarda tutilgan jo'natish muddati tugagan sanadan boshlab tovarga taalluqli, ushbu sababga ko'ra qilingan qo'shimcha xarajatlarni to'lash, biroq tovar kontraktga muvofiq tegishlicha individuallashtirilishi, ya'ni aniq ajratib qo'yilishi yoki kontrakt tovari sifatida boshqacha tarzda identifikasiya qilinishi kerak.

Tovar importi va, agar zarur bo'lsa, uning uchinchi mammalakat orqali tranziti munosabati

bilan undiriladigan barcha bojlar, soliqlar va boshqa yig'implarni, shuningdek, bojxona rasmiylashtiruvlarini bajarishga doir xarajatlarni to'lash.

#### A.7. Xaridorni xabardor qilish

Tovar belgilangan joyga yetkazib berilgani to'g'risida xaridorga o'z vaqtida bildiruvnoma, shuningdek, xaridor tovarni qabul qilishga tayyorlanish uchun odatdagi choralarни ko'ra olishiga doir istalgan boshqa bildiruvnomani yuborish.

#### A.8. Yetkazib berish dalili-transport hujjati yoki muqobil elektron xabari

Xaridorni o'z hisobidan odatdagi transpot hujjati (masalan, tovarni tasarruf etish konosamenti, aviasiya yukxati, temir yo'l yukxati, avtomobil yukxati yoki multimodal transport hujjati) bilan ta'minlash.

Agar sotuvchi bilan xaridor elektron aloqa to'g'risida kelihib olishgan bo'lsa, tilga olingan hujjat elektron axborot ayirboshlash tizimi EDI da muqobil axborot bilan almashtilishi mumkin.

#### V.7. Sotuvchin xabardor qilish

Xaridorga tovari yuklab jo'natish muddati va/yoki tayinlagan punktni belgilash huquqi berilgan hollarda sotuvchiga bu haqda o'z vaqtida bildiruvnomasi yuborish.

#### V.8. Yetkazib berish dalili-transport hujjati yoki muqobil elektron xabari

Agar u kontrakt talablariga javob bersa, A.8-bandı talablariga binoan transport hujjatini qabul qilish.

### **A.9. Tekshirish, o'rab-joylash va markirovkalash**

A.4-bandiga binoan tovar yetkazib berilishi uchun zarur nazorat operatsiyalari (sifatida tekshirish, o'lhash, tarozida tortish, o'rinalar sonini sanash) xarajatlarini to'lash. Tovarning tashkil etilayotgan tashilishi uchun zarur bo'lgan o'rab-joylashni o'z hisobidan ta'minlash (agar ushbu savdo tarmoq'ida o'ralmagan kontrakt konditsiyalaridagi tovarni jo-natish odatdagি hol bo'lmasa). O'ramga tegishli markirovka quyilishi kerak.

### **A.10. Boshqa majburiyatlar**

Xaridorga uning iltimosiga ko'ra va uning hisobidan yuklab jo-natish va/yoki tovarning kelib chiqish mamlakatida va, agar zarur bo'lsa, uning uchinchi mamlakat orqali tranziti uchun yozilgan yoki EDI tizimi orqali berilgan har qanday hujjatlar yoki muqobil elektron axborotlarni (A.8-bandida eslatilganlardan tashqari) olishda har tomonlama yordam ko'rsatish.

Xaridorni uning iltimosiga ko'ra sug'urtani rasmiy lash-tirishga doir zarur axborot bilan ta'minlash.

### **V.9. Tovarni tekshirib chiqish**

Agar boshqa hol nazarda tutilmagan bo'lsa, yuklab jo-natishga qadar tovarlarni tekshirib chiqish xarajatlarini to'lash, bundan eksport qiluvchi mamlakatning hokimiyat organlari tayinlangan tekshirib chiqish mustasno.

### **V.10. Boshqa majburiyatlar**

A.10-bandida tilga olingan hujjatlar yoki muqobil elektron axborotlarni olish bilan bog'liq barcha xarajatlar va yig'imlarni to'lash hamda sotuvchiga uning hujjatlarni olishda yordam ko'rsatganda qilgan xarajatlarini qoplash.

## **2. Yetkazib berish shartining D guruhining tavsifi**

DBQning 2011-yil 9-fevraldag'i «INKOTERMS-2010 xalqaro savdo shartlarini amaliyotga kiritilganligi to'g'risida»gi 1-ko'rsatmasiga asosan bojxona organlariga bojxona qiymatini nazorat qilishda Inkoterms-2010 shartlarini qo'llanilishini vazifa qilib belgilab berildi. Shu jumladan Inkoterms -2000dag'i D guruhidagi yetkazib berish shartlari DAF va DES shartlari o'mniga – DAP, DEQ va DDU shartlari o'mniga – DAT yetkazib berish shartlari kiritildi.

**Yetkazib berish shartining D guruhidan DAF** (Franko-chegarsigacha yetkazib kelish), **DES** (Franko-kemagacha yetkazib kelish), **DEQ** (Franko-prichalgacha yetkazib kelish), **DDU** (Bojlarni to'lamasdan yetkazib berish) shartlari chiqarib tashlandi.

### **D guruhi (Yetkazib berish)**

*Transportning istalgan turida tashish.*

D guruhi 3 ta yetkazib berish shartni o'z ichiga oladi.

**DAT Delivered At Terminal** (... named terminal of destination) – Terminalda (...terminal nomi) yetkazib berish. Bunda tovar xaridorning ixtiyoriga transport vositasidan tushirilmagan holda taqdim etiladi. Ko'proq multimodal tashuvlar uchun qo'llaniladi. Logistika bo'yicha ekspertlarning baholashlaricha, terminalgacha yetkazib berish ko'proq portda logistika amaliyotiga mos keladi.

**DAP Delivered At Point** (... named point of destination) – Punktda (...punkt nomi) yetkazib berish. *Tayinlangan joyga yetkazib berish* shuni anglatadiki, kelishilgan tayinlangan joyga kelgan, yukdan tushirishga tayyor transport vositasida tovar xaridorning tasarrufiga taqdim etilganda sotuvchi yetkazib berishni amalga oshirgan hisoblanadi. Sotuvchi tovarni aytilgan joyga yetkazib berish bilan bog'liq barcha xatarlarni zimmasiga oladi.

Taraflarga kelishilgan tayinlangan joy punktini aniq belgilash tavsija qilinadi, chunki ungacha xatarlar sotuvchi zimmasida bo'ladi. Unga bunday tanlov aniq aks ettirilgan tashish shartnomalarim ta'minlash tavsija qilinadi. Agar sotuvchi uning tashish shartnomasiga ko'ra kelishilgan tayinlangan joydag'i yukdan tushirish xarajatlarini to'lasa, u xaridordan ularni qoplashni talab qilishga, agar taraflar boshqacha kelishuv tuzmagan bo'lsalar, haqli bo'lmaydi.

DAP sotuvchidan olib chiqish uchun bojxona rasmiyatchiliklarini bajarishni, agar ular qo'llansa, talab qiladi.

**DDP Delivered Duty Paid** (... named place of destination) – Boj to'lagan holda (...tayinlangan joy nomi) yetkazib berish. «*Boj to'lagan holda yetkazib berish*» sharti tovar import qiluvchi mamlakatning kelishilgan joyida xaridor tasarrufiga berilganda sotuvchining yetkazib berish bo'yicha majburiyatları bajarilgan deb hisoblanishini anglatadi. Sotuvchi import bo'yicha bojxona tozalashi (rasmiy-lashtiruvi)dan o'tgan tovarni topshirish joyiga qadar yetkazib berish bilan bog'liq barcha xatarlar va xarajatlarga, shu jumladan bojlar, soliqlar va boshqa yig'implarga mas'ul bo'lishi kerak. Agar sotuvchi import litsenziyasini olishning bevosita yoki bilvosita imkoniyatiga ega bo'lmasa, u holda mazkur yetkazib berish shartidan foydalanmaslik kerak.

**DDP Delivered Duty Paid** (... named place of destination) – Boj to'lagan holda yetkazib berish (kelishilgan belgilangan joy)).

«*Boj to'lagan holda yetkazib berish*» sharti tovar import qiluvchi mamlakatning kelishilgan joyida xaridor tasarrufiga berilganda sotuvchining yetkazib berish bo'yicha majburiyatları bajarilgan deb hisoblanishini anglatadi. Sotuvchi import bo'yicha bojxona tozalashidan o'tgan tovarni topshirish joyiga qadar yetkazib berish bilan bog'liq barcha xatarlar va xarajatlarga, shu jumladan bojlar, soliqlar va boshqa yig'implarga mas'ul bo'lishi kerak. Agar EXW yetkazib berish sharti sotuvchi majburiyatlarining eng kam hajmini nazarda tutsa, DDP sharti ularning eng ko'p hajmini nazarda tutadi.

Agar sotuvchi import litsenziyasini olishmng bevosita yoki bilvosita imkoniyatiga ega bo'lmasa, mazkur yetkazib berish shartidan foydalanmaslik kerak. Agar taraflar import bo'yicha tovarning bojxona tozalashi va boj to'lashni xaridor amalga oshirishi to'grisida kelishib olishsa, DDR yetkazib berish shartidan foydalanish zarur.

**DDP yetkazib berish shartida sotuvchi va xaridorning majburiyatları quyidagilardan iborat:**

**A. Sotuvchi**

**V.Xaridor**

**A.1. Tovarni kontraktga muvofiq ta'minlash**

Tovarni oldi-sotdi kontraktiga muvofiq hisobvaraq-faktura yoki muqobil elektron axboroti hamda tovarning kontraktda nazarda tutilgan shartlarga muvofiqligining har qanday boshqa tasdig'i bilan ta'minlash.

**A.2. Litsenziyalar, ruxsatnomalar va rasmiylashtirishlar**

O'z tavakkalchiliga binoan va o'z hisobidan eksport va import litsenziyalarini yoki boshqa ruxsatnomani olish hamda tovar eksporti va importi bo'yicha va, agar zarur bo'lsa, uning uchinchi mamlakat orqali tranziti bo'yicha barcha bojxona rasmiylash-tiruvlarini bajarish.

**A.3. Tashish va sug'urta shartnomalari**

a) tashish nazarda tutilgan belgilangan portdagi kelishilgan joyga qadar odatdagi yo'nalishda va umumqabul qilingan usul bilan tovarni tashish shartnomasini tuzish.

Agar yetkazib berish punkti keli-shilmagan bo'lsa, sotuvchining

**V.1. Tovar narxini to'lash**

Tovarning oldi-sotdi kontraktida nazarda tutilgan narxini to'lash.

**V.2. Litsenziyalar, ruxsatnomalar va rasmiylashtirishlar**

Sotuvchiga uning iltimosiga ko'ra, o'z tavakkalchiliga binoan va uning hisobidan import litsenziyasini yoki import tovari olish uchun zarur boshqa ruxsatnomani olishda har tomonlama yordam ko'rsatish.

**V.3. Tashish shartnomasi**

Majburiyatlar yo'q.

o‘zi kelishilgan belgilangan joy-dagi eng maqbul deb hisoblangan punktni tanlashi mumkin.  
b) sug‘urta shartnomasi bo‘yicha majburiyatlar yo‘q.

#### A.4. Tovarni yetkazib berish

A.3-bandiga binoan tovarni xaridori tasarrufiga belgilangan kunda yoki belgilangan davr mobaynida taqdim etish

#### V.4. Yetkazib berilgan tovarni qabul qilish

Tovar A.4-bandiga binoan xaridori tasarrufiga taqdim etilganda yetkazib berilgan tovarni qabul qilish.

#### A.5. Xatarlarning o‘tishi

A.4-bandiga binoan yetkazib berilgan paytga qadar V.5-bandini hisobga olgan holda barcha xatarlarga mas‘ul bo‘lish hamda tovarning yo‘qolishi yoki shikastlanishini to‘lash.

#### V.5. Xatarlarning o‘tishi

Tovar uning tasarrufiga A.4-bandiga binoan taqdim etilgan paytdan boshlab barcha xatarlarga mas‘ul bo‘lish hamda tovarning yo‘qolishi yoki shikastlanishini to‘lash.

Agar xaridor V.2-bandiga binoan o‘z majburiyatlarini bajarmasa, u barcha qo‘srimcha xatarlarga mas‘ul bo‘ladi hamda ana shu sababga ko‘ra yuzaga kelgan tovarning yo‘qolishi yoki shikastlanishini to‘laydi, agar V.7-bandiga binoan bildiruvnomma yuborilmagan bo‘lsa, keli-shilgan sanadan yoki nazarda tutilgan yetkazib berish davri tugagan sanadan boshlab barcha xatarlarga mas‘ul bo‘ladi hamda tovarning yo‘qolishi yoki shikastlanishini to‘laydi, biroq bunda tovar kontraktga muvofiq

tegishli tarzda individualashitirilishi, ya’ni aniq ajratib qo‘yilishi yoki kontrakt tovari sifatida boshqacha tarzda identifikatsiya qilinishi kerak.

#### A.6. Xarajatlarni taqsimlash

V.6-bandini hisobga olib:

A.3.a)-bandida ko‘rsatilgan xarajatlarga qo‘shimcha sifatida tovarga taalluqli barcha xarajatlarni uni A.4-bandiga binoan yetkazib berish paytiga qadar tovarga taalluqli bo‘lgan barcha xarajatlarni to‘lash.

Eksport uchun zarur bojxona rasmiylashtiruvlarini bajarish xarajatlarini, shuningdek, A.4-bandiga binoan yetkazib berishdan oldin eksport paytida va, agar zarur bo‘lsa, uchinchi mamlakat orqali tranzit paytida undiriladigan barcha bojlar, soliqlar va boshqa yig‘imlarni to‘lash.

#### A.7. Xaridorni xabardor qilish

Xaridorga tovar jo‘natilgani haqidagi o‘z vaqtida bildiruvnoma, shuningdek, xaridor tovarni qabul qilishga tayyorgarlik ko‘rishi uchun zarur har qanday boshqa bildiruvnoma yuborish

#### V.6. Xarajatlarni taqsimlash

A.4-bandiga binoan tovar belgilangan punktda uning tasarrufiga taqdim etilgan paytdan boshlab tovarga taalluqli barcha xarajatlarni to‘lash.

Agar xaridor A.4-bandiga binoan, uning tasarrufiga berilgan tovarning yetkazib berilishi qabul qilishini ta’milamasa yoki V.7-bandiga binoan bildiruvnomasi yubormagan bo‘lsa, ana shu sabablarga ko‘ra qilingan barcha qo‘shimcha xarajatlarni to‘lash, bunda tovar kontraktiga muvofiq tegishli tarzda individualashitirilishi, ya’ni aniq ajratib qo‘yilishi yoki kontrakt tovari sifatida boshqacha tarzda identifikatsiya qilinishi shart.

#### V.7. Sotuvchini xabardor qilish

Xaridorga kelishilgan davri doirasida yetkazib berishning aniq muddatini va/yoki yetkazib berilgan tovarni qabul qilish joyini belgilash huquqi berilgan hololarda sotuvchiga bu haqda o‘z vaqtida bildiruvnoma yuborish.

#### **A.8. Yetkazib berish dalili-tarnsport hujjati yoki muqobil elektron xabari**

Xaridorni sotuvchi hisobidan tovar berilishiga farmoyish va/yoki xaridorga yetkazib berilgan tovarti qabul qilish uchun talab qilinishi mumkin bo'lgan odatdagagi transport hujjati (masalan, tovarti tasarruf etish konsamenti, tovarti tasarruf etmaslik dengiz yukxati, daryo yukxati, temir yo'l yukxati, avtomobil yukxati yoki multimodal transport hujjati) bilan ta'minlash.

Agar sotuvchi bilan xaridor elektron aloqa to'g'risida keliшиб olishgan bo'lsalar, tilga olingan hujjat EDI tizimida muqobil axborot bilan almashrilishi mumkin.

#### **A.9. Tekshirish, o'rab-joylash va markirovkalash**

A.4-bandiga binoan tovarti yetkazib berish uchun zarur nazorat operatsiyalari (sifatni tekshirish, o' Ichash, tarozida tortish, o'rinalar sonini sanash) xarajatlarini to'lash. Yetkazib berish uchun zarur bo'lgan o'rab-joylashni o'z hisobidan ta'minlash (agar mazkur savdo tarmog'ida o'ralmagan kontrakt konditsiyalari-dagi tovarti jo'natish odatdag'i

#### **V.8. Yetkazib berish dalili-transport hujjati yoki muqobil elektron xabari**

A.8-bandiga binoan tovar berilishi uchun farmoyish yoki transport hujjatini berish.

#### **V.9.Tovarni tekshirib chiqish va markirovkalash**

Agar boshqa hol nazarda tutilmagan bo'lsa, yuklab jo'natishga qadar tovarlarni tekshirib chiqish xarajatlarini to'lash, bundan eksport qiluvchi mam-lakatning hokimiyat organlari tayinlangan tekshirib chiqish mustasno.

hol bo‘lmasa). O‘ramga tegishli markirovka qo‘yilishi kerak.

#### A.10. Boshqa majburiyatlar

V.10-bandida tilga olingan hujjatlar yoki muqobil elektron axborotlarni olish bilan bog‘liq barcha xarajatlar va yig‘imlarni to‘lash hamda hujjatlarni olishda yordam ko‘rsatilishiga doir qilingan xarajatlarni qoplash. Xaridorni uning iltimosiga ko‘ra sug‘urtani rasmiylashtirishga oid zarur axborot bilan ta’minalash.

#### V.10 Boshqa majburiyatlar

Sotuvchiga uning iltimosiga ko‘ra, uning tavakkalchiligiga binoan va o‘z hisobidan import qilinuvchi mamlakatda yozilgan yoki EDI tizimi bo‘yicha yuborilgan, sotuvchiga tovarni mazkur qoidalarga muvofiq xaridor tasarrufiga taqdim etish maqsadida talab qilinishi mumkin bo‘lgan har qanday hujjatlar yoki muqobil elektron axborotlarni olishda har tomonlama yordam ko‘rsatish.

### Nazorat uchun savollar

1. Yetkazib berish shartining S guruhi (asosiy tashish haqi to‘lanmagan)ning qisqacha tavsifi.
2. SFR yetkazib berish shartida sotuvchi va xaridorning majburiyatları.
3. SIF yetkazib berish shartida sotuvchi va xaridorning majburiyatları.
4. SRT yetkazib berish shartida sotuvchi va xaridorning majburiyatları.
5. SIR yetkazib berish shartida sotuvchi va xaridorning majburiyatları.
6. Yetkazib berish shartining D guruhi (yetib kelish)ni qisqacha tavsiflang.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksi.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007-yil 19-sentabrdagi 198-son qarori bilan tasdiqlangan «O‘zbekiston Respublikasining bojxona hududidan olib chiqilayotgan tovarlarning bojxona qiymatini belgilash va deklaratsiyalash tartibi to‘g‘risidagi Nizom».
3. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 1998-yil 13-yanvarda 390-raqam bilan ro‘yxatdan o‘tgan «O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kiriladigan tovarlarning bojxona qiymatini belgilash bo‘yicha Yo‘riqnomा».
4. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2016-yil 6-aprelда 2773-raqam bilan ro‘yxatdan o‘tgan «Bojxona yuk deklaratsiyasini to‘ldirish tartibi to‘g‘risidagi Yo‘riqnomा».
5. Davlat bojxona qo‘mitasining 2011-yil 9-fevraldagи «INKOTERMS-2010 xalqaro savdo shartlarini amaliyotga kiritilganligi to‘g‘risida»gi 1-son ko‘rsatmasi.

## **V BOB. OLIB KIRILADIGAN TOVARGA DOIR BITIM QIYMATIGA OID USUL HAMDA NAZORAT QILISH ALGORITMI**

**Reja:**

- 1. Olib kiriladigan tovarning bojxona qiymatini aniqlash usullari.**
  - 2. Olib kiriladigan tovarga doir bitim qiymatiga oid usul (1-usul).**
  - 3. 1-usulini qo'llanilishini nazorat qilish algoritmi.**
- 
- 1. Olib kiriladigan tovarning bojxona qiymatini aniqlash usullari**

Bojxona hududiga olib kiriladigan tovarning bojxona qiymati tovarning bojxona qiymatini aniqlash usullaridan biri orqali aniq-lanadigan va bojxona to'lovlarini hisoblash maqsadida foydala-niladigan tovar qiymatidir.

**Bojxona qiymatini aniqlashning 6 ta usuli mavjud bo'lib, ular:**


- olib kiriladigan tovarga doir bitimning qiymati bo'yicha;
- aynan bir xil tovarga doir bitimning qiymati bo'yicha;
- o'xhash tovarga doir bitimning qiymati bo'yicha;
- qiymatlarni chegirib tashlash asosida;
- qiymatlarni qo'shish asosida;
- zaxira usul.

Olib kiriladigan tovarga doir bitimning qiymati bo'yicha bojxo-na qiymatini belgilash usuli (*1-usul*) asosiy usul hisoblanadi.

Agarda asosiy usuldan foydalanish imkoniyati bo'lmasa, yuqorida ko'rsatilgan usullarning keyingilari izchil tartibda, ya'ni birin-kekin qo'llaniladi.

Aynan bir xil (*2-usul*) va o'xhash (*3-usul*) tovar yuzasidan tuzilgan bitim qiymatiga qarab baholash usullari ilgari asosiy usulga

(1-usul) ko‘ra belgilangan, xuddi shuningdek, yoki shunga o‘xshagan tovarlarga doir bitimga bojxona qiymatini belgilash uchun asosiy baza sifatida foydalanishga asoslangan. Bunda deklarant amalda mavjud bo‘lgan savdo bitimlarining narxi va tovarlarning O‘zbekiston Respublikasi chegarasi orqali olib o‘tilishlari haqidagi hujjatlar asosida tasdiqlangan ma’lumotni qo‘llaydi.



**5-rasm.** Olib kirladigan tovarning bojxona qiymatini aniqlash usullari va ularni qo‘llash ketma-ketligi.

Qiymatlarni chegirish va qo‘shish asosidagi usullar (4 va 5-usullar) bojxona qiymatini hisob-kitob qilishning prinsipial jihatdan boshqacha negizini nazarda tutadi:

- qiymatlarni chegirib tashlash asosidagi usul (*4-usul*) tovarlar dastlabki holati o‘zgartirilmasdan (yoki, mabodo qayta ishlashning tovarlar narxiga ta’siri belgilanishi mumkin bo‘lsa, qayta ishlangan holatida) sotiladigan narxga asoslanadi;

- qiymatlarni qo‘shish asosidagi usul (*5-usul*) tovar eksport qilingan mamlakatda uning ishlab chiqarilishi va olib chiqib ketishiga ketgan xarajatlar haqidagi ma’lumotlarga asoslanadi.

Bunday usullarning qo'llanilishi zarur axborotni olishdagi muayyan qiyinchiliklar bilan bog'liqligi sababli, ularning qo'llanish izchiligi deklarant tomonidan o'zgartirilishi mumkin.

Qiymatlarni chegirib tashlash (*4-usul*) va qiymatlarni qo'shish (*5-usul*) asosidagi usullar ıstalgan ketma-ketlikda qo'llanilishi mumkin.

6-usul zaxira usul hisoblanadi, chunki u bojxona qiymatini belgilash uchun bundan oldingi usullardan hech birini qo'llab bo'imaganida qo'llaniladi. Bu usulga ko'ra bojxona qiymati bojxona organlarida mavjud bo'lgan narxlarga oid axborotga asoslanadi.

«Import qilinayotgan tovarlarning bojxona qiymati belgilanishini DBQ Yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimi asosida nazorat qilish bo'yicha Vaqtinchalik yo'rinqoma» DBQning 2010-yil 12-apreldagi 92-sod buyrug'i bilan amaliyotga kiritilib, bojxona qiymatining to'g'ri belgilanishini nazorat qilish 6 ta usul algoritmlari asosida avtomatlashtirilgan tarzda mantiqiy nazorat amalga oshiriladi.

Mazkur normalar talablaridan kelib chiqib, bojxona qiymatini aniqlashning har bir usuli bo'yicha DBQ YaAAT dasturida algoritmlar ishlab chiqilgan bo'lib, bojxona rasmiylashtiruv vaqtida muayyan bir usulni qo'llashda ushbu algoritm talablariga rioya qilinmaganida yoki zarur hujjatlar taqdim etilmaganida, dastur tomonidan BYuDni rasmiylashtiruv uchun qabul qilinishi man etilib, uning aniq sabablari ko'rsatiladi.


Ushbu holatda deklarant tomonidan tanlangan usulni qo'llash uchun tasdiqlangan hujjatlar taqdim etilishi yoki bojxona qiymatini aniqlashning keyingi usuliga o'tilishi lozim.

DBQ YaAAT dasturida bojxona qiymatini aniqlashning 1-5-usullarida deklarant tomonidan tanlangan usulning to'g'ri qo'llanilganligini u tomonidan taqdim etilgan hujjatlar hamda BYuDning tegishli grafalari to'g'ri to'ldirilganligini o'rganish orqali tekshirib chiqiladi.

Dastur tomonidan bojxona qiymatining 6-usulida bayon qilingan narxni bojxona organida mavjud bo'lgan narx ma'lumoti asosida belgilanganligi solishtirilgan holda tekshiriladi.

Bojxona qiymati – bojxona to'lovlarini hisoblash maqsadida foydalananidigan tovar qiymati bo'lganligi sababli, dastur faqat

bojxona to'lovlari undirilishini nazarda tutadigan BYuDlar bo'yicha tekshiruv olib boradi. Bojxona to'lovlari undirilishini nazarda tutmaydigan BYuDlardagi tovarlarning bojxona qiymati belgilanishi yuzasidan tekshiruv bojxona rasmiylashtiruvi amalga oshirayotgan xodim tomonidan o'tkazilishi lozim.



**6-rasm. BYuDning elektron nusxasini qabul qilish jarayonida bojxona qiymatini nazorat qilish sxemasi.**

Dastur tomonidan bojxona qiymatining 6-usulida bayon qilingan narxni bojxona organida mavjud bo'lgan narx ma'lumoti asosida belgilanganligi solishtirilgan holda tekshiriladi.

Bojxona qiymati – bojxona to'lovlari hisoblash maqsadida foydalilanidigan tovar qiymati bo'lganligi sababli, dastur faqat bojxona to'lovlari undirilishini nazarda tutadigan BYuDlar bo'yicha tekshiruv olib boradi. Bojxona to'lovlari undirilishini nazarda tutmaydigan BYuDlardagi tovarlarning bojxona qiymati belgilanishi

yuzasidan tekshiruv bojxona rasmiylashtiruv amalga oshirayotgan xodim tomonidan o'tkazilishi lozim.

## **2. Olib kiriladigan tovarga doir bitim qiymatiga oid usul (1-usul)**

Olib kiriladigan tovar yuzasidan tuzilgan, bu tovarning O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasini kesib o'tishi paytida haqiqatda to'langan yoki to'lanishi lozim bo'lgan bitim qiymati O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga olib kiriladigan tovarning bojxona qiymati hisoblanadi.

**Bitim qiymati** – deganda, tovarlarni O'zbekiston Respublikasiga sotishda amalda to'langan yoki to'lanishi lozim bo'lgan va qiymatga nisbatan belgilangan qo'shimchalar hamda undan chegirmalarni hisobga olib o'zgartirilgan narx tushuniladi.

1-usul faqat quyidagi shartlarga amal qilingan va narxga nisbatan zarur tuzatishlar amalga oshirilgan holdagina qo'llanilishi mumkin.

**Bojxona qiymatini bojxona organiga ma'lum qilish vaqtida deklarant foydalangan ma'lumotlar hujjatlar bilan tasdiqlangan va to'g'ri bo'lishi lozim.**

Tovarning u eksport qilingan mamlakatdan chegara orqali O'zbekiston Respublikasiga olib o'tilishi va xaridordan ana shu tovar o'tmiga pullik hisob-kitoblar (to'lovlar)nmg qabul qilingan shakllariga muvofiq teng keladigan pul summasini yoki tovari olish uchun asos bo'ladigan, qiymatga doir baholash yoki uning hisob-kitob usulini o'z ichiga olgan shartnomaning mavjudligi 1-usulni qo'llanish sharti hisoblanadi.

Qiymatli negizda tuzilgan bitimlar bo'yicha 1-usuldan bojxona qiymati sifatida foydalanganida amaldagi narx, ya'nı deklaratsiyada ko'rsatilgan summalar haqiqatda to'langan yoki to'lanishi lozim bo'lgan narx sifatida qabul qilinadi. Deklarant ma'lum qiladigan bojxona qiymati va uning belgilanishiga doir ma'lumotlar ishonchli, miqdoriy jihatdan belgilab bo'ladigan va hujjatlar asosida tasdiqlangan axborotga asoslanishi lozim

To‘lov bevosita yoki bivosita amalga oshirilgan bo‘lishi va valuta haqidagi amaldagi qonunlarga zid kelmaydigan har qanday shaklda amalga oshirilishi mumkin.

Bojxona qiymati bojxona qiymati deklaratsiyasida ko‘rsatilgan hamma elementlari tegishli hujjatlar bilan tasdiqlanganida 1-usulga ko‘ra aniqlanishi mumkin, shu jurnladan:

- bitim narxi – tovar yetkazib beriladigan tovarga haq to‘lash uchun schyot yoki hisob-faktura orqali;
- bitim qiymatiga qo‘srimcha hisoblanmalar – hisobvaraqturular, to‘lov topshiriqnomalari, cheklar orqali;
- xarajatlarning hisobdan chiqariladigan (chiqarib tashlandigan) summalari – hisobvaraqturular, to‘lov topshiriqnomalari, cheklar orqali.

Bayon qilingan bojxona qiymatini tasdiqlash uchun BQDdan tashqari deklarant tomonidan quyidagi hujjatlar taqdim etilishi lozim:

- shartnoma (bitim) va unga qo‘srimchalar;
- hisob varaq (invoys) va bank to‘lov hujjatlari (agarda tovar yuzasidan hisob-kitob amalga oshirilgan bo‘lsa), tovarning qiymatini tasdiqlovchi buxgalteriya va boshqa hujjatlar,
- transport va sug‘urta hujjatlari (yetkazib berish shartidan kelib chiqib, agarda mavjud bo‘lsa);
- tovarni tashish uchun qilingan xarajatlar yuzasidan hisob varaq yoki transport xarajatlari bo‘yicha tasdiqlangan kalkulatsiyalar (agarda transport xarajatlari hisobvaraqdagi tovar qiymatiga kiritilmagan bo‘lsa);
- yuk jo‘natish davlatining bojxona yuk deklaratsiyasi (agarda mavjud bo‘lsa).

Ma’lum qilingan bojxona qiymatini to‘g‘riliginan aniqlash uchun hujjatlar yetarli bo‘lmasanida (yoki mazkur qiymatning haqqoniyligi yuzasidan bojxona organida shubha bo‘lganida), bojxona organining talabiga ko‘ra, deklarant tomonidan quyida keltirilgan qo‘srimcha hujjatlarni taqdim etishi lozim:

- shartnomaga aloqador bo‘lgan uchinchi shaxslar bilan tuzilgan bitimlar (agarda tovarlar uchinchi shaxsning topshirigiga binoan yetkazib berilayotgan bo‘lsa);

- sotuvchi hisobiga amalga oshirilgan to‘lovlar bo‘yicha hisob-varaqlar (agarda tovarlar uchinchi shaxsning topshirig‘iga binoan yetkazib berilayotgan bo‘lsa),
- ishlab chiqaruvchi korxonaning kataloglari, spesifikatsiyalari, preyskurant (prays-list) va kalkulatsiyalari (agarda tovarning narxi yuqorida keltirib o‘tilgan hujjatlar bilan tasdiqlanmagan bo‘lsa);
- tovarning narxini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar.

**Olib kiriladigan tovarga doir bitimning qiymatiga oid usuldan foydalanish bo‘yicha chel dovlar.**

**Olib kiriladigan tovarga doir bitimning qiymatiga oid usuldan quyidagi hollarda bojxona qiymatini aniqlash uchun foydalanishi mumkin emas, agar:**

- sotib oluvchining baholanayotgan tovardan foydalanishga yoki uni tasarruf etishga bo‘lgan huquqlariga nisbatan chekllovlar mavjud bo‘lsa, bundan qonun hujjatlarida belgilangan chekllovlar yoxud tovar qayta sotilishi mumkin bo‘lgan geografik mintaqadagi chekllovlar yoki tovarning qiymatiga jiddiy ta’sir ko‘rsatmaydigan chekllovlar mustasno;
- tovar bojxona hududiga qiymat asosiga ega bo‘lmanan bitim bo‘yicha olib kirilgan bo‘lsa;
- sotish yoki bitimning bahosi ta’sirini hisobga olish mumkin bo‘lmanan shartlarga rioya etilishiga bog‘liq bo‘lsa (ayirboshlash, kontraktatsiya, qayta ishslash shartnomalari);
- tovarni keyinchalik qayta sotish, undan foydalanish yoki uni tasarruf etishdan tushgan tushumning istalgan qismi sotuvchiga bevosita yoki bilvosita o‘tsa;
- tovarning bojxona qiymatini aniqlashda deklarant yoki bojxona brokeri tomonidan foydalanilgan ma’lumotlar hujjatlar bilan tasdiqlangan bo‘lmasa;
- bitimning taraflari (sotib oluvchi va sotuvchi) bir-biriga o‘zaro bog‘liq shaxslar bo‘lsa, bundan ularning o‘zaro bog‘liqligi bitimning qiymatiga ta’sir etmagan hollar mustasno, bu esa deklarant yoki bojxona brokeri tomonidan isbotlanishi lozim.

Xaridorning baholanayotgan tovarlarga doir huquqlariga nisbatan cheklashlar mavjud bo‘lganida 1-usulning qo‘llanilishi ruxsat etiladigan cheklashlarning faqat uchta turi belgilangan:

O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga ko‘ra belgilangan cheklashlar.

**Masalan**, muayyan tovarni import qilish huquqiga ega bo‘lgan shaxslar doirasiga nisbatan cheklashlar va hokazo, ya’ni yadroviy, kimyoviy, zaharlovchi moddalar, giyohvandlik moddalari importi faqat qat’iy cheklangan doiradagi tashkilotlarga ruxsat etiladi.

Tovarlar qaytadan sotilishi mumkin bo‘lgan jug‘rofiy mintaqaga doir cheklashlar. Bunday holda tovarning qaytadan sotilishi bo‘yicha ayrim shaxslar uchun hududiy cheklashlar nazarda tutiladi.

**Masalan**, sotuvchi tovarni O‘zbekiston hududida o‘z sotuvchilariga sotadi va butun hududni ularning har birida bittadan alohida sotuvchi mavjud 10 ta qismga bo‘ladi. Bunda sotuvchilarning har biri tovarni faqat muayyan hududda sotishi mumkinligi to‘g‘risidagi shart qo‘yiladi.

Tovar qiymatiga jiddiy ta’sir qilmaydigan cheklashlar. Agarda narxga jiddiy ta’sir etadigan shart mavjudligi haqida bayon qilinsa, unda 1-usulning qo‘llanilishi faqat bunday shart natijasida narxning miqdoriy o‘zgarishi hujjatlar asosida belgilangan holdagina mumkin bo‘ladi. Agarda narxga miqdoriy ta’sir qilishni belgilash va hujjatlar asosida tasdiqlash mumkin bo‘lmasa, unda baholashning boshqa usullariga o‘tish kerak bo‘ladi.

**Masalan**, sotuvchi tibbiy apparatni xaridor undan O‘zbekiston Respublikasida faqat xayriya maqsadlarida foydalanadi, degan shart bilan sotadi. Bunday holda 1-usul qo‘llanilishi mumkin emas, chunki xaridorning tovardan foydalanish huquqiga nisbatan cheklash mavjud va bu xildagi shart bitim qiymatiga ta’sir qilishi mumkin. Shuning uchun bu holda baholashning boshqa usullari qo‘llanilishi kerak.

Agarda xaridor huquqiga nisbatan yana qandaydir boshqa cheklashlar mavjud bo‘lsa, unda 1-usul qo‘llanilmaydi.

Tovarlarning sotilishi yoki narxi baholanayotgan tovarlarning bojxona qiymati aniqlab bo‘lmaydigan holga olib keladigan qandaydir shartlar yoki fikrlarga sabab bo‘lmasligi lozim.

**Sotuv** yoki narx bojxona qiymatining belgilanishiga to'sqinlik qiladigan qandaydir shartlar yoki mulohazalar predmeti bo'la olmaydi.

Bu shart shuni nazarda tutadiki, tovar narxining uning sotilishi yoki yetkazib berilishidagi tovarning qiymatiga ta'sirini belgilash mumkin bo'lman shartlarga bog'liq bo'lmaydigan hollarda ham 1-usul qo'llanilishi mumkin.

Mazkur holatda bitim shartlarini ko'rib chiqishda, shuningdek, umumiy qabul qilingan xususiyatga ega bo'lgan va tashqi iqtisodiy faoliyatning barcha qatnashchilariga tegishli bo'ladigan (yoki ularga taqdim etilishi mumkin bo'lgan) yetkazib berish shartlarni va tanlangan hamda umumiy qabul qilingan yetkazib berish shartlarini farqlay bilish lozim.

Ya'ni:

– tovarlarni yetkazib berishning umumiy qabul qilingan shartları (INKOTERMS-2010 ga kiritilgan yetkazib berish shartları):

– bitimplarni tuzish va tovar yetkazib berilishini amalga oshirishning «ekspertni jalb etish (ekspert xulosasi mavjudligi) sharti bilan xarid qilish», «tovarni muayyan sanagacha yetkazib berish sharti bilan xarid qilish» singari umumiy qabul qilingan shartlari, shuningdek, tashqi savdo operatsiyalari uchun umumiy qabul qilingan va bitim narxiga ta'sir qilmaydigan (tovar soniga qarab, mazkur sotuvchining «ishonchliligi» sababli chegirmalar qilish va shu kabi chegirmalar turlari) boshqa shartlar.

**Masalan**, agarda mazkur xaridorga tovarni har doim aynan shu sotuvchidan sotib olganligi uchun tovar qiymatidan chegirma qilinishi umumiy qabul qilingan amaliyot hisoblanadigan bo'lsa, unda bunday chegirma va binobarin, bitim qiymati deb e'tirof etilishi lozim va 1-usul qo'llanilishi mumkin:

– xaridorning sotuvchiga O'zbekiston Respublikasida tayyorlangan texnik ishlasmalar yoki chizmalarni taqdim etishi;

– xaridorning u import qiladigan tovarlarning sotilishiga doir qandaydir harakatlarni o'z hisobidan (sotuvchi bilan kelishuvga ko'ra ham amalga oshirilishi mumkin) amalga oshirish.


**Masalan**, xaridor haqini to'laydigan reklamaga oid faoliyat.

Xaridor tovarni keyinchalik qayta sotishi, tasarruf etishi yoki undan foydalanishidan kelgan tushumning biron-bir qismi bevosita yoki bilvosita sotuvchiga o'tmasligi lozim (agarda tegishli tuzatishlar kiritish mumkin bo'lmasa).

Tovarlarning qandaydir tarzda keyinchalik qayta sotilishi, xaridor tomonidan tasarruf etilishi yoki foydalaniishidan olingan tushumning hech qanday qismi, agarda faqat qivmatning lozim darajadagi o'zgartirilishi amalga oshirilmasa, bevosita yoki bilvosita sotuvchiga o'tmaydi.

Agarda tuzilgan shartnoma shartlariga ko'ra xaridor tovarning qayta sotilishi, tasarruf etilishi yoki foydalaniishidan so'ng olingan tushumning bir qismini sotuvchiga o'tkazishi kerak bo'lsayu, lekin bunday qism miqdori yoki uni belgilash usuli shartnomada ko'r-satilmagan holda 1-usulni qo'llanishi mumkin emas.

Shartnoma shartlariga ko'ra tushumning beriladigan qismi miqdorini hisoblab chiqish mumkin bo'lsa, unda bojxona qiymati quyidagi ikki bosqichda belgilanadi.



Xaridor va sotuvchi bir-biriga bog'liq shaxslar bo'lmasligi lozim  
(bunday o'zaro bog'liqlik bitim qiymatiga ta'sir etmaganhgi  
deklarant tomonidan isbot qilingan hollar bundan mustasno).

Olib kiriladigan tovarga doir bitimning qiymatiga oid usuldan foydalanish mumkin emas agarدا.

– sotib oluvchining baholanayotgan tovardan foydalanishga yoki uni tasarruf etishga bo'lgan huquqlariga nisbatan cheklovlar mavjud bo'lsa, bundan qonun hujjalarda belgilangan cheklovlar yoxud tovar qayta sotilishi mumkin bo'lgan geografik mintaqadagi cheklovlar yoki tovarning qiymatiga jiddiy ta'sir ko'rsatmaydigan cheklovlar mustasno;

– sotish yoki bitimning bahosi ta'sirini hisobga olish mumkin bo'limagan shartlarga rioya etilishiga bog'liq bo'lsa (ayirboshlash, kontraktatsiya, qayta ishslash shartnomaları).

Bitimning tuzilishida, agarda baholanadigan tovarlar qiymatini belgilashga va bitim qiymatining bojxona maqsadları uchun qabul qilinishiga to'sqinlik qiladigan shartlar bitim shartları sifatida ko'rsatilgan bo'lsa, bunday holda 1-usulning qo'llanilishi mumkin emas.

Quyidagilar ana shunday shartlarga kirdi:

1. Import qilinadigan tovarlarga narxni, xaridor muayyan miqdorda boshqa turdag'i tovarlarni ham tovarning har bir turiga narx ko'rsatilmasidan sotib oladi degan shart asosida belgilaydi.

**Masalan,** 5000 pul birligi summasidagi charm buyumları yetkazib berilyapti. Sotuvchi xaridorga qiymati noma'lum bo'lgan 2 ming juft poyabzalni qo'shimcha ravishda sotib olishini shart qilib qo'yadi.

2. Tovarlar narxi ana shunday tovarlar xaridorining import qilinadigan tovarlarning sotuvchisiga sotadigan boshqa tovarlarning narxi yoki narxlariga bog'liq bo'ladi.

**Masalan,** sotuvchi 1000 pul birligi summasidagi elektr tovarlarini sotyapti. Xaridor esa ushbu sotuvchiga bunday tovarlarni ishlab chiqarish uchun releni sotyapti. Bunda sotuvchi relening narxi

– 10000 pul birligi degan shartni qo'yadi Shunday qilib, elektr uskunalarini narxi rele narxining ta'siri ostida bo'ladi.

3. Narx import qilinadigan tovarlarga aloqasi bo‘lmagan haq to‘lash shakli negizida belgilanadi.

**Masalan**, import qilinadigan tovarlar sotuvchi tayyor mahsulotlarning muayyan miqdorini olish sharti asosida yetkazib beradigan yarim tayyor mahsulotlardan iborat bo‘ladi. Sotuvchi 10000 pul birligiga yog‘och-taxta sotayapti. Xaridor yog‘och-taxtadan jami 1000 dona stolni ishlab chiqaradi. Sotuvchining shartiga ko‘ra xaridor yog‘och-taxta uchun haq to‘lash hisobiga qiymati belgilanmagan 500 ta stolni yetkazib beradi.

bitim taraflarining biri (jismoniy shaxs) yoki taraflaridan birining mansabdon shaxsi ayni vaqtda bitim taraflining mansabdon shaxsi bo‘lsa;

bitim taraflari yuridik shaxsga birgalikda egalik qiluvchilar bo‘lsa;

bitim taraflarining biri (jismoniy shaxs) boshqa taraf bilan mehnat munosabatlari bo‘yicha bog‘liq bo‘lsa;

bitim taraflarining biri bitim ishtirokchisining ustav fondida (ustav kapitalida) ovoz berish huquqi bilan ustav fondining (ustav kapitalining) kamida besh foizini tashkil etuvchi hissaga (payga) egalik qilsa yoki yoki aksiyalarining egasi bo‘lsa;

bitimning ikkala tarafi bevosita yoki bilvosita uchinchi shaxs tomonidan nazorat qilinayotgan bo‘lsa;

bitimning taraflari bevosita yoki bilvosita uchinchi shaxsni nazorat qilayotgan bo‘lsa;

bitimning bir tarafi va (yoki) uning mansabdon shaxsi bevosita yoki bilvosita bitimning ikkingi tarafini nazorat qilayotgan bo‘lsa;

bitim taraflari va (yoki) ularning mansabdon shaxslari qarindosh bo‘lsa;

O‘zaro bog‘liq shaxslar

7-rasm. O‘zaro bog‘liq shaxslar.

Oldi-sotdi shartnomasi faqat ushbu sotuvchidan sotib olish shartini nazarda tutadi (diler, distribyutor, agentlar faoliyati ham kiradi). Oldi-sotdi shartnomasi bitim qiymatini tovarlarni o'zaro sotish (vetkazib berish) sharti asosida belgilaydi.

4. Tovarning bojxona qiymatini aniqlashda deklarant yoki bojxona brokeri tomonidan foydalanilgan ma'lumotlar hujjatlar bilan tasdiqlangan bo'lmasa.

Bitimning taraflari (sotib oluvchi va sotuvchi) bir-biriga o'zaro bog'liq shaxslar bo'lsa, bundan ularning o'zaro bog'liqligi bitimning bahosiga ta'sir etmagan hollar mustasno, bu esa deklarant yoki bojxona brokeri tomonidan isbotlanishi lozim.

Sotuvchi bilan xaridorning o'zaro bog'liqligi, bunday bog'-liqliknинг bitim narxiga ta'siri haqidagi ma'lumotlar deklarant tomonidan ko'rsatiladi.

Sotuvchi bilan xaridor o'rtasida aloqa mavjudligining o'zi bitimning bayon qilingan qiymatini tan olmaslik va 1-usulni qo'llashni rad qilish uchun asos bo'la olmaydi.

Bunday holda o'zaro bog'liqlik mavjud bo'lgani yoki bo'lмагани va uning bitim qiymatiga ta'sir qilgani yoki qilmaganini aniqlash zarur.

Agarda ta'sir aniqlanmagan bo'lsa, unda bitim qiymati bojxona organi tomonidan qabul qilish mumkin bo'lgan qiymat sifatida qabul qilinadi.

Agarda bojxona organida qiymatga ta'sir mavjud bo'lgan deb hisoblash uchun asos bo'lsa, unda bojxona organlari bu haqda deklarantga xabar qiladi va unga isbotlash va bayon qilingan qiymatni hujjatlar asosida tasdiqlash uchun imkon beradi.

Shubha tug'iladigan barcha hollarda tegishli bitimga doir ma'lumotlar bojxona organlari tomonidan hisobga olib qo'yiladi.

**Olib kiriladigan tovarga doir bitim taraflarining o'zaro bog'liqligi belgilari aniqlanishining oqibatlari**

Olib kiriladigan tovarga doir bitim taraflarining o'zaro bog'-liqligi belgilari bo'lgan taqdirda bojxona organi bitimning amaldagi holatlarini o'rGANIB chiqishi kerak

Agar bojxona organı bitim taraflarining o'zaro bog'liqligi bitim bahosiga ta'sir ko'rsatmagan deb topsa, ushbu bitim bojxona qiymatini aniqlash uchun qabul qilinadi Aks holda, bojxona organi deklarantga yoki bojxona brokeriga mazkur o'zaro bog'liqlik bitim narxiga ta'sir ko'rsatmaganligini isbotlovchi dalillarni o'ttiz kalendar kundan oshmagan muddatda taqdim etish zarurligi to'g'risida yozma shaklda xabar qiladi.

Deklarant yoki bojxona brokerining arizasiga ko'ra amalgga oshirilgan bitimning narxi tovarning bojxona qiymatini aniqlash uchun qabul qilinadi, agar deklarant yoki bojxona brokeri bitimning qiymati baholanayotgan tovar olib kirimishidan oldin yoki olib kirimiganidan so'ng o'ttiz kalendar kun ichida tovarning olib kirimayotganda bojxona organi rozi bo'lган quyidagi qiymatlarning biriga yaqinligini isbotlay olsa:

- O'zbekiston Respublikasida o'zaro bog'liq bo'lмаган sotib oluvchilarga aynan bir xil yoki o'xhash tovarlar sotilayotgandagi bitimning qiymatiga;
- aynan bir xil yoki o'xhash tovarning qiymatlarini chegirib tashlash usuli bo'yicha aniqlangan bojxona qiymatiga;
- aynan bir xil yoki o'xhash tovarning qiymatlarini qo'shish usuli bo'yicha aniqlangan bojxona qiymatiga.

Deklarant yoki bojxona brokeri tomonidan taqqoslash uchun taqdim etilgan, bitimning bahosiga va tovarning bojxona qiymatiga quyidagi mezonlar bo'yicha farqlar hisobga olingan holda tuzatishlar kiritiladi:

- tijorat shartlari;
- miqdori;
- bojxona hududiga olib kirimadigan joyga yetkazib berilgunga qadar xarajatlar;
- o'zaro bog'liq bo'lмаган shaxslar o'rtaсидаги bitimda sotuv-chining xarajatlari, agar bunday xarajatlar sotuvchi tomonidan o'zaro bog'liq bo'lган shaxs bilan tuzilgan bitimda amalga oshirilmasa.

Deklarant yoki bojxona brokeri tomonidan taqqoslashga taqdim etilgan aynan bir xil yoki o'xhash tovarning bitim bahosidan yoki bojxona qiymatidan baholanayotgan tovarning bojxona qiymatini aniqlash uchun bitimning bahosi o'rniغا foydalaniishi mumkin emas.

**Sotuvchi bilan xaridor o'rtasida o'zaro bog'liqlik bo'lgan hollarda bojxona organlari quyidagi harakatlarni amalga oshiradi:**

**ilgari ushbu firma bilan bitimlar bo'lgan-bo'Imaganligi va ular yuzasidan qanday xulosa qabul qilinganligini tekshirish, bojxona organida mavjud bo'lgan ushbu bitimga bevosita yoki bilvosita tegishli axborotni tahlil etish;**

bojxona organlari zarur axborotga ega bo lgach, o'zaro bog'liq bo'Imagan shaxslar o'rtasidagi shunga o'xshagan bitimlar yoxud 4 yoki 5-usullarga ko'ra belgilangan bojxona qiymati bilan nazoratli taqqoslashlarni mustaqil ravishda amalga oshiriladi;

agarda bunday axborot o'zaro bog'liqlik bitim qiymatiga ta'sir qilmagan deb xulosa chiqarish uchun yetarli bo'lsa. bayon qilingan qiymat bojxona organi tomonidan deklarantdan qo'shimcha axborot so'ralmasdan qabul qilinadi va bojxona qiymatini belgilash uchun 1-usul qo'llaniladi.

#### **O'zaro bog'liqlikning tovar qiymatiga ta'sirini tahlil etish.**

Tahlil etish jarayonida sotuvchi bilan xaridorning tijorat munosabatlarining xususiyati va tashkil etilishi, tovarni sotish shartlari, bu-yurtmalar qay tarzda berilganligi, tovar qiymati qanday hisoblangani, narxning qanday belgilangani va hisobvaraqa (invoys, schyot-fak-tura) yozilgani, haq to'lash qay tarzda amalga oshirilgani, to'lov-larning qanday o'tkazilganligi ko'rib chiqiladi.

Agarda tekshiruv (tahlil etish) jarayonida sotuvchi bilan xaridor garchi o'zaro bog'liq shaxslar bo'lsa-da, ularning bir-biridan tovarlarni sotib olishi va sotishi ular o'rtasida go'yo bunday bog'liqlik bo'Imagan holda sodir etiladigani tarzdagi kabi yuz berishi aniqlansa, unda bunday o'zaro munosabatlar qiymatga ta'sir qilmagan deb qabul qilnadi.

**Masalan**, agar qiymatning ushbu sanoat tarmog'idagi narxni belgilashga doir oddiy amaliyotga muvofiq yoki sotuvchining sotish narxini u bilan **bog'liq** bo'Imagan xarididlarga sotishidagi kabi yo'1 bilan **tayinlashi** aniqlansa, unda **bu hol** kontragentlarning o'zaro munosabatlari qiymatga ta'sir ko'rsatmaganligini tasdiqlaydi.

Agarda tekshiruv sotuvchi bilan xaridorning o'zaro bog'liqligi bitim qiymatiga ta'sir qilmaganligini tasdiqlasa, bunday qiymat qabul qilish uchun mumkin deb e'tirof etiladi va bojxona qiymatini belgilash uchun 1-usul qo'llaniladi. Aks holda 2-6-usullar qo'llaniladi.

Deklarantga o'zaro bog'liqlikning bitim qiymatiga ta'siri bo'limganligini isbotlash imkoniyatini berish va deklarant taqdim etgan dalillarni ko'rib chiqish.

Agarda bojxona organida deklarant bayon qilgan bitim qiymatini qabul qilmaslikka asos bo'lsa, bunday asoslarni yozma ravishda bayon qilish va asoslash, import qiluvchining talabiga ko'ra unga tegishli ma'lumotni taqdim etish.

Import qiluvchining xohishiga ko'ra shaxslar o'zaro bog'liq-ligining bitim qiymatiga ta'sirining tahlili natijalarini kutib o'tirmasdan bojxona qiymatini belgilashning boshqa usullariga o'tish.

Ushbu firmani maxsus hisobga olib qo'yish.

Agarda bojxona organida sotuvchi bilan xaridorning o'zaro bog'liqligi munosabatlari xususida shubha uyg'onsa, unda deklarant o'zaro bog'liqlikning bitimiga ta'sir qilmaganligi va u bayon qilgan qiymatning haqiqatan ham to'langanligini isbotlash huquqiga ega bo'ladi.

O'zaro bog'liq shaxslar o'rtasidagi bitim qiymatining qabul qilish uchun maqbul deb e'tirof etilishi va unga nisbatan 1-usulning qo'llanilishi mumkin bo'lishi uchun deklarant u bayon qilgan qiymatning haqiqatan ham to'langanligi yoxud tovarlar bo'yicha bitim narxining quyidagilarga juda yaqinligini hujjalarni asosida tasdiqlashi lozim.

Bunda:

- xaridorlar bilan bog'liq bo'limgan (ya'ni o'zaro bog'liq bo'limgan shaxslar) sotuvchilar tomonidan xuddi shuningdek yoki shunga o'xshagan tovarlar sotilishidagi bitim qiymatiga;
- xuddi shuningdek yoki shunga o'xshagan tovarlarning 4-usulga ko'ra hisoblab chiqilgan bojxona qiymatiga;
- xuddi shuningdek yoki shunga o'xshagan tovarlarning 5-usulga ko'ra hisoblab chiqilgan bojxona qiymatiga;
- shu paytgacha bojxona organi qabul qilgan «nazoratli» qiymatga.

Shu bilan birga, yuqorida ko'rib chiqilgan qoidalarni hisobga olgan holda 1-usul qiymatga doir negizga ega bo'limgan tashqi iqtisodiy bitimlarga nisbatan qo'llanilishi mumkin emas.



*8-rasm. Qiymat asosiga ega bo'lmagan bitimlar.*


Yuqoridagi holatlarni alohida ko'rib chiqamiz.

**Tovarning bepul yetkazib berilishi** – sotuvchi xaridorga namuna sifatida oldi-sotdi shartnomasisiz (beg'araz) 5 ta kresloni yetkazib beradi.

**Tovar konsignatsiya shartlari asosida yetkazib berilishi** – yetkazib beruvchi o'z agentiga bir turkum kartoshkanı yetkazib beruvchi uchun foydaliroq shartlar asosida sotish uchun yetkazib berdi. Bu holda agent kartoshkani sotib olmaydi, ya'nini uning egasiga aylanmaydi. Kartoshkani sotishdan foydani yetkazib beruvchi oladi (agentga uning sotishga doir xarajatlari va ish haqi to'lanishi hisobga olinigan holda).

**Tovarning vositachiga sotilmasdan vositachi orqali yetkazib berilishi.**

**Masalan**, yuridik shaxs bo'lgan kompaniya Belgiyada joylashgan va Toshkentda o'z nomidan faoliyat ko'rsatmaydigan o'z filialiga ega. Ular o'rtasidagi tovar yetkazib berilishi oldi-sotdi bitimi tushunchasiga kirmaydi.



*9-rasm. Olib kiriladigan tovarga doir bitim narxiga kiritiladigan xarajatlar turlari.*

**Tovarlarning barter yoki kompensatsion operatsiyalar doirasiда yetkazib berilishi (agar tovarlar narxi ko'rsatilmagan bo'lsa).**

Tovarlarning ijara shartnomalari (lizing) bo'yicha yetkazib berilishi – tovarga egalik qilish huquqi ijara beruvchidan ijarachiga o'tmaydi, mulkdor tovardan foydalanganlik huquqi uchun foydaning bir qismini oladi va tovarni muayyan vaqtdan so'ng uning egasiga (ijaraga beruvchiga) qaytarishi mumkin.

**Tovarlarning vaqtinchalik olib kelish maqsadida yetkazib berilishi** – mulkdor (yetkazib beruvchi) tomonidan muayyan vaqtdan so'ng yetkazib beruvchiga qaytarilishi lozim bo'lgan mashina istemolchiga vaqtinchalik olib kelish shartlari asosida yetkazib beriladi.

**Tovarlarning kontraktda nazarda tutilgan kafolatlar hisobiga yetkazib berilishi** – yetkazib berilgan uskuna uchun kafolat muddati davomida ayrim mexanizmlar ishdan chiqdi. Ularni almashtrish uchun yangi detallar yetkazib beriladi.

Ushbu bitimning narxiga kiritiladigan xarajatlar tegishli tovarlar, ishlar va xizmatlar (tashish, sug' urta qilish, brokerlik xizmati) uchun haq to'langanligi to'g'risida vakolatli shaxs tomonidan taqdim etilgan hujjalr (hisobvaraq-fakturalar, to'lov topshiriqnomalari, cheklar) asosida aniqlanadi.

Bulardan boshqa xarajatlarni bitim narxiga qo'shishga yo'l qo'yilmaydi.

Turli nomdag'i tovarlardan tashkil topgan tovarlarning bitta turkumi yetkazib berilganda bojxona hududiga olib kirilgan tovarlardan har birining bojxona qiymatiga qo'shilishi lozim bo'lgan hamda tovarlarning butun turkumi uchun belgilangan xarajatlarni aniqlash har bir tovar qiymatining tovarlar turkumining qiymatiga nisbati bilan amqlanadigan kattalikka mutanosib ravishda, transport xarajatlarini hisobga olishda esa, tovarlarning og'irligiga yoxud hajmiga mutanosib ravishda amalga oshiriladi.

**Olib kiriladigan tovarga doir bitimning narxidan chiqarib tashlanadigan to'lovlar va xarajatlar**

Olib kiriladigan tovarning bojxona qiymatini aniqlashda bitim narxidan quyidagi to'lovlar va xarajatlar, basharti ular bojxona hududiga olib kiriladigan tovar uchun haqiqatda to'langan yoki to'lanishi lozim bo'lgan narxdan ajratib olingan bo'lsa, chiqarib tashlanadi:

– sanoat qurilmalari, mashinalar yoki uskunalar kabi tovarlar bojxona hududiga olib kirilganidan keyin amalga oshirilgan uskunalarni qurish, o'rnatish, yig'ish, montaj qilish, sozlash va ularga xizmat ko'rsatish yoki texnik ko'maklashish xarajatlari;

– tovar bojxona hududiga olib kirilganidan keyin qilinadigan transport xarajatlari;

– tovarni olib kirish yoki sotish bilan bog'liq holda O'zbekiston Respublikasida to'lanadigan bojxona to'lovlari va boshqa to'lovlari, agar kontrakt (shartnoma, kelishuv) shartlariga ko'ra bu to'lovlari sotuvchi tomonidan to'lansa

Bitimning narxidan chiqarib tashlanadigan to'lovlari va xarajatlar, bundan O'zbekiston Respublikasida to'lanadigan bojxona to'lovlari mustasno, tegishli tovarlar, ishlari va xizmatlar (tashish, sug' urta qilish) uchun haq to'langanligi to'g'risida vakolatli shaxs tomonidan taqdim etilgan hujjatlar (hisobvaraq-fakturalar, to'lov topshiriqnomalari, cheklar) asosida aniqlanadi.

Bojxona qiymatini 1-usul bilan aniqlashda quyidagilarga alohida e'tibor qaratish lozim:

1. Bojxona qiymatini e'lon qilish vaqtida foydalanilgan ma'lumotlar hujjatlar bilan tasdiqlangan va to'g'ri bo'lishi.

**Amaliyotda yo'l qo'yilayotgan kamchiliklar:** «A» korxonasi tomonidan olib kelning mebel tovarlari TIF bojxona postida bojxona qiymatini aniqlashning 1-usuli qo'llanilgan holda bojxona rasmiylashtiruvdan o'tkazilgan.

Bojxona kodeksi hamda O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kelinadigan tovarlarning bojxona qiymatini belgilash bo'yicha Yo'riqnomalariga muvofiq, bojxona qiymatini e'lon qilish vaqtida deklarant foydalangan ma'lumotlar hujjatlar bilan tasdiqlangan va to'g'ri bo'lishi lozim.

Kodeks va Yo'riqnomalariga amal qilinmay, 1-usul qo'llash uchun zarur hujjatlarga talab qilinmaganligi oqibatida **50 mln. so'm** miqdorida bojxona to'lovlari undirilmay qolingan.

**Kelib chiqish sababi:** Tovarlarni sotib olish uchun ishlab chiqaruvchi bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ni shartnomaga tuzilmay, uchinchi shaxs bilan shartnomaga tuzilganlik fakti aniq bo‘lsa-da, 1-usulini qo‘llash uchun qo‘srimcha hujjatlarni taqdim etish talab etilmagan.

Yo‘l yuk hujjatlariga ko‘ra, tovarlarni ishlab chiqaruvchi, sotuvchi va yetkazib beruvchi sifatida korxona bilan shartnomaga tuzgan xorijiy hamkor ko‘rsatilgan.

Mazkur holatda, post xodimi tomonidan bayon qilingan bojxona qiymatini tasdiqlash uchun kelishuvga aloqador bo‘lgan uchinchi shaxs bilan tuzilgan shartnomaga, mazkur shartnomaga bo‘yicha to‘lov amalga oshirilganligini tasdiqllovchi moliyaviy hujjat, vositachilik haqi to‘langanligini tasdiqllovchi hujjatlar, eksport BYuD, tovar ishlab chiqaruvchining prays listlari, preyskuranatlari, kataloglari, spesifikatsiyalarini, kalkulatsiyalarini talab qilishi shart edi.

**E’tibor qaratish kerak:** Bojxona kodeksi hamda O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kelinadigan tovarlarning bojxona qiymatini belgilash bo‘yicha Yo‘riqnomaga talablariga muvofiq, bayon qilingan bojxona qiymatiga aloqador ma’lumotlar to‘g‘ri va hujjatlar bilan tasdiqlangan ma’lumotlarga asoslangan bo‘lishi lozim.

Agarda tovarlar bevosita ishlab chiqaruvchidan sotib olinmay, balki diler yoki vositachilar orqali sotib olinsa, bayon qilingan bojxona qiymatini tasdiqlash uchun quyidagi hujjatlar, ya’ni:

- kelishuvga aloqador bo‘lgan uchinchi shaxslar bilan tuzilgan shartnomalar;
- tovar bo‘yicha uchinchi shaxslar hisobiga to‘lov amalga oshirilgan hisob-kitoblar haqidagi moliyaviy bank hujjatlari;
- yuk jo‘natuvchi davlatning bojxona yuk deklaratasiysi;
- kelishuvga aloqador bo‘lgan shaxslarning komission, broker haqlarini tasdiqllovchi moliyaviy bank hujjatlar;
- ishlab chiqaruvchi korxonaning kataloglari, spesifikatsiyalarini, preyskuran (prays-list) va kalkulatsiyalarini (agarda tovarning narxi yuqorida keltirib o‘tilgan hujjatlar bilan tasdiqlanmagan bo‘lsa) taqdim etilishi talab etiladi.

2. Bojxona qiymatini belgilashda transport xarajatining qo‘silmaganligi.

**Amaliyotda yo'l qo'yilayotgan kamchiliklar:** «B» korxona tomonidan olib kirilgan xomashyoni bojxona rasmiylashtiruvidan o'tkazish vaqtida bojxona organiga taqdim etilgan birlamchi hujjalarda, ya'ni moliyaviy hujjalarda (invoyslarda) yetkazib berish sharti «FOB» ko'rsatilgan bo'lib, shartnomada esa yetkazib berish sharti «SIP» ko'rsatilgan holda tovarlarning qiymatlari bir xil narxlarda belgilangan.

Bojxona kodeksida bojxona qiymatini aniqlashda tovar narxiga tovarni bojxona hududiga olib kiriladigan joyga yetkazib keltirgunga qadar qilingan xarajatlar, ya'ni tashish xarajatlari qo'shilмаган bo'lsa, qo'shilishi belgilangan.

Natijada korxonaga nisbatan qo'shimcha **3,5 mln. so'm** miqdorida bojxona to'lovlari hisoblangan.

**Kelib chiqish sababi:** bojxona posti inpektori tomonidan birlamchi hujjalalar sinchkovlik bilan o'r ganilmagan, ya'ni kelishuv ishtirokchilarimng qaysi shartlarda yetkazilganligi o'r ganilmagan yoki bojxona inspektori yetkazib berish shartlarini bilmaydi.

**E'tibor qaratish kerak:** Shartnomada yetkazib berish shartlari bilan birlamchi hujjalalar (invoys, proforma-invoys, schyot-faktura, bojxona yuk deklaratsiyasi va h.k.) ko'rsatilgan yetkazib berish shartlarini solishtirish lozim.

3. Vositachilik va brokerlik haqlari qo'shilмаганligi.

**Amaliyotda yo'l qo'yilayotgan kamchiliklar:** «B» korxona tomonidan olib kirilgan kompressor tovarlari chet el ishlab chiqaruvchi korxonaning vositachisidan sotib olingan. Vositachi bilan ishlab chiqaruvchi o'rtasida tuzilgan xizmat ko'rsatish shartnomasiga muvofiq, vositachi eksportga yetkazib bergen har bir partiya tovar qiymatidan 1% miqdorda vositachilik haqini ustiga qo'shilishi ko'rsatib o'tilgan.

Bojxona kodeksida bojxona qiymatini aniqlashda vositachilik va brokerlik haqlari qo'shilishi belgilangan.

Natijada korxona nisbatan qo'shimcha **5,1 mln. so'm** miqdorida bojxona to'lovlari hisoblangan.

**Kelib chiqish sababi:** Shartnoma chet el ishlab chiqaruvchisi bilan to'g'ridan-to'g'ri tuzilmay, balki kelishuv uchinchi shaxs bilan amalga oshirilgan. Uchinchi shaxsnинг kelishuvga aloqadorligi

o'rganib chiqilmagan (diler, distribyutor, savdo agenti, vositachi, broker va h.k.).

**E'tibor qaratish kerak:** Bojxona kodeksi hamda O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kelinadigan tovarlarning bojxona qiymatini belgilash bo'yicha Yo'riqnomalariga muvofiq, bayon qilingan bojxona qiymatiga aloqador ma'lumotlar to'g'ri va hujjatlar bilan tasdiqlangan ma'lumotlarga asoslangan bo'lishi lozim.

Agarda tovarlar bevosita ishlab chiqaruvchidan sotib olinmay, balki diler yoki vositachilar orqali sotib olinsa, bayon qilingan bojxona qiymatini tasdiqlash uchun quyidagi hujjatlar, ya'ni:

– kelishuvga aloqador bo'lgan uchinchi shaxslar bilan tuzilgan shartnomalar;

– tovar bo'yicha uchinchi shaxslar hisobiga to'lov amalga oshirilgan hisob-kitoblar haqidagi moliyaviy bank hujjatlari;

– yuk jo'natuvchi davlatning bojxona yuk deklaratsiyasi;

– kelishuvga aloqador bo'lgan shaxslarning komission, broker haqlarini tasdiqlovchi moliyaviy bank hujjatlar;

– ishlab chiqaruvchi korxonaning kataloglari, spesifikatsiyalari, preyskuran (prays-list) va kalkulatsiyalari (agarda tovarning narxi yuqorida keltirib o'tilgan hujjatlar bilan tasdiqlanmagan bo'lsa) taqdim etilishi talab etiladi.

4. Tovarning tekinga yoki arzonlashtirilgan narxlarga berilishi.

**Amaliyotda yo'l qo'yilayotgan kamchiliklar:** «G» korxona tomonidan olib kirilgan dori vositalari uchun chet el ishlab chiqaruvchi korxona tomonidan 20% miqdorda chegirma berilib shartnomalar imzolangan. Dori vositalarining bojxona rasmiylashtiruvi bir-lamchi hujjatlarda ko'rsatilgan qiymat asosida (invoys va bojxona yuk deklaratsiyasi chegirma hisobga olingan) amalga oshirilgan.

Bojxona kodeksida bojxona qiymatini aniqlashda xizmatlarning hamda sotuvchi xaridorga tekinga yoki arzon narxda bevosita yoxud bilosita beradigan boshqa tovarlarning qiymati qo'shilishi belgilangan.

Natijada korxona nisbatan qo'shimcha **30,2 mln. so'm** miqdorida bojxona to'lovlar hisoblangan.

**Kelib chiqish sababi:** Shartnomada tovarning narx shakllanishiga e'tibor qaratilmagan.

**E'tibor qaratish kerak:** Shartnomada tovarning narx shakl-lanishiga e'tibor qaratish lozim.

5. Tovar beg'araz yordam (tekinga) sifatida olib kelinganligi.

**Amaliyotda yo'l qo'yilayotgan kamchiliklar:** «D» korxona tomonidan beg'araz yordam sifatida olib kirlgan un mahsulotlaridan tayyorlangan tovarlar TIF bojxona postida bojxona qiymatini aniqlashning 1-usuli qo'llanilgan holda bojxona rasmiylashtiruvidan o'tkazilgan.

Bojxona kodeksi hamda O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kelinadigan tovarlarning bojxona qiymatini belgilash bo'yicha Yo'riqnomalariga muvofiq, O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasini kesib o'tishi paytda haqiqatda to'langan yoki to'lanishi lozim bo'lgan bitim qiymati O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga olib kiriladigan tovarning bojxona qiymati hisoblanishi belgilangan.

Natijada korxonaga nisbatan qo'shimcha **18,8 mln. so'm** miqdorida bojxona to'lovlar hisoblangan.

**Kelib chiqish sababi:** Shartnoma mavjudligi yoki mavjud emasligi, tovar uchun pul mablag'larining to'langanligi yoki belgilangan muddatlarda to'lanishi o'r ganilmagan.

**E'tibor qaratish kerak:** Tovarning bojxona qiymatini 1-usul bilan aniqlashda shartnomaning mavjudligiga va ushbu shartnoma shartlariga muvofiq, tovar uchun xorijiy hamkorga pul mablag'larini o'tkazilishini nazarda tutilishi lozim.

6. Tovarni konsignatsiya yoki lizing shartlarida olib kirish, tovarni tasarruf etilishini yoki sotilishidan tushadigan pulning bir qismi bevosita yoki bilvosita sotuvchiga o'tmasligi.

**1. Amaliyotda yo'l qo'yilayotgan kamchiliklar:** «E» korxona tomonidan konsignatsiya shartlarida olib kirlgan to'p uchun kamera tovarlari TIF bojxona postida bojxona qiymatini aniqlashning 1-usuli qo'llanilgan holda bojxona rasmiylashtiruvidan o'tkazilgan.

Bojxona kodeksi hamda O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kelinadigan tovarlarning bojxona qiymatini belgilash bo'yicha Yo'riqnomalariga muvofiq, xaridor tovari keyinchalik qayta sotishi, tasarruf etishi yoki undan foydalanishidan kelgan tushumning biron-bir qismi bevosita yoki bilvosita sotuvchiga o'tmasa, birinchisi usul qo'llanilmasligi belgilangan.

Ya'ni konsignatsiya shartida to'p uchun kameralar sotib olinmaydi oluvchi uning egasiga aylanmaydi, sotishdan tushgan foydani yetkazib beruvchi oladi.

Natijada korxonaga nisbatan qo'shimcha 6,5 mln. so'm miqdorida bojxona to'lovlar hisoblangan.

**Kelib chiqish sababi:** Shartnomada konsignatsiya shartlari ko'rsatilganligiga e'tibor qaratilmagan.

**E'tibor qaratish kerak:** Shartnomada konsignatsiya shartlari ko'rsatilganligiga e'tibor qaratilishi, pul mablag'lari tovar to'liq realizatsiya qilingandan so'ng amalga oshirilishi mumkinligiga qaratish lozim.

**2. Amaliyotda yo'l qo'yilayotgan kamchiliklar:** «J» korxona tomonidan lizing shartlarida olib kirilgan yuk tashishga mo'l-jallangan avtovositalari TIF bojxona postida bojxona qiymatini aniqlashning 1-usuli qo'llanilgan holda bojxona rasmiylashtiruvdan o'tkazilgan.

Ya'ni lizing shartida yuk tashishga mo'l-jallangan avtovositalari mulkchilik qilish huquqi ijaraga beruvchidan ijarachiga o'tmaydi, mulkdor tovardan foydalanganlik huquqi uchun foydaning bir qismini oladi va tovarni muayyan vaqtdan so'ng uning egasiga (ijaraga beruvchiga) qaytarishi mumkin.

Natijada korxonaga nisbatan qo'shimcha 11,9 mln. so'm miqdorida bojxona to'lovlar hisoblangan.

**Kelib chiqish sababi:** Shartnomada lizing shartlari ko'rsatilganligiga e'tibor qaratilmagan.

**E'tibor qaratish kerak:** Shartnomada lizing shartlari ko'rsatilganligiga e'tibor qaratilishi, tovarga egalik qilish huquqi lizing muddati tugagandan so'ng amalga oshirilishi yoki tovar keyinchalik qaytarilishi mumkinligiga e'tiborni qaratish lozim.

7. Xaridor va sotuvchi bir-biriga bog'liq shaxslar bo'lsa.

**1. Amaliyotda yo'l qo'yilayotgan kamchiliklar:** «Z» korxona tomonidan olib kirilgan o'z ishlab chiqarish ehtiyoji uchun mo'l-jallangan xomashyolar TIF bojxona postida bojxona qiymatini aniqlashning 1-usuli qo'llanilgan holda bojxona rasmiylashtiruvdan o'tkazilgan.

Bojxona kodeksi hamda O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kelinadigan tovarlarning bojxona qiymatini belgilash bo'yicha

Yo‘riqnomalariga muvofiq, bitim qatnashchiları bir-biriga bog‘liq shaxslar bo‘lsa, (ularning o‘zaro bog‘liqligi bitim narxiga ta’sir etmagan va bu narsa deklarant tomonidan isbot qilingan hollar bundan mustasno) bojxona qiymatining birinchi usuli qo‘llanilmasligi belgilangan.

Mazkur holatda ta’sischilar qarindosh ekanligi aniqlanganligi natijasida korxonaga nisbatan qo‘sishimcha **12,2 mln. so‘m** miqdorida bojxona to‘lovlari hisoblangan.

**Kelib chiqish sababi:** Korxonani ta’sischilarini bir-biriga bog‘liq shaxslar ekanligini ta’sis shartnomaları orqali tekshirilmagan, ilgari mazkur korxona yuzasidan tekshiruv o‘tkazilgan yoki o‘tkazilmaganligi tekshirilmagan, alohida hisobga olinganligi yoki olimmaganligi tekshirilmagan, aynan shu tovar boshqa TIF qatnashchilarini tomonidan qanday narxlarda rasmiylashtirilganligi, 4-usul orqali qiymatlarni aniqlanmagan, muqobil manbaa (internet orqali) orqali ishlab chiqaruvchining rasmiy saytida yoki eksportyor davlatdagi qiymatlarni o‘rganilmagan.

**E’tibor qaratish kerak:** Korxonaning ta’sis shartnomalarini talab etish, agarda korxona ta’sischilarini bir-biriga bog‘liqligi aniqlansa (qarindoshlar bo‘lsa shaxsni tasdiqlovchi hujjatlar, xizmat guvohnomaları, mehnat shartnomaları, korxona nizomi va h.k.) talab etish orqali bog‘liqlik tekshiriladi. bunday bog‘liqlik narxga ta’sir etmaganligini tasdiqlovchi hujjatlar, ya’ni eksport BYuD, tovar ishlab chiqaruvchining prays listlari, preyskuranltari, kataloglari, spesifikatsiyalari, kalkulatsiyalari talab etilishi, import BYUdlar elektron baza ma’lumotlarida aynan shu yoki o‘xshash tovarning boshqa TIF qatnashchilarini tomonidan olib kirilganligi, muqobil manbaa (internet orqali) ma’lumotlarini o‘rganish, 4-usul orqali qiymatlarni aniqlash, ilgari mazkur korxona yuzasidan tekshiruv o‘tkazilgan yoki o‘tkazilmaganligi, o‘tkazilgan bo‘lsa, qanday xulosa qabul qilinganligiga e’tibor qaratish lozim.

**2. Amaliyotda yo‘l qo‘yilayotgan kamchiliklar:** «J» korxona tomonidan marketing o‘tkazish maqsadida, olib kirilgan gips mahsulotlari TIF bojxona postida bojxona qiymatini aniqlashning 1-usuli qo‘llanilgan holda bojxona rasmiylashtiruvidan o‘tkazilgan.

Mazkur holatda bitimning har ikkala qatnashchisi bevosita yoki bilvosita uchinchi shaxs nazorati ostida ekanligi natijasida korxonaga

nisbatan qo'shimcha 219,0 mln. so'm miqdorida bojxona to'lovları hisoblangan.

**Kelib chiqish sababi:** Bitumning har ikkala qatnashchisi bevosita yoki bilvosita uchinchi shaxs nazorati ostida ekanligi, ilgari mazkur korxona yuzasidan tekshiruv o'tkazilib, kamomad aniqlanganligi va alohida hisobga olinganligi, aynan shu tovar boshqa TIF qatnashchilari tomonidan qanday narxlarda rasmiylashtirilganligi, muqobil manbaa (internet orqali) orqali ishlab chiqaruvchining rasmiy saytida yoki eksportyor davlatdagı qiymatlarni o'rganish, 4-usul orqali qiymatlarni aniqlash o'rganilmagan.

**E'tibor qaratish kerak:** Korxonaning ta'sis shartnomalarini talab etish, agarda korxona ta'sischilarini bir-biriga bog'liqligi aniqlansa (qarindoshlar bo'lsa shaxsnı tasdiqlovchi hujjatlar, xizmat guvohnomalari, mehnat shartnomalari, korxona nizomi va h.k.) talab etish orqali bog'liqlik tekshiriladi), bunday bog'liqlik narxga ta'sir etmaganligini tasdiqlovchi hujjatlar, ya'nı eksport BYuD, tovar ishlab chiqaruvchining prays listlari, preyskuratorlari, kataloglari, spesifikatsiyalari, kalkulatsiyalari talab etilishi, import BYuDlar elektron baza ma'lumotlarida aynan shu yoki o'xshash tovarning boshqa TIF qatnashchilari tomonidan olib kiritilanligi, muqobil manbaa (internet orqali) ma'lumotlarini o'rganish, 4-usul orqali qiymatlarni aniqlash, ilgari mazkur korxona yuzasidan tekshiruv o'tkazilgan yoki o'tkazilmaganligi, o'tkazilgan bo'lsa, qanday xulosa qabul qilinganligiga e'tibor qaratish lozim.

### 3. 1-usulini qo'llanilishini nazorat qilish algoritmi

Bojxona qiymati – bojxona to'lovlarini hisoblab chiqarishda foydalaniладigan tovar qiymati bo'lganligi sababl. YaAAT dasturi faqat bojxona to'lovlarini undirilishini nazarda tutadigan BYuDlar bo'yicha tekshiruv olib boradi. Bojxona to'lovlarini undirilishini nazarda tutmaydigan BYuDlardagi tovarlarning bojxona qiymatini belgilanishi yuzasidan tekshiruv bojxona rasmiylashtiruvı amalga oshirayotgan xodim tomonidan o'tkazilishi lozim.

Bojxona qiymatining 1-usulini qo'llashda DBQ YaAATdag'i dasturi quyidagi mezonlar bo'yicha tekshiruv olib boradi:

## **I. O'z ehtiyojlari uchun olib kelinadigan tovarlar uchun:**

- vakolatli vazirlik va idoralarda ro'vxatga olingan to'g'ridan-to'g'ri yuk ishlab chiqaruvchi davlat rezidenti tomonidan tovar yuborilishini ko'zda tutadigan import shartnomasining mavjudligi\*;
- «o'z ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun sertifikat»ni yoki o'z ishlab chiqarish maqsadlarida ishlatish bo'yicha taqdim etilgan kafolat xatining mavjudligi;
- eksport BYuDning mavjudligi\*;
- bitim xususiyati va olib o'tish xususiyatlari belgilangan talablarga mos kelishi lozim;
- savdo qiluvchi, jo'natuvchi va ishlab chiqaruvchi mamlakat offshor zonalar guruhiga kiritilmagan bo'lishi shart\*.

## **II. Tijorat maqsadlarida olib kelinadigan tovarlar uchun:**

- vakolatli vazirlik va idoralarda ro'vxatga olingan to'g'ridan-to'g'ri yuk ishlab chiqaruvchi davlat rezidenti tomonidan tovar yuborilishini ko'zda tutadigan import shartnomasining mavjudligi\*;
- eksport BYuDning mavjudligi\*;
- bitim xususiyati va olib o'tish xususiyatlari belgilangan talablarga mos kelishi lozim;
- savdo qiluvchi, jo'natuvchi va ishlab chiqaruvchi mamlakat offshor zonalar guruhiga kiritilmagan bo'lishi shart\*;
- import qilinayotgan tovar xavf guruhiga kiritilmagan bo'lishi lozim\*.

*\*— ko'rsatib o'tilgan talablar bajarilmagan taqdirda, dastur tomonidan XBBning «Bojxona qiymatini nazorat qilish guruhi»ning 1-usulni qo'llash bo'yicha qabul qilingan xulosasining mavjudligi tekshirib chiqiladi.*

Quyida keltirilgan holatlarda bojxona qiymatini 1-usul asosida bayon qilinishining qonuniyligi hududiy bojxona boshqarmalarda tashkil etilgan «**Bojxona qiymatini nazorat qilish guruhi**» tomonidan kollegial o'rganib chiqiladi:

- «Yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan valuta operatlyari o'tkazilishi asosliligi ustidan monitoringni amalga oshirish tartibi»da ko'rsatib o'tilgan davlatlardan tovarlar olib kelinganida, tovar ishlab chiqaruvchisi mazkur mamlakatlar bo'lganida yoki

shartnomaga kontragenti sifatida mazkur davlatlar va hududlarning rezidenti ishtirok etgani;

– mazkur «offshor zonalar»da moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish bo'yicha ma'lumotlar taqdim etilishi ko'zda tutilmaganligi sababli, bitim ishtirokchisi ushbu davlat rezidenti bo'lganida yoki tovarlar ushbu zonalarda joylashgan davlatlardan import qilinganida, tovar uchun haqiqatda to'langan yoki to'lanishi lozim bo'lgan pul mablag'lari to'g'risida hamda tovarning narxi yuzasidan haqqoniy ma'lumotlar taqdim etilishiga alohida e'tibor qaratish lozim;

– reeksport, tranzit davlatlaridan tovarlar import qilinganida tovarning narxi yuk ishlab chiqaruvchi mamlakatdagi tovar narxlardan past (yoki yuqori), shuningdek, ayrim holatlarda tovarlarning narxlari ularga ketadigan transport xarajatlari, tovar uchun foydalilaniladigan xomashyo, materiallarning narxlardan ham past ko'rsatilmagan bo'lishiga hamda tovar ishlab chiqaruvchi davlatning tegishli hujjatlari mavjudligiga alohida e'tibor qaratish lozim;

– xavf guruhiga eksportyor davlatlar bojaxona xizmatlaridan olingan, boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlardan hamda boshqa manbalardan olingan ma'lumotlarga ko'ra, tovarning miqdori, nomi, TIF TN kodi, bojaxona qiymati, to'lovlar stavkalari to'g'risidagi ma'lumotlar bojaxona rasmiylashtiruviga jarayonida noto'g'ri ko'rsatilgan tovarlar kiritiladi;

– «O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kelinadigan tovarlar bojaxona qiymatini e'lon qilish va nazorat qilish qoidalari» talablariga ko'ra, tovarlarning bojaxona qiymati 1-usul asosida bayon qilinganida eksporter davlat bojaxona organining BYuDsi mavjud bo'lmagan hollarda.

Yuqorida qayd yetib o'tilgan holatlarda, deklarant taqdim etgan hujjatlar ilova qilingan holda post tomonidan XBB «Bojaxona qiymatini nazorat qilish guruhi» rahbariga bildirgi orqali murojaat qilinadi. Boshqarmaga taqdim etilgan hujjatlar asosida bayon qilingan bojaxona qiymatining qonuniyligi o'rganib chiqilib, ko'pi bilan 3 kun muddatda xulosa tayyorlanadi hamda guruh rahbari tomonidan tasdiqlanadi. Xulosa tasdiqlangan kunning o'zida HBB boshlig'i yoki o'rinchosari bojaxona rasmiylashtiruvini 1-usul asosida rasmiylashtirishiga ruxsat beradi. Agarda tovarning bojaxona qiymatini o'rganib chiqish jarayonida 1-usulni qo'llash mumkin emasligi aniqlansa yoki

qo'shimcha hujjatlar talab qilinishi zaruriyati tug'ilsa, bu haqida bojxona postiga (nusxasi deklarantga) yozma ma'lum qilinadi.

**Yuqoridagi mezonlar bo'yicha tekshiruv o'tkazilishi uchun dasturda quyidagilar shartli ravishda belgilangan:**

**O'z ehtiyojlari uchun mo'ljallangan tovarlar:**

Elektron bojxona yuk deklaratsiyasining (keyingi matnlarda – EBYuD) 43-grafasida «1» belgisi bo'lishi kerak.

**Tijorat maqsadlari uchun mo'ljallangan tovarlar:**

EBYuDning 43-grafasida «0» belgisi qo'yilishi kerak.

**Offshor zonalar kiritilgan davlatlar:**

«Yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan valuta operatsiyalaring qonuniy amalga oshirilishi ustidan monitoring o'rnatish to'g'risidagi Nizom» ga kiritilgan davlatlar.

**Xavf guruhiiga kiritilgan tovarlar:**

O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasidan olib o'tilayotgan va ularga nisbatan bojxona qonun hujatlari buzilishi, shu jumladan belgilangan bojxona to'lovlarini to'lashdan bosh tortish, valuta qonunchiligini buzish, valuta tushumini yashirish, tashqi iqtisodiy bitimning qiymatini oshirish yoki kamaytirish, hujjatlardan aldash yo'li bilan foydalanish ehtimoli bo'lgan tovarlar.

**Vakolatli vazirlik va idoralarda ro'yxatga olingan import shartnomasining mavjudligi:**

– Shartnomaning identifikatsion (IDN) raqami (S-grafa, 1-band);

44-grafada shartnomaning raqami va sanasi (3-band, hujjat kodi «KNT»).

**Vakolatli vazirlik va idoralarda ro'yxatga olingan to'g'ridan-to'g'ri yuk ishlab chiqaruvchi davlat rezidenti tomonidan tovar yuborilishini ko'zda tutadigan import shartnomasi mavjudligi:**

Shartnomaning IDN raqami (S-grafa, 1-band);

44-grafada shartnomaning raqami va sanasi (3-band, hujjat kodi «KNT»);

Jo'natuvchi davlat (15-grafa) va ishlab chiqaruvchi mamlakat (34-grafa) bir xil bo'lishi lozim.

## **O‘z ishlab chiqarish sertifikatining mavjudligi:**

44-grafada sertifikatning raqami va sanasining mavjudligi (8-band, hujjat kodi «SSPN»).

**Tovarni o‘z ishlab chiqarish ehtiyojlarida ishlatalishi vuzasidan taqdim etilgan «Kafolat xati»ning mavjudligi:**

44-grafada «Kafolat xati»ning raqami va sanasining mavjudligi(8-band, hujjat kodi «GrsSN»).

## **Eksport BYuDsining mavjudligi:**

44-grafada eksport BYuDning ro‘yxat raqami (8-band, hujjat kodi «GTD»).

**24-grafadagi bitim xususiyatini 1-usul shartlariga to‘g‘ri kelishi:**

**1-usulni quyidagi bitim xususiyatlarida qo‘llash mumkin emas:**

**51** – to‘g‘ridan-to‘g‘ri tovar ayriboshlash tartibida tovarlarni olib o‘tish (barter bitimlari);

**81** – beg‘araz (to‘lovsiz) yordam ko‘rsatish tartibida tovarlarni yetkazib berish;

**84** – hadya tariqasida tovarlarni yetkazib berish;

**85** – beg‘araz (to‘lovsiz) asosda namuna sifatida va sinov uchun tovarlarni yetkazib berish;

**91** – ishlatalib eskirgan asbob-uskunani kompensatsiyalash uchun tovarlarni yetkazib berish;

**98** – vaqtinchalik olib kirish yoki vaqtinchalik olib chiqish shartlarida tovarlar va namunalarni yetkazib berish;

**99** – notijorat operatsiyalari bo‘yicha boshqa yetkazib berishlar.

**37-grafadagi (3-bo‘linmasi) tovarning o‘tish xususiyatlarini 1-usul shartlariga to‘g‘ri kelishi:**

**1-usulni quyidagi tovarlarni olib o‘tish xususiyatlarida qo‘llash mumkin emas:**

**004** – hadya sifatida berilayotgan tovarlarni olib o‘tish;

**014**– xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarining ustav fondiga kiritish uchun tovarlarni olib kirish;

**018** – kafolat xizmatini ko‘rsatish doirasida tovarlarni olib o‘tish;

**021** – ko‘rgazma eksponatlari;

**022** – reklama materiallari va suvenirlar;

**023** – bir yildan kam muddatga vaqtinchalik olib kirlayotgan yoki vaqtinchalik olib chiqilayotgan tovarlar;

**024** – bir yil va undan ko'p muddatga vaqtinchalik olib kirlayotgan yoki vaqtinchalik olib chiqilayotgan tovarlar;

**025** – konsignatsiya bitimlari doirasida olib o'tilayotgan tovarlar;

**029** – jismoniy shaxslar tomonidan ishlab chiqarish yoki boshqa tijorat maqsadlari uchun mo'ljallanmagan tovarlarni olib o'tish;

**031** – tovarlarni namuna va nusxa sifatida olib o'tish;

**033** – investitsiya faoliyatidan olingan dividendlar hisobidan tovarlarni olib o'tish;

**035** – ishlab chiqarish kooperatsiyasi doirasida tovarlarni olib o'tish;

**039** – reklamatsiya bo'yicha qaytarilayotgan tovarlarni olib o'tish;

**040** – tovarlarni ta'mirlash uchun bojxona hududida qayta ishlash rejimi ostida olib kirish;

**044** – tashqi savdo oldi-sotdisi va ayirboshlashi obyekti bo'Imagan boshqa tovarlar;

**058** – bojxona to'lovlari shartli bojxona qiymatini aniqlash asosida to'langanligi sababli shartli chiqarib yuborilgan tovarlar.

Sotuvchi bilan oluvchi o'rtasida o'zaro aloqadorlik mavjud bo'lib, 1-usul qo'llanilganda, dastur tomonidan mazkur bog'hqlikni tovarning bojxona qiymatiga ta'sir etmaganligini tekshirish maqsadida, «Eksport va import qilinadigan tovarlarning narx ma'lumotlari byulleteni»dag'i (Byulleten) aynan bir xil yoki o'xhash tovarning narxlari bilan solishtirib chiqadi.

Agarda, ushbu holatda tovarning bojxona qiymati Byulletendagi aynan bir xil yoki o'xhash tovarning narxidan past belgilangan bo'lsa, o'zaro bog'lqlik bitim qiymatiga ta'sir etgan deb hisoblaniб, dastur ushbu BYuDni qabul qilmaydi.

Sotuvchi va oluvchi o'rtasida o'zaro aloqadorlik bo'lganida BYuDning ajralmas qismi hisoblanuvchi Bojxona qiymati deklarat-siyasining (BQD-1) «sotuvchi va oluvchi o'rtasida aloqadorlik mavjudmi?» degan grafasida tegishli belgi («Ha») qo'yilishi shart.

Mazkur usulni qo'llashda haqiqatda to'langan yoki to'lanishi lozim bo'lgan qiymatga, agarda ular tovarlarning qiymatiga

qo'shilmagan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasiga qadar amaliga oshirilgan barcha xarajatlar qo'shilishi lozimligi belgilangan.

**DBQ YaAA Tdagı dastur EBYuDda «yetkazib berish sharti» - «EXW», «FSA», «FOB» bo'lganida, tovarning faktura qiyomatiga O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasigacha bo'lgan xarajatlar qo'shib, bojxona qiyomi aniqlanganligini tekshiradi. Ya'ni yuqoridagi yetkazib berish shartlarida EBYuDning 42- va 45-grafalaridagi qiyamatlar dastur tomonidan solishtirilib, mazkur qiyamatlar bir xil (yoki EBYuDning 45-grafadagi qiyomat 42-grafadagi qiyamatdan past) bo'lganida tovarning bojxona qiymatini dastur qabul qilmaydi.**


Bojxona qiyomatining 1-usul asosida belgilanishida tovarning bitim narxidan bojxona hududida sarflangan xarajatlar (hisobvaraq-fakturalar, to'lov topshiriqnomalari, cheklar) asosida, basharti ular bojxona hududiga olib kiriladigan tovar uchun haqiqatda to'langan yoki to'lanishi lozim bo'lgan narxdan ajratib olingan bo'lsa, chiqarib tashlanadi.

Shu sababli, yetkazib berish shartlari SFR, SIF, SPT, SIP, DDP, DAP, DAT bo'lganda, deklarant tomonidan taqdim etilgan BYuDdag'i baholanayotgan tovarning bojxona qiyomati (EBYuDning 45-grafa) faktura qiyomatidan (EBYuDning 42-grafa) kamayish tomonga farq qilganida, dastur tomonidan bu haqida inspektorga xabar beradi. Mazkur holatda tovarning qiyomatidan chiqarib tashlanayotgan xarajatlar hisob varaqda hamda shartnomada alohida ajratilib ko'rsatilganligi inspektor tomonidan o'rganib chiqilishi lozim bo'ladi.

**DBQ YaAA Tdagı dastur tomonidan EBYuDda deklarant tomonidan** bayon qilingan tovarning bojxona qiyomatinı Byulletendagi narxlar bilan taqqoslab, Byulletenden kamayish tomonga keskin farq qilganida (kamayish 50 %dan ortganida) ushbu holat bo'yicha rasmiylashtiruv amalga oshirayotgan xodimga xabar beradi. Mazkur holatda bojxona xodimi tovarning bojxona qiyomatinı chuqr o'rganib chiqib, qaror qabul qilishi lozim bo'ladi.

Agarda taqqoslash jarayonida bayon qilingan bojxona qiyomatinı byulletendagi narxdan past emasligi aniqlanganida, dastur tomonidan tovarlarning bojxona qiyomi yuqorida ko'rsatib o'tilgan qoidalar

asosida tekshiruv o'tkazilmaydi. Mazkur holatda tovar bojxona qiyematining belgilanishi bo'yicha tekshiruvlar bojxona rasmiy lashiruvini amalgal oshrayotgan post tomonidan amaldagi qonunchilik talablari asosida o'tkazilishi lozim.



**10-rasm.** BYuDni elektron nusxasini qabul qilish jarayonida bojxona qiyimatini aniqlashning 1-usul shartlari qo'llanilishini nazorat qilish sxemasi.

17 Страна назначения

17 а Код страны  
назнач.

15 Страна отправления  
УЗБЕКИСТАН

15а Код страны  
850 отправ.

20 Условия поставки  
02 ФСА СИЭЗ Навои

42 Фактур. Стоим. т-ра  
1050000000

45 Таможенная стоимость  
1050000000

М.П.

М.П.

## Форма для декларации А ИСДЛНП

1 Тип декларации

ИМ 40 0

24 Характер сделки


01 860

Вид	Окно или идентификатор сделки	Сумма	СП
13	100000000	0.2	64
28	25446375	15	1548590.68
27	2197057.5	25	199064.52
29	349204540.25	10	36920454.02
Итого			


37 Процедура  
40 71 49

М.П.

М.П.



**11-rasm.** 1-usul orqali bojxona qiymatini aniqlashda YaAAT dasturi yordamida BYuDning va BQD-ning tekshiriladigan grafalari (namuna nusxasi).



**12-rasm. BYuDni elektron nusxasini qabul qilish jarayonida bojxona qiymatini aniqlashning 1-usul shartlari qo'llanilishini nazorat qilishda tekshiriladigan grafalar.**

## Nazorat uchun savollar

1. Bojxona qiymatini belgilash usullari.
2. Bojxona qiymatini belgilash usullarini qo'llash tartibi.
3. Olib kiriladigan tovar yuzasidan tuzilgan bitim narxiga qarab bojxona qiymatini chiqarish usulining mohiyati
- 4 1-usul bo'yicha bojxona qiymatini belgilashda cheklowlar.

## Foydalaniłgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksi.
- 2 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 30-sentabrdagi «Eksport va import operatsiyalari monitoringini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 416-son qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan 1998-yil 13-yanvarda 390-raqam bilan ro'yxatdan o'tgan «O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kelinadigan tovarlarning bojxona qiymatini belgilash bo'yicha yo'riqnomasi».
4. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan 1998-yil 13-yanvarda 391-raqam bilan ro'yxatdan o'tgan «Bojxona qiymati deklaratsiyasini to'ldirish tartibi».
5. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan 2016-yil 6-aprelda 2773-raqam bilan ro'yxatdan o'tgan «Bojxona yuk deklaratsiyasini to'ldirish tartibi».
6. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan 2000-vil 22-fevralda 899-raqam bilan ro'yxatdan o'tgan «O'zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kelinadigan tovarlarga bojxona qiymatini belgilash va uni nazorat qilish tartibi».
7. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan 2013-yil 12-iyunda 2467-raqam bilan ro'yxatdan o'tgan «Yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan valuta operatsiyalari o'tkazilishi asosliligi ustidan monitoringni amalga oshirish tartibi».
8. Davlat bojxona qo'mitasining 2010-yil 12-apreldagi «Import qilinayotgan tovarlarning bojxona qiymatini belgilanishini DBQ Yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimi asosida nazorat qilish

bo‘yicha vaqtinchalik yo‘riqnomani amaliyotga kiritish to‘g‘risida»gi 92-son buyrug‘i.

9. Davlat bojxona qo‘mitasining 2009-yil 18-maydagi «Eksport va import qilinayotgan tovarlar narx ma’lumotlari byulleteni elektron bazasini yuritish tartibini tasdiqlash to‘g‘risida»gi 135-son buyrug‘i.

10. Davlat bojxona qo‘mitasining 2011-yil 9-fevraldag‘i «INKOTERMS-2010 xalqaro savdo shartlarini amaliyotga kiritilganligi to‘g‘risida»gi 1-son ko‘rsatmasi.

## **VI BOB. AYNAN BIR XIL VA O'XHASH TOVARGA DOIR BITIMNING QIYMATI BO'YICHA BOJXONA QIYMATINI BELGILASH HAMDA NAZORAT QILISH ALGORITMI**

### **Reja**

- 1. Aynan bir xil tovarga doir bitimning qiymatiga oid usul (2-usul) hamda nazorat qilish algoritmi.**
- 2. O'xhash tovarga doir bitimning qiymatiga oid usul (3-usul).**

### **1. Aynan bir xil tovarga doir bitimning qiymatiga oid usul (2-usul) hamda nazorat qilish algoritmi**

Aynan bir xil tovarga doir bitimning qiymatiga oid usul bojxona hududiga olib kirilayotgan tovarning bojxona qiymatini aniqlash uchun asos sifatida aynan bir xil tovarga doir bitimning qiymati qabul qilinishini nazarda tutadi.

Aynan bir xil tovar deganda:

- baholanayotgan tovar bilan fizik xususiyatlariga, sifatiga va bozordagi qadriga ko'ra bir xil bo'lgan;
- baholanayotgan tovar qaysi mamlakatda ishlab chiqarilgan bo'lsa, shu mamlakatda ishlab chiqarilgan va O'zbekiston Respublikasiga olib kirish uchun sotilgan;
- baholanayotgan tovarni ishlab chiqargan ayni o'sha shaxs tomonidan ishlab chiqarilgan tovar tushuniladi.

Agar tovarning bitim qiymati O'zbekiston Respublikasida bajarilgan loyihalashning, tajriba-konstrukturlik ishlarining, badiiy bezatishning, dizaynning, eskizlarning yoki chizmalarining qiymatini o'z ichiga olgan bo'lsa, aynan bir xil tovar deb hisoblanmaydi.

Tovarning tashqi ko'rinishidagi juz'iy farqlar, agar bunday tovar qolgan jihatlari bilan muvofiq bo'lsa, unga aynan bir xil deb qarashni rad etish uchun asos bo'lib xizmat qila olmaydi.

Agar aynan bir xil tovar bojxona hududiga:

- baholanayotgan tovar olib kirilguniga qadar to‘qson kalender kun ichida olib kirilgan bo‘lsa;
- taxminan o‘sha miqdorda va (yoki) o‘sha tijorat shartlarida olib kirilgan bo‘lsa, aynan bir xil tovar yuzasidan tuzilgan bitimning qiymati baholanayotgan tovarning bojxona qiymatini aniqlash uchun asos sifatida qabul qilinadi.

Agar tovarni o‘sha miqdorda va o‘sha tijorat shartlarida bojxona hududiga olib kirish hollari mavjud bo‘lmasa, boshqacha miqdorda va boshqa tijorat shartlarida olib kirilgan avnan bir xil tovarning ushbu farqlar hisobga olinib, bitimning narxiga tuzatishlar kiritilgan holdagi qiymatidan foydalanish mumkin.

Agar aynan bir xil tovar uchun ushbu Bojxona kodeksining 304-moddasi birinchi qismining «a» bandida ko‘rsatilgan xarajatlarning qiymati baholanayotgan tovar uchun shunday xarajatlarning qiymatidan masofa va transportning turlaridagi tafovut tufayli ancha farq qilsa, aynan bir xil tovarga doir bitimning qiymatiga ko‘ra aniqlanadigan bojxona qiymatiga tegishli tarzda tuzatishlar kiritilishi kerak.

Baholanayotgan tovarning bojxona qiymatiga tuzatishlar kiritish deklarant yoki bojxona brokeri tomonidan to‘g‘ri va hujjat bilan tasdiqlangan ma‘lumotlar asosida amalga oshirilishi lozim.

Agar aynan bir xil tovarga doir bitimning qiymati bo‘yicha aniqlash usuli qo‘llanilganda aynan bir xil tovarga doir bir nechta bitim aniqlansa, baholanayotgan tovarning bojxona qiymatini aniqlash uchun bahosi eng past bo‘lgan aynan bir xil tovarga doir bitim qo‘llaniladi.

Deklarantda aynan bir xil tovarning bojxona qiymati haqidagi axborot mavjud bo‘lmasa, unda baholashning boshqa usullariga o‘tish lozim bo‘ladi.

**Misol. Amaliyotda yo‘l qo‘yilayotgan kamchiliklar:** «A» korxonasi tomonidan olib keltingan ofis texnika tovarları TIF bojxona postida bojxona qiymatini aniqlashning 2-usuli qo‘llanilgan holda bojxona rasmiylashtiruvidan o‘tkazilgan.

Bojxona kodeksining 309-moddasiga binoan, tovarlar hamma jihatlariga ko‘ra, jumladan, tovarning fizik xususiyatlari, sifati va bozordagi qadri, qaysi mamlakatda ishlab chiqarilganligi, ishlab chiqaruvchisi kabi belgilari bo‘yicha bir xil tovarlar aynan bir xil tovarlar deb e’tirof etiladi.



**Тип:** холодильник с морозильником

**Расположение:** отдельно стоящий

**Расположение морозильной камеры:** сверху

**Цвет:** белый

**Материал покрытия:** пластик

**Количество компрессоров:** 1

**Количество камер:** 2

**Количество дверей:** 2

**Габариты (ШxГxВ):** 53x67x57x02x145 см

**Размораживание морозильной камеры:** No Frost

**Общий объем:** 188 л

**Объем холодильной камеры:** 137 л

**Объем морозильной камеры:** 51 л

**Генератор льда:** в комплекте

**13-rasm.** Aynan bir xil tovarga misol sifatida barcha jihatni bir xil «LG» – markali Xitoy davlatida ishlab chiqarilgan muzlatgich.

O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kelinadigan tovarlarning bojxona qiymatini belgilash bo‘yicha Yo‘riqnomada 2-usul ilgari 1-usulga ko‘ra baholangan xuddi shuningdek yoki shunga o‘xshagan tovarlarga doir bitim narxidan bojxona qiymatini belgilash uchun asosiy baza sifatida foydalanishi belgilangan. Bunda deklarant amalda mavjud bo‘lgan savdo bitimlarining narxi va tovarlarning O‘zbekiston Respublikasi chegarasi orqali olib o‘tilishi haqidagi hujjatlar asosida tasdiqlangan ma’lumotni qo‘llashi belgilangan.

Bojxona kodeksi va Yo‘riqnomada talablariga amal qilinmay, 2-usul qo‘llanilganligi natijasida 2014-yilda **41,0 mln. so‘m** miqdorida bojxona to‘lovlari undirilmay qolingga.

**Kelib chiqish sababi:** Barcha jihatlari aynan bir xil ekanligi o‘rganilmagan, mazkur tovarlar ilgari asosiy usul bilan rasmiylashtirilganligini tasdiqlovchi shartnoma va birlamchi hujjatlar, import bojxona yuk deklaratasiyasi talab etilmagan.

**E’tibor qaratish kerak:** Barcha jihatlari aynan bir xil bo‘lishi, tovarlar olib kelingan vaqtidan boshlab 90 kun ichida O‘zbekiston Respublikasiga taxminan o‘sancha miqdorda, o’shanday tijorat shartlarida olib kirilgan bo‘lishi, boshqa miqdorda yoki tijorat shartlarida bo‘lsa kiritiladigan tuzatishlar to‘g‘ri va hujjat bilan tasdiqlangan ma’lumotlar asoslanishi, tovar-baholanayotgan tovar ishlab chiqarilgan mamlakatda ishlab chiqarilmagan bo‘lsa, u baholanayotgan tovar bilan aynan bir xil hisoblanmasligi, baholanayotgan tovarning ishlab chiqaruvchisi tomonidan emas, balki boshqa ishlab


chiqaruvchi tomonidan ishlab chiqarilgan tovar, ramiylashtirilayotgan tomonidan ishlab chiqarilgan aynan bir xil tovar ham bo‘laman taqdirdagina e’tiborga olmishi, tovarni loyihalash, uning ustidagi tajriba-konstrukturlik ishlari, badiiy bezagi, dizayni, eskizi, chizmalari va boshqa shunga o‘xhash ishlar O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilgan bo‘lsa, bunday tovar aynan bir xil hisoblanmasligi, aynan bir xil tovar yuzasidan tuzilgan bitimning ikki va undan ortiq narxi mavjudligi aniqlansa, olib kirilayotgan tovarning bojxona qiymatini belgilash uchun ularning eng past narxi qo‘llanilishi, mazkur tovarlar ilgari asosiy usul bilan rasmiylashtirilganligim tasdiqlovchi shartnoma va birlamchi hujjatlar, import bojxona yuk deklaratsiyasi talab etilishi lozim.

Tovarlarning bojxona qiymati 2-3 usul asosida belgilanishida DBQ YaAATdagi dastur asosida BYuDni quyidagi mezonlar bo‘yicha tekshirib chiqiladi:

- asos qilib olinayotgan BYuD ko‘pi bilan 90 kun ichida «erkin muomalaga chiqarish» bojxona rejimiga rasmiylashtirilganligi (54-grafadagi sana bo‘yicha tekshiriladi);
- asos qilib olinayotgan BYuDdagi tovarning qiymati 1-usulda aniqlanganligi (BQDda qayd etilgan usul tekshiriladi, agarda 1-usuldan boshqa usul aks ettirilgan bo‘lsa, u holda BYuD rasmiylashtiruv uchun qabul qilinmaydi);
- asos qilib olinayotgan BYuDdagi tovarning miqdori rasmiylashtirilayotgan tovarning miqdoridan keskin farq qilmasligi tekshirib chiqiladi (38-grafadagi miqdorlar solishtiriladi, farq 50 %dan ko‘p bo‘lmasligi lozim)

Asos qilib olinayotgan BYuD bilan quyidagi grafalarning bir xilligi tekshirib chiqiladi.
--

gr. 43- tovarni olib kirishdan maqsad	15-grafa. «Jo‘natuvchi mamlakat»	18-grafa. «Jo‘natish/yetkazib berish vaqtidagi transport vositasи».	33-grafa. «Tovar kodi».	34-grafa. «Kelib chiqish mamlakati kodi».
---	--	--	-------------------------------	---



**14-rasm.** BYuDning elektron musxasini qabul qilish jarayonida bojxona qiymatini aniqlashning 2-3 usul shartlari qo'llanilishini DBQ YaAAT asosida nazorat qilish sxemasi.

Tovarlarning tavsiflari (xarakteristikasi) bo'yicha aynan bir xil yoki o'xshashligi tekshirib chiqiladi, ya'ni BYuDning 31-grafasidagi quyidagi tavsiflar solishtiriladi ya'ni:

- nomlanishi;
- o'lchamlari, hajmi,
- savdo markasi;
- modeli;
- sorti;
- dvigatel hajmi (avtoulovlar uchun).

DBQ YaAATda tovarlarning tavsiflari bo'yicha aynan bir xil yoki o'xshashligi post boshlig'i tomonidan tekshirilib, rasmiy-lashtiruv uchun ruxsat beriladi.

Mazkur usul asosida bojxona qiymatini belgilashda dasturda shartli ravishda BYuDning 44-grafasi 8-bandida alohida joy ajaratilgan bo'lib, unda deklarant tomonidan asos qilib olinayotgan BYuDning raqami ko'rsatiladi

(«\_\_\_\_\_ / \_\_\_\_\_ / \_\_\_\_\_» formatda).

The image shows a scanned document with several labeled fields:

- 20 Условия поставки:** 02 |ФСА СИЭЗ Навои
- 33 Код товара:** 8517120000
- 34 Код страны происх. |000**
- Markings at the bottom: М.П. and А.Г.

- Б) Таможенная стоимость оцениваемых товаров определяется:
- по цене сделки с подобными товарами (метод 2)
  - по цене сделки с аналогичными товарами (метод 3)
  - вычитанием стоимости (метод 4)
  - сложением стоимости (метод 5)
  - д) резервным методом (метод 6)


8) Укажите источники информации, использованные для обоснования таможенной стоимости:



*15-rasm. 2-3 usullar asosida bojxona qiymati belgilanganda YaAAT asosida BYuD va BQD-2ning tekshiriladigan grafalari (namuna nusxasi).*

## 2. O'xhash tovarga doir bitimning qiymatiga oid usul (3-usul)

O'xhash tovarga doir bitimning qiymatiga oid usul bojxona hududiga olib kirilayotgan tovarning bojxona qiymatini aniqlash uchun o'xhash tovarga doir bitimning qiymati asos sifatida qabul qilinishini nazarda tutadi.

O'xhash tovar deganda:

- baholanayotgan tovar bilan har jihatdan bir xil bo'lmasa-da, u bilan o'xhash xususiyatlarga ega bo'lganligi va tarkib jihatdan o'xshashligi tufayli bir xil vazifalarini bajara oladigan hamda tijorat nuqtayi nazaridan, shu jumladan sifati, bozordagi qadri, tovar belgisining mavjudligiga ko'ra uning o'rnnini bosa oladigan;

- baholanayotgan tovar olib kirilguniga qadar to'qson kalendor kun ichida olib kirilgan;

— baholanayotgan tovar ishlab chiqarilgan ayni o'sha mamlakatda ishlab chiqarilgan va O'zbekiston Respublikasiga olib kirish uchun sotilgan;

— baholanayotgan tovarni ishlab chiqargan ayni bir shaxs tomonidan ishlab chiqarilgan tovar tushuniladi. Baholanayotgan tovarni ishlab chiqargan ayni bir shaxs tomonidan ishlab chiqarilgan tovar mavjud bo'lmasa taqdirda boshqa shaxs tomonidan ishlab chiqarilgan tovar o'xshash tovar sifatida qabul qilinadi.

Agar bitimning qiymati O'zbekiston Respublikasida bajarilgan loyihalashning, tajriba-konstrukturlik ishlarining, badiiy bezatishning, dizaynning, eskizlar yoki chizmalarning qiymatlarini o'z ichiga olsa, tovar o'xshash tovar deb hisoblanmaydi.

O'xshash tovarga doir bitimning qiymatiga ko'ra tovarning bojxona qiymatini aniqlash usulidan foydalanilayotganda Bojxona kodeksining 309-moddasining beshinchisi, oltinchisi, yettinchi, sakkizinchisi va to'qqizinchisi qismlari qoidalari qo'llaniladi.



*16-rasm. Germaniya davlatida ishlab chiqarilgan texnik jihatlari bir-biriga o'xshash «Bosch» va «Siemens» markali kir yuvish mashinasi o'xshash tovarga misol sifatida keltirilgan.*

O'xshash tovarga doir bitimning qiymatiga oid usuli ilgari 1-usulga ko'ra aniqlangan xuddi shuningdek, yoki shunga o'xshagan tovarlarga doir bitim narxidan bojxona qiymatini belgilash uchun asosiy baza sifatida foydalaniлади.

Deklarantda o'xshash tovarning bojxona qiymati haqidagi axborot mavjud bo'lmasa, unda baholashning boshqa usullariga o'tish lozim bo'ladi.

**Misol. Amaliyotda yo'l qo'yilayotgan kamchiliklar: «AB» korxonasi tomonidan olib kelingan ofis texnika tovarlari TIF bojxona postida bojxona qiymatini aniqlashning 3-usuli qo'llanilgan holda bojxona rasmiylashtiruvidan o'tkazilgan.**

Bojxona kodeksining 310-moddasи talablariga ko'ra, tovarlarning bir-biriga o'xshashligini belgilashda tovarning sifati, tovar belgisining mavjudligi va bozordagi qadri, qaysi mamlakatda ishlab chiqarilganligi, ishlab chiqaruvchisi kabi jihatlar hisobga olinadi.

O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kelinadigan tovarlarning bojxona qiymatini belgilash bo'yicha Yo'riqnomada 3-usul ilgari 1-usulga ko'ra baholangan xuddi shuningdek yoki shunga o'xshagan tovarlarga doir bitim narxidan bojxona qiymatini belgilash uchun asosiy baza sifatida foydalanishi belgilangan. Bunda deklarant amalda mavjud bo'lgan savdo bitimlarining narxi va tovarlarning O'zbekiston Respublikasi chegarasi orqali olib o'tilishi haqidagi hujjatlar asosida tasdiqlangan ma'lumotni qo'llashi belgilangan.

Mazkur Kodeks va Yo'riqnomada talablariga amal qilinmay, 3-usul qo'llanilganligi natijasida 2014-yilda **23,0 mln. so'm** miqdorida bojxona to'lovlari undirilmay qolingga.

**Kelib chiqish sababi:** Mazkur tovarlar ilgari asosiy usul bilan rasmiylashtirilganligini tasdiqlovchi shartnoma va birlamchi hujjatlar, import bojxona yuk deklaratasiysi talab etilmagan.

**E'tibor qaratish kerak:** Tovarlarning bir-biriga o'xshashligini belgilashda tovarning sifati, tovar belgisining mavjudligi va bozordagi qadri, qaysi mamlakatda ishlab chiqarilganligi, ishlab chiqaruvchisi kabi jihatlar hisobga olinishi, tovarlar olib kelingan vaqtidan boshlab 90 kun ichida O'zbekiston Respublikasiga taxminan o'shancha miqdorda, o'shanday tijorat shartlarida olib kirilgan bo'lishi, boshqa miqdorda yoki tijorat shartlarida bo'lsa kiritiladigan tuzatishlar to'g'ri va hujjat bilan tasdiqlangan ma'lumotlarga asoslanishi, tovar baholanayotgan tovar ishlab chiqarilgan mamlakatda ishlab chiqarilmagan bo'lsa, u rasmiylashtirilayotgan tovar bilan o'xshash hisoblanmasligi, tovarning ishlab chiqaruvchisi tomonidan emas, balki boshqa ishlab chiqaruvchi tomonidan ishlab chiqarilgan tovar, rasmiylashtirilayotgan tovari ishlab chiqargan tomonidan ishlab chiqarilgan o'xshash tovar ham bo'lмаган taqdirdagina e'tiborga olinishi, tovari loyihalash, uning ustidagi tajriba-

konstrukturlik ishlari, umng badiiy bezagi, dizayni, eskizi, chizmalari va boshqa shunga o'xhash ishlar O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilgan bo'lsa, bunday tovar o'xhash hisoblanmasligi, mazkur tovarlar ilgari asosiy usul bilan rasmiylashtirilganligini tasdiqlovchi shartnoma va birlamchi hujjatlar, import bojxona yuk deklaratsiyasi talab etilishi lozim.

### Nazorat uchun savollar

1. Aynan bir xil tovar haqida tushuncha.
2. Aynan bir xil tovar deb hisoblash uchun talablar.
3. Aynan bir xil tovarga doir bitimning qiymatiga oid usulni qo'llash tartibi.
4. O'xhash tovar haqida tushuncha.
5. O'xhash tovarga doir bitimning qiymatiga oid usul qoidalari.
6. O'xhash tovarga doir bitimning qiymatiga oid usulni qo'llashda bojxona rasmiylashtiruv'i bo'yicha mutaxassisning harakatlari.
7. O'xhash tovarga doir bitimning qiymatiga oid usul bo'yicha nazorat qilishda bojxona organining harakatlari.

### Foydalaniman adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksi.
2. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan 1998-yil 13-yanvarda 390-raqam bilan ro'yxatdan o'tgan «O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kelinadigan tovarlarning bojxona qiymatini belgilash bo'yicha yo'riqnomasi».
3. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan 1998-yil 13-yanvarda 391-raqam bilan ro'yxatdan o'tgan «Bojxona qiymati deklaratsiyasini to'ldirish tartibi».
4. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan 2016-yil 6-aprelda 2773-raqam bilan ro'yxatdan o'tgan «Bojxona yuk deklaratsiyasini to'ldirish tartibi».
5. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan 2000-yil 22-fevralda 899-raqam bilan ro'yxatdan o'tgan «O'zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kelinadigan tovarlarga bojxona qiymatini belgilash va uni nazorat qilish tartibi».

6. Davlat bojxona qo'mitasining 2010-yil 12-apreldagi «Import qilinayotgan tovarlarning bojxona qiymatini belgilanishini DBQ Yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimi asosida nazorat qilish bo'yicha Vaqtinchalik yo'riqnomani amaliyotga kiritish to'g'risida»gi 92-son buyrug'i.

7. Davlat bojxona qo'mitasining 2011-yil 9-fevraldag'i «INKOTERMS-2010 xalqaro savdo shartlarini amaliyotga kiritilganligi to'g'risida»gi 1-son ko'rsatmasi.

## **VII BOB. QIYMATLARNI CHEGIRIB TASHLASH ASOSIDA BOJXONA QIYMATINI ANIQLASH HAMDA NAZORAT QILISH ALGORITMI**

**Reja:**

**1.Qiymatlarni chegirib tashlash asosida bojxona qiymatini aniqlash (4-usul).**

**2. 4-usul qo'llanilishini nazorat qilish algoritmi.**

**1. Qiymatlarni chegirib tashlash asosida bojxona qiymatini aniqlash (4-usul)**

Qiymatlarni chegirib tashlash asosidagi usul baholanayotgan tovarning bojxona qiymatini aniqlash uchun asos sifatida:

- bojxona hududida dastlabki holati o'zgarmagan holatda;
- baholanayotgan tovar bojxona hududiga olib kirilguniga qadar to'qson kalendar kun ichida katta miqdorlarda (bir nechta turkumlarda);
- shunday tovari sotuvchi bilan o'zaro bog'liq bo'lмаган shaxsga sotilayotgan, baholanayotgan, aynan bir xil yoki o'xshash tovar birligining narxi qabul qilinishini nazarda tutadi.

Baholanayotgan, aynan bir xil yoki o'xshash tovar birligining narxidan quyidagi xarajatlar chegirib tashlanadi:

- to'lanadigan yoxud to'lashga kelishilgan vositachilik haqi yoki foyda uchun ustamalar hamda olib kirilgan o'sha klassdagi va turdag'i tovari bojxona hududida sotish bilan bog'liq bo'lган umumiy xarajatlar;
- tovarlarni olib kirish yoki sotish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasida to'lanishi lozim bo'lган bojxona to'lovlarining va boshqa to'lovlarning summalar;
- bojxona hududida transportda tashish, sug'urtalash, yuklash va tushirish uchun sarflangan xarajatlar.

O'sha klassdagi yoki turdagı tovar iqtisodiyotning muayyan tarmog'i mahsulotiga taalluqli bo'lgan tovarlar guruhini, shu jumladan, aynan bir xil va o'xhash tovarlarni anglatadi.

Ichki bozorda tovarning sotilish narxini tanlashda ko'rileyotgan tovarning import qilinganidan keyingi birinchi tijorat bosqichidagi narxini, ya'ni olib kirilgan tovarning birinchi marta qayta sotilishidagi narxini hisobga olish kerak bo'ladi.

Baholanayotgan, aynan bir xil yoki o'xhash tovarning baholanayotgan tovar olib kirilishidan oldin to'qson kalendar kun ichida sotilganligi faktlari mavjud bo'lмаган taqdirda, yuqoridaq qoidalar inobatga olingen holda baholanayotgan tovarning bojxona qiymatini aniqlash uchun asos sifatida baholanayotgan, aynan bir xil yoki o'xhash tovar tovar birligining qaysi narxi bo'yicha O'zbekiston Respublikasida eng katta turkumda, o'zgarmas holatda, baholanayotgan tovar olib kirilgan kunga eng yaqin muddatda, lekin baholanayotgan tovar olib kirilgan kundan e'tiboran to'qson kundan kechiktirmay sotilayotgan bo'lsa, o'sha narx qabul qilinadi.

Baholanayotgan, aynan bir xil yoki o'xhash tovarning bojxona hududida o'zgarmas holatda sotilganligi faktlari mavjud bo'lмаган taqdirda, baholanayotgan tovarning bojxona qiymati tovarga keyinchalik ishlov berilganidan keyin olingen, shunday tovarni sotuvchi bilan o'zaro bog'liq bo'lмаган shaxsga bojxona hududida eng katta miqdorda sotiladigan mahsulot birligining narxi asosida, deklarant yoki bojxona brokerining arizasiga ko'ra aniqlanadi. Bunda tovarning bojxona qiymatiga tegishli tuzatishlar kiritiladi.

**Misol. Amaliyotda yo'l qo'yilayotgan kamchiliklar:** «A» korxonasi tomonidan olib kelingan maishiy texnika tovarlari TIF bojxona postida bojxona qiymatini aniqlashning 4-usuli qo'llanilgan holda bojxona rasmiylashtiruvidan o'tkazilgan.

Bojxona kodeksining 311-moddasiga asosan, agar baholanayotgan, aynan bir xil yoki o'xhash tovarlar o'zining dastlabki holati o'zgarmagan holda O'zbekiston Respublikasi hududida sotilsa, qiymatlarni chegirib tashlash asosida bojxona qiymatini chiqarish usulidan foydalaniishi hamda 4-usuldan asos sifatida foydalaniulganda, baholanayotgan tovar bojxona hududiga olib kirilguniga qadar to'qson kalendar kun ichida katta miqdorlarda

bitimning sotuvchi bilan o'zaro bog'liq bo'lmanan ishtirokchisiga sotilgan bahosi qo'llanilishi belgilangan.

**Baholanayotgan, aynan bir xil yoki oxshash tovar birligining narxidan quyidagi xarajatlar chegirib tashlanadi:**

to'lanadigan yoxud to'lashga kelishilgan vositachilik haqi yoki foyda uchun ustamalar hamda olib kirilgan o'sha klassdagi va turdag'i tovarni bojxona hududida sotish bilan bog'liq bo'lgan umumiy xarajatlar

tovarlar olib kirish yoki sotish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasida to'lanishi lozim bo'lgan import bojlari, soliqlar, yng'implar va boshqa to'lovlar summasi

Bojxona hududida transportda tashish, sug'urtalash, yuklash va tushurish uchun sarflangan xarajatlar

*17-rasm. 4-usulda asos qilib olinayotgan aynan bir xil yoki oxshash tovar birligining narxidan chegirib tashlanadigan xarajatlar.*

Bunda tovar birligining bahosidan:

- to'lanadigan yoxud to'lashga kelishilgan vositachilik haqi yoki foyda uchun ustamalar hamda olib kirilgan o'sha klassdagi va turdag'i tovarni bojxona hududida sotish bilan bog'liq bo'lgan umumiy xarajatlar;
- tovarlarni olib kirish yoki sotish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasida to'lanishi lozim bo'lgan bojxona to'lovlarining va boshqa to'lovlarining summalar;
- bojxona hududida transportda tashish, sug'urtalash, yuklash va tushurish uchun sarflangan xarajatlar chegirib tashlanadi.

Mazkur Kodeks talablariga amal qilinmay, 4-usul qo'llash uchun zarur hujjalarning talab qilinmaganligi oqibatida **140 mln. so'm** miqdorida bojxona to'lovlarini undirilmay qolingan.

**Kelib chiqish sababi:** Tovar bojxona chegarasidan to'ichki bozorda sotilayotgan narxi uchun qilingan xarajatlarni tasdiqlovchi

hujjatlar talab qilinmay, faqatgina ichki bozordagi sotuv amalgalashishiga oshirilayotganligi to‘g‘risida ma’lumot asos qilib foydalanishi oqibatida kelib chiqqan.

**E’tibor qaratish kerak:** Aynan yoki bir xil o‘xhash tovarlar olib kelingan vaqtidan boshlab kamida 90 kun ichida O‘zbekiston Respublikasi hududida katta turkumlarda bitimning sotuvchi bilan o‘zaro bog‘liq bo‘limgan ishtirokchisiga sotilganligi, foyda olish uchun qo‘shiladigan ustamalarni tasdiqlovchi moliyaviy hujjatlar, bojxona to‘lovlarini to‘langanligmi tasdiqlovchi import bojxona yuk deklaratsiyasi, transportda tashish, sug‘urtalash, yuklash va tushirish uchun qilingan xarajatlarni tasdiqlovchi hujjatlar talab qilinishi lozim.

## 2. 4-usul qo’llanilishini nazorat qilish algoritmi

4-usuldan foydalanishda hududiy bojxona boshqarmalarda doimiy faoliyat ko‘rsatuvchi «Bojxona qiymatini nazorat qilish guruhi» xodimi tomonidan importer vakili hamda bojxona rasmiylashtiruvchi bo‘yicha mutaxassislar ishtirokida ichki bozordagi aynan bir xil yoki o‘xhash tovarlarning narxlari yuzasidan o‘rganish ishlari olib boriladi. Zaruriyat tug‘ilganida mazkur o‘rganishga mutaxassislar jalb qilinishi mumkin.

O‘rganish ishlari faqat import qilinganligini tasdiqlovchi hujjatlar mayjud bo‘lgan aynan bir xil yoki o‘xhash tovarlarning ulgurji narxlari yuzasidan olib boriladi.

Ichki bozorda tovarlarning sotilishi narxini tanlashda ko‘rib chiqiladigan tovarlarning import qilinganidan so‘ng birinchi tijorat darajasidagi sotib olinishidan, ya’ni import qilingan tovarlarning dastlabki qayta sotilishidagi narxlardan foydalanish lozim.

O‘rganish natijasida ishtirokchilar tomonidan erkin tartibda dalolatnoma tuziladi.

Dalolatnomada tovarning to‘liq nomi (tovarning qiyosiy ko‘rsatkichlari, brendi, markasi, modeli va h.k.), bir birlik uchun ichki bozorda shakllangan narx, o‘lchov birligi aks ettiriladi va ishtirokchilar tomonidan tasdiqlanadi.

Shuningdek, mazkur dalolatnoma ushbu ma'lumotni taqdim etgan sotuvchi tomonidan imzo va muhr bilan tasdiqlangan bo'lishi lozim.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi hududida amalga oshirilgan xarajatlarni tasdiqlovchi hujjatlar bo'lmagan taqdirda 4-usul bilan bojaxona qiymatini aniqlash uchun ekspert baholanishini qo'llashga yo'l qo'yildi.

Aynan bir xil yoki o'xhash tovarlarning narxlari aniqlanganidan so'ng, tovarlarning bojaxona qiymati «Olib kiriladigan tovarlarning bojaxona qiymatini baholashning 4-usulini qo'llash bo'yicha tavsiyalar»da ko'rsatib o'tilgan formulalar yordamida hisob-kitob qilinib, aniqlanadi hamda 1 kun muddat ichida «Bojaxona qiymatini nazorat qilish guruhi» tomonidan tegishli xulosa qilinadi. Qilingan xulosa asosida shu kunning o'zida HBB boshlig'i yoki uning o'rinnbosari tovarning bojaxona qiymatini mazkur usul asosida qo'llash yuzasidan dasturda ruxsat beradi.



XBBning xulosasiga havola qilinganmi?



Ushbu xulosa ma'lumotlar bazasida mavjudmi?



90 kundan oshmadimi?



Importoyi muvofiq keladimi?



33, 35, 38, 43, 45 – grafalariga muvoñiqmi?



Ro'yxatdan o'tkazishni  
rad etish

BYuDni Yagona  
avtomatlashtirilgan axborot  
tizimi ma'lumotlar bazasida  
ro'yxatdan o'tkazish

**18-rasm.** BYuDning elektron nusxasini qabul qilish jarayonida bojaxona qiymatini aniqlashning 4-usul shartlari qo'llanilishini nazorat qilish sxemasi.

Tovarlarining bojxona qiymatini 4-usul asosida aniqlanishi bo'yicha DBQ YaAAT dasturida tekshirish algoritmi quyidagi ko'rinishiga ega:

- tovarning bojxona qiymatini aniqlash usuli tekshiriladi;
- BYuDning 44-grafasida HBB xulosasining ko'rsatilganligi tekshiriladi;
- DBQ YaAAT ma'lumotlar bazasidan HBBning tegishli xulosasini mavjudligi tekshiriladi;
- mazkur xulosada tovarning mavjudligi tekshiriladi;
- miqdoriy parametrlari tekshiriladi (netto vazni, brutto vazni, faktura qiymati).

B. Акт изучения цен	
1. Основание для выставления акта	
2. Основные сведения о товаре	
3. Рыночная стоимость	
4. Ставка таможенной пошлины	
5. Время выставления акта	
6. Исполнитель	
7. Печать	

8. Укажите источники информации использованные для обоснования таможенной стоимости

Акт изучения рыночных цен от 15.05.2015 г., по 120 \$ за шт.

B. Акт изучения цен	
1. Основание для выставления акта	
2. Основные сведения о товаре	
3. Рыночная стоимость	
4. Ставка таможенной пошлины	
5. Время выставления акта	
6. Исполнитель	
7. Печать	

<input type="checkbox"/>	Город: г. Краснодар	Приезд 22.07.2- 23.07.2
	Улица: ул. Красная дом: 12, кв. 101	
	Номер телефона: 8 (861) 222-12-34	
	Факс: 8 (861) 222-12-34	
	Электронная почта: <a href="mailto:info@redbox.ru">info@redbox.ru</a>	
	<b>РБК-НПР</b> Краснодарский край	
	Адрес: г. Краснодар, ул. Красная, д. 12, кв. 101	
	Описание: Тестовая заявка на получение услуг	
	Дата: 22.07.2010	
	Время: 12:00	


20. Прибыль, комиссионные и торговые наценки в связи с продажей на внутреннем рынке (-)
  21. Стоимость дополнительной обработки или переработки ввозимых товаров (-)
  22. Таможенные пошлины, налоги, сборы и другие внутренние платежи (-)
  23. Прочие расходы и платежи связанные с продажей на внутреннем рынке (-)

580000

1300000

6280033

1400000



*19-rasm. 4-usul asosida bojxona qiymati belgilanganda YaAAT asosida BQD-2ning tekshiriladigan grafalari (namuna nusxasi).*

## Nazorat uchun savollar

1. Qiymatlarni chegirib tashlash asosida bojxona qiymatini aniqlash qoidalari.
  2. Qiymatdan chegiriladigan xarajatlar turlari.
  3. Olib kiriladigan tovarlarning bojxona qiymatini aniqlashning 4-usulini qo'llash tartibi.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksi.
3. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan 1998-yil 13-yanvarda 390-raqam bilan ro'yxatdan o'tgan «O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kelinadigan tovarlarning bojxona qiymatini belgilash bo'yicha yo'riqnomalar».
4. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan 1998-yil 13-yanvarda 391-son bilan ro'yxatdan o'tgan «Bojxona qiymati deklaratsiyasini to'ldirish tartibi».
5. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2016-yil 6-aprelda 2773-raqam bilan ro'yxatdan o'tgan «Bojxona yuk deklaratsiyasini to'ldirish tartibi».
6. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan 2000-yil 22-fevralda 899-raqam bilan ro'yxatdan o'tgan «O'zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kelinadigan tovarlarga bojxona qiymatini belgilash va uni nazorat qilish tartibi»
8. Davlat bojxona qo'mitasining 2010-yil 12-apreldagi «Import qilinayotgan tovarlarning bojxona qiymatini belgilanishini DBQ Yagona avtomatlashtrilgan axborot tizimi asosida nazorat qilish bo'yicha vaqtinchalik yo'riqnomani amaliyotga kiritish to'g'risida»gi 92-son buyrug'i.
9. DBQning 2011-yil 9-fevraldagagi «INKOTERMS-2010 xalqaro savdo shartlarini amaliyotga kiritilganligi to'g'risida»gi 1-son ko'rsatmasi.

## **VIII BOB. QIYMATLARNI QO'SHISH VA ZAXIRA USULLARI ORQALI BOJXONA QIYMATINI ANIQLASH HAMDA NAZORAT QILISH ALGORITMI**

**Reja:**

- 1. Qiymatlarni qo'shish asosida bojxona qiymatini aniqlash usuli (5-usul).**
- 2. Zaxira usul asosida bojxona qiymatini aniqlash (6-usul) va uni nazorat qilish algoritmi.**

### **1 . Qiymatlarni qo'shish asosida bojxona qiymatini aniqlash usuli (5-usul)**

Qiymatlarni qo'shish asosida bojxona qiymatini aniqlash usuli o'ziga xos elementlar asosida bojxona qiymatini belgilashni taqozo etib, bir oz qiyinchilik tug'diradi.

Bu usulga ko'ra bojxona qymati faqat O'zbekiston Respublikasidan tashqarida olish mumkin bo'lgan axborot asosida belgilanadi. Odatda, tovarlarni ishlab chiqaruvchi O'zbekiston Respublikasi yurisdiksiyasidek tashqarida bo'ladi Shu sababli 5-usulning qo'llanilishi odatda shunday shartlar bilan cheklangan bo'ladiki, ularga ko'ra xaridor bilan sotuvchi o'zaro bog'langan bo'ladi va ishlab chiqaruvchi O'zbekiston Respublikasining bojxona organlariga ishlab chiqarish xarajatlari haqidagi zarur ma'lumotlarni taqdim etish va keyinchalik o'tkazilishi lozim bo'lgan ularning tekshirilishini yengillashtirishga tayyor bo'ladi.

Tovarlarni ishlab chiqaruvchi bojxona qiymatini belgilash maqsadida taqdim etgan axborot uning mamlakatida O'zbekiston Respublikasi vakillari tomonidan ishlab chiqaruvchining roziligi bilan va manfaatdor mamlakat hukumati yetarli darajada vaqtliroq xabardor qilinadi va u bunday tekshirishga nisbatan qarshilik qilmaydi, degan shartga ko'ra tasdiqlanishi mumkin.

Qiymatlarni qo'shish asosidagi usul baholanayotgan tovarning bojxona qiymatini aniqlash uchun asos sifatida quyidagilarni qo'shish orqali hisoblab chiqariladi:

**1**

baholanayotgan tovari tayyorlashda sarflangan materiallarning qiymati hamda ishlab chiqarish va (yoki) ishllov berish xarajatlari

**2**

Umumiy xarajatlarni hajmi va baholanayotgan tovar ishlab chiqarilgan ayni o'sha klassdagi va turdag'i tovari  
O'zbekiston Respublikasida sotishda odatda eksport qiluvchi tomonidan olinadigan foyda

**3**

Tovarni bojxona hududiga olib kirladigan joyga yetkazib berilgunga qadar qilinadigan xarajatlar: tashish qiymati; tovarlarni yuklash; tushirish; qayta yuklash va boshqa joyga to'kish xarajatlari; sug'urta qiymati

### *20-rasm. 5-usulda qo'shiladigan xarajatlar.*

Xarajatlar haqidagi ma'lumotlar baholanayotgan tovarlarning ishlab chiqarilishiga tegishli, ishlab chiqaruvchi tomonidan yoki uning nomidan taqdim etiladigan ma'lumot asosida belgilanishi lozim. Bunday axborot ishlab chiqaruvchining tijoratga oid hisobotlarida, bunday hisobotlar tovarlar ishlab chiqarilgan mamlakatda qabul qilinadigan hisobga olishning umumiy qabul qilingan qoidalariga muvofiq keladi, degan shart bilan asos topgan bo'lishi kerak.

Xarajatlar 1-usulni qo'llashda hisobga olinadigan xarajatlarni ham o'z ichiga olishi kerak. Ular shu bilan birga yana import qilinadigan tovarlarning ishlab chiqarilishi munosabati bilan xaridor tomonidan sotuvchiga bevosita yoki bilvosita yetkazib berilgan har qanday elementning lozim darajada taqsimlangan qiymatini ham qamrab olishi lozim. Import mamlakatida bajarilgan elementlar qiymati faqat ana shu elementlarni ijro qiluvchi amalga oshirgan haq to'lash doirasidagina kiritilishi lozim. Shuni esda tutish kerakki, qiymatlarni qo'shish usuli bilan bojxona qiymatini aniqlashda hech

qanday xarajatlar yoki elementlar qiymati ikki marta hisobga olinishi mumkin emas.

Foyda miqdori ham ishlab chiqaruvchi tomonidan yoki uning nomidan taqdim etiladigan ma'lumot asosida belgilanishi lozim. Ishlab chiqaruvchi taqdim etgan ma'lumotlarning ishlab chiqaruvchi eksport mamlakatida tovarlarni import mamlakatiga olib chiqish uchun amalga oshiradigan. baholanayotgan tovarlar sinfdagi yoki shu turdag'i tovarlarning sotilishidagi ko'rsatkichlarga muvofiq kelishiga e'tibor berish zarur.

Taqdim etilgan ma'lumotlarni tahlil etishda shuni qayd qilish kerakki, foyda va xarajatlar miqdori bir butun sifatida ko'rib chiqilishi lozim. Bu shuni anglatadiki, agar biron-bir alohida holda ishlab chiqaruvchi foydasi miqdori unchalik katta bo'lmay, uning umumiylar yuqori bo'lsa, unda uning birqalikda olingan foydasi va umumiylar baribir, odatda, shunday sinfdagi yoki turdag'i tovarlar sotilishida aks etadigan bunday kursatkichlarga muvofiq kelishi mumkin. Bunday vaziyat, masalan, mahsulot import mamlakatida bozorga chiqadigan va ishlab chiqaruvchi ushbu bozorm o'zlashtirish bilan bog'liq yuqori umumiylar yarajatlarini qisman shuning hisobiga qoplash niyatida foydaning nol darajasi yoki undan past darajani qabul qiladigan holda vujudga kelishi mumkin. Agar ishlab chiqaruvchi import qilinadigan tovarlarni sotishda u alohida tijoratchilik holatlari oqibatida foyda olishini ko'rsata olsa, unda uning amaldagi foyda ko'rsatkichlarini oqlash uchun jiddiy tijoratga doir dalillari mavjud bo'lib, uning narxlarga oid siyosati sanoatning ushbu tarmog'idagi oddiy Marx siyosatini aks ettirishi sharti bilan bunday ko'rsatkichlarni e'tibor uchun qabul qilish kerak bo'ladi.

Bunday vaziyat, masalan, ishlab chiqaruvchilar talablarning kutilmagan tarzda pasayib ketishi natijasida narxlarni pasaytirishga majbur bo'lganida yoki ular tovarlarni import mamlakatida ishlab chiqariladigan tovarlar toifasini to'ldirish tartibida sotadigan va o'zining raqobatbardoshligini saqlab qolish maqsadida kam foydaga rozi bo'ladigan holda vujudga kelishi mumkin. Ishlab chiqaruvchi ning o'zi beradigan foyda va umumiylar haqidagi ma'lumotlar ishlab chiqaruvchilar eksport mamlakatida tovarlarni import mamlakatiga olib chiqish uchun amalga oshiradigan, baholanayotgan

tovarlar klassidagi yoki shu turdagı tovarlarning sotishidagi ko'rsatkichlarga muvofiq kelmaganida foya va umumiy xarajatlar miqdori ishlab chiqaruvchi tomonidan yoki uning nomidan taqdim etiladigan ma'lumotdan boshqa ishonchli ma'lumotga asoslanishi mumkin.

Qiymatlarni qo'shish usuliga ko'ra bojxona qiymatini belgilash maqsadlari uchun ishlab chiqaruvchi tomonidan yoki uning nomidan taqdim etiladigan ma'lumotdan boshqa axborotdan foydalanilganida import qiluvchi mamlakatning bojxona organlari, agar import qiluvchi bu haqida iltimos qilsa, bunday axborot manbai foydalanilgan ma'lumotlar va ularga asoslangan hisob-kitoblar haqida unga xabar qilinishi lozim.

11(a) Рассчитанная стоимость ввозимых товаров, определенная сложением стоимости составляющих стоимости составляющих ее элементов  
(в сумах).....  
(для метода 5,6)

16. Стоимость транспортировки (+)  
17. Стоимость погрузки, выгрузки и обработки (+)  
18. Стоимость страхования (+)  
19. Комиссионные и другие посреднические расходы в связи с ввозом (+)

*21-rasm. 5-usul shartlari qo'llanilishini nazorat qilish jarayonida BOD-2 shaklida tekshiriladigan grafalari (namuna musxasi).*

Bepul yetkazib berish uchun 1-usuldan 4-usulgacha bo'lgan batalash usullari istisno qilinadi (savdo bitimining yo'qligi, bir xildagi tovarlar uchun bojxona qiymatining yo'qligi, import qilinadigan mamlakatning ichki bozorida sotuvning yo'qligi). Olib kelinadigan tovarning bojxona qiymatini ishlab chiqaruvchi taqdim etgan kalkulatsiya hujjatlari asosidagina hisoblab chiqishi mumkin.

Mabodo shubha paydo bo'lsa, ishlab chiqaruvchidan uning roziligi bilan va O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kelinadigan tovarlarning bojxona qiymatini aniqlash bo'yicha yo'riqnomada nazarida tutilgan shartlarga rioya qilingan holda tekshirib ko'rish kerak bo'ladi.

Qiymatlarni qo'shish usulida bojxona qiymati aniqlanishini nazorat qilish DBQ YaAATdag'i dastur tomonidan olib borilmaydi. Mazkur usul bo'yicha bayon etilgan tovarlarning bojxona qiymati bojxona posti xodimi tomonidan nazorat qilinadi.

## **2. Zaxira usul asosida bojxona qiymatini aniqlash (6-usul) va uni nazorat qilish algoritmi**

Agar bojxona qiymati deklarant tomonidan ko'rsatilgan beshta usulni izchillik bilan qo'llash natijasida belgilanishi mumkin bo'limasa yoki mavjud ma'lumotlar asosida bojxona qiymatini belgilashning ushbu beshta usulini qo'llash mumkin emas deb bojxona organlari hisoblasa, unda baholanayotgan tovarlarning bojxona qiymati 1-5-baholash usullarini birmuncha qayishqoqlik bilan qo'llash yo'li orqali bojxona organida mavjud bo'lgan narxlarga doir axborot asosida belgilanadi.

Zaxira usulni qo'llashda bojxona organi deklarant yoki bojxona brokeriga o'z ixtiyorida mavjud bo'lgan narxlari to'g'risidagi axborotni taqdim etadi. Bojxona organi zaxira usulni to'g'ri qo'llash maqsadida shunday axborotni yig'ib boradi.

Zaxira usuldan foydalanishda hujjatlar bilan tasdiqlashga doir talablar quyidagilarni boshqa usullarga nisbatan birmuncha qayishqoqlikka yo'l qo'yadi:

- jahon narxlariiga doir, ichki bozor narxlariiga doir axborot ma'lumotnomalaridan foydalanishni;

- vositachilik haqlari, chegirmalar, foydalar, transport tariflari umum qabul qilingan darajalarining statistik ma'lumotlaridan foydalanishni.

Yuqorida ko'rsatilgan hollarda, baholanayotgan tovari yetkazib berish shartlarini hisobga olgan holda ma'lumotlarga tegishli tuzatishlar kiritilishi shart.

Tovarning bojxona qiymatini zaxira usulda aniqlash uchun asos sifatida quyidagilardan foydalanishga yo'l qo'yilmaydi:

- a) O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilgan o'xshash tovarning sotilish narxidan;
- b) ikki va undan ortiq muqobil qiymatlarning eng yuqori qiymatidan;
- d) eksport qiluvchi mamlakatning ichki bozoridagi tovar narxidan;
- e) bojxona qiymatini aniqlash uchun qiymatlarni qo'shish usulini qo'llashda foydalanilmaydigan ishlab chiqarish chiqimlaridan;
- f) eksport qilayotgan mamlakatdan uchinchи mamlakatlarga yetkazib berilayotgan tovarning narxidan;
- g) eng past bojxona qiymatlaridan;
- h) tovarning o'zboshimchalik bilan belgilangan yoki to'g'ri tasdiqlanmagan narxidan.

Bojxona organi aniqlangan tovarning bojxona qiymati hamda shunday qiymatni aniqlash uchun foydalanilgan usul to'g'risida deklarant yoki bojxona brokerining arizasiga ko'ra unga axborot beradi.

O'zbekiston Respublikasi hududida sarflangan xarajatlarni tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo'lмаган taqdirda, qiymatlarni chegirib tashlash asosidagi usul bilan bojxona qiymatini aniqlash uchun ekspert baholash qo'llanilishiga yo'l qo'yildi, uni qo'llash tartibi O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi tomonidan belgilanadi. Bunda tovar birligining bojxona qiymati aniqlanib, keyinchalik butun turkumning bojxona qiymati qayta hisob-kitob qilinadi.

6-usul doirasida qo'llaniladigan baholash usullari 6-usulning maqsadlari va qoidalariga muvofiq yo'l qo'yiladigan tarzda qayish-qoqlik bilan qo'llanadigan 1-5-usullardan iborat bo'lishi kerak.

6-usulni qo'llashda hujjatlar orqali tasdiqlashga nisbatan talablar, shuningdek, boshqa usullarga nisbatan ko'proq qayishqoqlikka yo'l qo'yadi: jahon narxlari, ichki bozordagi narxlari bo'yicha axborot bildirgichlaridan foydalanish; komission rag'batlantirish haqlari, chegirmalar, foyda, transport tariflari va shu kabilarning umumiy qabul qilingan darajalari haqidagi statistik ma'lumotlardan foydalaniladi.

Bunda baholanayotgan tovarlarning yetkazib berilish shartlarini hisobga olgan holda ma'lumotlar albatta tegishli ravishda o'zgartirilishi lozim.

Bayon qilingan qiymatga nisbatan qayishqoqlikka quyidagilar yuzasidan yo'l qo'yilishi mumkin

Olib kiriladigan  
tovarga doir  
bitimning  
qiymatiga  
nisbatan  
qayishqoqlik:

E'lon qilingan qiymat bojxona bahosini aniqlashning 1-usulini qo'llash uchun zarur bo'ladigan hujjatning biron biri yetishmasa yoki qiymatga qandaydir shartlar ta'sir etsa, lekin ushbu qiymat bojxona organida mavjud qiymatdan yuqori bo'lsa

Bojxona o'rganida ushbu qiymatga doir aynan bir xil yoki o'xshash tovarlarning narxi to'g'risida ma'lumot mavjud bo'lmay, bayon qilingan qiymatga aloqador zarur hujjatlar taqdim etilsa

**22-rasm.** Olib kiriladigan tovarga doir bitimning qiymatiga nisbatan qayishqoqlik.

Aynan bir xil tovarlarga nisbatan qayishqoqlikka quyidagilar yuzasidan yo'l qo'yilishi mumkin:

Aynan bir xil tovarlarga nisbatan qayishqoqlik:



avnan bir xil tovarlarni olib kelish muddatları;



bojxona qiymatini belgilash uchun asos sifatida eksport qiluvchi  
mamlakatida boshqa ishlab chiqaruvchi,



eksport qiluvchi mamlakatdan boshqa qaysidir o‘zga mamlakatda ishlab  
chiqarilgan xuddi shuningdek, import qilingan tovarlar;



aynan bir xil import qilingah tovarlarning ilgari 4 va 5-usullarga ko‘ra  
belgilangan bojxona qiymatidan foydalanish.

### **23-rasm.**

O‘xshash tovarlarga nisbatan qayishqoqlikka quyidagilar yuzasidan yo‘l qo‘yiladi:

**O‘xshash  
tovarlarga  
nisbatan  
qayishqoqlik:**

- o‘xshash tovarlarning olib kelinishi muddatları;
- baholanayotgan tovarlarni eksport qiluvchi mamlakatdan boshqa mamlakatda ishlab chiqarilgan baholanayotgan tovarlarga o‘xshash import qilingan tovarlar;
- o‘xshash import qilingan tovarlarning ilgari 4 va 5-usullarga ko‘ra beldilangan bojxona qiymatidan foydalanish.

### **24-rasm.**

Qiymatlarni chegirib tashlash usulida bojxona qiymatini aniqlashda quyidagi qayishqoqlikka yo‘l qo‘yiladi.

Qiymatlarni chegirib  
tashlash asosidagi  
tovarlarga nisbatan  
qayishqoqlik:


### Ichki bozorda sotilishi muddatları

Aynan bir xil yoki o'xshash tovarlarning dastlabki holatining o'zgarishi (ya'ni muayyan qayta ishlashga yo'l qo'yilishi):

O'zbekiston Respublikasi huquqida umalga oshirilgan harajaflarni tashdiqlovchi hujjatlar bo'lmagan taqdirda 4-usul bilan bojxona qiymatini aniqlash iqtisodiy-matematika usullarini qo'llagan holda ekspert baholanishi qo'llash.

### 25-rasm.

DBQ bo'yicha import yo'nalishida bojxona qiymati qayishqoqlik bilan 6-usulda aniqlanib, rasmiylashtirilgan BYuDlar diagrammasini quyidagi rasmda ko'rish mumkin.



26-rasm. Bojxona qiymati qayishqoqlik bilan 6-usulda aniqlanib,  
rasmiylashtirilgan BYuDlar diagrammasi.  
*Manba* DBQ ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

**1-misol. Amaliyotda yo'l qo'yilayotgan kamchiliklar:** «A» korxonasi tomonidan olib kelingan «ручки оконные из недра российских металлов» tovarlari TIF bojxona postida bojxona qiymatini aniqlashning 6-usuli qo'llanilgan holda bojxona rasmiy lash-tiruvdan o'tkazilgan.

Bojxona kodeksining 313-moddasiga asosan, eng past bojxona qiymatlariga, shuningdek, tovarlarning tovarning o'zboshimchalik bilan belgilangan yoki to'g'ri tasdiqlanmagan narxiga asoslanishi mumkin emasligi belgilangan.

Mazkur qonun talablariga amal qilinmaganligi natijasida **40,7 mln. so'm** miqdorida bojxona to'lovlari undirilmay qolingen.

**Kelib chiqish sababi:** mavjud ma'lumotlar asosida tovarning ikki va undan ortiq qiymatlari o'rganib chiqilmagan.

**E'tibor qaratish kerak:** mavjud ma'lumotlar asosida tovarning ikki va undan ortiq qiymatlari o'rganib chiqilishi lozim.

**2-misol. Amaliyotda yo'l qo'yilayotgan kamchiliklar:** «B» korxonasi tomonidan olib kelingan «TRUFLE» nomli shokolad» tovari TIF bojxona postida bojxona qiymatini aniqlashning 6.2-usuli, ya'ni aynan bir xil tovarlarning qiymati qo'llanilgan holda bojxona rasmiylashtiruvdan o'tkazilgan.

O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kelinadigan tovarlarning bojxona qiymatini belgilash bo'yicha Yo'riqnomalariga muvofiq, aynan bir xil tovarlarni olib kelish muddatlari, bojxona qiymatini belgilash uchun asos sifatida eksport qiluvchi mamlakatida boshqa ishlab chiqaruvchi tomonidan va bojxonada baholanishi lozim bo'lgan tovarlarni eksport qiluvchi mamlakatdan boshqa qaysidir o'zga mamlakatda ishlab chiqarilgan xuddi shuningdek import qilingan tovarlar ko'rib chiqilishi mumkinligi belgilangan.

Mazkur Yo'riqnomalariga amal qilinmaganligi natijasida **97,8 mln. so'm** miqdorida bojxona to'lovlari undirilmay qolingen.

**Kelib chiqish sababi:** aynan bir xil tovarlar olib kelingan vaqtidan 90 kunlik muddati o'tgan bo'lsa ham aynan o'sha eksporter davlatning va ishlab chiqaruvchining qiymati asos sifatida olinishi lozimligiga e'tibor qaratilmagan.

**E'tibor qaratish kerak:** aynan bir xil tovarlarni olib kelish muddatlari, bojxona qiymatini belgilash uchun asos sifatida eksport qiluvchi mamlakatda boshqa ishlab chiqaruvchi tomonidan va

bojxonada baholanishi lozim bo‘lgan tovarlarni eksport qiluvchi mamlakatdan boshqa qaysidir o‘zga mamlakatda ishlab chiqarilgan xuddi shuningdek import qilingan tovarlar ko‘rib chiqilishiga, aynan bir xil import qilingan tovarlarning ilgari 4-usul bilan belgilangan bojxona qiymatidan foydalanish mumkin.

**3-misol. Amaliyotda yo‘l qo‘yilayotgan kamchiliklar:** «V» korxonasi tomonidan olib kelingan «посуда столовая из тонкой керамики» tovari TIF bojxona postida bojxona qiymatini aniqlashning 6.3-usuli, ya’ni o‘xhash tovarlarning qiymati qo‘llanilgan holda bojxona rasmiylashtiruvidan o‘tkazilgan.

O‘zbekiston Respublikası hududiga olib kelinadigan tovarlarning bojxona qiymatini belgilash bo‘yicha Yo‘riqnomalariga talablariga muvofiq, o‘xhash tovarlarning olib kelinishi muddatlari, bojxonada baholanishi lozim bo‘lgan tovarlarni eksport qiluvchi mamlakatdan boshqa qaysidir o‘zga mamlakatda ishlab chiqarilgan shunga o‘xshagan import qilingan tovarlar shunga o‘xshagan tovarlarning bojxona qiymatini belgilash uchun asos sifatida foydalanilganida belgilangan.

Mazkur Yo‘riqnomalariga amal qilinmaganligi natijasida **82,6 mln. so‘m** miqdorida bojxona to‘lovları undirilmay qolining.

**Kelib chiqish sababi:** Bojxona qiymatini belgilashda o‘xhash tovarlar boshqa eksporter davlatning ishlab chiqaruvchisining minimal qiymatiga asoslangan.

**E’tibor qaratish kerak:** O‘xhash tovarlarning olib kelinishi muddatlari, bojxonada baholanishi lozim bo‘lgan tovarlarni eksport qiluvchi mamlakatdan boshqa qaysidir o‘zga mamlakatda ishlab chiqarilgan shunga o‘xshagan import qilingan tovarlar shunga o‘xshagan tovarlarning bojxona qiymatini belgilash uchun asos sifatida hamda o‘xhash import qilingan tovarlarning ilgari 4-usul bilan belgilangan bojxona qiymatidan foydalanish mumkin, shuningdek, boshqa eksporter davlatning ishlab chiqaruvchisi tomonidan eksport qilingan o‘xhash tovarning qiymatlarni asos qilib belgilashda eng yuqori va minimal qiymatlardan foydalanmaslik lozim.

Agar tovarning bojxona qiymatini 1-5-usullar yordamida aniqlash mumkin bo'lmasa, tovarlarning bojxona qiymati bo'lgan narxlarga doir axborot asosida belgilanadi. Bojxona organlarida mavjud bo'lgan narx ma'lumotlari sifatida quyidagilar hisoblanadi:

- Eksport va import qilinayotgan tovarlarning narx ma'lumotlari byulleteni;
- DBQ import BYuDlar elektron baza ma'lumotlari;
- bojxonada mavjud bo'lgan boshqa muqobil manbalardan olingan narxlar.

Zaxira usul asosida bojxona qiymati belgilangangan holda, bojxona rasmiylashtiruvi uchun BYuD taqdim etilganida, DBQ YaAAT dasturi tovarning TIF TN kodi, jo'natuvchi davlati hamda ishlab chiqarilgan mamlakati bo'yicha DBQ YaAAT dasturiga ulangan Byulletendagi narxlar (tovarlarning TIF TN kodi bo'yicha eng minimal narxlar) bilan solishtirib chiqadi. Agarda tovarning narxi Byulletendagi minimal narxdan past bo'lsa, u holda DBQ YaAAT dasturi BYuDni ro'yxatga olishni taqiqlaydi hamda buning sabablarini ko'rsatadi.

Byulletenda bir TIF TN kodli tovarlarga ularning nomlanishi, turi, markasi, sifati va bozordagi qadridan kelib chiqib turli xil narxlar belgilanganligi munosabati bilan bojxona posti boshlig'i tomonidan rasmiylashtirilayotgan tovarga har jihatdan yaqin bo'lgan tovar tanlanib, uning narxi bilan solishtirilib, rasmiylashtiruv uchun ruxsat beriladi. Agarda Byulletenda BYuDdag'i tovar bilan har jihatdan yaqin bo'lgan tovarning narxi bo'lgan holda, boshqa aynan bir xil yoki o'xshash bo'lmasa, u holda post boshlig'i tomonidan mazkur BYuDni rasmiylashtiruv uchun ruxsat berilmasligi lozim.

Byulletenda baholanayotgan tovar ishlab chiqarilgan davlatdan (yoki jo'natilgan) import qilingan tovarlarning narxlari to'g'risida ma'lumotlar mavjud bo'lmasa, u holda DBQ YaAAT dasturi jo natuvchisi yoki ishlab chiqaruvchisi boshqa bo'lgan davlatlar tovarlarning narxlari (minimal narxlari) bo'yicha ham solishtiruv ishlarini o'tkazadi.

Agar baholanayotgan tovar bilan aynan bir xil yoki o'xshash tovarning narxi bo'yicha ma'lumotlar Byulletenda mavjud bo'lmasa, dastur tomonidan tekshiruv o'tkazilmasdan, mazkur holatda tovarning bojxona qiymatini belgilanishi yuzasidan tekshiruv bojxona rasmiylashtiruvini amalga oshirayotgan xodim tomonidan import BYuD baza ma'lumotlari hamda boshqa muqobil manbalardagi ma'lumotlar assosida amalga oshiriladi.

Yuk qabul qiluvchi MP ro'yxatiga kiradimi?

BYuD to'ldirilgan sana (MinDate)\*\*\*

NMBda muhim parametrlarga muvofiq bo'lgan\*\*\*\*

Min Cost <F(45)\*\*\*\*\*

BYuDni Yagona avtomatlashinilgan axborot tizimi ma'lumotlar bazasida ro'yxatdan o'tkazish

Ro'yxatga o'tkazishni rad etishi

*27-rasm. 6-usul qo'llangan shartlarni tekshirish sxemasi  
(Narx ma'lumotlar byulleteni orqali tekshirish).*

\* MP – mas'ul operatorlar;

\*\* MinDate – sozlangan parametr. narx ma'lumotlar byulleteni bo'yicha bojxona qiymatini nazorat qilishda tizimni ishga tushiradigan sanani kiritish;

\*\*\* NMB (Narx ma'lumotlar byulleteni)da qidiruvning muhim parametrlari.

33. код товара 4407109

34. Код страны  
происх. 543

45. Таможенная  
стоимость 56160.00

*28-rasm. Byulleten asosida 6-usulda solishtirilayotganda BYUning mantiqiy nazoratdan o'tkaziladigan grafalari.*

☞ Deklarant yoki bojxona brokeri tomonidan tovarning bojxona qiymatini aniqlash imkonи bo'lmagan taqdirda tovarning shartli chiqarib yuborish deklarantning yoki bojxona brokerining arizasiga ko'ra bojxona organi tomonidan amalga oshiriladi. Bunda bojxona organi belgilangan tartibda tovarning shartli bojxona qiymatini mustaqil ravishda belgilaydi.

Tovarning bojxona qiymatini aniqlash imkonи bo'lmagan taqdirda uni shartli chiqarib yuborish deklarantning yoki bojxona brokerining arizasiga ko'ra bojxona organi tomonidan amalga oshiriladi. Bunda bojxona organi belgilangan tartibda tovarning shartli bojxona qiymatini mustaqil ravishda belgilaydi.

Tovarning bojxona qiymatini aniqlash imkonи bo'lmagan taqdirda uni shartli chiqarib yuborish, agar bojxona organi tomonidan aniqlangan tovarning bojxona qiymatiga muvofiq ravishda hisoblab chiqarilgan bojxona to'lovlari summasi deklarant yoki bojxona brokeri tomonidan to'lansa yoki to'lanishi ta'mmlansa, amalga oshiriladi.

Bojxona organi ariza kelib tushgan kundan keyingi uch ish kuni ichida deklarantga yoki bojxona brokeriga tovarning shartli bojxona qiymatining va talab qilinayotgan bojxona to'lovlari to'lanishini ta'minlash miqdorlari to'g'risida yozma yoki elektron shaklda xabar qiladi.

Bojxona to‘lovlari to‘lanishini ta’minlashning amal qilish muddati tovar chiqarib yuborilgan kundan e’tiboran oltmishe kalender kunni tashkil etadi.

Deklarant yoki bojxona brokeri tovarning bojxona qiymatini tasdiqlovchi hujjalalar taqdim etilganidan keyin bojxona qiymati va tegishli bojxona to‘lovlari tovarning bojxona qiymatiga va (yoki) bojxona to‘lovlari tuzatishlar kiritish shaklini to‘ldirgan holda qaytadan hisob-kitob qilinadi.

Tovarning bojxona qiymatini tasdiqlovchi hujjalalar taqdim etilmagan taqdirda, bojxona to‘lovlari to‘lanishini ta’minlash summasi belgilangan muddat o‘tgach, O‘zbekiston Respublikasining Davlat budgetiga o‘tkaziladi. Bunda tovarning bojxona qiymatiga va (yoki) bojxona to‘lovlari tuzatishlar kiritish shakli to‘ldirilib, u tovarning bojxona qiymati xususidagi uzil-kesil qaror hisoblanadi.

### Nazorat uchun savollar

1. 5-usul bo‘yicha qanday xarajatlar qo‘shiladi.
2. Qiymatlarni qo‘sishish asosida bojxona qiymatini aniqlash usulining mohiyati.
3. Zaxira usulining mohiyati.
4. Zaxira usulida o‘zaro qayishqoqlik tushunchasi.
5. Zaxira usulini qo‘llanilishini nazorat qilish algoritmi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksi.
2. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan 1998-yil 13-yanvarda 390-raqam bilan ro‘yxatdan o‘tgan «O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kelinadigan tovarlarning bojxona qiymatini belgilash bo‘yicha yo‘riqnomasi».
3. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan 1998-yil 13-yanvarda 391-sod bilan ro‘yxatdan o‘tgan «Bojxona qiymati deklaratziyasini to‘ldirish tartibi».
4. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2016-yil aprelda 2773-raqam bilan ro‘yxatdan o‘tgan «Bojxona yuk deklaratziyasini to‘ldirish tartibi».

5. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan 2000-yil 22-fevralda 899-raqam bilan ro'yxatdan o'tgan «O'zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kelinadigan tovarlarga bojxona qiymatini belgilash va uni nazorat qilish tartibi».

6. Davlat bojxona qo'mitasining 2010-yil 12-apreldagi «Import qilinayotgan tovarlarning bojxona qiymatini belgilanishini DBQ Yagona avtomatlashirilgan axborot tizimi asosida nazorat qilish bo'yicha vaqtinchalik yo'riqnomani amaliyotga kiritish to'g'-risida»gi 92-son buyrug'i.

7. DBQning 2011-yil 9-fevraldagisi «INKOTERMS-2010 xalqaro savdo shartlarini amaliyotga kiritilganligi to'g'risida»gi 1-son ko'rsatmasi.

## **IX BOB. EKSPORT VA IMPORT QILINAYOTGAN TOVARLAR NARX MA'LUMOTLARI BYULLETENIDAN FOYDALANISH**

Tovarlarni bojxona qiymati deklarant tomonidan ko'rsatilgan beshta usulni izchilik bilan qo'llash natijasida belgilanishi mumkin bo'lmasa yoki bojxona organlari dalillar asosida bojxona qiymatini belgilashning dastlabki beshta usulini qo'llash mumkin emas deb hisoblasa, unda tovarlarning bojxona qiymati quyida keltiriladigan talablar doirasida 1-5-baholash usullarini birmuncha qayishqoqlik bilan qo'llanish yo'li orqali belgilanadi va asoslanadi.

Zaxira usulni qo'llashda bojxona organlari deklarantga o'zlarining ixtiyorida mavjud bo'lgan narxlarga oid ma'lumotlarni taqdim qiladilar.

6-usulini qo'llashda hujjatlar orqali tasdiqlashga nisbatan talablar, shuningdek, boshqa usullarga nisbatan ko'proq qayishqoqlikka yo'l qo'yadi: jahon narxlari, ichki bozordagi narxlар bo'yicha axborot bildirgichlaridan foydalanish; komission rag'batlantirish haqlari, chegirmalar, foya, transport tariflari va shu kabilarning umumiyligini qabul qilingan darajalari haqidagi statistik ma'lumotlardan foydalanish. Bunda yetkazib berish shartlarini hisobga olgan holda ma'lumotlar albatta tegishli ravishda o'zgartirilishi lozim. Hozirgi paytda narxlар bazasini shakllantirishda bojxona tizimida axborot texnologiyalaridan keng qo'llanilayapti.

Bojxona organlarida axborot texnologiyalarini keng tafbiq etish, bojxona nazorati va rasmiylashtiruvni jarayonlarini tezlashtirish, tovarlarni to'g'ri deklaratsiyalash hamda bojxona to'lovlarini davlat budgetiga to'liq undirilishini ta'minlash maqsadida DBQ Yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimi (YaAAT) tarkibida «Eksport va import qilinayotgan tovarlar narx ma'lumotlari byulleteni» elektron bazasi joriy etildi. Bunda bojxona yuk deklaratsiyalarini qabul qilish «Narx ma'lumotlari byulleteni» elektron bazasi bilan qat'iy nazoratga olingan.

«Narx ma'lumotlari byulleteni» elektron bazasi bo'yicha ish olib boruvchi bojxona xodimlari mas'uliyatini oshirish, maqsadida, Davlat bojxona qo'mitasining 2009-yil 18-maydag'i 135-sonli buyrug'i bilan «Eksport va import qilinayotgan tovarlar narx ma'lumotlari byulleteni» elektron bazasini yuritish tartibi» tasdiqlandi.

Ushbu tartib Eksport va import qilinayotgan tovarlarning bozor narxlari tez o'zgarishiga qarab, ma'lumotlar bazasini tezkor yangilab borish maqsadida ishlab chiqilgan.

DBQning 2008-yil 16 iyundagi 203-sonli buyrug'i bilan Yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimi (YaAAT) amaliyotga joriy etilgan va Bojxona yuk deklaratasiyalarini (BYuD) qabul qilish «Narx ma'lumotlari byulleteni» elektron bazasi bilan qat'iy nazoratga olingan.

Davlat bojxona qo'mitasining 2009-yil 19-sentabrdagi 275-sonli buyrug'i bilan ««Eksport va import qilinayotgan tovarlar narx ma'lumotlari byulleteni»ni ishlab chiqish tartibining vaqtinchalik yo'riqnomasi» tasdiqlangan.

Mazkur Tartib «Narx ma'lumotlari byulleteni» elektron bazasiga ma'lumotlarni kiritish va yangilab borish bosqichlarida ishtiroy etuvchi bojxona xodimlarining majburiyatlari va mas'uliyatini belgilab beradi.

«Narx ma'lumotlari byulleteni»ni DBQ Bojxona tariflarini tartibga solish va to'lovlar hisobini yuritish (BTTS va THYu) bosh boshqarmasi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 30-sentabrdagi «Eksport-import operatsiyalari monitoringini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 416-sonli qarorining 5-bandiga asosan har oyda DBQning tegishli bosh boshqarma va boshqarmalari bilan kelishilgan holda tayyorlanadi hamda O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va Savdo vazirligi, Moliya vazirligi, Davlat soliq qo'miasi, Monopoliyadan chiqarish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat qo'miasi bilan kelishilgan holda chop etiladi.


**Государственный Таможенный Комитет Республики Узбекистан**  
**Единая Автоматизированная Информационная Система**

Бюллетень ценовой информации

Бюллетень цен | Протокол приказа ПД

Код товара по ТН ВЭД:  Принять

1 2 3 4 5 6 7 8 9 10 » Последняя

Код товара по ТН ВЭД	Страна отп-я	Страна проис-я	Мин. там. ст-ть	Код доп.ед.изм.	Наименование товара
0105111100	Венгрия	Венгрия	5.40	Кол. штук.	Цыплята суточ. родительские ОР.
0105111100	Нидерланды	Неизвестна	4.90	Кол. штук.	Цыплята суточ. родительские ОБ.
0105111100	Россия	Россия	1.00	Кол. штук.	Цыплята суточ. кур кросса Оптич.
0105111100	Германия	Германия	5.02	Кол. штук.	Цыплята суточ. родительские Ол.
0105111100	Казахстан	Казахстан	1.00	Кол. штук.	Цыплята суточ. кур кросс Ohu-Lyu
0105111100	Россия	Неизвестна	1.00	Кол. штук.	Цыплята суточ. кур кросс ОП.
0105111900	Россия	Россия	3.80	Кол. штук.	Цыплята суточ. родительские ОХас
0105111900	Венгрия	Венгрия	5.34	Кол. штук.	Цыплята суточ. родительские
0105111900	Россия	Неизвестна	3.80	Кол. штук.	Цыплята суточ. родительские ОХас
0202309003	Иран	Индия	4.00	Килограмм	Мясо крупного рогатого скота (буй.)
0202309003	Об.Араб.Эм.	Индия	4.00	Килограмм	Мясо крупного рогатого скота обвален
0202309003	Индия	Индия	4.00	Килограмм	Мясо буйволов. без костей в блоках
0202309009	Индия	Индия	1.50	Килограмм	Мясо буйвола обваленное, без костей
0202309009	Иран	Индия	1.50	Килограмм	Мясо буйвола обваленное, без костей
0202309009	Иран	Турция	1.50	Килограмм	Мясо буйвола обваленное, без костей
0203211009	Германия	Германия	2.00	Килограмм	Свиная шейная часть без костей, мор
0203211009	Польша	Польша	2.00	Килограмм	Шейка свиная, мороженая
0203211009	Германия	Польша	2.00	Килограмм	Полутуши свиные мороженые
0203211009	Польша	Польша	2.00	Килограмм	Тушки и полтуши дом. свиней
0203219009	Польша	Польша	2.00	Килограмм	Полутуши свиные, мороженые

1 2 3 4 5 6 7 8 9 10 » Последняя

**29-rasm.** «Narx ma'lumotlari byulleteni» bazasining elektron ko'rimishi (natuna nusxasi).

«Narx ma'lumotlari byulleteni»ni tayyorlashda DBQ ma'lumotlar bazasi, internet tarmog'i ma'lumotlari va boshqa muqobil manbaalardagi ma'lumotlardan foydalilanildi.

«Narx ma'lumotlari byulleteni»ning navbatdag'i soni tayyor bo'lgandan so'ng jurnal variantida BTTS va THYu bosh boshqarmasi tomonidan hududiy bojxona boshqarmalariga, elektron va jurnal varianti Axborot texnologiyalari (AT) boshqarmasiga kuzatuv xati bilan yetkaziladi. Kuzatuv xatida AT boshqarmasiga taqdim etilgan elektron va jurnal variantidagi «Narx ma'lumotlari byulleteni»ning navbatdag'i soni bilan bajarilishi lozim bo'lgan ishlar aniq ko'rsatiladi.

AT boshqarmasi mas'ul xodimi elektron va jurnal variantidagi «Narx ma'lumotlari byulleteni»ni qabul qilib olgach, alohida jurnalga qayd etadi va 1 kun mobaynida uning elektron nusxasini DBQ YaAAT ma'lumotlar bazasi formatiga keltirib unga joylashtiradi «Narx ma'lumotlari byulleteni» qayd etiluvchi jurnal shakli quyidagi jadvalda keltirilgan.

No	«NARX MA'LUMOTLARI BYULLETENI» elektron bazasining yangi soni yoki unga o'zgartirish bo'yicha ma'lumot	Asos bo'l- gan huj- yat ra- qami	Huj- yat sa- nasi	Ruxsat bergan DBQ rahbari ismi va sharifi	Ma'lumotlar elekt- ron bazaga kiri- tilgan sana	AT boshqar- masi mas'ul xodimi ismi, sharifi va imzosi
1.						
2.						

«Narx ma'lumotlari byulleteni»ning yangi nusxasi elektron varianti DBQ YaAAT ma'lumotlar bazasiga joylashtirilgandan so'ng 1 kun mobaynida AT boshqarmasi hamda BTTS va THYu bosh boshqarmasi mas'ul xodimlari tomonidan asliga to'g'riligi tekshiriladi va qo'shma dalolatnomaga tuziladi.

«Narx ma'lumotlari byulleteni» elektron bazasiga o'zgartirishlar faqat DBQ rahbariyatining yozma ko'rsatmasiga binoan kiritiladi, boshqa hollarda o'zgartirishlar kiritish qat'ian taqiqlanadi.

«Narx ma'lumotlari byulleteni» elektron bazasiga kiritilishi lozim bo'lgan o'zgartirishlar DBQ rahbariyatining topshirig'i asosida BTTS va THYu bosh boshqarmasi (tegishli boshqarmalar) tomonidan o'rganib chiqilib kuzatuv xati orqali AT boshqarmasiga elektron va qog'oz ko'rinishida taqdim etiladi (xatga DBQ tuzilmalarning takliflari ilova qilinishi mumkin).

Har bir hududiy bojxona boshqarmasi tomonidan «Narx ma'lumotlari byulleteni» elektron bazasi DBQ YaAATda nazorat qilinishi bo'yicha kundalik monitoring ishlari tashkil etiladi. Rasmiy lash-tirilayotgan BYuD ma'lumotlari bilan «Narx ma'lumotlari byulleteni» ma'lumotlari o'rtaida nomutanosiblik aniqlanganda yoki «Narx ma'lumotlari byulleteni» elektron bazasiga boshqa o'zgartirishlar kiritish zarurati tug'ilganda Hududiy bojxona boshqarmasining Bojxona qiymatini nazorat qilish bo'yicha ekspert guruhi tomonidan 2 kun muddatda tegishli xulosa tayyorlamb, boshqarma boshlig'i tomonidan tasdiqlangan holda DBQ rahbariyatiga taqdim etiladi.

«Narx ma'lumotlari byulleteni» elektron bazasiga o'zgartirishlar kiritish va ularni qayd etish jurnali AT boshqarmasi mas'ul xodimida saqlanadi.

«Narx ma'lumotlari byulleteni» elektron bazasini yuritish bo'yicha javobgarlik O'zbekiston Respublikasi qonunlari asosida belgilanadi.

### Nazorat uchun savollar

1. Eksport va import qilinayotgan tovarlar narx ma'lumotlari byulleteni shakllantirishning ahamiyati.
2. «Eksport va import qilinayotgan tovarlarning narx ma'lumotlari byulleteni» elektron bazasini yuritish tartibi.
3. «Eksport va import qilinayotgan tovarlarning narx ma'lumotlari byulleteni» elektron bazasini shakllantirish tartibi.

## Foydalanaligan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksi.
2. O'zbekiston Respublikasining «Davlat bojxona xizmati to'g'risida»gi qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 30-sentabrdagi «Eksport-import operatsiyalari monitoringini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 416-sod qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan 1998-yil 13-yanvarda 390-raqam bilan ro'yxatdan o'tgan «O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kelinadigan tovarlarning bojxona qiymatini belgilash bo'yicha Yo'riqnomasi».
5. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan 1998-yil 13-yanvarda 391-raqam bilan ro'yxatdan o'tgan «Bojxona qiymati deklaratsiyasini to'ldirish tartibi».
6. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan 2000-yil 22-fevralda 899-raqam bilan ro'yxatga olingan «O'zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kelinadigan tovarlarga bojxona qiymatini belgilash va uni nazorat qilish tartibi bo'yicha yo'riqnomasi».
7. Davlat bojxona qo'mitasining 2010-yil 12-apreldagi 92-buyrug'i bilan tasdiqlangan «Import qilinayotgan tovarlarning bojxona qiymatini belgilanishini DBQ Yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimi asosida nazorat qilish bo'yicha vaqtinchalik yo'riqnomasi».
8. Davlat bojxona qo'mitasining 2009-yil 18-maydag'i ««Eksport va import qilinayotgan tovarlar narx ma'lumotlari byulleteni» elektron bazasini yuritish tartibini tasdiqlash to'g'risida» 135-sod buyrug'i.
9. Davlat bojxona qo'mitasining 2009-yil 19-sentabrdagi «Eksport va import qilinayotgan tovarlar narx ma'lumotlari byulleteni»ni ishlab chiqish tartibi bo'yicha vaqtinchalik yo'riqnomani tasdiqlash to'g'risida»gi 275-sodli buyrug'i.

## **X BOB. IMPORT TOVARLARGA BOJXONA QIYMATI DEKLARATSIYASINI TO'LDIRISH TARTIBI**

**Reja:**

- 1. Bojxona qiymati deklaratsiyasi haqida tushuncha va uni qo'llash xususiyatlari.**
  - 2. Bojxona qiymati deklaratsiyasi BQD-1 shaklini to'ldirish qoidalari.**
  - 3. Bojxona qiymati deklaratsiyasi BQD-2 shaklini to'ldirish qoidalari.**
- 
- 1. Bojxona qiymati deklaratsiyasi haqida tushuncha va uni qo'llash xususiyatlari**

Bojxona kodeksining 318-moddasiga asosan tovarning bojxona qiymati bojxona qiymati deklaratsiyasini to'ldirgan holda tovarlami deklaratsiyalashda deklarant yoki bojxona brokeri tomonidan bojxona organiga ma'lum qilinadi.

Bojxona qiymati deklaratsiyasi bojxona yuk deklaratsiyasining ajralmas qismi bo'lib, tovarning bojxona qiymati to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rsatilgan va deklarant yoki bojxona brokeri tomonidan bojxona organiga bojxona yuk deklaratsiyasi bilan bir paytda topshiriladigan hujjat hisoblanadi.

Bojxona qiymati deklaratsiyasining shakli va um to'ldirish tartibi O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitası tomonidan belgilanadi.

Deklarant yoki bojxona brokeri tomonidan ma'lum qilinadigan tovarning bojxona qiymati va uni aniqlashga taalluqli taqdim etiladigan ma'lumotlar to'g'ri, miqdoriy jihatdan aniqlash mumkin bo'lgan va hujjatlar bilan tasdiqlangan axborotga asoslanishi kerak.

Deklarant yoki bojxona brokeri deklaratsiyalananadigan tovarning bojxona qiymati ma'lum qilinguniga qadar aniqlangan tovar turkumining tovarning yo'qolishi, kamomadi, shikastlanishi hajmlariga

mos birlikka keltirilgan bojxona qiymatini ma'lum qilish huquqiga ega. Tovarning yo'qolishi, kamomadi, shikastlanishi fakti ekspertiza xulosasi va bojxona ko'zdan kechiruvchi dalolatnomasi bilan tasdiqlangan bo'lishi kerak.

Bojxona qiymati deklaratsiyasi bojxona to'lovlarini to'lashni nazarda tutuvchi bojxona rejimlari ma'lum qilinganda bojxona chegarasi orqali olib o'tiladigan barcha tovarlar uchun to'ldiriladi, bundan quyida nazarda tutilgan hollar mustasno.

Bojxona qiymati deklaratsiyasi quyidagi hollarda to'ldirilmaydi va bojxona qiymati bojxona yuk deklaratsiyasida ma'lum qilinadi, agar:

– bojxona hududiga olib kirilayotgan tovarlar turkumining bojxona qiymati bir ming AQSH dollariga teng ekvivalent summadan oshmasa, bundan bitta kontrakt (shartnoma, kelishuv) doirasida bir necha marta tovar yetkazib berish, shuningdek, turli kontraktlar (shartnomalar, kelishuvlar) bo'yicha ayni o'sha tovarni bir jo'natuvchi tomonidan ayni o'sha bitta oluvchining manziliga takror-takror yetkazib berish mustasno;

– olib o'tiladigan tovarlar bojxona to'lovlarini to'lashdan ozod etilgan bo'lsa.

O'zbekiston Respublikasiga olib kelinayotgan tovarlarni bojxona qiymatini bayon qilishda «Bojxona qiymati deklaratsiyasini to'ldirish tartibi to'g'risida»gi Yo'rinqomaga asosan bojxona qiymati deklaratsiyasi (BQD) shaklidan foydalaniladi va u rasmiylash-tirilayotgan tovar uchun to'ldiriladigan bojxona yuk deklaratsiyasi (BYuD)ga ilova hisoblanadi BQD bojxona yuk deklaratsiyasiz haqiqiy hisoblanmaydi. BQDda ko'rsatilgan bojxona qiymatiga o'zgartirish kiritish kerak bo'lган hollarda bojxona qiymatini o'zgartirish (BQO') shaklidan foydalaniladi va u ham rasmiylash-tirilayotgan tovar uchun to'ldiriladigan BYuDga ilova hisoblanadi.

BQD tovarlarning bojxona rasmiylashtiruvini amalga oshiruvchi bojxona organiga BYuD bilan bir vaqtda topshiriladi. Bojxona organi bitimining aniq shartlarini hisobga olgan holda BQDni tekshirish va rasmiylashtirishni amalga oshiradi

BQDning majburiy tartibda to‘ldirilishi belgilab qo‘yilmagan bo‘lib, biroq hamma hollarda bojxona organi zarur bo‘lganida deklarantning BYuDda bayon qilgan bojxona qiymatining tasdig‘i uchun BQDni taqdim etishni talab qilish huquqiga ega, jismoniy shaxslar tijoratchilik maqsadlaridan boshqa maqsadlar uchun olib keladigan tovarlariga BQD to‘ldirishi bundan **mustasno**.

BQDga majburiy tartibda hujjatlar ilova qilinadi (belgilangan talablarga qarab - asl nusxalari yoki tasdiqlangan nusxalari).

Qog‘oz shakldagi BQD belgilangan tartibda 6 nusxada to‘ldiriladi.

BQD ikki xil (BQD-1, BQD-2) shaklda bo‘ladi BQD-1 va BQD-2 shakllarining har biri ikkita asosiy varaqdan - uning old tomoni va bojxona qiymati hamda uning elementlari haqidagi ma’lumotlar ko‘rsatiladigan ikkinchi varag‘idan iborat bo‘ladi.

BQD-1 va BQD-2 shakllari bo‘yicha deklaratsiyalar (asosiy varaqlar) bir nomdan uch nomgacha bo‘lgan tovarlarga to‘ldiriladi. Tovarlar guruhida uch nomdan ortiq, tovarlar mavjud bo‘lganida qo‘shimcha varaqlardan foydalанилб, ularning har biri bir nomdan uch nomgacha bo‘lgan tovarlarga to‘ldirilishi mumkin.

Qo‘shimcha varaqlar faqat, agar BQD-1 yoki BQD-2 shakllarining o‘ng tomonida bayon qilingan hamma ma’lumotlar qo‘shimcha varaqlarda ko‘rsatilgan tovarlarga ham to‘laligicha tegishli bo‘ladigan bo‘lsa, qo‘llaniladi.

BQD-1 va BQD-2 shakllarining ikkinchi varag‘i qo‘shimcha varaqlar sifatida ishlatiladi.

Deklaratsiva va unga qo‘shimcha varaqlar o‘zbek yoki rus tillarida yozuv mashinkasida yoki kompyuterning matn bosish qurilmasida to‘ldiriladi.

Deklaratsiya va unga qo‘shimcha varaqlarda tuzatishlar va o‘chirib yozishlar bo‘lmasiligi kerak Deklarant bayon qiladigan ma’lumotlarning barcha tuzatishlari faqat deklarant tomonidan zarur ma’lumotlarni matn ustidan qaytadan mashinkalash yoki havorang yoki qora sharikli ruchkada ustidan qaytadan yozish yo‘li bilan xato ma’lumotlarning chizib tashlanishi va zarur ma’lumotlarning qo‘shilishi tarzida amalga oshiriladi. Qog‘oz shaklda har bir tuzatish deklarant imzosi bilan tasdiqlanishi lozim

Noaniq to'ldirilgan, tuzatishlarga ega, deklarant tasdiqlamagan bojxona qiymati deklaratsiyasi va unga qo'shimcha varaqlar bojxona organi tomonidan qabul qilinmaydi.

Bojxona qiymati deklaratsiyasi (BQD-1 va BQD-2 shakllari)ning har bir ~~varaq~~'i deklarant tomonidan albatta imzolangan bo'lishi kerak.

Deklarant bayon qilgan bojxona qiymatining o'zgartirilishi yoki qayta hisoblanishi, shu jumladan, vaqtinchalik (shartli) bojxonada baholanishi uchun shunday qilinishi bojxona organi mansabdor shaxsi tomonidan nizomga muvofiq, amalga oshirilishi mumkin.

Deklarant yoki bojxona organi tomonidan bojxona qiymati qaytadan hisoblanganida BQD shaklining yangi varaqlari to'ldirilishi mumkin.

Bojxona organi bojxona qiymati deklaratsiyasini bojxona yuk deklaratsiyasi bilan bir vaqtda ro'yxatdan o'tkazadi. Bunda BQDga ham BYuDga berilgan ro'yxatdan o'tkazish raqami beriladi. BQDni tekshirish tugaganidan so'ng asosiy va barcha qo'shimcha varaqlarning «Xizmat belgilari uchun» grafasida BQDning ro'yxatdan o'tkazish raqami, tekshiruvchi inspektoring shaxsiy raqamli muhri va uning imzosi qo'yiladi. Shaklning old tomonida bojxona organining bojxona qiymati xususidagi qarori va tovarning deklarantning foydalanishiga taqdim etilishi shakli haqidagi yozuv yozib qo'yiladi.

Bojxona qiymati deklaratsiyasi, uning asosiy yoki qo'shimcha varaqlaridagi qaysidir grafada deklarantning talab etiladigan ma'lumotlarni ko'rsatishi uchun zarur joy bo'limganida bunday ma'lumotlarning bojxona qiymati deklaratsiyasi, uning asosiy yoki qo'shimcha varaqlarining orqa tomonida qo'shimcha yozuv tegishli bo'lgan grafa ko'rsatilgani holda aks ettirilishiga yo'l qo'yiladi. Bunday yozuv deklarant imzosi bilan tasdiqlanadi, tegishli grafalarda esa «orqasiga qarang» degan belgi qo'yiladi.

## 2. Bojxona qiymati deklaratsiyasi BQD-1 shaklini to'ldirish qoidalari

BQD-1 shakliga ko'ra bojxona qiymati deklaratsiyasi tovarlarning O'zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kelinishi qiymatga oid yoki shartli qiymatli oldi-sotdi bitimlari,

almashlash va bepul yetkazib berish doirasida amalga oshiriladigan va bunday tovarlarning bojxona qiymati 1-usulga ko'ra belgilanadigan hollarda to'ldiriladi.

☞ Deklarant quyidagi grafalarni to'ldiradi:

1, 2a, 26, 3, 4, 5, 6, 7a, 76, 8a, 86, 9a, 96, 10a, 106, 11a, 116, 12, 13a, 136, 14a, 146, 14b, 14r, 15, 16, 17a, 176, 17b, 18, 19, 20, 21, 22, 23a, 236, «Г» ochiq katagi.

BQD-1 shakli, shuningdek, bojxona qiymati 6-usulga ko'ra belgilanadigan va baholanayotgan tovarlar qiymati haqidagi ma'lumotlar hisob-kitob uchun asos sifatida qo'llaniladigan hollarda ham to'ldiriladi (masalan, bitimning narxi mavjud, lekin tovarning yetkazilishiga doir xarajatlarning hujjatlarga asoslangan tasdig'i yo'q, bitim narxi mavjud, lekin 1-usulni qo'llanish shartlari bajarilmaydi va shu kabilar, (ya'ni 6-usul 1-usulning qayishqoqlik bilan qo'llanilishiga asoslanadi). Bundan oldingi usullarni qo'llashga to'sqin bo'lgan sabablar BQD-1 shaklining orqa tomonida ko'rsatiladi. BQD-1 shakli old tomonining tepasida «6-usul» degan yozuv yozib qo'yiladi.

☞ Bojxona organi bojxona qiymati deklaratsiyasining asosiy va qo'shimcha varaqlaridagi «Bojxona qaydlari uchun» degan joyni to'ldiradi.

Deklarant tomonidan grafalarni to'ldirishi tartibi quyidagicha:

### **BQD-1 shaklining birinchi varag'i**

1-grafa. «Sotuvchi».

Tovarlarni sotadigan xorijiy shaxs (korxona)ning nomi va pochta manzili ko'rsatiladi.

2(a)-grafa. «Xaridor».

Tovarlarning xaridori bo'lgan O'zbekiston Respublikasi hududidagi shaxs (korxona)ning nomi, pochta manzili, KTUT kodи ko'rsatiladi.

## **2(b)-grafa «Deklarant».**

Tovarlarni deklaratsiya qiladigan korxonaning nomi va pochta manzili ko'rsatiladi. Agar xaridorning o'zi deklarant bo'lsa, unda 2(a)-grafaga e'tibor berilishi kerakligi ko'rsatiladi.

## **3-grafa. «Yetkazib berish shartlari».**

Yetkazib berish shartining qisqacha harfli nomi («Inkoterms-2010»ga muvofiq) va jo 'g'rofiy punkt nomi ko'rsatiladi. Masalan: SIF-Toshkent, FOB-Novosibirsk va hokazo.

## **4-grafa. «Hisobvaraq raqami va sanasi».**

Sotuvchi xaridorga taqdim etgan hisobvaraq, faktura yoki tovarning qiymatga oid narxini o'z ichiga olgan hisobvaraq, proformaning (shartli qiymatli bitimlar uchun) raqamı va sanasi ko'rsatiladi.

## **5-grafa. «Shartnoma raqami va sanasi».**

Tovarlarning yetkazib berilishi uchun shartnoma (shartnoma, bitim), shuningdek, mabodo mavjud bo'lsa, ularga qo'shimchalarining raqamı va sanasi ko'rsatiladi.

## **6-grafa.**

Mabodo bojxona organida 7-9-bandlar bo'yicha mulohazalar bo'lsa, ushbu xaridorning bundan oldingi bitimlari bo'yicha deklaratsiyalari raqamlari va sanalari ko'rsatiladi. Tovarni bojxonada rasmiylashtirgan bojxona organi nomi va mulohaza mazmuni keltiriladi.

## **7a, 7b-grafalar.**

Kerakli javob («ha» yoki «yo'q») () belgisi bilan qayd qilinadi.

## **8a, 8b-grafalar.**

Kerakli javob («ha» yoki «yo'q») () belgisi bilan qayd qilinadi.

«Ha» degan javob berilgan holda tafsilotlar ko'rsatiladi, ya'ni ushbu shart mazmuni, masalan, xaridorning tovarni muqobil yetkazib berishi haqidagi talab yoki uning sotuvchiga ana shu bitim narxiga ta'sir etadigan qandaydir xizmatlarni ko'rsatishi haqidagi ma'lumot keltiriladi.

Bunda shartlar yoki cheklashlar qiymatdag'i narxining hisob-kitobi deklaratsiyaning orqa tomonida bunday hisob-kitoblarni qilishga asos bo'lgan hujjatlar ko'rsatilgan holda keltiriladi. Tegishli summa 11b-grafada bilvosita to'lov sifatida keltiriladi va bitim narxini hamda tovarning bojxona qiymatini belgilashda hisobga olinadi 8-bandda «orqasiga qarang» degan belgi yozib qo'yiladi.

9a-grafa.

Kerakli javob («ha» yoki «yo‘q») (x) belgisi bilan qayd qilinadi. «Ha» degan javob berilgan holda litsenziya va shunga o‘xshagan to‘lovlarga tegishli tafsilotlar, ya’ni ushbu to‘lovnинг qanday turda ekanligi, uning nima hisobiga amalga oshirilganı va shu kabilar ko‘rsatiladi, bunda xaridorning oldi-sotdi bitimi shartlariga ko‘ra sotuvchiga bevosita yoki bilvosita to‘lashi shart bo‘lgan to‘lovlar, mabodo ular amalda to‘langan yoki to‘lanishi lozim bo‘lgan narxga kiritilmagan va sotuvchi xaridorga taqdim etgan hisobvaraqqa qo‘shilmagan bo‘lsa, ko‘rsatiladi. Bunday to‘lovlar miqdori 15-grafada keltiriladi.

9b-grafa.

Kerakli javob («ha» yoki «yo‘q») (x) belgisi bilan qayd qilinadi. «Ha» degan javob berilganı holda 16-grafada xaridorning baholanayotgan tovarlarni har qanday navbatdagi sotishi, berilishi yoki ulardan foydalanilishidan oladigan daromadidan sotuvchiga qaytarilishi lozim bo‘lgan qismining summasi ko‘rsatiladi.

10a-grafa. «BQD-1 shakliga ilova qilingan qo‘srimcha varaqlar soni».

BQD-1 shakliga qo‘srimcha varaqlar soni (u oxirgi varaq raqami minus 2 ga teng kelishi kerak) ko‘rsatiladi.

10b-grafa. «Joyi va sanasi».

BQDni to‘ldirish joyi va sanasi, 2b-grafada ko‘rsatilgan korxonalarini deklaratsiya qilishga vakolat bergen shaxsning familiyasi, ismi-sharifi, egallab turgan lavozimi, telefon raqami ko‘rsatiladi, shuningdek, deklarantning shaxsiy imzosi va muhri qo‘yiladi.

Ma’lumotlar BYuDdagiga shunga o‘xshagan ma’lumotlarga muvofiq, bo‘lishi kerak.

Quyida Bojxona qiymati deklaratsiyasi BQD-1 shaklining asosiy va qo‘srimcha varaqlarining namunasi keltirilmoqda.

A 0718591

Государственный таможенный комитет Республики Узбекистан		Декларация таможенной стоимости	Форма ДТС-1 Метод 1
1. Продавец		<i>Ставка таможенной стоимости</i> Для отметок таможни	
2 (а). Покупатель			
2 (б). Декларант			
<p align="center"><b>Внимание!</b></p> <p>В соответствии с законодательством декларант несет ответственность за все сведения, указанные в форме и в документах, предоставленных им в подтверждение таможенной стоимости. В процессе таможенного оформления декларант обязан своевременно представить таможенному органу дополнительные сведения, подтверждающие заявленную таможенную стоимость.</p>		3. Условия поставки	
6. Номер и дата принятых ранее таможенным органом решений по п. 7-9		Нужное отметить галочкой X	
7(а). Имеется ли взаимозависимость между продавцом и покупателем?*		<input type="checkbox"/> Да	<input type="checkbox"/> Нет
7(б). Оказала ли взаимозависимость между проданным и покупателем влияние на цену взываемого товара?		<input type="checkbox"/> Да	<input type="checkbox"/> Нет
8(а). Имеются ли ограничения для покупателя в отношении пользования товаром на исключением:		<input type="checkbox"/> Да	<input type="checkbox"/> Нет
– ограничений установленных законодательством Республики Узбекистан;		<input type="checkbox"/> Да	<input type="checkbox"/> Нет
– ограничений, существенно не влияющих на цену товара?		<input type="checkbox"/> Да	<input type="checkbox"/> Нет
8(б). Имеются ли в отношении цены сделки какие-либо условия, влияния которых на цену не может быть учтено?		<input type="checkbox"/> Да	<input type="checkbox"/> Нет
Если (ДА), укажите подробности			
Если условие количественно определено заполните графу 11 (б)			
9(а) Пересмотрены ли лицензионные или подобные платежи, которые покупатель прямо или косвенно называет продавцу в качестве условия и продажи товаров.		<input type="checkbox"/> Да	<input type="checkbox"/> Нет
9(б) Имеет ли место условия, приложены часть доходов от любой последующей перепродажи, передачи или покупки оцениваемых товаров по льготам возврата продавцу.		<input type="checkbox"/> Да	<input type="checkbox"/> Нет
Если на 9(а) и 9(б) дан ответ (ДА),кажите подробности а в п.15 и 16 укажите соответствующую сумму			
10 (а). Число дополнительных листов, приложенных к форме ДТС-1			
10 (б). Место:			
Дата:			
Фамилия и инициалы лица, заполнившего декларации			
Подпись и печать декларанта			
<p align="center"><i>(написана на русском языке)</i></p>			

1  
Экспорт для Таможни

		Лист ..... Форма ДТС -	
1	Справочный номер ГТД	Номер товара	
		Номер товара	Номер товара
Для отметов таможни		Код товара	Код товара
<b>A.</b> <b>Основа для расчета</b>	11.(а) Цена сделки в валюте контракта (цена, фактически уплаченная или подлежащая к уплате продавцу)		
	Цена сделки в суммах		
	Код валюты		
	Курс пересчета		
11.(б) Костенные платежи в суммах (смл. 86)			
12 Итого «А» в суммах			
<b>Б.</b> <b>Дополнительные начисления к цене сделки в суммах не включенные в п. "А" и подлежащие включению в таможенную стоимость</b>	13. Расходы покупателя		
	а) комиссионные и прочие посреднические услуги (за исключением комиссионных за покупку товара)		
	б) контейнеры, тару и упаковку		
	14 Стоимость товаров и услуг, предоставленных покупателем бесплатно или по снижением ценам для использования при производстве и продаже на экспорт ввозимых товаров.		
	а) сырье, материалы, детали, полуфабрикаты и комплектующие изделия		
	б) инструменты и др. подобное оборудование		
	в) материальная промышленность при производстве иностранных товаров.		
	г) инженерная и опытно-конструкторская проработка, дизайн-чертежи, выполненные вне территории Республики Узбекистан		
	15. Лицензионные и подобные платежи использования объектов интеллектуальной собственности (пункт 9 инструкции).		
	16. Часть дохода покупателя, полученная последующей перепродажей передачи или использования санкционированных товаров на территории Республики Узбекистан, которая подлежит возврату продавцу		
<b>В.</b> <b>Списываемые суммы в суммах, включительно п. «А»</b>	17. Расходы на доставку до Указат место доставки		
	В том числе на		
	а) транспортировку		
	б) погрузку, выгрузку и обработку		
	в) страхование		
	18 Итог «Б» в суммах		
	19. Расходы по монтажу, сборке, наладке оборудования или показанию технической помощи после ввоза		
20. Расходы по доставке после ввоза до места назначения			
21. Таможенные и сборы, уплачиваемые при ввозе из-за границы товаров			
22. Итого «В» в суммах			
23 Заявления таможенной стоимости:			
	а) в суммах		
	б) в валюте контракта		
Г.) Если сумма оплачена в иностранной валюте, укажите в этом разделе сумму в иностранной валюте и курс пересчета по каждому элементу стоимости и товара		Подпись и печать Декларанта	
Номер и разделов Б и В		Код валюты	Сумма в валюте
			Курс пересчета

(намита нусхаси).

## BQD-1 shaklining ikkinchi varagi

Bu varaq bojxona qiymatini 1-usulga (6/1-usul) ko'ra hisob-kitob qilish uchun mo'ljallangan.

Har bir varaqda tovarlarning uch turi bo'yicha ma'lumotlar keltirilishi mumkin. Varaqlar quyidagi tarzda raqamlanadi – har bir qo'shimcha varaqda uning tartib raqami va BQD-1 shakliga ro'yxatdan o'tkazishda berilgan raqam ko'rsatiladi.

«Tovar raqami»

Tegishli tovarning BYuD yoki uning qo'shimcha varag'inining shunga o'xshagan grafadagi raqam va tovarning TIF TN bo'yicha kodи ko'rsatiladi.

### A bo'limi. Hisob-kitob uchun asos

Ushbu bo'limda tovarning bojxona qiymatini belgilash uchun asos bo'lib hisoblanadigan amalda to'langan yoki to'lanishi lozim bo'lgan narx haqidagi ma'lumotlar keltiriladi. Mabodo yetkazib berish shartlari (3-grafa) va shartnomaning boshqa shartlariga ko'ra bunday narxga qo'shimcha hisoblanmalar va undan chegirmalar qilinishi talab etilmasa, unda ko'rsatilgan narx olib kelinadigan tovarlarning bojxona qiymatiga teng bo'lishi mumkin. Bunday holda bojxona qiymatining bayon qilinishi va nazorati amalda to'langan yoki to'lanishi lozim bo'lgan narxga, zarur bo'lganida, tuzatishli hisob-kitoblar amalga oshirilganida (o'zarobog'liqlik, shartlar va cheklashlarning ta'siri) taqdim etilgan hujjatlar bo'yicha ushbu narxni tasdiqlash va tekshirish, shuningdek, 1-usulning qo'llanilishi to'g'riligini baholash (uni qo'llanish bo'yicha belgilangan shartlar bajarilishining tahlili)dan iborat bo'ladi. Bunday holda A bo'limining yakuniy 12-grafasidagi ma'lumotlar umumiy yakuniy 23a-grafada takrorlanadi.

11a-grafa. Bitim narxi.

Birinchi satrda sotuvchiga amalda to'langan yoki to'lanishi lozim bo'lgan shartnoma valutasidagi narx ko'rsatiladi.

Hisobvaraqt-faktura (4-grafada ko'rsatiladigan, deklaratortomoniidan BQD bilan birga taqdim etiladigan) invoys yoki shartli qiymatli bitimlar uchun hisobvaraqt proforma (u ham 4-grafada ko'rsatiladi),

banknmg to'lov hujjatlari (agar hisobvaraqaqqa haq to'langan bo'lsa), shuningdek, tovarning oldi-sotdisi yoki yetkazib berilishi haqidagi tegishli shartnoma (bitim) bayon qilingan narxning hujjatlar asosidagi tasdig'i hisoblanadi.

Mabodo shartnoma shartlariga ko'ra to'loving muddatlariga qarab bitim narxidan hisobvaraqaqda alohida satr bilan ko'rsatiladigan chegirma nazarda tutilgan bo'lsa va bojxonada rasmiylashtirish paytigacha hisobvaraqaqqa bunday chegirmani hisobga olgan holda haq to'langan bo'lsa, unda amalda to'langan summa hisob-kitob uchun qabul qilinadi (ya'ni chegirma hisobga olinadi).

### 11b-grafa.

Mabodo hujjatlar asosida tasdiqlangan bilvosita to'lovlari haqida 8b-grafada ko'rsatib o'tilgan bo'lsa, ularning summasi ushbu grafada ham keltiriladi. Bilvosita to'lovlari deganda xaridorning sotuvchi manfaatlarini ko'zlab uchinchi shaxs nomiga to'lovi, xaridorning sotuvchi foydasi uchun qandaydir tovarlarni yetkazib berish qiymati va shu kabilar tushuniladi. Bu grafada shuningdek, tegishli cheklashlar yoki shartlar mavjud bo'lgan hollar (ularning qiymatga oid bahosi hisob-kitobi ham BQD varag'inining orqasida keltiriladi) uchun narxga tuzatishlarning deklarant hujjatlar asosida va varaqning orqa tomonidagi hisob-kitoblar bilan tasdiqlagan miqdori aks ettiladi. Mabodo 11b-grafada bilvosita to'lovlari va narxga tuzatishlarning summalaridagi miqdori (yoki faqat tuzatishlar miqdori) ko'rsatilgan bo'lsa, unda albatta «orqasiga qarang» degan belgi yozib qo'yiladi va varaqning orqa tomonida 11b-grafada ko'rsatilgan umumiy summaning talqini (rasshifrovkasi) beriladi.

### 12-grafa. Jami so'mlarda

11a va 116-grafalar summasi ko'rsatiladi. Bunda hisobvaraq-fakturada ko'rsatilgan, bitim narxiga ta'sir qilgan shartlar va/yoki cheklashlar mavjudligi va/yoki sotuvchi bilan xaridorning o'zarobog'liqligi sababli amalga oshirilgan tuzatishlar summalarini hisobga olinadi.

B bo'limi. 11a-bandiga kiritilmagan bitim narxiga qo'shimcha hisoblanmalar.

Ushbu bo'limda bitim narxiga Bojxona kodeksining 304-moddasida nazarda tutilgan va tegishli hujjatlar (hisobvaraq-fakturalar, to'lov topshiriqnomalari, cheklar) bilan tasdiqlangan qo'shimcha

hisoblanmalar hisobga olinadi. Agar qo'shimcha hisoblanishi talab etiladigan xarajatlar xaridor tomonidan xorijiy valutada sarflangan bo'lsa, unda «G» bo'limida BQD grafasining raqami, «Valutalar tasnifnomasi»ga muvofiq valuta kodi, xorijiy valutadagi xarajatlar summasi va BYuD hamda BQD bojxonada rasmiylashtirish uchun qabul qilingan sanadagi valutalarni qayta hisoblash kursi ko'rsatilgan qayta hisoblash ma'lumotlari keltiriladi. 13-17-grafalarda hamma ma'lumotlar so'mlarda ifodalanadi.

### 13-grafa. Xaridor xarajatlari

Ushbu bo'limda xaridorning 11a-grafada ko'rsatilgan bitim narxiga kiritilmagan, ya'ni sotuvchi tomonidan xaridorga taqdim etilgan hisobvaraq-fakturaga qo'shilмаган, lekin baholanayotgan tovarlarning O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kelinishi munosabati bilan mavjud bo'lган va xaridor haqini to'lagan (yoki to'lashi lozim bo'lган) xarajatlari aks ettiriladi.

#### 13a-grafa.

Xaridor komission va boshqa vositachilik xizmatlari uchun sarflagan xarajatlar (xarid qilishga doir komission haqlaridan tashqari), agar ular ilgari bitim narxiga kiritilmagan bo'lsa, ko'rsatiladi.

Agar BQD-1 shakli bir guruhga kiradigan bir necha nomdag'i tovarlarga to'ldirilsa, unda shartnoma ushbu guruhdagi tovarlarning hammasiga yoki bir nechtafiga tegishli bo'lgan holda komission va boshqa vositachilik xizmatlari uchun sarflangan xarajatlar (xarid qilishga doir komission haqlaridan tashqari) har bir nomli tovar o'rtaida ularning 12-grafada ko'rsatilgan qiymatiga mutanosib ravishda taqsimlanadi.

Mabodo yuqorida ko'rsatilgan xarajatlarga xorijiy valutada to'langan holda so'mlarga qayta hisoblash tafsilotlari «G» ochiq katagida ko'rsatiladi.

#### 13b-grafa.

Mabodo xaridorning konteyner (tara) va o'rashga doir xarajatlari ilgari bitim narxiga kiritilmagan va TIF TNga muvofiq ular baholanayotgan tovarlar bilan bir butun sifatida ko'rib chiqiladigan bo'lsa, bu grafada shunday xarajatlar ko'rsatiladi.

Agar ko'p marta ishlataladigan taradan foydalanilsa, unda tovarning ko'p martalab yetkazib berilishidagi uning qiymati har bir guruhdagi tovarlar soniga mutanosib ravishda taqsimlanadi. Tara

uchun xarajatlarning mutanosib ravishda taqsimlanishi (ya'ni uning qiymati har bir guruhga qismlarga bo'lib o'tkazilishi) bojxona organi tomonidan bunday qoida shartnomada aks ettirilgan yoki boshqacha qandaydir hujjat bilan tasdiqlangan holdagini qabul qilinadi.

Taraning sotuvchiga qaytarilishi uchun alohida to'lanadigan summalar tara xarajatlariga kiritilmaydi.

Mabodo tara xarajatlariga xorijiy valutada to'langan bo'lsa, so'mlarga qayta hisoblash tafsilotlari «G» ochiq katagida ko'rsatiladi.

#### 14-grafa.

Ushbu band, odatda, quyidagicha hollarda to'ldiriladi:

– tovarlarning olib kelinishi pudrat shartnomasi yoki buyurtmachi (xaridor) ning materialidan tovarni tayyorlash haqidagi pudrat shartnomasi mavjud bo'lganida va bunda xaridor (bevosita yoki bilvosita, ya'ni uchinchi shaxslar orqali) sotuvchiga tovarlar va xizmatlardan baholanayotgan tovarlarni ishlab chiqarish va/yoki O'zbekiston Respublikasiga olib chiqish uchun sotish maqsadida bunday tovarlar va xizmatlarni bepul yoki pasaytirilgan narx bo'yicha berishi, shu jumladan, xaridorning sotuvchiga uskunalarini ijaraga berishi, sotuvchining buyurtmani xaridorning chizmalari bo'yicha bajarishi va hokazo;

– baholanayotgan tovarlar O'zbekiston Respublikasiga qayta ishslash shartnomalari bo'yicha va keyinchalik olib chiqib ketish sharti bilan olib kelnadi.

14a-14e-grafalarda hisobga olinadigan xarajatlarga xorijiy valutada haq to'langan hollarda ularning so'mlarga qayta hisoblanishi tafsilotlari «G» ochiq katagida ko'rsatiladi.

#### 14a-grafa.

Grafada xaridor sotuvchiga baholanayotgan tovarlarni ishlab chiqarish yoki sotish maqsadida bepul yoki kamaytirilgan qiymati bo'yicha yetkazib beradigan xomashyo, materiallar, detallar, yarim tayyor mahsulotlar va boshqa butlovchi buyumlar qiymati ko'rsatiladi.

Xaridor tomonidan bunday tovar (xizmat)larni uchinchi shaxslardan sotib olishda to'lagan narxi ularning qiymati deb hisoblanadi. Mabodo bunday tovarlar xaridorning o'zi yoki u bilan o'zaro bog'liq bo'lgan shaxs tomonidan tayyorlangan bo'lsa, unda tegishli

buxgalterlik hujatga asosan ularni tayyorlash qiymati sifatida qabul qilinadi.

Mabodo xaridor, sotuvchiga oldin foydalanilgan tovarlarni taqdim etsa, unda ularning qiymati xaridorning buxgalterlik hisob-kitob ma'lumotlariga ko'ra eskirish darajasini hisobga olgan holda belgilanadi.

Mabodo xaridor tomonidan sotuvchiga xomashyo, materiallar va butlovchi buyumlarni ishlash yoki qayta ishslash, ularni yetkazib berish, saqlash va shu kabilar yuzasidan qandaydir xizmatlar ko'rsatilgan bo'lsa, unda bunday xizmatlar qiymati (bojxona qiymatini hisob-kitob qilishda) ular xaridor tomonidan ishlab chiqarilgan yoki sotib olingan narx bo'yicha hisobga olinadi.

14b-grafa.

Grafada xaridor sotuvchiga baholanayotgan tovarlarni ishlab chiqarish yoki sotish maqsadida foydalanish uchun bepul yoki kamaytirilgan narxi bo'yicha yetkazib beradigan asboblar, shtamplar, qoliplar va boshqa shunga o'xshagan uskunalar qiymati ko'rsatiladi.

14d-grafa.

Grafada xaridor sotuvchiga baholanayotgan tovarlarni ishlab chiqarish yoki sotish maqsadida foydalanish uchun bepul yoki kamaytirilgan narxi bo'yicha bevosita yoki bilvosita yetkazib beradigan yordamchi materiallar qiymati ko'rsatiladi.

14g-grafa.

Grafada xaridorning sotuvchiga baholanayotgan tovarlarni ishlab chiqarishiда foydalanishi uchun bajaradigan va u bepul yoki kamaytirilgan narxlar bo'yicha taqdim etadigan muhandislik va tajriba-konstrukturlik ishlanmalari, dizayn, eskizlar va chizmalarining badiiy bezatilishi qiymati ko'rsatiladi. Bunday ishlar va xizmatlar ning bojxona qiymatini hisob-kitob qilishda ular xaridor tomonidan ishlab chiqarilgan yoki sotib olingan narx bo'yicha hisobga olinadi.

Bunda O'zbekiston Respublikasi hududida bajarilgan muhandislik va tajriba-konstrukturlik ishlanmalari, dizayn, eskizlar va chizmalarining badiiy bezatilishi qiymati olib kelinadigan tovarlar ning bojxona qiymatiga kiritilmaydi.

15-grafa.

15-grafada quyidagi huquqlardan foydalanganlik uchun to‘lanadigan rag‘batlantirish haqi sifatida ko‘rib chiqiladigan litsenziya va boshqa to‘lovleri so‘mlarda ko‘rsatiladi:

– olib kelinadigan tovarlar (shu jumladan, sanoat namunalari va «nou-xau» foydali modellari) ning tayyorlanishi;

– olib kelinadigan tovarlar (shu jumladan, tovar belgilari, sanoat namunalari) ning eksportga sotilishi,

– olib kelinadigan tovarlar (shu jumladan, patentlar, adabiy-badiiy yoki ilmiy asarlarga, shu jumladan, kinematografiya mahsulotlariga mualliflik huquqlari, import qilinadigan tovar bilan bir butunni tashkil etadigan ishlab chiqarish texnologiyalari) ning foydalaniishi yoki qayta sotilishi.

Litsenziya va shunga o‘xshagan to‘lovlar faqat quyidagilarga tegishli bo‘lganidagina bitim narxiga qo‘shilishi (va 9-grafada ko‘rsatilishi) lozim:

- a) baholanayotgan (olib kelinadigan) tovarga tegishli bo‘lganida;
- b) sotuvchi bilan xaridor o‘rtasida tuzilgan oldi-sotdi bitimi shartlari hisoblanganda.

Bunda xaridor bevosita sotuvchiga yoki uning foydasi uchun uchinchi shaxsga to‘lashi lozim bo‘lgan litsenziya to‘lovleri hisobga olinadi. Xaridor litsenziya to‘lovini uchinchi shaxsga to‘laydigani holda bunday to‘lov sotuvchi yoki uning nomidan ish yuritadigan shaxs talabiga ko‘ra amalga oshirilgan bo‘lishi kerak.

Tovarning O‘zbekiston Respublikasida takror ishlab chiqarilishi uchun litsenziyalar bojxona qiymatiga kiritilmaydi.

Yuqorida ko‘rsatilgan xarajatlarga xorijiy valutada haq to‘langan bo‘lsa, so‘mlarga qayta hisoblash tafsilotlari «G» ochiq katagida ko‘rsatiladi.

#### 16-grafa

Ushbu grafada xaridorning O‘zbekiston Respublikasi hududida baholanayotgan tovarlarni keyinchalik har qanday qaytadan sotish, tasarruf etish yoki foydalanimishdan oladigan daromadining shartnomaga shartlariga ko‘ra sotuvchiga qaytarilishi lozim bo‘lgan qismi hisobga olinadi.

Misol. Agar shartnomaga ko‘ra xaridor oladigan foydasining 20% ini sotuvchiga qaytarishi lozim bo‘lsa, unda foydaning shu

qismiga muvofiq bo‘lgan summa tovarlarning bojxona qiymatiga kiritilishi va u BQD-1 shaklining 16-grafasida ko‘rsatilishi lozim.

Agar bojxonada rasmiylashtirish paytda foyda summasi hali ma’lum bo‘limsa, unda oldindan taxmin qilingan (kutiladigan) summa ko‘rsatiladi (uning miqdori bojxona organi tomonidan e’tirof etilishi lozim; foydaning kutiladigan miqdorini belgilash uchun mustaqil ekspert baholanishiga yo‘l qo‘yiladi).

Foyda summasini va tegishlicha uning sotuvchiga qaytarilishi lozim bo‘lgan qismi summasining belgilashgacha tovar belgilangan tartibda xaridorning foydalanishi uchun berilishi mumkin yoki tovarning bojxonada baholanishi BQD-2 shaklini to‘ldirgan holda 2-6-usullarga ko‘ra amalga oshiriladi.

#### 17-grafa. « . gacha tashish xarajatlari»

O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kelinadigan tovarlarning bojxona qiymatini belgilashda ushbu tovari O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kelinadigan joygacha tashish yuzasidan vujudga kelgan amaldagi xarajatlarni hisobga olinadi.

Olib kelish joyi bojxona haqidagi qonunlarga muvofiq belgilandi.

BQD-1 shaklining 17-grafasida tovar amalda yetkazib beriladigan, lekin u joygacha bo‘lgan xarajatlarni yetkazib berish shartlariga muvofiq bitimning 11a-grafasida ko‘rsatilgan narxiga kiritilmagan, xaridor tomonidan haqi alohida to‘lanadigan va xarajatlari amaldagi qonunlarga binoan bojxona qiymatiga kiritilishi lozim bo‘lgan joy majburiy tartibda ko‘rsatilishi lozim.

Agar 17a-17d-grafalarda ko‘rsatiladigan xarajatlarga xorijiy valutada haq to‘langan bo‘lsa, so‘mlarga qayta hisoblash tafsilotlari «G» ochiq katagida ko‘rsatiladi.

#### 17a-grafa.

Agar tovarlarni O‘zbekiston Respublikasining bojxona hududiga olib kelinadigan joygacha tashishga doir so‘mlardagi xarajatlarni bitim shartlariga ko‘ra bitim narxiga (11a-grafa) kiritilmagan bo‘lsa, unda bunday xarajatlarni ushbu grafada ko‘rsatiladi.

Agar tashish bepul yoki xaridorning o‘z transport vositalari yordamida amalga oshirilgan bo‘lsa, unda yukni tashish paytidagi tegishli transport turida tashishga doir amaldagi tariflar asosida hisoblab chiqilgan summa bojxona qiymatiga kiritiladi.

Ushbu transport turida tashishga doir yagona tariflar haqidagi ma'lumotlar bo'Imagan holda unda transport xarajatlari hisob-kitobi uchun xarajatlarning barcha zarur moddalar yoki elementlari qo'shilgan holdagi transport xarajatlarini kalkulatsiyalashga oid buxgalterlik hisobi ma'lumotlaridan foydalanish kerak.

EXW (EWB), FAS (FAS) yetkazib berish shartlari qo'llanilganida ushbu grafa bo'yicha xaridorning tovarni eksport mamlakatidan olib chiqishidagi tovarni bojxonada rasmiylashtirish bo'yicha qilgan xarajatlari hisobga olinadi.

BQD-1 shakli bir necha turdag'i tovarlarga to'ldirilgani holda tovarlarning olib kelish joyigacha tashilishiga doir xarajatlar turli nomdagi tovarlar o'rtasida ularning salmog'iga mutanosib ravishda taqsimlanadi.

### 17b-grafa.

Agar tovarlarni O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kelgunga qadar vujudga kelgan yuklash, tushirish, qaytadan yuklash va yuqlarni tushirib, boshqasiga ortishga doir so'mlardagi xarajatlar bitim narxiga kiritilmasdan, xaridor tomonidan alohida (qo'shimcha) tarzda to'langan bo'lsa, unda bunday xarajatlar ushbu grafada ko'rsatiladi.

BQD-1 shakli bir necha turdag'i tovarlarga to'ldirilgan holda tovarlarni yuklash, tushirish, qaytadan yuklash va yuqlarni tushirib, boshqasiga ortishga doir xarajatlar turli nomdagi tovarlar o'rtasida ularning salmog'iga mutanosib ravishda taqsimlanadi.

### 17d-grafa.

Agar yuqlarni sug'urta qilishga doir so'mlardagi xarajatlar oldin bitim narxiga kiritilmasdan, xaridor tomonidan alohida (qo'shimcha) tarzda to'langan bo'lsa, unda bunday xarajatlar ushbu grafada ko'rsatiladi.

BQD-1 shakli bir necha turdag'i tovarlarga to'ldirilgan holda tovarlarni sug'urta qilishga doir xarajatlar turli nomdagi tovarlar o'rtasida ularning qiymatiga mutanosib ravishda taqsimlanadi.

### 18-grafa.

Grafada 13a, 136, 14a, 146, Mv, 14g, 15, 16, 17a, 176, 17v-grafalardagi summalar so'mlarda ko'rsatiladi.

B bo'limi. A bo'limiga kiritilgan sumlardagi hisobdan chiqariladigan summalar.

Ushbu bo‘limda tovarni O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kelgandan keyin tashishga, ya’ni olib kelingan joydan tovar yetkazib qo‘yilishi kerak bo‘lgan joygacha tashishga doir operatsiya uchun amalda sarflangan xarajatlarning bitim narxidan chiqarib tashlanishi lozim bo‘lgan summalarini bunday xarajatlar hujjatlar asosida tasdiqlangan holda ko‘rsatiladi. 19-22-grafalarda hamma ma’lumotlar so‘mlarda ko‘rsatiladi.

Agar amaldagi xarajatlar xorijiy valutada amalga oshirilgan bo‘lsa, unda «G» bo‘limida (yoki BQD-1 shakli tegishli varag‘ining orqa tomonida) B bo‘limidagi BQD grafasining raqami, «Valutalar tasnifnomasi»ga muvofiq, valuta kodi, xorijiy valutadagi xarajatlar summasi va BYuD bojxonada rasmiylashtirish uchun qabul qilingan sanadagi valatalarni qayta hisoblash kursi ko‘rsatilgan qayta hisoblash ma’lumotlari keltiriladi.

#### 19-grafa.

Ushbu grafada deklarant mabodo tovarlarni O‘zbekiston Respublikasiga olib kelgandan keyin amalga oshiradigan uskunani montaj qilish, yig‘ish, sozlash yoki texnik yordam ko‘rsatishga doir ishlar shartnomada nazarda tutilgan va hisobvaraq-fakturada tegishli summalar alohida satr bilan ajratib ko‘rsatilgan bo‘lsa, unda ushbu xarajatlarning tegishli summalarini ko‘rsatishi mumkin.

#### 20-grafa.

Tovarni O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kelgandan keyin tashishga doir xarajatlarning ular hisobvaraq - fakturada ajratib ko‘rsatilgan holda ularni bitim narxidan chiqarib tashlash uchun bunday xarajatlar deklarant tomonidan ushbu grafada ko‘rsatilishi mumkin.

Agar shartnomaga ko‘ra yetkazib berishning CIF (SIF), SRT (SPT), CIP (SIP), DAP (DAP), DAT (DAT), (tovarni O‘zbekiston Respublikasining bojxona hududi ichidagi belgilangan joygacha yetkazish holida noto‘g‘ri qo‘llanilishida, masalan, SIF-Toshkent) kabi shartlari nazarda tutilgan va binobarin, tovarni belgilangan joygacha tashish xarajatlari faktura qiymatiga kirgan bo‘lsa, unda xarajatlarning shu qismini bitim narxidan yoki ushbu xarajatlarning umumiy summasidan va transport xarajatlarining O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kelish joyigacha va shu joydan yetkazib berish joyigacha transport xarajatlarining alohida tarzdagi hisobidan

ajratish uchun ularning hisobvaraqt-fakturalar, to'lov topshiriq-nomalari, cheklarda alohida tarzda keltirilishi lozim.

Hisobvaraqt-fakturada bunday ajratib ko'rsatish bo'limganida tovari «olib kelish joyi-belgilangan punkt» oraliq ida tashishga doir xarajatlar tashishga oid xarajatlarning umumiyligi qiymatidan faqat bojxona organiga «franko-chevara» hisob-kitobi asosida belgilanadigan narx «franko - belgilangan joy» hisob-kitobi asosida belgilangan narxdan ancha kam bo'lishi mumkinligi haqida asoslangan dalillar taqdirm etilgan holidagina chiqarib tashlanishi mumkin.

## 21-grafa

Faqat shartnomaga ko'ra yetkazib berishning DDP (DDP), DEQ (DEQ) shartlari nazarda tutilgan hollar uchun olib kelish bojxonalar, bojxona yig'implari va soliqlarga doir amalda to'langan yoki to'lanishi lozim bo'lgan narxdan (hisobvaraqt-fakturadan) chiqarib tashlanadigan xarajatlar ushbu grafada ko'rsatiladi.

## 22-grafa

Bu grafada 19-21-grafalarda ko'rsatilgan summalarini qo'shish yo'li bilan olingan summa keltiriladi.

## 23a-grafa.

Bu grafada so'mlarda bayon qilinadigan bojxona qiymati ko'rsatiladi va quyidagi tarzda hisoblab chiqiladi:

12-grafa + 18-grafa - 22-grafa.

## 23b-grafa.

Bu grafada 23a-grafada bayon qilingan, shartnoma valutasida qayta hisoblangan bojxona qiymati ko'rsatiladi. Shartnoma valutasiga qayta hisoblash A bo'limida ko'rsatilgan kurs bo'yicha amalga oshiriladi. Olingan summa BYuDga bojxona to'lovlari hisob-kitob qilish uchun asos sifatida keltiriladigan ma'lumotlarga muvofiq bo'lishi lozim

Agar bitimga doir hech bir hujjat orqali xorijiy valuta turini aniqlab bo'lmasa, unda 23b-grafadagi ma'lumotlar AQSH dollarida keltiriladi.

## «G» ochiq katagi.

Bojxona qiymatining bir yoki bir necha tarkibiy qismi (13-21-grafalar) ga xorijiy valutada haq to'langanida «G» ochiq katagida grafaning tegishli raqami, xorijiy valutadagi to'lov summasi, ushbu

valutaning kodi va O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki BYuD va BQDni qabul qilish sanasida qayd qiladigan kursi ko'rsatiladi.

### **Grafalarni bojxona organi tomonidan to'ldirish.**

BQD har bir nusxasining asosiy va qo'shimcha varaqlaridagi «Bojxona qaydlari uchun» degan katakda BQDning ro'yxatdan o'tkazish raqami qo'yiladi, shuningdek, bojxona qiymatini nazorat qiladigan mansabdor shaxsning deklaratsiyani tekshirishi natijalari bo'yicha tegishli yozuv yozib qo'yiladi va u BQDni rasmiylashtiruvchi mansabdor shaxsning shaxsiy raqamli muhri va uning imzosi bilan tasdiqlanadi.

### **3. Bojxona qiymati deklaratsiyasi BKD-2 shaklini to'ldirish qoidalari**

BQD-2 shaklidagi deklaratsiya bojxona qiymatini aniqlashning 2-6 usullari qo'llanilganda (1-usuli ya'nini olib kelinayotgan tovar yuzasidan tuzilgan bitim qiymatiga qarab bojxona bahosini aniqlash va 6/1-usul orqali tovarlarning bojxona qiymatigi aniqlik kiritilmagan taqdirda) deklarant tomonidan to'ldirilib bojxona organi xodimiga taqdim qilinadi.

BQD-2 shakliga ko'ra bojxona qiymati deklaratsiyasini to'ldirish qoidalari:

Deklarant quyidagi grafalarni to'ldiradi: 1, 2a, 26, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 10a, 106, 11a, 116, 11v, 12, 13, 14, 15, 16, 17, 18, 19, 20, 21, 22, 23, 24, 25.

Deklarantning grafalarni to'ldirishi tartibi.

1, 2a, 26, 3-grafalari.

BQD-1 shaklining tegishli grafalarini to'ldirish qoidalariga muvofiq to'ldiriladi.

4-grafa.

Olib kelinadigan tovarning qiymatga oid bahosini o'z ichiga olgan yoki tovarni yetkazib berish uchun asos bo'lib hisoblanadigan hisobvaraqt-faktura yoki boshqa hujjatning raqami va sanasi keltiriladi.

Agar bunday shakl qiymatli asosda amalga oshiriladigan, lekin unga nisbatan 1-usulni qo'llab bo'lmaydigan oldi-sotdi bitimi uchun

qo'llaniladigan bo'lsa, unda ushbu grafada sotuvchi mazkur tovar uchun xaridorga taqdim etgan hisobvaraq-faktura raqami, shuningdek, shu bitimga doir shartnoma (shartnoma, bitim) raqami va sanasi yozib qo'yiladi.

Agar shakl yetkazib berilishi qiymatli asosdan boshqa negizda amalga oshiriladigan va shartli qiymatli sifatida ko'rib chiqilishi mumkin bo'lmanan tovarlarni bojxonada baholash uchun qo'llaniladigan bo'lsa, unda ushbu grafada faqat bunday yetkazib berish uchun asos bo'lib hisoblanadigan hujjatning (masalan, barterli asosdagi bitim yoki kompensatsiyali negizda yetkazib berish haqidagi bitim va shu kabilar) raqami va sanasi yozib qo'yiladi.

6-grafa.

Bojxona qiymatini belgilashda ishlatalgan usul «x» belgisi bilan qayd qilinadi, 7-grafada esa bundan oldingi usullarni qo'llab bo'lmaslikning sabablari ko'rsatiladi.

Masalan, agar 4-usul qo'llanilayotgan bo'lib, bundan oldingi 2 va 3-usullarni zarur axborotlar yo'qligi sababli qo'llanib bo'lmanan bo'lsa, unda 2 va 3-grafalarga shakl to'ldirilmaydi.

6-grafada 4-usul «x» belgisi bilan qayd etiladi va BQD-2 shakli 2-varag'inining 4-usulga tegishli grafalari to'ldiriladi.

7-grafa.

Bu grafada 6-grafada ko'rsatilgan usuldan oldingi barcha usullarni qo'llanib bo'lmaslik sabablarining qisqacha asoslari beriladi.

Masalan, 6-grafada 4-usul qayd qilingan bo'lsa, unda 7-grafada quyidagilar ko'rsatilishi mumkin:

1-usul – qo'llanib bo'lmaydi, chunki ko'rib chiqilayotgan bitim o'zaro bog'liq shaxslar o'rtasida tuzilgan va o'zaro bog'liqlik, bitim narxiga ta'sir ko'rsatgan. Bunday ta'sirning qiymatga doir bahosini berish mumkin bo'lindi;

2-usul – xuddi shuningdek tovarlar bo'yicha axborot mavjud emas (bojxona organida va deklarantda ham).

3-usul - shunga o'xshagan tovarlar bo'yicha axborot yo'q.

8-grafa.

Bu grafada 6-grafada qayd qilingan usul bo'yicha bojxona qiymatini belgilashda foydalilanilgan axborot manbalari keltiriladi.

2 va 3-usullar uchun xuddi shuningdek yoki shunga o'xshagan tovarlar bo'yicha bundan oldingi bitimlarga doir hujjatlar shunday manbalar sifatida foydalanilishi mumkin. Bunday holda bojxona organi qabul qilgan, 1-usulga ko'ra tovarlarning bojxona qiymati belgilangan BQD-1 raqami ko'rsatiladi. Deklarant shartnomasi nusxasini xuddi shuningdek, shunga o'xshagan tovarlar bo'yicha bitimlarga doir BQDni taqdim etishi mumkin.

4-usul uchun shartnomalardagi ilgari import qilingan yoki baholanayotgan tovarlarning O'zbekiston Respublikasi ichki bozorida sotilgani yoki endilikda sotilishida qo'llaniladigan narx haqidagi ma'lumotlar yoxud tovarlarning O'zbekiston Respublikasi ichki bozorida eng katta guruh bo'lib sotilganida qo'llanilgan narxni tasdiqlaydigan boshqa hujjatlar foydalanilishi mumkin.

5-usul uchun ishlab chiqaruvchining tovar qiymatini tasdiqlash uchun taqdim etgan hujjati (xarajatlar kalkulatsiyasi va shu kabilar) nomi va boshqa rekvizitlari ko'rsatiladi.

6-usul uchun bojxona qiymatini hisob-kitob qilish uchun asosiy baza sifatida foydalanilgan jahon va shartnomasi narxlari haqidagi bildirgich ma'lumotlari, bojxona organi axborot bazasi ma'lumotlari va shu kabilar, shuningdek, ko'rib chiqilayotgan bitimga doir tovarlarni 6-usul bo'yicha bojxonada baholashni amalga oshirishda qo'llanilishi mumkin bo'lgan axborot (hujjatlar) ko'rsatiladi.

Bunday holda axborot manbai zarur bo'lganida aniqlanishi va tekshirilishi mumkin bo'lishi uchun bunday manbani aniq ko'rsatish kerak bo'ladi.

Ko'rsatilgan manbalardan olingan ma'lumotlar keyinchalik A bo'limi 2-varag'ining tegishli grafasida keltiriladi.

9 va 10-grafalar.

BQD-1 shaklidagi (10b-grafa) shunga o'xshagan ma'lumotlarga qo'yiladigan talablarga muvofiq to'ldiriladi.

BQD-2 shaklining 2-varag'i.

Ushbu varaq bojxona qiymatini tanlangan baholash usuliga ko'ra (2-6) hisob-kitob qilish uchun mo'ljallangan.

Har bir varaqda tovarning uch turi bo'yicha ma'lumotlar keltirilishi mumkin.

Varaqlar quyidagi tarzda raqamlanadi: har bir qo'shimcha varaqda tartib raqami va BQD-2 shakliga uni ro'yxatdan o'tkazishda berilgan raqam ko'rsatiladi.

«Tovar N» grafalarida BYuD yoki unga qo'shimcha varaqning shunga o'xshagan grafasiga muvofiq tovar raqami va TIF TN bo'yicha tovar kodi ko'rsatiladi.

A bo'limi. «Hisob-kitob uchun asos».

Hisob-kitobning tanlangan usuliga ko'ra 11a, 11b, 11 d-grafalaridan biri to'ldirilib, unda 8-grafada ko'rsatilgan manbadan olingan ma'lumotlar bundan keyingi hisob-kitoblar (shu jumladan, o'zgartirishlar) amalga oshirilishi uchun asos bo'ladigan qiymat (narx) ning asosiy miqdori bo'yicha keltirilishi kerak bo'ladi.

B bo'limi. «Narxga o'zgartirishlar».

Ushbu bo'limda 11a, 11b, 11d-grafalarida ko'rsatilgan narxga o'zgartirishlar keltiriladi

O'zgartirish agar u narxni oshiradigan bo'lsa, (+) belgisi, agar narxni kamaytiradigan bo'lsa, (-) belgisi bilan ko'rsatilishi mumkin.

12-grafa.

Tovarlar guruhi miqdoriga o'zgartirishlar qilishda bиринчи navbatda narxga sotuvchi sotib olinadigan tovar guruhi miqdoriga qarab taqdim etadigan chegirmalar hisobga olinadi. Bunda tovarga narx sotuvchi tomonidan sotiladigan tovar soniga asoslangan sxemaga muvofiq belgilanishi ko'rsatilgan hollarda miqdoriy chegirma hisobga olinadi.

13-grafa.

Tijorat shartlariga o'zgartirishlarda taqjqlanadigan tovarlarni (SIF, FOB, DAF va shu kabilar) yetkazib berish shartlaridagi farq, shuningdek, tijorat shartlaridagi boshqa farqlar (masalan, sotuvchiga «sadoqat» uchun chegirma, ulgurji, chakana savdoning turli tijorat darajalari, vositachilik bug'lnlari soni) hisobga olinadi.

14-grafa.

(+, -) belgilari hisobga olingan holdagi o'zgartirishlarning umumiyligi summasi keltiriladi.

15-grafa.

O'zgartirishlar natijalari hisobga olingan holda hisoblab chiqilgan bitim narxi, ya'nini 11a, 11b, 11d va 14-grafalar yakuni keltiriladi. 11b va 11d-grafalarda har bir narxi ko'rsatilgan, shu hollarda

tovarning butun guruhi uchun qayta hisoblashni amalga oshirish lozim.

V bo'limi 15-grafaga qo'shimcha hisoblanmalar (+) va chegirmalar (-).

Ushbu bo'limda xarajatlarning bitim narxiga kirmagan, lekin bojxona qiymatida hisobga olinishi lozim bo'lgan elementlar va O'zbekiston Respublikasi ichki bozoridagi tovarning «sotish» narxida hisobga olingan va bojxona qiymatidan chiqarib tashlanishi lozim bo'lgan elementlarga doir ma'lumotlar keltiriladi.

Deklarant faqat o'zi qo'llanadigan hisob-kitob usuliga muvofiq, keladigan va baholanayotgan tovarlarga tegishli pozitsiyalarga doir grafalarni to'ldiradi.

24-grafa.

Tegishlichcha (+) yoki (-) belgisi bilan qiymatning qo'shimcha elementlari bo'yicha yakun keltiriladi.

25a, 25b-grafalar. «Bayon qilingan bojxona qiymati».

Grafalarda ushbu Yo'riqnomaga muvofiq BQD-2 shakli ma'lumotlari bo'yicha belgilangan bojxona qiymati qo'yildi: 25a-grafada – so'mlarda, 25b-grafada – shartnoma valutasida ko'rsatiladi. Agar bitimga doir hech bir hujjat orqali xorijiy valuta turini aniqlab bo'lmasa, unda 25b-grafada ma'lumotlar AQSH dollarida keltiriladi.

Quyida Bojxona qiymati deklaratsiyasi (BQD-2)ni asosiy va qo'shimcha varaqlarining elektron shakli namunasi keltirilmoqda.

1	Государственный таможенный комитет Республики Узбекистан	Декларации таможенной стоимости Форма ДТС-2 Мем. 234 б
	1 Продавец	Страховой номер ГТД
	2 (а). Покупатель	Для отметок таможни
	2 (б). Декларант	
1	<p><b>Внимание!</b>            В соответствии с законодательством декларант несет ответственность за все сведения, указанные в форме и в документах, представляемых им в подтверждение таможенной стоимости. В процессе таможенного оформления декларант обязан своевременно представить таможенному органу дополнительные сведения подтверждающие заявленную таможенную стоимость.</p>	3. Условия поставки:
	5. Номер и дата решения таможенного органа	Нужно отметить знаком X
	6. Таможенная стоимость оцениваемых товаров определяется:	
	а) по цене сделки с идентичными товарами (метод 2); б) по цене сделки с аналогичными товарами (метод 3); в) вычитанием стоимости (метод 4); г) сложением стоимости (метод 5); д) резервным методом (метод 6).	
	7. Обоснуйте выбор метода оценки, указав, почему предшествующие методы неприменимы	
	8. Укажите источники информации, использованные для обоснования таможенной стоимости	
	9. Число дополнительных листов, приложенных к форме ДТС-2	
	10. б. Должность лица, подавшего декларацию	
10 а	Подпись	Фамилия, имя и отчество
	и печать	Телефон
	Место	

(нотатка на русском языке).

		Лист..... форма ДТС-2		
Справочный номер ГТД 1 Пло отмечки таможни		Номер товара	Номер товара	Номер товара
		Код товара	Код товара	Код товара
Расчет таможенной стоимости				
А Основа для расчета № и дата соответ- ствую- щего решения таможен- ного органа №	11(а) Цена сделки по идентичным аналогичным товарам: а) в валюте товара; б) в сумах (для методов 2,3,6)			
	Код валюты	Курс пересчета		
Б Коррек- тирошки к цене (+ -) суммы	11(б) Цена единицы товара, по которой определяемые идентичные или аналогичные товары были проданы на территории Республики Узбекистан наибольшей партией по- купателю не являющемуся взаимоза- висимым с продавцом (в сумах) .... (для методов 4,6)			
	11(а) Рассчитанная стоимость вво- зимых товаров, определенная сложе- нием стоимости составляющих ее элементов (в сумах) .... (для методов 5,6)			
	12. Корректировка на размер партии (+ -)			
	13. Корректировка на коммерческие условия (+ -)			
	14. Итого сумма корректировок (+ -) сум.			
В Допол- нитель- ные на- числе- ния (+) и вычеты (*) сум	15. Цена сделки (стоимость) с учетом корректировок (гр 11а + гр 14)			
	16. Стоимость транспортировки (+)			
	17. Стоимость погрузки, выгрузки и обработки (+)			
	18. Стоимость страхования (+)			
	19. Комиссионные и другие посреднические расходы в связи с ввозом (+)			
	20. Прибыль, комиссионные и торговые нацен- ки в связи с продажей на внутреннем рынке (*)			
	21. Стоимость дополнительной обработки или переработки ввозимых товаров (*)			
	22. Таможенные пошлины, налоги, сборы и другие внутренние платежи (+)			
	23. Прочие расходы и платежи, связанные с продажей на внутреннем рынке (-)			
	24. Итого В			
25. Заявленная таможенная стоимость (15 +, - 24) 1) в суммах 2) в валюте контракта				
Напечатать и поставить декларанта:				

(namuna nusxasi).

## Grafalarni bojxona organlari tomonidan to'ldirish tartibi

BQD har bir nusxasining asosiy va qo'shimcha varaqlaridagi «Bojxona qaydlari uchun» degan katakda BYuD raqamiga muvofiq keladigan BQDmng ro'yxatdan o'tkazish raqami qo'shladi. Bojxona qiymatini nazorat qiladigan mansabdar shaxs deklaratsiyani tekshirish natijalari bo'yicha tegishli yozuv yozib qo'yiladi va rasmiylashtiruvchini shaxsiy raqamli muhri va uning imzosi bilan tasdiqdanadi.

Bu ustunlarning to'ldirilishi quyidagi tarzda amalga oshiriladi:

– barcha asosiy va qo'shimcha varaqlarda BQDning ro'yxatdan o'tkazish raqami (to'laligicha), deklaratsiyani tekshiradigan mansabdar shaxsning shaxsiy raqamli muhri va uning imzosi qo'yiladi,

– varaqning o'ng tomonida, bundan oldingi xatboshisida sanab o'tilganlaridan tashqari, quyidagi ma'lumotlar ham ko'rsatilishi kerak, bojxona qiymatini nazorat qilish natijalariga va tovarni deklarant (xaridor)ga foydalanish uchun taqdim etish shakliga doir qaror.

Bojxona organinmg baholanayotgan tovarlar bojxona qiymatiga tegishli qarori haqidagi yozuv quyidagi tarzda yozib qo'yiladi:

a) agar bojxona organiga deklarant bayon qilgan bojxona qiymati yuzasidan mulohazalar bo'lmasa, «BQ qabul qilindi» deb ko'rsatiladi;

b) agar deklarant ma'lumotlarni to'liq hajmda taqdim etmagan bo'lsa yoki bojxona organida taqdim qilingan ma'lumotlar bo'yicha mulohazalar mavjud bo'lsa va belgilangan tartibda qo'shimcha tekshirish o'tkaziladigan hamda tovarlar deklarantga foydalanish uchun berilganidan keyin belgilangan shakklardan biri bo'yicha aniqlashtirish o'tkaziladigan bo'lsa, unda tovarning deklarantga foydalanish uchun berilishi shakliga muvofiq yozuv yozib qo'yiladi.

Bunday yozuv bojxona organining BQDning tekshirilishi va rasmiylashtirilishini amalga oshiradigan mansabdar shaxsi tomonidan yoziladi.

Shunga o'xshagan yozuv bojxona organining tovar chiqarib yuborilishini amalga oshiradigan mansabdar shaxsi tomonidan BYuD tegishli ustunida ham yoziladi.

## Nazorat uchun savollar

1. Bojxona qiymati deklaratsiyasini tushuntirib bering?
2. Bojxona qiymati deklaratsiyasining birinchi varag‘im to‘ldirilish taribini izohlang?
3. Bojxona qiymati deklaratsiyasining ikkinchi varag‘i to‘ldirilish tartibi qanday?

## Foydalanaligan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksi.
2. O‘zbekiston Respublikasining «Davlat bojxona xizmati to‘g‘risida»gi qonuni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 30-sentabrdagi «Eksport-import operatsiyalari monitoringini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 416-sonli qarori
4. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan 1998-yil 13-yanvarda 390-son bilan ro‘yxatdan o‘tgan «O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kelinadigan tovarlarning bojxona qiymatini belgilash bo‘yicha Yo‘riqnomasi».
5. O‘zbekiston Respublikası Adliya vazirligidan 1998-yil 13-yanvarda 391-son bilan ro‘yxatdan o‘tgan «Bojxona qiymati deklaratsiyasini to‘ldirish tartibi».
6. O‘zbekiston Respublikası Adliya vazirligidan 2000-yil 22-fevralda 899-son bilan ro‘yxatga olingan «O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kelinadigan tovarlarga bojxona qiymatini belgilash va uni nazorat qilish tartibi».
7. Davlat bojxona qo‘mitasining 2010-yil 12-apreldagi «Import qilinayotgan tovarlarning bojxona qiymatini belgilanishini DBQ Yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimi asosida nazorat qilish bo‘yicha Vaqtinchalik yo‘riqnomasi»ni amaliyatga kiritish to‘g‘risida 92-sonli buyrug‘i.

## **XI BOB. BOJXONA QIYMATINI O'ZGARTIRISH DEKLARASTIYASI VA UNI TO'LDIRISH TARTIBI**

**Reja:**

- 1. Bojxona qiymatini o'zgartirishning mohiyati.**
- 2. Bojxona qiymatini o'zgartirish deklaratsiyasini to'ldirish tartibi.**
- 3. Tekshiruvlar natijasida aniqlangan, qo'shimcha hisoblangan bojxona to'lovlarini undirish.**

### **1. Bojxona qiymatini o'zgartirishning mohiyati**

Bojxona kodeksining 320-moddasiga asosan tovarning bojxona qiymatiga va bojxona to'lovlariga tuzatishlar kiritish quyidagi hollarda amalga oshirilishi mumkin:

- bojxona rasmiy lashtiruvi vaqtida;
- tovar chiqarib yuborilganidan keyin.

Bojxona rasmiy lashtiruvi amalga oshirilayotganda tovarning bojxona qiymatiga va bojxona to'lovlariga quyidagi hollarda tuzatishlar kiritiladi, agar.

– deklarant yoki bojxona brokeri tomonidan ma'lum qilingan tovarning bojxona qiymatini aniqlash usuli va miqdori ularni tasdiqlash uchun taqdim etilgan hujjalarga mos emasligi aniqlangan bo'lsa,

– bojxona qiymati deklaratsiyasida tovarning ma'lum qilingan bojxona qiymati va bojxona to'lovları miqdoriga ta'sir etgan texnik xatolar aniqlangan bo'lsa.

Tovar chiqarib yuborilganidan keyin uning bojxona qiymatiga va bojxona to'lovlariga quyidagi hollarda tuzatishlar kiritiladi, agar:

– shartli chiqarib yuborilgan tovarga nisbatan uning uzil-kesil bojxona qiymati deklarantning yoki bojxona brokerining qo'shimcha axboroti asosida aniqlansa, yoxud deklarant yoki bojxona brokeri bojxona organi tomonidan aniqlangan bojxona qiymatini qabul qilsa;

– tovarni deklaratsiyalashda sodir etilgan, tovarning bojxona qiymatining va bojxona to'lovlarining miqdoriga ta'sir ko'rsatgan texnik xatolar aniqlangan bo'lsa;

– hujjatlarning keyingi tekshiruviga paytida tovarning bojxona qiymatiga va bojxona to'lovlarining miqdoriga ta'sir ko'rsatgan noto'g'ri deklaratsiyalash aniqlangan bo'lsa;

– ma'lum qilingan bojxona qiymatining bojxona hududiga olib kirilgan yoki ushbu hududdan olib chiqilgan tovarning miqdori va sifati kontrakt shartlaridan chetga chiqishi tufayli tovarning haqiqiy qiymatiga mos emasligi bojxona deklaratsiyasini qabul qilish sanasida aniqlangan bo'lsa. Bojxona ko'zdan kechiruvি dalolatnomasi, shuningdek, kontrakt taraflari o'ttasida kelishilgan, bojxona to'lovleri undirilmaydigan tovar bo'yicha – tovarning miqdoriga oid e'tiroz yoki bojxona to'lovleri undiriladigan tovarlar bo'yicha – ekspertiza xulosasi tovarning mos emasligini tasdiqlovchi hujjatlar hisoblanadi;

– bojxona to'lovlarining summalarini qaytarilishiga yoki qo'shimcha to'lanishiga olib keladigan yoki tovarning bojxona qiymati miqdoriga ta'sir ko'rsatgan boshqa asoslar yuzaga kelgan bo'lsa.

Agar tovarning bojxona qiymatiga va bojxona to'lovlariga tuzatishlar kiritish bojxona to'lovlarini to'lash bo'yicha qarzdorlikning paydo bo'lishiga olib kelgan bo'lsa, ana shu qarzdorlik summasiga penya hisoblanadi

Tovarning bojxona qiymatiga va bojxona to'lovlariga tuzatishlar kiritish qaysi tovarning bojxona qiymatiga va (yoki) bojxona to'lovlariga tuzatishlar kiritilayotgan bo'lsa, faqatgina o'sha tovarga nisbatan amalgalashiriladi.

Tovarning bojxona qiymatiga va bojxona to'lovlariga tuzatishlar kiritish deklarant yoki bojxona brokeri tomonidan bojxona organiga tovarning bojxona qiymatiga va bojxona to'lovlariga tuzatishlar kiritish shaklini taqdim etish orqali ma'lum qilinadi, bu shakl bojxona deklaratsiyasining ajralmas qismi bo'lib, uning ma'lumotlariga tovarning bojxona qiymati va bojxona to'lovleri bo'yicha tuzatishlar kiritiladi.

Agar deklarant yoki bojxona brokeri bojxona organi tomonidan tovarning bojxona qiymatiga va bojxona to'lovlariga kiritilgan tuzatishlarga rozi bo'lmasa, u tovarning bojxona qiymatiga va

bojxona to'lovlariga tuzatishlar kiritishning bojxona organi tomonidan qayta hisob-kitob qilingan tovarlarning bojxona qiymati va bojxona to'lovları ko'rsatilgan shaklini imzolamaslikka haqli. Bu hollarda deklarant yoki bojxona brokeri tovarning bojxona qiymatiga va bojxona to'lovlariga tuzatishlar kiritish sabablarini tushuntirib berishni bojxona organidan talab qilish huquqiga ega.

Deklarant yoki bojxona brokeri tomonidan bojxona organiga so'rov yuborilishi deklarantni yoki bojxona brokerini bojxona to'lovlarini to'lashdan ozod etmaydi.

Tovarning bojxona qiymatiga va bojxona to'lovlariga tuzatishlar kiritish shakli, shuningdek, uni to'ldirish tartibi O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi tomonidan belgilanadi.

Bojxona rasmiylashtiruvu uchun hujatlar qabul qilinganidan keyin bojxona organi tomonidan tovarning bojxona qiymatiga va bojxona to'lovlariga tuzatishlar kiritilishi ustidan deklarant yoki bojxona brokeri belgilangan tartibda shikoyat qilishi mumkin.

Bojxona qiymatini o'zgartirish O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan 2000-yil 20-fevralda 920-raqam bilan ro'yxatga olingan «Bojxona qiymatini o'zgartirish bo'yicha KTS-1 va KTS-2 deklaratsiya shakllarini to'ldirish tartibi bo'yicha yo'riqnomasi» asosida amalga oshiriladi

Yo'riqnomasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007-yil 19-sentabrdagi 198-sonli qarori bilan tasdiqlangan «O'zbekiston Respublikasining bojxona hududidan olib chiqilayotgan tovarlarning bojxona qiymatini belgalash va deklaratsiyalash tartibi to'g'risida»gi Nizom, «O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kelinayotgan tovarlarning bojxona qiymatini belgilash to'g'risida»gi Yo'riqnomasi (*Adliya vazirligidan 13.01.1998 y. 390-son bilan ro'yxatdan o'tgan*) va «Bojxona qiymati deklaratsiyasini to'ldirish tartibi» (*Adliya vazirligidan 13.01.1998 y. 391-son bilan ro'yxatdan o'tgan*)ga muvofiq KTS-1 va KTS-2 bojxona qiymatini o'zgartirish deklaratsiyasini to'ldirish tartibini va O'zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqilayotgan va O'zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib kirilayotgan tovarga bog'liq bojxona to'lovildari miqdori va/yoki tovarlarning bojxona qiymatini o'zgartirish qoidalarini belgilaydi.

Yuqoridagi deklaratsiyalar BYuD ning tarkibiy qismi hisoblanib, bojxona to'lovlari va/yoki bojxona qiymatidagi ma'lumotlarga ko'ra o'zgartiriladi.

Bojxona qiymatini o'zgartirishning to'liq shakli KTS-1 ning **asosiy** shakli, qo'shimcha har ikkita tovarga KTS-2 qo'shimcha deklaratsiyasining 6 ta tikilgan to'plam varag'idan iborat. KTS-1 va KTS-2 varaqlari BYuD varaqlariga mos taqsimlanadi.

Agar bojxona rasmiylashtiruvni elektron shaklda amalga oshirilayotganda, elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan holda KTS-1 va KTS-2 shakllari elektron ko'rinishda «Tovarlarni elektron deklaratsiyalash» AATga kiritish yo'li bilan bojxona organiga taqdim etiladi.

Bir yoki bir nechta nomdagagi (TIF TN asosida barcha 10ta raqam darajasida bir xil klassifikatsiyalanadigan) tovarlar, agar aynan o'sha bojxona rejimi o'matilgan bo'lsa, ushbu tovarlarning ko'rsatkichlarini o'zgartirish to'g'risidagi ma'lumotlarni ko'rsatish uchun KTS-1 asosiy varag'i ishlataladi. Asosiy varaqni to'ldirish umumiyligida qoidalari BYuD grafalarini to'ldirish qoidalariga muvofiq ravishda bo'ladi.

Bir necha nomdagagi tovarlar ko'rsatkichlarini o'zgartirishda KTS-2 qo'shimcha varag'i ishlataladi, har bir qo'shimcha varaqda yana 2 ta qo'shimcha tovar ma'lumotlarini o'zgartirish imkonini beradi. KTS-2 varaqni to'ldirish qoidalari KTS-1 asosiy varag'ini to'ldirish qoidalariga muvofiq ravishda to'ldiriladi.



Quyidagi hollarda ko'rsatkichlarni o'zgartirish amalga oshirilishi mumkin:

- bojxona rasmiylashtiruvni jarayonida;
- tovari erkin muomalaga chiqargandan keyin yoki O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasidan olib chiqqandan so'ng va shuningdek, konsignatsiya talablarini bajarishda.

**Bojxona rasmiylashtiruvni paytida** ko'rsatkichlarni o'zgartirish quyidagicha amalga oshirilishi mumkin:

- taqdim etilgan bojxona qiymatining miqdoriga ta'sir qilgan DTS-1 va DTS-2 shakllaridagi texnik xatolar (arifmetik xatolar, shu

jumladan, valuta kursini qayta hisoblash kabilar) aniqlangandan keyin,

– bojxona qiymatini aniqlashda deklarant e'lon qilgan usul, tasdiqlanishi uchun taqdim qilgan bojxona qiymati hujatlari tuzilish va/yoki miqdori bojxona nazorati jarayonida nomuvofiqligi aniqlanganda, natijada bojxona qiymati miqdorini o'zgartirish, ya'ni narxlarni haqiqatan to'langan yoki to'lanishi lozim bo'lgan(DTS-1shaklini A bo'limi) yoki unga qo'shimcha undirishlar (DTS-1shaklini B bo'limi) va chegiruvlarni (DTS-1shaklini D bo'limi) aniqlash amalga oshirilganda;

– deklarant tomonidan e'lon qilgan bojxona qiymati bojxona organlari tomonidan qabul qilinmagan hollarda tovarni uning egasi (deklarant)ga vaqtinchalik (shartli) bojxona qiymati bahosida qo'l-lash bilan foydalanishga taqdim qilish to'g'risida qarorni bojxona organlari qabul qilganda.

**Tovarni erkin muomalaga chiqargandan keyin yoki O'zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqarilgandan keyin ko'rsatkichlarni o'zgartirish amalga oshirilishi mumkin:**

– bojxona qiymati tarkibi va/yoki miqdoriga ta'sir qilgan va tovarni deklaratasiyalashda yo'l qo'ilgan texnik xatolar aniqlanganda;

– olib kirilgan va olib chiqilgan tovarlarning hajmi yoki sifati shartnomada ko'rsatilgan shartlariga to'g'ri kelmasligi tufayli, bojxona deklaratasiyasi qabul qilinishi kerak bo'lgan sanada taqdim qilingan bojxona qiymatining tovar narxiga to'g'ri kelmasligi aniqlangan hollarda;

– bojxona to'lovlarining undirilishi lozim bo'lgan miqdori o'zgargan hollarda. Bunday hollarda hududiy bojxona boshqarmalarida BYuDga o'zgartirish kiritish, qayta rasmiylashtirish va bekor qilishni ko'rib chiquvchi (*Adliya vazirligida 24.09.2010y. 2143-sod bilan ro'yxatdan o'tgan*) doimiy faoliyat yurituvchi komissiya xulosasi bojxona qiymatini o'zgartirishga asos bo'ladi;

Agar bojxona organi tomonidan o'zgartirishga deklarant norozi bo'lгanda, KTS-1 shaklini imzolamaslikka haqli. Bunda 50-grafa to'lidirilmaydi.

Bunda bojxona organidan bojxona qiymatini o'zgartirish sabablarini tushuntirish berishni deklarant yozma ravishda so'rashi mumkin.

Deklarant tomonidan yozma so‘rovni bojxona organiga berilishi deklarantni bojxona to‘lovlarini to‘lashdan ozod qilmaydi.

## 2. Bojxona qiymatini o‘zgartirish deklaratsiyasini to‘ldirish tartibi

Bojxona qiymatini o‘zgartirish deklaratsiyasi asosiy varag‘i KTS -1 dan va uning qo‘sishimcha varag‘i bo‘lgan KTS -2 dan iborat bo‘lib uni to‘ldirish tartibi qo‘yidagiicha:

☞ Deklarant tomonidan bojxona qiymatini o‘zgartirish deklaratsiyasining 1, 2, 3, 5, 7, 8, 12, 13, 14, 20, 22, 23, 24, 31, 32, 33, 34, 35, 37, 38, 41, 42, 44, 45, 46, 47, 54- grafalari to‘ldiriladi.

Bojxona qiymatini o‘zgartirish deklaratsiyasining 2, 7, 8, 24, 31, 32, 33, 35, 41-grafalaridi Bojxona yuk deklaratsiyasi (BYuD) ning tegishli grafalaridagi ma’lumotlar takrorlanadi.

Bojxona organları tomonidan A, 43, C, D grafalari to‘ldiriladi.

Qolgan grafalar quyidagi shaklda to‘ldiriladi:

### 1-grafa. «O‘zgartirish tipi»

1-grafaning chap bo‘limiga bojxona qiymatini o‘zgartirishning 6 ta sondan iborat kodi quyidagiicha ko‘rinishda yoziladi: X/XXXX/X.

**Birinchi son** bojxona qiymatini o‘zgartirish qaysi bosqichda amalga oshirilaytganini ko‘rsatadi:

1 - bojxona rasmiylashtiruvini amalga oshirish jarayonida o‘zgartirish kiritilayotganda;

3 - tovarlar erkin muomalaga chiqarilgandan so‘ng yoki tovar O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqilgandan so‘ng o‘zgartirish kiritilayotganda qo‘yiladi.

**Ikkidan beshgacha sonlar** bojxona qiymatini o‘zgartirish sababini ko‘rsatadi.

Bu blokda qaysidir quyida ko‘rsatilganlardan yo‘q bo‘lsa, uning o‘rniga nol qo‘yiladi.

**Ikkinchi son:**

1 - BQD-1ni «A» bo‘limi yoki BQD-2ni «A» va «B» bo‘limidagi bojxona qiymati miqdoriga ta’sir qilgan texnik xatolar bo‘lganda;

2 - BQD-1ni «A» yoki BQD-2ni «A» va «B» bo‘limidagi ma’lumotlarni o‘zgartirish;

Texnik va mazmun xatolari bir vaqtida aniqlangan hollarda «2» raqamini ko‘rsatish kerak.

Uchinchi son (qo‘sishimcha hisoblashlar bilan bog‘liq ma’lumotlar o‘zgartirilayotganda):

1 - texnik xato sababli BQD-1 ning «B» bo‘limi yoki BQD-2 ning «V» bo‘limi o‘zgartirilayotganda;

2 - BQD-1 ning «B» bo‘limi yoki BQD-2 ning «V» bo‘limidagi ma’lumotlar qo‘sishimcha hisoblashlar asosida o‘zgartirilsa.

To‘rtinchi son (bitim qiymatidan chegirmalar o‘zgartirilayotganida texnik xato sababli);

1 - BQD-1 ning «V» bo‘limi yoki BQD-2 ning «V» bo‘limi o‘zgartirilayotganida,

2 - BQD-1 ning «V» bo‘limi yoki BQD-2 ning «V» bo‘limidagi ma’lumotlar ruxsat etilgan chegirmalar asosida o‘zgartirilayotganida.

Beshinchi son (boshqa sabablarga ko‘ra o‘zgartirilayotganida)-

1 - tovar sifatsiz yoki kam bo‘lganda;

2 - bojxona organlari tomonidan navbatdagi hujjat tekshiruvi asosida o‘zgartirilayotganida;

3 - boshqa sabablarda.

**Oltinchi son** (bojxona qiymati o‘zgartirilishining tugallashini ko‘rsatadi):

1 - bojxona qiymati vaqtincha (shartli) o‘zgartirilishi sababli o‘zgartirilganda;

2 - yakuniy bojxona bahosi bilan bog‘liq bojxona qiymati o‘zgartirilganda.

Masalan: 1/1020/2 raqamlari:

– o‘zgartirish bojxona rasmiylashtiruvi paytida amalga oshirilganligi;

– o‘zgartirish sabablari bo‘lib BQD-2 ning «A» yoki «A» va «B» bo‘limlaridagi texnik xatolar hisoblanishi;

– o‘zgartirish paytida BQD-1 ning «V» yoki BQD-2 ning «V» bo‘limlaridagi ma’lumotlar oydinlashlashtirilganligi;

– bojxona qiymatining yakuniy hisoblanishi bilan bog'liq o'zgartirilish amalga oshirildi.

Grafaning o'ng bo'limida BYuD 1-grafasi 2-qismidagi bojxona rejimining raqamli kodi ko'rsatiladi.

### 3-grafa. «Qushimcha varaqlar»

KTS-2 shakli ishlataliganda to'ldiriladi. BYuD mos keluvchi grafasi kabi to'ldiriladi.

### 5-grafa. «Jami tovarlarning nomlanishi»

Bojxona qiymati va bojxona to'lovlari o'zgartirilayotgan tovarlar nomining umumiyligi miqdori yozilib, u KTS-1 va KTS-2 shaklini 31-grafalaridagi tovarlar nomining miqdori bilan teng bo'lishi kerak.

### 12-grafa. «Umumiy bojxona qiymati»

Chap bo'limida o'zgartirilgan bojxona qiymati ko'rsatiladi. Bunda:

– KTS-1 va KTS-2 larning 45-grafalari chap bo'limining o'zgartirilgan bojxona qiymatlari yig'indisi hamda va BYuD ning TD-1 asosiy va TD-2 qo'shimcha varaqlarining 45-grafalaridagi qolgan tovarlar (o'zgartirilmagan tovarlar) bojxona qiymatlari yig'indisining umumiyligi summasi yoziladi.

O'ng bo'limida:

– bojxona qiymati birinchi marotaba o'zgartirilayotgan bo'lsa, BYuD ning TD-1 asosiy varagi 12- grafadagi ma'lumot;

– agar bojxona qiymati oldin ham o'zgartirilgan bo'lsa, avvalgi KTS-1 ning chap bo'limidagi ma'lumot yoziladi.

### 13-grafa.

Bojxona qiymati AQSH dollarining kursiga aniqlik kiritilishi munosabati bilan o'zgartirilayotgan bulsa, AQSH dollarining Markaziy bankning BYuD qabul qilingan kundagi O'zbekiston Respublikasi so'miga nisbatan kursi, aks holda BYuD mos katagidagi ma'lumot takrorlab yoziladi.

14, 15a, 32-grafalarga BYuD mos grafalaridagi ma'lumotlar yoziladi.

### **15-grafa. «Jo'natuvchi mamlakat»**

Bojxona qiymati tovarlarning jo'natish mamlakati aniqlanishi sababi o'zgartirilayotgan bo'lsa, tovarlarning aniqlangan jo natish mamlakati yoziladi, aks holda BYuD ning mos grafasidagi ma'lumot takrorlab yoziladi.

### **16-grafa «Kelib chiqish mamlakati»**

Bojxona qiymati tovarlarning kelib chiqish mamlakatiga aniqlik kiritilishi sababli o'zgartirilayotgan bo'lsa, tovarlarning aniqlangan kelib chiqishi mamlakati yoziladi, aks holda BYuD ning mos grafasidagi ma'lumot takrorlab yoziladi.

### **20-grafa. «Yetkazib berish shartlari»**

Bojxona qiymati tovarlarning yetkazib berish shartining aniqlanishi sababli o'zgartirilayotgan bo'lsa, tovarlarning aniqlangan yetkazib berish shartlari yoziladi. Bunda birinchi bo'limda yetkazib berish shartini kodi, o'ng bo'limda yetkazib berish shartining qisqa harfli nomi yoziladi, aks holda BYuD ning mos grafasidagi ma'lumot takrorlab yoziladi.

### **22-grafa. «Valuta va tovarlarning umumiyl faktura qiymati»**

Bojxona qiymati faktura qiymatining aniqlanishi sababli o'zgatirilayotgan bo'lsa, tovarlarning aniqlangan faktura qiymati yoziladi, aks holda BYuD ning mos grafasidagi ma'lumot takrorlab yoziladi.

### **23-grafa. «Valuta kursi»**

22-grafa chap bo'limidagi valuta kursiga aniqlik kiritilishi munosabati bilan bojxona qiymati o'zgartirilayotgan bo'lsa, ushbu grafada e'lon qilingan faktura qiymati valutasi kursini Markaziy bankning BYuD qabul qilingan kundagi O'zbekiston Respublikasi so'miga nisbatan kursi yoziladi, aks holda BYuD mos grafasidagi ma'lumot takrorlab yoziladi.

### **34-grafa «Kelib chiqish mamlakatining kodи»**

Bojxona qiymati va/yoki bojxona to'lovlari tovarlarning kelib chiqish mamlakati kodiga aniqlik kiritilishi sababli o'zgartirilayotgan bo'lsa, tovarlarning aniqlangan kelib chiqish mamlakati kodи

yoziladi, aks holda BYuD mos grafasidagi ma'lumot takrorlab yoziladi.

### 37-grafa. «**Prosedura**»

Bojxona qiymati va/yoki bojxona to'lovlari tovarlarning prosedura kodiga aniqlik kiritilishi sabali o'zgartirilayotgan bo'lsa, aniqlangan prosedura kodi yoziladi, aks holda BYuD ning mos grafasidagi ma'lumot takrorlab yoziladi.

### 38-grafa. «**Netto og'irlilik**»

Bojxona qiymati tovarlarning netto og'irligiga aniqlik kiritilishi sabali o'zgartirilayotgan bo'lsa, hujjatlar bilan tasdiqlangan aniqlangan birlamchi qadoqlanishini (iste'molgacha ajralmas qismi bo'lgan) hisobga olgan holda tovarlarning sof og'irligi yoziladi, aks holda BYuD ning mos grafasidagi ma'lumot takrorlab yoziladi.

### 42-grafa. «**Tovarning faktura qiymati**»

Bojxona qiymati faktura qiymatining aniqlanishi sababli o'zgartirilayotgan bo'lsa, tovarning aniqlangan faktura qiymati yoziladi, aks holda BYuD ning mos grafasidagi ma'lumot takrorlab yoziladi.

### 44-grafa. «**Qo'shimcha ma'lumotlar/taqdim qilingan hujjatlar**»

Ushbu grafa bojxona qiymati va/yoki bojxona to'lovlari o'zgartirilishi jarayonida deklarant tomonidan qo'shimcha ma'lumot beruvchi hujjatlar (shartnomaga qo'shimchalar, qo'shimcha kelishuvlar, bojxona organining ruxsatnomalari va boshqalar) taqdim etilgan hollarda to'ldiriladi. Grafam to'ldirish BYuD ning 44-grafasini to'ldirish kabibi amalga oshiriladi.

### 45-grafa. «**Tovarning bojxona qiymati**»

Chap bo'limida 31-grafadagi tovarning shartnomaga valutasidagi o'zgartirilagan bojxona qiymati ko'rsatiladi.

O'ng bo'limda esa, bojxona qiymati birinchi marta o'tkazilayotgan bo'lsa, BYuD mos grafasidagi raqam ko'rsatiladi. Agar avval o'zgartirish kiritilgan bo'lib, qayta o'gartirilayotgan bo'lsa oldingi KTSning mos grafasi chap bo'limidagi raqam ko'rsatiladi.

#### **46-grafa. «Statistik qiymati»**

Agar bojxona qiymati o'zgarilishi vaqtincha(shartli) ravishda o'zgartirilayotgan bo'lsa, ushbu grafa to'ldirilmaydi.

Olib chiqilgan tovarning bojxona qiymati oxirgi marta o'zgartirilayotgan bo'lsa, o'zgartirilgan bojxona qiymati asosida qayta hisoblangan statistik qiymat yoziladi.

Olib kirlgan tovarning bojxona qiymati oxirgi marta o'zgartirilayotgan bo'lsa, o'zgartirilgan faktura qiymati asosida qayta hisoblangan statistik qiymat yoziladi.

Ushbu grafa BYuD ning mos keluvchi grafasi kabi to'ldiriladi.

#### **47-grafa. «Bojxona to'lovlarini hisoblab chiqarish»**

47-grafadagi birinchi beshta bo'lim («Tur», «Hisoblash asosi», «Stavka», «Summa», «SP»)BYuD ning 47 - grafasi kabi to'ldiriladi.

«Avvalgi summa» bo'limida har bir to'lov turining summasi ko'rsatiladi. Bunda agar, bojxona qiymati birinchi marta o'zgartirilayotgan bo'lsa, BYuDdag'i summalar, bojxona qiymati avval o'zgartirilgan bo'lsa KTS dagi summalar yoziladi.

«O'zgarish» bo'limiga «Summa» bo'limi bilan «Avvalgi summa» bo'limlaridagi farq, ya'ni bojxona to'lovlar qo'shimcha hisoblanganda «+» belgi bilan, bojxona to'lovlar qaytariladiga hollarda «-» belgi bilan yoziladi. «Hammasi» bo'limiga «O'zgarish» bo'limidagi miqdorlarning umumiy summasi yoziladi.

#### **54-grafa. «Joy va sana»**

Grafani to'ldirish tartibi BYuD grafasiga mos ravishda to'ldiriladi.

Agar KTS-1 (KTS-2) deklaratsiyasi bojxona organlari mansabдор shaxslari tomonidan to'ldirilsa, u tomonidan to'ldirish sanasi, imzo va shaxsiy muhr qo'yiladi. Bunda 14 grafa to'ldirilmaydi.

Elektron shaklda ramiylashtirilganda KTS-1 (KTS-2) deklaratsiyasi bojxona organlari mansabдор shaxslari tomonidan to'ldirilsa, familiya va sana qo'yiladi.

#### **A-grafa.**

Bojxona qiymatining o'zgarishi vaqtincha(shartli) ravishda chiqariladigan tovarlarga nisbatan qo'llamliganda, A grafada deklarant tomonidan bojxona qiymatiga aniqlik kiritish uchun hujjalarni

**taqdim** etgan muddati ko'rsatiladi. Umumiy belgilangan muddat (60 kun) davomida bir nechta oraliq muddatlar ketma-ketlik asosida ko'rsatiladi.

 **Bojxona organlari tomonidan to'ldiriladigan grafalar:**

**43-grafa. «Bojxona qiymatini aniqlash uchun ishlatalgan bojxona bahosining usuli»**

Ushbu grafada bojxona qiymatini aniqlash usulining yorlig'i ko'rsatiladi. Deklarant tomonidan bojxona qiymatini aniqlashda ishlatalgan usul o'zgarmagan bo'lsa, shu usul ko'rsatiladi. Agar bojxona qiymatini o'zgartirishda bojxona qiymatini aniqlashning boshqa usuli ishlatalgan bo'lsa, KTS-1 (KTS-2) deklaratsiyalarining mazkur grafasida qiymatni o'zgartirishda ishlatalgan usul yoziladi.

Tovarlarning bojxona qiymati vaqtinchalik (shartli) ravishda chiqariiganda, bu grafaga «0» belgisi qo'yiladi.

**S-grafa.**

Grafada deklarant taqdim qilgan tovarning vaqtinchalik (shartli) bahosi bilan bog'liq undiriladigan bojxona to'lovlari ta'minotining turi ko'rsatiladi.

Bunda bojxona organlari tomonidan «Tovar bank kafolati (mulk garovi) asosida chiqarildi «\_\_\_\_\_» 20\_\_\_\_y. №\_\_\_\_\_ dan» yozuvi yoziladi yoki bojxona organlari depozitiga bojxona to'lovlari o'tkazilgan to'lov topshiriqnomasining raqami ko'rsatiladi va o'rnatilgan tartibda tasdiqlanadi.

**D-grafa.**

Bojxona ma'muriyati tarkibiy tuzilmasi rahbarining imzosi, uning shaxsiy muhri (agar u bo'lsa) bilan tasdiqlanadi va sana qo'yiladi.

Elektron shaklda KTS-1 (KTS-2) taqdim qilinganda bojxona organi tarkibiy tuzilmasi rahbarining KTS-1 (KTS-2)ni rasmiyaltirishga bergan ruxsati belgisi qo'yiladi.

Quyida Bojxona qiymati o'zgartirish deklaratsiyasining (KTS-1, KTS-2) namunasi keltirilmoqda.

## Форма корректировки таможенной стоимости и таможенных платежей

KTC-1

A \*0003530

(namuna nusxasi).

## Добавочный лист

КТС-2

		1. Тип корректировки		Приложение к ГТД №				
2. Отпр/экспортер 4. Получатель		Добавочный лист		1				
31. Грузовые места и описание товаров	Маркировка и количество, номера контейнеров, описание товаров		32. Товар №		33. Код товара			
					34. Код страны происхождения		35. Вес брутто (кг)	
44. Дополнительная информация, представленные документы					37. Процедура		38. Вес нетто (кг)	
					40. Общая декларация/предшествующий документ			
31. Грузовые места и описание товаров	Маркировка и количество, номера контейнеров, описание товаров		32 Товар №		41. Дополн. единица изм			
					42. Фактур. Статья товара		43.	
44. Дополнительная информация, представленные документы					45. Таможенная стоимость товара			
					46 Статическая стоимость			
47. Использования таможенных пошлин и сборов	Вид	Основ начисления	Ставка	Сумма	СП	Предыдущая сумма	Изменение	№ и дата платеж пор.
Общая сумма (подлежащая взысканию)								
47. Использования таможенных пошлин и сборов	Вид	Основ начисления	Ставка	Сумма	СП	Предыдущая сумма	Изменение	№ и дата платеж пор.
Общая сумма (подлежащая взысканию)								

(патина пусхаси).

### **3. Tekshiruvlar natijasida aniqlangan, qo'shimcha hisoblangan bojxona to'lovlarini undirish**

Hukumatimiz tomonidan bojxona ma'muriyati zimmasiga fiskal vazifalarni to'laqonli amalga oshirish, O'zbekiston Respublikasi bojxona hududida samarali bojxona nazoratini hamda tovar ayrboshlashni tartibga solishni ta'minlash, iqtisodiyotning rivojlanishini rag'batlantirish va ichki bozorni himoyalash yuklatilgan.

O'zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksining 201-moddasiga asosan, bojxona organlari tovarlar chiqarib yuborilganidan keyin, basharti bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlari buzilgan deb taxmin qilish uchun yetarli va tasdiqlangan asoslar mavjud bo'lsa, bojxona nazoratini amalga oshirishga haqli.

Tovarlar chiqarib yuborilganidan keyingi bojxona nazorati hamda bojxona to'lovlarini qo'shimcha hisoblash tovarlarning bojxona nazorati ostida bo'lishi tugagan paytdan e'tiboran bir yil ichida amalga oshirilishi mumkin.

Bunda asosiy e'tibor, tovarlarning bojxona rasmiylashtiruvida hujjatlarning to'g'ri taqdim etilganligi, bojxona yuk deklaratsiyasida ma'lumotlarni deklarant tomonidan to'g'ri ko'rsatilganligi, tovarlarning TIF TN kodi va bojxona qiymati to'g'ri aniqlanganligi hamda bojxona to'lovlarining to'liq undirilganligi tekshirib chiqiladi.

Tekshirish natijalariga ko'ra, bojxona to'lovlarini kam to'langanlik holatlari (DBQ yoki hududiy boshqarma tomonidan) aniqlanib, ushbu holatlar qonumi isbotlab berilgan taqdirda bojxona organlari tomonidan quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

- TIF qatnashchisi (yakka tartibdag'i tadbirkor, xususiy tadbirkor va boshqalar) bilan boshqarma o'ttasida solishtirma dalolatnomaga tuzish;

- qo'shimcha hisoblangan bojxona to'lovlarini aniqlangach, bir ish kunida mas'ul rahbar tomonidan qonuniy asoslangan qaror qabul qilish;

- mazkur yo'nalishga mas'ul bo'lgan sohaviy bo'limlar ushbu qo'shimcha hisoblangan bojxona to'lovlarini undirish bo'yicha ish rejasi tuzish;

- mas'ul bojxona boshqarmasi boshlig'i tomonidan qo'shimcha hisoblangan bojxona to'lovlarini bo'yicha muammoli vaziyat vujudga

kelgan taqdirda bojxona rasmiylashtiruvı bo'yicha mutaxassisi, bojxona brokeri, importer va korxona buxgalterlari bilan uchrashuv o'tkazish;

– o'tkazilgan uchrashuv natijasiga ko'ra qo'shimcha hisoblangan bojxona to'lovlari bo'yicha importyor rozi bo'lsa, roziligi, rozi bo'lmasa, rozi emasligi to'g'risida bayonnomma tuzish;

– qo'shimcha hisoblangan bojxona to'lovlari bo'yicha ikki-tomonlama taqqoslash dalolatnomasi tuzilib bojxona organi Bojxona qiymatini aniqlash va to'lovlardan hisobini yuritish bo'limi va importyor tomonidan imzolanishi;

– o'tkazilgan uchrashuv bo'yicha yig'ilish bayonnomasini tuzish va ishtirokchilar tomonidan imzolanishi va boshqarma boshlig'i tomonidan tasdiqlanishi;

– har bir holat yuzasidan alohida mutaxassislar (ekspert guruhi) xulosasi tayyorlanishi, unda ko'tarilgan masalanı amaldagi qonun hujjalariiga nömutanosibligi, qonun hujjatining aynan qaysi muddasi yoki bandi talabi buzilganligi aniq ko'rsatilishi shart;

– tekshirish va tahlil ishlari yakuni bo'yicha qo'shimcha hisoblangan bojxona to'lovlarni undirishni ta'minlash maqsadida Bojxona qiymatini aniqlash va to'lovlardan hisobini yuritish bo'limi 3 kun ichida qarzdorlikni ixtiyoriy to'lash to'g'risida TIF qatnashchisiga talabnama yuborishi va unda quyidagilar aks ettirilishi lozim:

– talabnama qo'yilishi asoslari;

– bojxona to'lovlarni to'lash bo'yicha qarzdorlikning talabnama qo'yilgan paytdagi summasi;

– talabnomani bajarish uchun belgilangan muddat;

– to'lovchi tomonidan talabnama bajarilmagan taqdirda, bojxona to'lovlarni to'lash bo'yicha qarzdorlikni sud tartibida undirish to'g'risidagi ogohlantirish.

Bojxona to'lovlarni to'lash bo'yicha qarzdorlikni to'lash to'g'risidagi talabnama bunday qarzdorlik yuzaga kelganligi fakti aniqlangan kundan e'tiboran o'n ish kundan kechiktirmay, to'lovchi tomonidan ushbu talabnama olinganligi faktini va olish sanasini tasdiqlash imkonini beradigan har qanday usulda to'lovchiga yuborilishi kerak.

Mazkur talabnomaga qarzdor-importyorga yoki uning mas'ul xodimlari yoxud voyaga yetgan yaqin qarindoshlariga yoki Mahalla fuqarolar yig'iniga tilxat orqali topshiriladi.

Mabodo, importyor qo'shimcha hisoblangan bojxona to'lovlaridan norozi bo'lgan taqdirda HBB rahbariyati importyorga qarzdorlikning kelib chiqish sabablarini hamda qonuniy asoslarini tushuntirishi lozim. Importyorga qo'shimcha hisoblangan bojxona to'lovlarini ixtiyoriy to'lash lozimligini, qarzdorlik belgilangan muddatda ixtiyoriy ravishda to'lanmagan taqdirda O'zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksiga asosan o'z muddatida to'lanmagan bojxona to'lovlarini va jarimalarni bojxona organi tomonidan so'zsiz tartibda undirilishi (inkassa topshiriqnomasi) bat afsil tushuntirish beriladi.

Bundan tashqari, bojxona organi tashkilot, korxona yoki yakka tartibdag'i tadbirkor o'z faoliyatini to'xtatish choralarini ko'rish maqsadida mahalliy hokimiyat, soliq organlariga hamda bank muassasasiga bojxona to'lovlaridan qarzdor tashkilotning barcha rekvizitlarini ko'rsatgan holda bildirishnomasi yuboradi.

Importyor qo'shimcha hisoblangan bojxona to'lovlarini ixtiyoriy to'lashdan bosh tortganda yoki bojxona organiga kelmaganda HBB tomonidan mazkur qarzdorlikni majburiy tartibda undirish to'g'risida xulosa tuzishi va u rahbariyat tomonidan tasdiqlanishi lozim. Xulosada qo'shimcha hisoblangan bojxona to'lovlarining kelib chiqish sabablari, qonuniy asoslari hamda so'zsiz tartibda undirilishi bo'yicha amalga oshiriladigan aniq choralar bat afsil yoriladi.

Bojxona to'lovlarini to'lash bo'yicha qarzdorlikni to'lovchining bank hisobvaraqlarida turgan pul mablag'lari hisobidan undirish bojxona organi tomonidan bankka pul mablag'larining so'zsiz tartibda undirilishi to'g'risidagi inkasso topshiriqnomasini yuborish orqali amalga oshiriladi.


Bojxona to'lovlarini to'lash bo'yicha qarzdorlikning summasini o'tkazish to'g'risidagi inkasso topshiriqnomasi quyidagilar to'lanmagan taqdirda bojxona organi tomonidan besh ish kunidan kechiktirmay qo'yiladi:

– bojxona to'lovlarini to'lashni kechiktirish yoki bo'lib-bo'lib to'lash muddati tugagach, bojxona to'lovlarini to'lanmaganda;

– to‘lovchida e’tiroz mavjud bo‘lmagan qo‘sib hisoblangan bojxona to‘lovlari to‘lanmaganda,  
– davriy bojxona to‘lovlari to‘lanmaganda.

To‘lovchining hisobvaraqlariga xizmat ko‘rsatayotgan bank bojxona organining bojxona to‘lovlarini undirish to‘g‘risidagi inkasso topshiriqnomasini qonun hujjatlarida belgilangan navbat tartibida bajaradi.


Quyidagi rasmlarda tovarlarni bojxona qiymatini o‘zgartirish holatlari va buning natijasida qo‘sishimcha hisoblangan bojxona to‘lovlari haqida ma’lumotlar keltirilgan.



*30-rasm. 2010-2012-yillarda tovarlarni bojxona qiymatini o‘zgartirish holatlari diagrammasi.*

*Manba: DBQ ma’lumotlari asosida tayyorlangan.*

Ushbu rasmdan ko‘rinib turibdiki, so‘nggi yillar davomida bojxona organlari tomonidan tovarlarni bojxona qiymatini o‘zgartirish va to‘lovlarni qo‘sishimcha hisoblash bo‘yicha tegishli ishlar amalga oshirilmoqda. Bularni amalga oshirishda Davlat bojxona qo‘mitasi hamda hududiy bojxona boshqarmalar hamkorlikda faoliyat yuritishmoqda. Shu jumladan, rasmiylashtirilgan tovarlarning bojxona qiymatini noto‘g‘ri aniqlash holatlari ko‘proq Davlat bojxona qo‘mitasi tomonidan aniqlanmoqda.



*31-rasm. 2010-2012-yillarda tovarlarni bojxona qiymatini o'zgartirishlar natijasida qo'shimcha hisoblangan bojxona to'lovleri.*

*Manba: DBQ ma'lumotlari asosida tayyorlangan.*

Bojxona organlari O'zbekiston Respublikasining «Davlat bojxona xizmati to'g'risida»gi qonunning 7-moddasiga asosan, kechiktirib yoki bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyati berilgan, o'z muddatida to'lanmagan bojxona to'lovleri va bunday to'lovlni to'lash muddati o'tkazib yuborilganligi uchun penya summalarini xo'jalik yurituvchi subyektlardan so'zsiz tartibda undirib olish to'g'risidagi bojxona organlarining farmoyishlarini (inkasso topshiriqlarini) bajaradilar.

Bojxona organi Inkasso topshiriqnomasi qo'yishda, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2013-yil 3-iyunda 2465-son bilan ro'yxatga olingan «O'zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisobkitoblar to'g'risida»gi Nizomning 59-bandi va O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi Plenumining 2009-yil 24-apreldagi «Xo'jalik sudlari tomonidan bojxona haqidagi qonun hujjatlarini qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida»gi 197-tonli qarorining 19-bandiga muvofiq, to'lov maqsadlarida so'zsiz (akseptsiz) tartibda undirilishiga asos bo'lgan hujjat (BYuD, tekshiruv dalolatnomasi, bojxona organining xulosasi) mavjud bo'lishiga e'tibor berilishi lozim.

Kechiktirib yoki bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyati berilgan, o'z muddatida to'lanmagan bojxona to'lovleri bo'yicha qarzdor-import-yortning bankdagi hisob raqamida pul mablag'i bo'lmagan taqdirda,

**HBB** tomonidan mazkur qarzdorlikni importy orning mol-mulkidan undirish to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Xo‘jalik prosessual kodeksida belgilangan tartibda xo‘jalik sudiga da‘vo arizasi kiritadi.

Kiritilgan da‘vo arizasi bo‘yicha sudning qarori bojxona foydasiga chiqarilganda, ushbu qaror sudning ijro varaqasi asosida ijroga qaratilib, sud ijrochilari tomonidan qarzdorlik summalarini bojxona organining depozit hisob raqamiga undiriladi hamda mazkur summalar bojxona organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat budgetiga o‘tkaziladi.

Xo‘jalik yurituvchi subyekt tomonidan qonuniy kuchga kirgan sud qarorlari yoki bojxona organining qarzdorlikni undirish bo‘yicha tegishli qarorlari ijro etilmaganda (qarzdorlik to‘lanmaganda, undirilmaganda, undiruv obyektlari mavjud bo‘lmaganda) yoki qarzdorlikni undirish bo‘yicha barcha qonuniy choralar ko‘rilgan bo‘lib, qarzdorlikni qoplashning imkonini tugaganda qarzdorlikka oid barcha hujjatlar O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasiga yoki joylardagi prokuratura organlariga qonuniy chora ko‘rish uchun yuboriladi.

Hududiy bojxona boshqarmalari qarzdorlik bo‘yicha prokuratura qarorini qabul qilingunga qadar ushbu holatni doimiy nazoratda ushlaydi. Holat bo‘yicha yakuniy qaror qabul qilingach bu haqda DBQni xabardor qiladi. Keyingi harakatlar DBQ rahbariyatining ko‘rsatmasi asosida amalga oshiriladi.

### **Qo‘sishma hisoblangan bojxona to‘lovlarini undirish algoritmi**

O‘zbekiston Respublikasi hududiga import qilingan tovarlar va transport vositalari chiqishga ruxsat berilganidan keyin, bojxona organlari tomonidan o‘tkazilgan tekshiruvlar natijasiga ko‘ra bojxona to‘lovlarini kam to‘langanlik holatlari aniqlangan taqdirda qo‘sishma hisoblangan bojxona to‘lovlarini undirish «Bojxona rasmiylash-tiruvidan keyingi tekshiruvlar natijasida import qilingan tovarlar yuzasidan qo‘sishma hisoblangan bojxona to‘lovlarini undirish bo‘yicha metodik qo‘llanma»da keltirilgan quyidagi algoritm bo‘yicha undiriladi. Algoritm 3 bosqichdan iborat.

## I bosqich

Qo'shimcha hisoblangan bojxona to'lovlari bo'yicha DBQning ko'rsatma va topshiriqlari boshqarmaning kotiyabiyatidan ro'yxatdan (*ro'yxatdan o'tkazish vaqt 2 soatdan ko'p bo'lmasligi kerak*) o'tkazilib, boshqarma boshlig'i iga taqdim etiladi.

Boshqarma boshlig'i ko'rsatma yoki topshiriqm olgandan so'ng, amalga oshirilishi lozim bo'lgan tadbirlarni belgilab, ushu yo'naliшha mas'ul bo'lgan o'rinosari boshchiligidagi har bir xodimga aniq vazifalar, ijro etish muddatlari, nazorat shakllari ko'rsatilgan holda munosabat belgisini tayyorlaydi va ijrochilariga yetkazilishi uchun kotibiyatga qaytaradi (*bunday muddat 2 soatdan ko'p bo'lmasligi kerak*).

Boshqarma boshlig'i hujjatning xodimlarga yetkazilganligini, ijroga qaratilganligini va belgilangan muddatlarda ijro etilayotganligini shaxsan nazoratga oladi.

Mazkur yo'naliшha mas'ul bo'lgan boshqarma o'rinosari hujjat bo'yicha sohaviy bo'limlar bilan birgalikda ish rejasini tuzib, yo'rinqoma o'tkazadi. Boshqarma boshlig'inining hujjatga qo'ygan munosabat belgisidan kelib chiqib, har bir xodimga uning aniq vazifalarini eslatib, qo'shimcha hisoblangan bojxona to'lovlari bo'yicha rasmiylashtirilgan BYuDlari reyestiri, rasmiylashtirigan bojxona xodimi, post boshlig'i, bojxona rasmiylashtiruvchi bo'yicha mutaxassis, bojxona brokeri va importorlar ro'yxatini tuzish, bojxona rasmiylashtiruvchi bo'yicha mutaxassis, bojxona brokeri va importorlar bilan uchrashuv o'tkaziladigan kunni belgilash, uchrashuv bayonnomasi loyihasini tayyorlash, taklif etiladiganlar ro'yxatini tuzish ishlariga boshchilik qiladi.

Bojxona rasmiylashtiruvchi bo'yicha mutaxassis, bojxona brokeri, importorlar va korxonaning buxgalterlarini uchrashuvda ishtirot etishi uchun chaqiruv xatini imzolaydi va egalariga jo'natilganligini nazorat qiladi. Bojxona rasmiylashtiruvchi bo'yicha mutaxassis va bojxona brokerlariga yuboriladigan xatda ular guvohnoma va malaka attestatlarining asl nushalari bilan uchrashuvga kelishlari shartligini ko'rsatib o'tadi.

Tovarlarni rasmiylashtirgan inspektor va post boshliqlarini uchrashuvda ishtirot etishmi ta'minlaydi.

1. Qo'shimcha hisoblangan bojxona to'lovlarini bo'yicha DBQOning kor'suma va to'poshindirli hisobqurmaning kontiqiyutdar yo'yxidan (yo'yxadan o'kezish) vog'i 2 soatdan ko'p bo'masligi kerak) o'tazilish bosqarmu boshlig'iiga baqdum etadi.
2. Bosqurma boshilg'i kor'suma yoki to'poshiring olgandan so'ng amalga ostirilishi lezon bo'lgan uchbarlarni boshlib, ushbu yo'unistligi mu'saf bo'lgan o'mbosan boschiligidagi har bir xeddingi uning vazifalar, iiro atish muallafani, nazorat shakilligi kor'satilgan holda mimosabab belgisiñi tayyorlaydi va ijrochagi yekkaлизиги негиздик (hunduy muddat 2 soatdan ko'p bo') imasligi kerak).
3. Hujajning hodimlarga yetkazialgenligini, ijroya qaratilganligini va hujajkenan muddatindan yu'yo yetkayganligini shaxsan nazoratiga oлади.
4. Mazkur yo'nalishiga ma'sul bo'lgan bo'shuparma o'renbosari hujaj bo'yidin intisosabat belgisiñi olegandan so'ning, soxaviy intimir bilan hingalkiда ish rejasisini tuzilib, yo'riqona o'nazaridi. Bosqurma boshilg'ining hujajiga qo'sygan munosabat belgisidam kelib chiqib, har bir xodimga uning uniq vazifalarini establi, qo'shimcha hisoblangan bojxona to'lovlarini bo'yicha rasmiylashiruvni bo'yicha post boshilg'i bojxonasi rasmiylashiruvni bo'yicha mimosabab belgisiñi tayyorlaydi. Post boshilg'i bo'yicha rasmiylashiruvni bo'yicha mimosabab bojxona broken va importiyorlar ro'yxatini turzib, bojxona rasmiylashiruvni bo'yicha mutaxassis, bojxona broken va importiyorlar bilan uchrashuv o'taziladigan komi belgilash, uchrashuv bayonommasi leyzasini tayyorlash, takif' etlibdiganlari ro'yoxatini hujash ishlariiga boschilik bildi.
5. Bojxona rasmiylashiruvni bo'yishla mutaxassis, bojxona broken, importiyorlar va korsonning hisogaltularini uchrashuvda ishtirok ehsasi uchun chiqaruv xotini imzolaydi va egulargiga jo'natilganligini nazorat qiladi. Bojxona rasmiylashiruvni bo'yichini mutaxassis va bojxona brokerlariiga yuborildigiga xanda ular guvocenoma va malnika attestatlarining usil mussalari bilan uchshusuviga shartligini kor'satib o'лади.
6. Tovarlarini rasmiylashiruvga inspektor va post boshilqilarini uchrashuvda ishtirok etishini ta'minaydi.
7. Bojxona qizymalimi amalgash va to'lovlar hisobini surʼish bo'limi hodimleriga qo'shimcha hisoblangan bojxonasi to'lovlarini undirib ollish bo'yicha im portiyorlar bilan tizqoshish diafolomonalarini ishab chiqishini topirmi.
8. Tuzilgan tizqoshish diafolomonlari importyordarga uchrashuvda ishtirok etishi uchun yuberitildigan chaqiruv xatt bilanjo'niladi.
9. Birinchil bosqich bo'yicha amalga ostirilgan ishlar yuzasidan bosqurma boshilg'iiga uxborot beradi.

J.-bosqich. Ta'siyorterlar  
Ko'retish

*32-rasm. Qo'shimcha hisoblangan bojxona ro'lovlarini undirib olish algoritmining 1 bosqichi.*

Bojxona qiymatini aniqlash va to‘lovlar hisobini yuritish bo‘limi xodimlariga qo‘srimcha hisoblangan bojxona to‘lovlarini undirib olish bo‘yicha importyorlar bilan taqqoslash dalolatnomalarini ishlab chiqishni topshiradi.

Tuzilgan taqqoslash dalolatnomalari importyorlarga uchrashuvda ishtirok etishi uchun yuboriladigan chaqiruv xati bilan jo‘natiladi.

Birinchi bosqich bo‘yicha amalgga oshirilgan ishlar yuzasidan boshqarma boshlig‘iga axborot beradi.

## II bosqich

Bojxona to‘lovlarini kam undirishga taalluqli bo‘lgan barcha shaxslar bilan shaxsan hududiy bojxona boshqarmasi boshlig‘i ishtirokida yig‘ilish o‘tkaziladi.

Yig‘ilishda bojxona to‘lovlari kam undirilganligi sabablari va huquqiy asoslari, qo‘srimcha hisoblangan to‘lovlari miqdori hamda bunga yo‘l qo‘ygan aybdorlar to‘g‘risida tushuntirish beradi. Yig‘ilish videotasmaga tushiriladi.

Yig‘ilishda Bojxona qiymatini aniqlash va to‘lovlar hisobini yuritish bo‘limi xodimlari tomonidan qo‘srimcha hisoblangan bojxona to‘lovlarini undirib olish bo‘yicha importyorlar bilan tuzilgan taqqoslash dalolatnomalari imzolanadi.

Shuningdek, qo‘srimcha hisoblangan bojxona to‘lovlarini to‘liq to‘lab berish yuzasidan kompyuterda tayyorlangan ixtiyoriy shakldagi majburiyatnama va tilxatlar importyor, bojxona brokerlari va bojxona rasmiylashtiruvni bo‘yicha mutaxassislariga tarqatiladi va ular tomonidan imzolanadi.

Imzolashdan bosh torgan importyorlar, bojxona brokerlari va bojxona rasmiylashtiruvni bo‘yicha mutaxassislar bayonnomada ko‘rsatiladi va belgilangan tartibda rasmiylashtiriladi.

Qo‘srimcha hisoblangan bojxona to‘lovlarini to‘lab berishdan bosh torgan bojxona brokerlari va bojxona rasmiylashtiruvni bo‘yicha mutaxassislarining guvohnomasi va malaka attestati asl nusxasi olib qo‘yiladi va bekor qilish choralarini ko‘rilishi to‘g‘risida ogohlantiriladi.

Bojxona rasmiylashtiruvini amalgga oshirgan inspektor va post boshlig‘laridan ishdan bo‘shash bo‘yicha arizalari olinadi va

1. bojxona to lovlarni kam undirishga taliqliq bo'lgan borchu shaxslar bilan shuxsan hujudiy bojxona hisoblangan hishligi

i

2. Yig'ilishda bojxona lo'lovlar keri undi yangi sabablar va huquqiy usoslan, qo'shimcha hisoblangan to'lovlarini misdori hamda bunga yo'q qo'sgan avboborlar bo'lg'isida tushinibish beradi. Yig'ilish videoformatiga tushiriladi.

i

3. Yig'ilishda bojxona qiymatini aniqlash va to'lovlar hisobini yuritish xodimlari lomondan qo'shimcha hisoblangan bojxona to'lovlarini undirish olish bo'yicha imponitorlar bilan fuzilgan raqqoslashda datolanomatari inzolalanadi.

i

4. Shuningalek, qo'shimcha hisoblangan bojxona to'lovlarini to liq ta'lab berishi yu'asdan kompyulerda ta'vvix qilinayot shakldagi mudduriyatloma va tilxalalar importor, bojxona bokeri va bojxona rasmiylashitruvi bo'yicha mutan a'sislariga tushiriladi vaular tomonidan imzolandi. Imzolashdan bosh longan importator, bojxona brokerlari va bojxona rasmiylashitruvi bei yohha mutaxassislar baynomnomada ko'rsatiladi va belgilangan taridha rasmiylashiniladi.

i

5. Qo'shimcha hisoblangan bojxona to'lovlarini bo'shash berish uchun bojxona brokerlari va bojxona rasmu hishtitruvi bo'yicha muta carxstanining guvahnomasi va malaka mestligi asil qo'yiladi va hebor qilish chorakni ko'rishi bo'g'istida o'gohlantiriladi.

i

6. Bojxona rasmiylashitruvini amalga oshirgan inspector va post hisoblig'laridan ishdan bo'shash bo'yicha urizalari olibiadi va qo'shimcha hisoblangan bojxona to'lovlarini 3 kun muddat ichida bo'shatish to'g'risida o'gohlantiriladi.

i

7. Yig'ilish bayonommasi qamashsgan shaxslar tomonidan yig'ilish yuzunida imzolanih, shaxsun hisoblangan hishligi' nomonida lasalqiganladi.

i

**33-rasm. Qo'shimcha hisoblangan bojxona to'lovlarini undirib olish algoritminiing 2-bosqichi.**

qo'shimcha hisoblangan bojxona to'lovlarini 3 kun muddat ichida undirmasa, ishdan bo'shatish to'g'risida ogohlantiriladi.

Yig'ilish bayonnomasi qatnashgan shaxslar tomonidan yig'ilish yakunida imzolanib, shaxsan boshqarma boshlig'i tomonidan tasdiqlanadi.

### III bosqich

Bojxona boshqarmasi qo'shimcha hisoblangan bojxona to'lovları to'liq undirilishini va mas'ul xodimlar tomonidan amalga oshirilayotgan ishlarnı kunlik nazorat qiladi.

Qarzdor korxona va tashkilotlarning bankrot deb e'lon qilinishi yoki bankdagi hisob raqamlarini yopilishining oldini olish maqsadida, importyor-korxona va tashkilot joylashgan hududdagi soliq idoralariga hamda viloyat va mahalliy hokimliklar huzurida tashkil etilgan tugatish komissiyalariga, shuningdek, ularga xizmat ko'r-satuvchi banklarga xabarnoma yuboriladi.

Qarzdor korxona va tashkilotlar bojxona to'lovlarini to'lashdan bosh tortganda yoki bankrot deb e'lon qilinganda yoxud bankdagi hisob raqamida pul mablag'i bo'yicha HBBlar (Bojxona qiymatini aniqlash va to'lovlar hisobini yuritish bo'limi hamda Huquqiy bo'limi) tomonidan qarzdor-deklarant (importyor yoki bojxona brokeri) nomiga qarzdorliklarni ixtiyoriy to'lash to'g'risida talabnama yuboriladi. Unda quyidagilar aks ettirilishi lozim:

a) bojxona to'lovleri bo'yicha qarzdorlikni kelib chiqish sabablari va qonuniy asoslari hamda qarzdorlik summasi bo'yicha hisob-kitob;

b) qarzdorlik summasini to'lash muddati ko'rsatilgan holda ixtiyoriy ravishda to'lanishi lozimligi;

d) bojxona to'lovlarini qo'shimcha hisoblanishidan norozi bo'lган taqdirda, ushbu qarzdorlikni bojxona organi bilan ko'rib chiqilishi to'g'risida izoh (ko'rib chiqish vaqtı aks ettirilgan holda).

e) qarzdor-deklarant bojxona organiga kelmaganda uning oqibatlari bat afsil ko'rsatiladi.

Undirilmay qolgan bojxona to'lovlarini ixtiyoriy to'lashdan bosh tortilganda yoki bojxona organiga kelishi to'g'risidagi talabnomani

olib, qarzdotlikni kelib chiqishini ko'rib chiqish uchun kelmaganda, HBBlar tomonidan mazkur qarzdotlikni majburiy tartibda undirilishi to'g'risida xulosa qabul qilinadi hamda mazkur xulosada uning kelib chiqish sababları, qonuniy asoslari hamda majburiy tartibda undirilishi bo'yicha amalga oshiriladigan aniq choralar bat afsil yoritiladi.

O'zbekiston Respublikasining «Davlat bojxona xizmati to'g'risida»gi qonunining 7-moddasiga asosan, kechiktirib yoki bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyati berilgan, o'z muddatida to'lanmagan bojxona to'lovlari va bunday to'lovlarni to'lash muddati o'tkazib yuborilganligi uchun penya summalarini xo'jalik yurituvchi subyektlardan so'zsiz tartibda undirib olish to'g'risidagi bojxona organlarining farmoyishlarini (inkasso topshiriqlarini) banklar va boshqa moliyakredit tashkilotlari bajarishlari shartligi talablaridan kelib chiqib, importyorlar hisob raqamlariga inkasso topshiriqnomasi qo'yiladi.

Bojxona organi Inkasso topshiriqnomasi qo'yishda, to'lov maqsadlarida so'zsiz (akseptsiz) tartibda undirilishiiga asos bo'lgan hujjat (BYuD, tekshiruv dalolatnomasi, bojxona organining xulosasi) mavjud bo'lishiga e'tibor berilishi lozim.

Qo'shimcha hisoblangan bojxona to'lovlarni to'lab berishdan bosh torgan bojxona brokerlari va bojxona rasmiylashtiruvni bo'yicha mutaxassislarining guvohnomasi va malaka attestatini bekor qilish choraları ko'rildi.

Qarzdor-deklarantning bankdagı hisob-raqamida pul mablag'i bo'Imagan taqdirda, HBB tomonidan mazkur qarzdotlikni deklarantning mol-mulkidan undirib olinishi to'g'risida belgilangan tartibda xo'jalik sudiga da'vo arizasi kiritadi.

Bundan tashqari, o'z vaqtida to'lab bermagan qarzdor korxonalar bojxona qonunchiligini buzgan deb qaratlib, bayonna ma tuziladi. Bojxona tekshiruvlari tugallanganidan so'ng to'plangan hujjatlar:

a) O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining tegishli moddalari bilan sodir etilganlik uchun javobgarlik belgilangan jinoyat alomatları mavjud bo'lganda, tegishlilikiga ko'ra tergov organlariga;

b) O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning tegishli moddalarida javobgarlik belgilangan ma'muriy huquqbazarlik alomatları mavjud bo'lganida, tegishlilikiga ko'ra sud organlariga yuboriladi.

Besposna bedgarmans ge shamsho fuscholungen begonen so ihr andirlishina van nu' soal sodumbar temontid amalga oshtrayogen tablano kundil na-zora uladi

Turkmenistanyň yelgän bayragy to ýowham bayrasy to lastbun bayrasy ýoki boynev organaga keňeli gärsideli talanoomam elbi, qarzotlulu keñiň soňgham kırıb eñjish ýohan telmeneändi. BBBS tumanıñ meşkar qui azaferli undırılıshi to gärsideli xulosa qabul epilindi. hamda mazda tur xutlochı umang kılğıñ yulghı sabablıarı, qızymyrı ýəsəldärı hamaň undırılıb. Şeşa azaferla oñırdaçyğan chınıñan batıñlı ýaňıltıdı.

İslam tâbi'ît, u z. vaynâ tâ'ib bermeşen şerzâl koronalar hırsızlığına bizzat deb qurâlib, hıdâyemizde hâlinde Böyece tezâhürî fırı  
C. zâhâk'ustan keşip kâlibin Timzîz kodelerine tegizli modâsları bilin sodus enîmîyi sehan jav obgarib belâluların imrovat ahamâlinin râvjud bo'lgârash  
A. dâdiâtligâz ka'ca kergan organlerine.  
B. zhâzak'at Republikası Ma'muryâ juvâgarılık to'z emâdatlı kodelerâme tâjîdîti modelâciâda involvârak belâluların ma'murov mevâbâde ahamâlini mevâbâde  
C. dâdiâtla tâjîdîti modelâciâda involvârak belâluların ma'murov mevâbâde ahamâlini mevâbâde

Rejonya qazı-halıqı bəyliklərin böyükləri və qəzilərini idarəetmək və əməkdaşlığından istifadə etmək.

Bosdiche. To Lovatami

Bojxona qonunchiligi buzilishi bo'yicha qabul qilingan qarorda qarzdorlik summasini undirish choralarini ko'riliishi aks ettirilishi lozim.

Sud qarorlari asosida sud ijrochiları tomonidan qarzdorlik summaları bojxona organining depozit hisob raqamiga undiriladi hamda mazkur summalar bojxona organları tomonidan belgilangan tartibda davlat budjetiga o'tkaziladi.

Qarzdorlik summaları to'liq undirilishi ta'minlanmagan hollarda, aybdor xodimlarga nisbatan intizomiy jazo qo'llash to'g'risida DBQ rahbariyatiga taklif kiritiladi.

**Quyidagi rasmda** qo'shimcha hisoblangan bojxona to'lovlarini undirib olish algoritmining 3-bosqichi aks etgan.

### Nazorat uchun savollar

1. Bojxona qiymatiga o'zgartirishlar zarurati nimadan iborat?
2. BQO' qachon to'ldiriladi?
3. Bojxona rasmiylashtiruvi bo'vicha mutaxassis BQO'ni qaysi grafalarani to'ldiradi?
4. Bojxona inspektori BQO'ni qaysi grafalarini to'ldiradi?
5. BQO'ni to'ldirishni huquqiy asoslarini izohlab bering?

### Foydalanilgan adabiyotlar

- 1 O'zbekiston Respublikasi Bojxona Kodeksi.
- 2 O'zbekiston Respublikasi «Davlat bojxona xizmati to'g'risida»gi qonuni.
- 3 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 15-mayda-gi «Xususiy mulk, kichik biznes va xususiy tadbirdorlikni ishonchli himoya qilishni ta'minlash, ularni jadal rivojlantirish yo'lidaǵi to'siqlarni birtaraf etish chora-tadbirlari to'g'risida» PF-4725-son Farmoni.
- 4 O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kelinadigan tovar-larning bojxona qiymatini belgilash bo'yicha 390-sonli yo'riq-noma.

5. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 1998-yil 13-vanvarda 391-son bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan «Bojxona qiymati deklaratsiyasini to‘ldirish bo‘yicha» yo‘riqnomasi.
6. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2016-yil 6-aprelda 2773-son bilan ro‘yxatdan o‘tgan «Bojxona yuk deklaratsiyasim to‘ldirish tartibi».
7. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2000-yil 20-aprelda 920-son bilan ro‘yxatga olingan «Bojxona qiymatini o‘zgartirish BQO‘-I va BQO‘ – 2 ni to‘ldirish tartibi».
8. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2013-yil 3-iyunda 2465-son bilan ro‘yxatga olingan «O‘zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblar to‘g‘risida»gi nizom.
9. Davlat bojxona qo‘mitasining 2010-yil 12-apreldagi «Import qilinayotgan tovarlarning bojxona qiymatini belgilanishini DBQ yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimi asosida nazorat qilish bo‘yicha vaqtinchalik yo‘riqnomasi»ni amaliyotga kiritish to‘g‘risida 92-sonli buyrug‘i.
10. DBQning 2011-yil 9-fevraldagisi «INKOTERMS-2010 xalqaro savdo shartlarini amaliyotga kiritilganligi to‘g‘risida»gi 1-sonli ko‘rsatmasi.
11. Davlat bojxona qo‘mitasining 2010-yil 24 martdagisi 03-04/8-72xfu-sonli «Bojxona rasmiy lashtiruvidan keyingi tekshiruvlar natijasida import qilingan tovarlar yuzasidan qo‘shimcha hisoblangan bojxona to‘lovlarni undirish bo‘yicha metodik qo‘llanma».
12. S.Aripov, T.Pardayev «Bojxona tariflari va to‘lovlari», o‘quv qo‘llanma. – T.: OHBI, 2008 y.

## **XII BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING BOJXONA HUDUDIDAN OLIB CHIQILAYOTGAN TOVARLARNING BOJXONA QIYMATINI BELGILASH VA DEKLARATSIYALASH TARTIBI**

**Reja:**

**1. O'zbekiston Respublikasining bojxona hududidan olib chiqiladigan tovarlarning bojxona qiymatini belgilashning mohiyati.**

**2. O'zbekiston Respublikasining bojxona hududidan olib chiqiladigan tovarlarning bojxona qiymatini belgilash tartibi.**

**3.O'zbekiston Respublikasining bojxona hududidan olib chiqiladigan tovarlarga bojxona qiymati deklaratsiyasini to'ldirish tartibi.**

**1. O'zbekiston Respublikasining bojxona hududidan olib chiqiladigan tovarlarning bojxona qiymatini belgilashning mohiyati**

O'zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksining 315-317 moddalarini O'zbekiston Respublikasining bojxona hududidan olib chiqib ketiladigan tovarlarning bojxona qiymatini aniqlashning huquqiy asosи hisoblanadi.

Olib chiqiladigan tovarning bojxona qiymati u eksportga sotilganda amalda to'langan yoki to'lanishi lozim bo'lgan bitimning bahosi asosida aniqlanadi.

Bojxona hududidan olib chiqiladigan tovarning ma'lum qilingan bojxona qiymatini tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo'lmagan taqdirda, bunday tovarning bojxona qiymati bojxona organida mavjud bo'lgan aynan bir xil yoki o'xshash tovarlarga oid ma'lumotlar asosida aniqlanadi.

Ilgari olib kirilgan tovarlarni o'zgarmas holatda bojxona hududidan olib chiqishda bojxona qiymati tovarning u olib kirilgan

paytdagi bojxona qiymatining hamda bojxona hududida qilingan xarajatlarning, shu jumladan, bojxona rasmiylashtiruvni va bojxona to'lovlarini to'lash (tovarlar reeksport qilinishi munosabati bilan qaytarilishi kerak bo'lgan to'lovlarni chegirgan holda), tovarlarni saqlash, sug'ortalash uchun qilingan xarajatlarning, bojxona hududida qilingan boshqa xarajatlarning yig'indisi sifatida aniqlanadi.

Olib chiqiladigan tovarning deklarant yoki bojxona brokeri tomonidan ma'lum qilingan bojxona qiymatini aniqlash to'g'ri ekanligini tasdiqlovchi ma'lumotlar mavjud bo'lмаган yoxud deklarant yoki bojxona brokeri tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarni noto'g'ri yoki yetarli emas deb taxmin qilish uchun asoslar mavjud bo'lgan taqdirda bojxona organi bojxona qiymatini mustaqil ravishda belgilaydi. Bunda bojxona organi deklarant yoki bojxona brokerining yozma arizasiga ko'ra unga olib chiqiladigan tovarning deklarant yoki bojxona brokeri ma'lum qilgan bojxona qiymati bojxona organi tomonidan qabul qilinmaganligining sabablari ko'rsatilgan yozma tushuntirish berishi shart.

Bojxona organi o'z ixtiyorida bo'lgan yoki deklarant yoki bojxona brokeri tomonidan taqdim etilgan axborotdan foydalanishi mumkin.

Bojxona hududidan olib chiqilayotgan tovarning bojxona qiymatini aniqlashda bojxona organi:

1) baholanayotgan, aynan bir xil va (yoki) o'xshash tovarlarni sotish shartlarining mumkin qadar taqqoslana olinishini ta'minlashi, shu jumladan quyidagi ko'rsatkichlar bo'yicha ta'minlashi:

a) import amalga oshirilayotgan mamlakat yoki geografik mintaqa,

b) olib chiqiladigan tovarlarning miqdori;

d) sotuvning tijorat shartlari, shu jumladan bozor konyunkturasi (asosan xomashyo tovarlarni eksport qilishda);

2) sotib oluvchining barcha sarf-xarajatlarini xarajatlarning bojxona qiymatiga kiritish nuqtayi nazaridan hisobga olishi lozim.

Agar shartnomada qat'iy belgilab qo'yilgan narxlar mavjud bo'lmasa va faqat tovarning uzil-kesil narxini belgilash shartlari aks ettirilgan bo'lsa yoxud shartnomaga shartlariga muvofiq uzil-kesil narx sotib oluvchi tomonidan tovari miqdor va sifat bo'yicha qabul qilib olish natijalariga ko'ra aniqlansa, olib chiqilayotgan tovarning

bojxona qiymati muvaqqat (shartlı) bahoni hisobga olgan holda aniqlanadi.

Deklarant yoki bojxona brokeri o'zida mavjud bo'lgan, bojxona qiymatining muvaqqat bahosi xolis ekanligini ta'minlaydigan hujjalarni taqdim etishga haqli.

Olib chiqilayotgan tovarning bojxona qiymatini muvaqqat bahosi uchun asos sifatida quyidagilar qabul qilinadi:

- shartnomada qayd etilgan dastlabki narx;

- shartnomada belgilangan, uni hisob-kitob qilish shartlariga muvofiq tovar yuklab jo'natilgan sanada aniqlangan hisob-kitob bahosi.

Ushbu ko'rsatilgan hisob-kitoblarni o'tkazish mumkin bo'l-magan taqdirda, olib chiqiladigan tovarning bojxona qiymatini muvaqqat baholash bojxona organining ixtiyorida mavjud bo'lган narxlar to'g'risidagi tegishli axborot asosida amalga oshirilishi mumkin.

Deklarant yoki bojxona brokerining yozma arizasi bo'yicha bojxona organi ko'rib chiqilayotgan bitim shartlaridan hamda bojxona va valutaga oid qonun hujjalari talablaridan kelib chiqqan holda, deklarant yoki bojxona brokeri tomonidan ma'lum qilingan, bojxona qiymatini tasdiqlaydigan va (yoki) aniqlashtiradigan zarur hujjalarning deklarant yoki bojxona brokeri tomonidan taqdim etilish muddatini belgilaydi. Ma'lum qilingan bojxona qiymatini tasdiqlash va (yoki) aniqlashtirish uchun zarur bo'lgan barcha hujjalar deklarant yoki bojxona brokeri tomonidan belgilangan muddatda taqdim etilganidan keyin unga tuzatishlar kiritiladi.

Bojxona qiymati olib chiqilayotgan tovarga doir bitimning qiymati asosida quyidagi hollarda aniqlanishi mumkin emas, agar:

- shartnomada bitimning qiymatiga ta'sir ko'rsatgan cheklovlar va (yoki) shartlar mavjud bo'lsa;

- ta'sirini hisobga olish mumkin bo'lman shartlarga rivoja etilishiga sotish va bitimning qiymati bog'liq bo'lsa;

- bitim ishtiokchilar o'zaro bog'liq shaxslar bo'lsa va bu omilning bitim qiymatiga ta'sirini qiymat tarzida ifodalash mumkin bo'lmasa;

– bojxona qiymatini ma'lum qilishda deklarant yoki bojxona brokeri tomonidan foydalanylган ма'lumotlar hujjatlar bilan tasdiqlanmagan yoxud noto'g'ri bo'lsa.

**Olib chiqiladigan tovarning bojxona qiymatini aniqlashda bitimning bahosiga quyidagi xarajatlar kiritiladi, agar bu xarajatlar bitimning bahosiga kiritilmagan bo'lsa:**

a) tovarni bojxona hududidan olib chiqiladigan joygacha yetkazib berish xarajatlari:

- transportda tashish qiymati;
- tovarlarni yuklash, tushirish, qayta yuklash va tushirish-ortish xarajatlari;
- sug'urtalash qiymati.

b) sotuvchi tomonidan qilingan xarajatlar:

– vositachilik va brokerlik haqi, bundan tovarni xarid qilish bo'yicha vositachilik haqi mustasno;

– konteynerlarning va (yoki) boshqa ko'p marta ishlataladigan idishlarning qiymati, agar O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyatining tovar nomenklaturasiga muvofiq ularga baholanayotgan tovar bilan bir butun deb qaralsa;

– o'rov-joylashning qiymati, shu jumladan o'rash-joylash materiallarining va o'rash-joylash ishlarining qiymati;

d) intellektual mulk obyektlaridan foydalanganlik uchun sotib oluvchi baholanayotgan tovarni sotish shartlari sifatida bevosita yoki bilvosita to'lashi kerak bo'lgan litsenziya to'lovlar va boshqa to'lovlar;

e) sotuvchining baholanayotgan tovarni keyinchalik bojxona hududidan tashqarida har qanday tarzda qayta sotish, o'tkazish yoki undan foydalanishdan olingan bevosita yoki bilvosita daromadining bir qismi.

Yuqorida ko'rsatilgan bitimning bahosiga qo'shiladigan komponentlar tegishli tovarlar, ishlar va xizmatlar (tashish, sug'urtalash, sertifikatlashtirish, brokerlik xizmatlari) uchun haq to'langanligi to'g'risida vakolatli shaxs tomonidan taqdim etilgan hujjatlar (hisobvaraq-fakturalar, to'lov topshiriqnomalari, cheklar) asosida aniqlanadi.

**Olib chiqiladigan tovarning bojxona qiymatini aniqlashda bitimning narxidan quyidagi to'lovlar va xarajatlar chiqarib**

**tashlanadi, basharti ular ilgari bitimning narxiga kiritilgan bo'lsa va hujjatlar bilan tasdiqlanishi mumkin bo'lsa:**

- sanoat qurilmalari, mashinalar yoki uskunalar kabi tovarlar bojaxona hududidan olib chiqilganidan so'ng amalga oshirilgan uskunalarni qurish, o'rnatish, yig'ish, montaj qilish, sozlash va ularga xizmat ko'rsatish yoki texnik ko'maklashish xarajatlari;
- tovar bojaxona hududidan olib chiqilgandan keyingi uni yetkazib berish xarajatlari,
- tovar bojaxona hududidan olib chiqilganidan keyingi uni yetkazib berishni sug'ortalash qiymati;
- import qilingan mamlakatda sotuvchi tomonidan to'lanadigan bojaxona to'lovlari.

Bitimning narxi mavjud bo'lmanan taqdirda, olib chiqiladigan tovarning bojaxona qiymati eksport qilayotgan sotuvchining olib chiqiladigan tovarni ishlab chiqarish yoki olish, saqlash va tashish bilan bog'liq xarajatlari to'g'risida deklarant yoki bojaxona brokeri tomonidan taqdim etilgan hujjatlardan kelib chiqqan holda aniqlanadi. Bunda yuqorida sanab o'tilgan xarajatlar ham hisobga olinadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi. Vazirlar Mahkamasining 2007-yil 19-sentabrdagi 198-son qarori bilan «O'zbekiston Respublikasining bojaxona hududidan olib chiqiladigan tovarlarning bojaxona qiymatini belgilash va deklaratsiyalash tartibi to'g'risidagi nizom» tasdiqlandi va 2007-yil 1-oktabrдан boshlab amalga kiritildi.


Nizom bojaxona hududidan olib chiqiladigan tovarlarning bojaxona qiymatini belgilash va deklaratsiyalash tartibini belgilaydi va:

- deklarantlar tomonidan (ishlab chiqarish yoki tadbirkorlik faoliyati uchun mo'ljallanmagan tovarlarni olib chiquvchi jismoniy shaxslar bundan mustasno) belgilangan tartibda, bojaxona qiymatini belgilashda va bojaxona yuk deklaratsiyasida ko'rsatishda, bojaxona to'lovlarini to'lashda,
- bojaxona organlari tomonidan - deklarant tomonidan ko'rsatilgan bojaxona qiymatini nazorat qilishda va bojaxona statistikasini yuritishda majburiy tartibda qo'llanadi.

Tovarni eksportga sotishda tovarning («DAF - O'zbekiston Respublikasining bojaxona chegarasi» (DAF - «delivered at frontier»)

shartlariga keltirilgan qiymati olib chiqilayotgan tovarning bojxona qiymati hisoblanadi.

So'nggi yillarda eksport shartnomalar asosida yetkazib berish shartlari qo'llanilish dinamikasi to'g'risidagi ma'lumot quyidagi rasmda keltirilgan.



**33-rasm.** 2010-2012-yillarda eksport shartnomalar asosida yetkazib berish shartlari qo'llanilgan BYuDlar diagrammasi.

Manba: DBQ ma'lumotlari asosida tayyorlangan

☞ O'zbekiston Respublikasining bojxona hududidan olib chiqilayotgan tovarlarning bojxona qiymati:

- bojxona to'lovlarini hisoblash va bojxona statistikasini yuritish uchun belgilanadi;
- valuta tushumining bir qismini majburiy sotish miqdorini hisoblash uchun qo'llanmaydi.

Tovarni O'zbekiston Respublikasining bojxona hududidan olib chiqish joyi (punkt) deyilganda quyidagilar tushuniladi:

a) aviatsiya vositasidagi tashishlar uchun – O'zbekiston Respublikasi hududidagi jo'natish aeroporti yoki so'nggi aeroport, u

yerda tovarni tashiyotgan samolyot qo'nadi va samolyotga tovarni so'nggi yuklash amalga oshiriladi;

b) daryo orqali tashishlar uchun – O'zbekiston Respublikasi hududidagi tovar yuklanadigan so'nggi port yoki tovarni tashish porti, agar tovarni qayta yuklash fakti ushbu portning bojxona organi tomonidan tasdiqlangan bo'lsa;

d) temir yo'l orqali tashishlar uchun – O'zbekiston Respublikasi hududidagi so'nggi stansiya yoki O'zbekiston temir yo'llari kompaniyasining xizmat ko'rsatish zonasiga kiradigan qo'shi davlatning birinchi stansiyasi;

e) tovarlarni boshqa transport turlari vositasida tashishlar uchun – tovarni tashish yo'li bo'y lab O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasidagi o'tkazish punkti joylashgan joy;

f) pochta orqali yetkazib beriladigan tovarlar uchun – xalqaro pochta ayriboshlash joyi;

g) quvurlar orqali tashiladigan tovarlar (neft, gaz va boshqalar) hamda elektr energiyasi uchun – O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasidagi tegishli hisoblagichlar joylashgan joy.

## **2. O'zbekiston Respublikasining bojxona hududidan olib chiqiladigan tovarlarning bojxona qiymatini belgilash tartibi**

Olib chiqilayotgan tovarning bojxona qiymati tovarni eksportga sotishda tovar O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali o'tkazilayotgan vaqtida olib chiqilayotgan tovar uchun amalda to'langan yoki to'lanishi kerak bo'lgan narxdan kelib chiqqan holda belgilanadi

 **Olib chiqilayotgan tovarlarning bojxona qiymatini belgilashda olib chiqilayotgan tovar uchun amalda to'langan yoki to'lanishi kerak bo'lgan narxga quyidagi xaratjatlar qo'shiladi, agar ular ko'rsatilgan narxga kiritilmagan bo'lsa:**

a) tovarni O'zbekiston Respublikasining bojxona hududidan olib chiqib ketiladigan joyigacha (punktgacha) yetkazib berish bo'yicha xaratjatlar:

- tashish qiymati;
- yuklash, tushirish, qayta yuklash va ortish-tushirish xarajatlari;
- sug'urta to'lovi;
- sertifikatlash va ekspertizadan o'tkazish bo'yicha xizmatlar qiymati;

b) sotuvchi tomonidan qilingan xarajatlari:

- vositachilik va brokerlik to'lovlari;

– konteynerlar va (yoki) boshqa ko'p martalab ishlataladigan taralar qiymati, agar ularga tovar nomenklaturasiga muvofiq baholanayotgan tovar bilan bir butun sifatida qaralsa;

– joylash qiymati, shu jumladan, joylash materiallari va joylash ishlari qiymati;

d) olib chiqiladigan tovarlarni ishlab chiqarish va/yoki eksportga sotish uchun sotib oluvchi bevosita yoki bilvosita sotuvchiga bepul yoki pasaytirilgan narx bo'yicha ko'rsatadigan xizmatlar va yetkazib beradigan tovarlar qiymatining tegishli qismi:

– xomashyo, materiallar, detallar, yarim tayyor fabrikatlar hamda olib chiqiladigan tovarning tarkibiy qismi hisoblanadigan boshqa butlovchi qismlar;

– instrumentlar, shtamplar, shakllar hamda olib chiqiladigan tovarlarni ishlab chiqarishda foydalanilgan boshqa shu kabi predmetlar;

– olib chiqiladigan tovarlarni ishlab chiqarishda sarflangan yordamchi materiallar;

– muhandislik ishlanmalari, tajriba-konstrukturlik ishlari, dizayn, badiiy jihozlash, olib chiqiladigan tovarlarni ishlab chiqarish uchun bevosita zarur bo'lgan eskizlar va chizmalar,

e) sotib oluvchi olib chiqiladigan tovarlarni xarid qilish shartlari sifatida bevosita yoki bilvosita amalga oshirilishi kerak bo'ladigan intellektual mulk obyektlaridan foydalanganlik uchun to'lashi kerak bo'lgan litsenziya to'lovlari va boshqa to'lovlari;

f) olib chiqiladigan tovarni keyinchalik biron-bir tarzda qayta sotish, tasarruf etish yoki ulardan foydalanishdan olingan, tovar O'zbekiston Respublikasining bojxona hududidan olib chiqilgandan keyin sotuvchiga bevosita yoki bilvosita tegishli bo'ladigan tushumlarning istalgan qismi qiymati.

☞ Yuqorida ko'rsatilgan xarajatlarni bojxona qiymatiga kiritish quyidagi hollarda amalga oshiriladi, agar ular:

- a) haqiqatda mavjud bo'lsa yoki bo'lishi mumkin bo'lsa;
- b) xolisona va miqdor jihatidan belgilanadigan ma'lumotlar asosida hujjatlar bilan tasdiqlangan bo'lsa;
- c) kontraktda nazarda tutilgan tovar qiymatiga kiritilmagan bo'lsa.

☞ Agar ushbu xarajatlarning miqdorini belgilash va hujjatlar asosida tasdiqlash mumkin bo'lmasa bojxona qiymati olib chiqiladigan tovarlarning oldi-sotdi qiymati asosida aniqlanishi mumkin emas.

Agar shartnomada belgilab qo'yilgan narxlar mavjud bo'lmasa va faqat tovarning uzil-kesil narxini belgilash shartları aks ettirilgan bo'lsa (masalan, tegishli sanadagi birja kotirovkalarini hisobga olgan holda; narxlarni va shu kabilarni hisoblash formulasi bo'yicha) yoxud agar shartnomada shartlariga muvofiq uzil-kesil narx sotib oluvchi tomonidan uni miqdori va sifati bo'yicha qabul qilib olish natijalariga ko'ra aniqlansa, bojxona qiymati quyidagi tartibda belgilanadi va deklaratsiya qilinadi:

☞ Bojxona qiymatini shartli baholash uchun baza sifatida quyidagilar qabul qilinadi:

- a) olib chiqiladigan tovarlarni bojxonada rasmiylashtirish shartli baholashni hisobga olgan holda amalga oshiriladi;
- b) deklarant o'zidagi shartli bahoning xolisonaligini tasdiqlaydigan ma'lumotlar va hujjatlarni taqdim etishga haqlidir.
  - shartnomada qayd etilgan boshlang'ich (taxminiy) narx;
  - shartnomada belgilangan hisoblash shartlariga muvofiq tovar yuklab jo'natilgan sanada belgilangan hisoblash narxi.

Ushbu ko'rsatilgan hisoblashlarni amalga oshirish mumkin bo'limgan taqdirda bojxona qiymatini vaqtinchalik (shartli) baholash

bojxona organi ixtiyorida **mavjud bo'lgan** tegishli baholash axboroti asosida amalga oshirilishi mumkin.

Bojxona organi deklarantning yozma arizasi bo'yicha, ko'rib chiqilayotgan oldi-sotdi shartlaridan va bojxona qonun hujjatlari talablaridan kelib chiqqan holda, deklarant tomonidan ko'rsatilgan bojxona qiymatini tasdiqlaydigan va/yoki aniqlashtiradigan zarur hujjatlarni deklarant taqdim etadigan muddatm belgilaydi. Bojxona organining bojxona rasmiy lashtirishini amalga oshiradigan mansabdor shaxsi tomonidan bojxona yuk deklaratasiyasiga tegishli yozuvlar va qaydlar belgilangan tartibda kiritiladi. Deklarant tomonidan ko'rsatilgan bojxona qiymatini aniqlashtirish va/yoki tasdiqlash uchun zarur bo'lgan barcha hujjatlar belgilangan muddatda taqdim etilgandan keyin unga tuzatishlar kiritish va bojxona to'lovlarini qayta hisoblash amalga oshiriladi.

 **Bojxona qiymati quyidagi hollarda olib chiqiladigan tovarning oldi-sotdi qiymati asosida belgilanishi mumkin emas, agar:**

– baholanayotgan tovarga sotib oluvchining huquqlariga nisbatan cheklashlar (qonun hujjatlarida belgilangan cheklashlar bundan mustasno) va tovarning narxiga sezilarli ta'sir ko'rsatmaydigan cheklashlar mavjud bo'lsa,

– sotish va oldi-sotdi narxi ta'sirini hisobga olish mumkin bo'lmagan shartlarga rivoja etishga bog'liq bo'lsa;

– tovarning bojxona qiymatini ko'rsatishda deklarant tomonidan foydalanilgan ma'lumotlar hujjatlar bilan tasdiqlanmagan bo'lsa yoxud ishonchli bo'lmasa;

– oldi-sotdi qatnashchilari bir-biriga o'zaro bog'liq shaxslar bo'lsa, ularning bir-biriga o'zaro bog'liqligi oldi-sotdi narxiiga ta'sir qilmaydigan hollar (bu deklarant tomonidan isbotlangan bo'lishi kerak) bundan mustasno.

Olib chiqiladigan tovarlarga nisbatan oldi-sotdi bitishuvi (tovarlarni ijara shartnomasi bo'yicha yetkazib berish, bepul va vositachilik yetkazib berishlari va shu kabilalar) mavjud bo'lmaganda, shuningdek, olib chiqiladigan tovarlarning oldi-sotdi narxidan foydalanish

mumkin bo'lmaganda bojxona qiymatini aniqlash uchun **quyidagilar asos hisoblanadi:**

– yoxud deklarant tomonidan taqdim etilgan sotuvchi-eksport qiluvchining buxgalteriya hisobidagi olib chiqiladigan tovarni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarini hamda aynan yoki shunga o'xhash tovarlar O'zbekiston Respublikasining bojxona hududidan olib chiqilayotganda eksportchi tomonidan olinadigan foya miqdorini aks ettiruvchi ma'lumotlar. Bunda sanab o'tilgan xarajatlar hisobga olinishi kerak;

– yoxud olib chiqiladigan aynan yoki shunga o'xhash tovarlarni kirim qilish va balansdan chiqarish to'g'risidagi buxgalteriya ma'lumotlari.

Deklarant tomonidan ko'rsatilgan bojxona qiymatining to'g'riligini tasdiqlaydigan ma'lumotlar mavjud bo'lmaganda yoxud deklarant tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar ishonchli va/yoki yetarli emas deb hisoblashga asos mavjud bo'lganda bojxona organi bojxona qiymatini belgilaydi. Bunda bojxona organi deklarantning yozma so'rovi bo'yicha unga ular bo'yicha deklarant tomonidan ko'rsatilgan bojxona qiymatining bojxona organi tomonidan qabul qilinmaganligi sabablarining yozma ravishdagi izohini taqdim etishi shart.

☞ Bojxona qiymatini belgilash uchun bojxona organi o'z ixtiyorida mavjud bo'lgan yoki deklarant tomonidan taqdim etilgan:

– olib chiqiladigan aynan yoki shunga o'xhash tovarlar bilan tashqi savdo shartnomalari narxlari to'g'risidagi;

– olib chiqiladigan aynan yoki shunga o'xhash tovarlar qiymati (tannarxi) kalkulatsiyasi to'g'risidagi,

– aynan yoki shunga o'xhash tovarlar uchun narxlarning birja kotirovkalari to'g'risidagi;

– tegishli mintaqaviy bozorlardagi ushbu tovarlarning narxlari to'g'risidagi;

– olib chiqiladigan tovarlarning belgilangan tartibda amalga oshirilgan tovar-qiyomat ekspertizasi ma'lumotlari bo'yicha axborotlardan foydalanishi mumkin.

## **Bojxona qiymatini belgilashda bojxona organi:**

- a) baholanayotgan hamda aynan va/yoki ana shunday tovarlarni, shu jumladan, quyidagi:
- import mamlakati yoki jo‘g‘ rofiy mintaqasi;
  - olib chiqiladigan tovarlar miqdori;
  - sotishning tijorat shartlari, shu jumladan, bozor konyunkturasi (asosan xomashyo tovarlarni eksport qilishda) parametrlari bo‘yicha imkonli boricha qiyoslashni ta‘minlashi;
- b) sotib oluvchining barcha xarajatlarini bojxona qiymatiga kiritish nuqtayi nazaridan hisobga olishi;
- d) bojxona yuk deklaratsiyasiga bojxona qiymatining bojxona organlari tomonidan belgilanganligi to‘g‘risida tegishli yozuvni kiritishi;
- e) deklarant tomonidan ko‘rsatilgan bojxona qiymatiga belgilangan tartibga muvofiq tuzatishlar kiritishi zatur.

☞ Qayta eksport qilinayotgan tovarning (ilgari olib kelingan tovari O‘zbekiston Respublikasining bojxona hududidan olib chiqish) bojxona qiymati tovari O‘zbekiston Respublikasining bojxona hududiga olib kirish vaqtidagi uning bojxona qiymati hamda O‘zbekiston Respublikasi hududida qilingan quyidagi xarajatlar sifatida belgilanadi:

- bojxonada rasmiylashtirish uchun bojxona yig‘imlari;
- tovarning qayta eksport qilinishi munosabati bilan qaytarilishi kerak bo‘lgan to‘lovlarini chegirgan holdagi boixona to‘lovlar;
- tovari saqlash, tashish va sug‘urta qilish uchun to‘lovlar;
- boshqa xarajatlar.

## **Olib chiqilayotgan tovarlarning bojxona qiymatini deklaratsiyalash tartibi**

Bojxona qiymati deklarant tomonidan bojxona qiymati deklaratsiyasi (BQD) shakllarini qo‘llagan holda bojxona yuk deklaratsiyasida ko‘rsatiladi (deklaratsiyalanadi).

Ko‘rsatilgan bojxona qiymatiga nisbatan asoslangan shubhalar paydo bo‘lgan taqdirda bojxona organi deklarantdan bojxona qiymati

asoslashlarini va hisob-kitoblarini taqdim etishni talab qilishga haqlidir. Ushbu maqsadlar uchun bojxona qiymati deklaratsiyasi shakllari (BQD-1, BQD-2) dan foydalanish mumkin.

Ko'rsatilgan bojxona qiymatini tasdiqlash uchun deklarant bojxona organiga ishonchli, miqdori jihatidan aniqlangan va hujjalalar bilan tasdiqlangan axborotlardan iborat bo'lган ma'lumotlarni taqdim etishi shart.

☞ Ko'rsatilgan bojxona qiymatini tasdiqlash uchun deklarant tomonidan taqdim etilgan barcha hujjalalar:

- zarur tarzda rasmiylashtirilgan bo'lishi;
- ularni to'ldirishning tegishli qoidalari (yo'riqnomalari)da nazarda tutilgan barcha zarur rekvizitlar va ma'lumotlar mavjud bo'lishi;
- alohida yetkazib berish va/yoki umuman shartnomaga bo'yicha to'lovlar va hisob-kitoblarni identifikatsiyalashni ta'minlashi;
- tashkilotning rahbari, bosh buxgalteri imzolari va muhri yoxud yuridik shaxs bo`lmasdan tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshiruvchi shaxsning (buxgalteriya hujjalariiga nisbatan) imzosi bilan tasdiqlangan bo'lishi kerak.

Bojxona qiymatini ko'rsatishda deklarant tomonidan taqdim etiladigan va uning tomonidan tijorat siri yoki maxfiy deb belgilanadigan axborotdan bojxona organi tomonidan faqat bojxona maqsadlari uchun foydalilanadi va deklarantning ruxsatisiz ularning uchinchi shaxslarga berilishi mumkin emas, qonun hujjalarda belgilangan hollar bundan mustasno.

Tijorat siri yoki maxfiy hisoblanadigan axborotni oshkor qilganlik uchun bojxona organi va uning mansabdor shaxslari O'zbekiston Respublikasi qonun hujjalariiga muvofiq javob beradilar.

Bojxona qiymati to'g'risidagi ko'rsatilgan ma'lumotlarni tasdiqlash uchun deklarant bojxona yuk deklaratsiyasi bilan bir vaqtida bojxona organiga tashqi savdo shartnomasi (kontrakt)ni yoki unga muvofiq tovarlarni O'zbekiston Respublikasidan olib chiqish amalga oshiriladigan boshqa hujjalni, tovar yuk xatini, to'lov-hisob kitob (schyot-faktura) hujjalarini hamda deklarant tomonidan

bojxona qiymatining to‘g‘riligim tasdiqlash imkonini beradigan boshqa hujjatlar taqdim etilishi shart.

Olib chiqiladigan tovarlarning bojxona qiymatini belgilashda va ko‘rsatishda deklarant va bojxona ma’muriyatining huquq va majburiyatları O‘zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksiga muvofiq belgilanadi.

### **3. O‘zbekiston Respublikasining bojxona hududidan olib chiqiladigan tovarlarning bojxona qiymatini deklaratсиya to‘ldirish tartibi**

O‘zbekiston Respublikasining bojxona hududidan olib chiqiladigan tovarlarning bojxona qiymatini deklaratсиya to‘ldirish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2008-yil 5-mayda 1803-son bilan ro‘yxatga olingan yo‘riqnomalarini talablari asosida amalga oshiriladi.

Olib chiqiladigan tovarlarning bojxona qiymatini belgilash, bojxona to‘lovlarini hisoblash, deklarant tomonidan ko‘rsatilgan bojxona qiymatini nazorat qilish va bojxona organlari tomonidan bojxona statistikasini yuritish maqsadida qo‘llaniladi.

BQD olti nusxada to‘ldirilib, bulardan:

- a) birinchi nusxa – bojxona organi hujjatlarida saqlanadi;
- b) ikkinchi nusxa – O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasi statistik hisoboti uchun;
- c) uchinchi nusxa – deklarantga qaytarib beriladi;
- d) to‘rtinchi nusxa – bojxona to‘lovleri hisobotini yurituvchi bojxona organi uchun;
- e) besinchi nusxa – tovarlarni olib chiqishda tovar yuk hujjatlari bilan birga tovar qabul qiluvchi davlatga yuboriladi.
- f) oltinchi nusxa – tovar eksport qiluvchi uchun.

BQD tegishli bojxona yuk deklaratasiyasining (BYuD) ilovasi bo‘lib, usiz haqiqiy hisoblanmaydi. BQD ushbu yuqorida keltirilgan holatlardan tashqari O‘zbekiston Respublikasidan olib chiqilayotgan barcha tovarlar uchun to‘ldiriladi va tovarlarning bojxona rasmiylashtiruvini amalga oshirayotgan bojxona organiga BYuD bilan bir vaqtda taqdim etiladi.

☞ **BQD quyidagi holatlarda to'ldirilmaydi:**

– olib chiqilayotgan tovarlar to'plamining bojxona qiymati 1000 AQSH dollariga teng qiymatdan oshmasa (tijorat maqsadida olib chiqilayotgan tovarlar bundan mustasno);

– jismoniy shaxslar tomonidan ularning yashash joyi o'zgargan taqdirda shaxsiy (xo'jalik) mol-mulkleri hisoblangan tovarlar olib chiqilganda (shaxsning oldingi yashash joyidan hisobdan chiqarilganligini tasdiqlovchi belgi mavjud bo'lganda);

– uzoq muddatli xizmat safariga ketayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining shaxsiy mulklari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi hududidan chiqib ketayotgan boshqa davlatlar fuqarolarining O'zbekiston Respublikasiga olib kirgan shaxsiy mulklari olib chiqilganda;

– tijorat faoliyati uchun mo'ljallanmagan namunalar, reklama materiallari, gumanitar yordam shaklidagi tovarlar va boshqa tovarlar olib chiqilganda.

Bojxona qiymatini deklaratsiyasi BQD-1 shaklida yoki BQD-2 shaklida to'ldiriladi.

☞ **Olib chiqiladigan tovarning bojxona qiymati quyidagi asoslarda belgilanayotgan holatlarda BQD-1 shakli to'ldiriladi:**

a) olib chiqilayotgan tovarning oldi-sotdi bitimi qiymati bo'yicha;

b) olib chiqilayotgan tovarning ishlab chiqarilishi va sotilishi bilan bog'liq xarajatlar aks etgan sotuvchi-eksport qiluvchining buxgalteriya hisobi ma'lumoti bo'yicha;

d) **olib** chiqilayotgan tovari balansga kirim qilish va chiqarish to'g'risidagi buxgalteriya ma'lumotlari bo'yicha.

**Boshqa holatlarda BQDning BQD-2 shaklida to'ldiriladi.**

BQD-1 va BQD-2 shakllarining har biri 2 ta asosiy varaqlardan iborat. Birinchi (old) va bojxona qiymati va uning elementlari to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rsatiladigan ikkinchi varaq. BQD-1 va BQD-2 shakldagi deklaratsiyalar (asosiy varaqlar) bittadan uchta turgacha bo'lgan tovarlar uchun to'ldiriladi. Uchta turdan ko'p tovarlar uchun qo'shimcha varaqlardan foydalaniladi va bu varaqlar

ham o‘z navbatida bittadan uchta turgacha bo‘lgan tovarlar uchun to‘ldiriladi.

BQD-1 va BQD-2 shakl deklaratsiyasining old varag‘ida ko‘rsatilgan barcha ma’lumotlar qo‘srimcha varaqlarda ko‘rsatilgan tovarlarga butunlay taalluqli bo‘lsa, qo‘srimcha varaqlardan foydalanish mumkin. Qo‘srimcha varaqlar sifatida BQD-1 va BQD-2 shakllarining ikkinchi varaqlaridan foydalaniлади.

☞ BQD va uning qo‘srimcha varaqlari kompyuter yoki yozuv mashinasida davlat yoxud rus tillarida to‘ldiriladi.

BQD yoki qo‘srimcha varaqlarda o‘chirib to‘g‘rilash va ustidan tuzatishlar bo‘lmasligi lozim. Deklarant tomonidan kiritilgan barcha tuzatishlar faqat deklarant tomonidan yozuvlarni o‘chirish va kerakli ma’lumotlarni ko‘k yoki qora sharikli ruchka bilan ustidan yozish orqali amalga oshiriladi. Har qanday tuzatishlar deklarant jismoniy shaxs bo‘lsa, uning imzosi bilan, deklarant yuridik shaxs bo‘lsa, mas‘ul xodimining imzosi va muhri bilan tasdiqlanishi lozim.

Tushunarsiz holda, tuzatishlar va deklarant tomonidan tasdiqlanmagan o‘zgartirishlar bilan to‘ldirilgan BQD bojxona organlari tomonidan qabul qilinmaydi. BQDning (BQD-1 va BQD-2 shakllari) har bir varag‘i deklarantning imzosi bilan tasdiqlangan bo‘lishi lozim.

### BQD-1 shaklini to‘ldirish tartibi

☞ Deklarant tomonidan quyidagi ustunlar to‘ldiriladi: 1(a), 1(b), 2, 3, 4(a), 4(b), 5, 6(a), 6(b), 7, 8, 9, 10, 11, 12, 13(a), 13(b), 13(d), 14, 15(a), 15(b), 15(d), 16(a), 16(b), 16(d), 16(e), 17, 18, 19(a), 19(b), 19(d), 19(e), 19(f), 19(g), 19(h), 19(i), 20, 21; 22, 23, 24.

1(a)- «Sotuvchi» ustunida eksport qiluvchining nomi va yuridik manzili ko‘rsatiladi. Agar tovar jo‘natuvchi O‘zbekiston Respublikasi rezidenti bo‘lsa, korxona va tashkilotlarning umum davlat tasniflagichi bo‘yicha kodi (KTUT) (yuridik shaxslar uchun) yoki

soliq to'lovchining identifikatsion raqami (STIR) (jismoniy shaxslar uchun) ko'rsatilishi lozim.

1(b) - «Deklarant» ustunida tovarni deklaratsiyalovchi va taqdim etuvchi yuridik shaxsning nomi, pochta manzili hamda KTUT bo'vicha kodi yoki jismoniy shaxsning familiyasi, ismi, sharifi, pochta manzili va STIR ko'rsatiladi. Agar sotuvchi deklarant bo'lsa, 1(b)-ustunga «1(a)-ustuniga qarang» yozuvi bilan havola qilinadi.

2 - «Sotib oluvchi» ustunida tovarni sotib oluvchi import qiluvchining nomi (familiyasi, ismi, sharifi) va pochta manzili ko'rsatiladi.

3 - «Yetkazib berish sharti» ustunida tovar yetkazib berish shartining harflarda qisqartirilgan nomi (Inkoterms 2000 asosida) va geografik joy nomi ko'rsatiladi. Masalan: DAF - Sarag'och stansiyasi va h. k.

4(a) - «Hisob-faktura yoki boshqa hujjatning raqami va sanasi» ustunida tovar olib chiqish uchun asos bo'lgan hisob-faktura (invoys) yoki boshqa hujjatning raqami va sanasi ko'rsatiladi.

4(b) - «Shartnoma raqami va sanasi» ustunida tovarni olib chiqish uchun tuzilgan shartnomaning (bitim, kelishuv), shuningdek, shartnoma qo'shimchasining (agar shartnoma qo'shimchalari mavjud bo'lsa) raqami va sanasi ko'rsatiladi.

5 - «Qo'shimcha varaqlar soni» ustunida BQD-1 shakliga ilova qilingan qo'shimcha varaqlar soni ko'rsatiladi.

6(a), 6(b), 7, 8, 9, 10 - ustunlardagi kerakli javob «X» belgisi («Ha» yoki «Yo'q») bilan belgilanadi.

8, 9, va 10-ustunlarda, agar javob «Ha» bo'lsa, batafsil yoritiladi, ya ni mazkur shartning mazmuni keltiriladi.

11- «Deklaratsiya imzolagan shaxs» ustunida 1(b) ustunda ko'rsatilgan shaxsslarni nomidan tovarlarni deklaratsiyalash vakolatiga ega bo'lgan shaxs F.I.Sh., egallab turgan lavozimi va telefon raqami ko'rsatiladi.

12- «Joy va sana» ustunida BQD-1 to'ldirilgan joy va sana ko'rsatiladi.

Quyida eksport bojxona qiymati deklaratsiyasining BQD-1 shakli asosiy varag'inining namunasi keltirilmoqda.

**ОЛИЙ ЧИКИЛАДИГАН ТОВАРЛАРИНИГ БОЖХОНА ҚИЙМАТИ ДЕКЛАРАЦИЯСИШ  
БҚД-1 шакли**

0 025650

# ЎЗБЕКИСТОН - UZBEKISTAN

## ОЛИЙ ЧИКИЛАДИГАН ТОВАРЛАРИНИГ БОЖХОНА ҚИЙМАТИ ДЕКЛАРАЦИЯСИ

БОЖХОНА КУДАР НУСКА	<b>АСОСИЙ ВАРАҚ</b> 1 (а). Сотуви <span style="border: 1px solid black; padding: 2px;">КУП / СТИР</span>  1 (б). Декларант <span style="border: 1px solid black; padding: 2px;">КУП / СТИР</span>  2. Сотиб олувчи	<b>БҚД-1 ШАКЛИ</b> БҚД рўйхати олан разами  Боажхона кайдалари угул  3. Етганда берилган шартт  4(а). Годар олиб чиқишти исос бўлган хизб-фактура даги билан куражжатниг рагамни ва сотаси  4(б). Шартнома тинни разамини ва санаси (шартнома мийози булса) 5. БҚД-1 инсонга илоҳо юзиндан қўйичча каросяр сани
<b>Берилган жадоб X бўлганин билан бетлашаш</b>		
6 (а). Харидор ва сотуви бир-бириси Зоёник шахсемарм? <input type="checkbox"/> Ха <input checked="" type="checkbox"/> Йўк 6 (б). Бундан ўчро бонликлик боянини ачирсанг учсан? <input type="checkbox"/> Ха <input checked="" type="checkbox"/> Йўк		
7. Харидорнини санаси таъсирлардан тенни ёки улардан (юзимни таъсирлардан куражжатниг таъсирлардан) (хонум куражжатниг таъсирлардан ёки товар киийматига жойланган чаржларни курбасутини текомоллар бўллади мустасно?) <input type="checkbox"/> Ха <input checked="" type="checkbox"/> Йўк		
8. Товарни солине из битим киийматни таъсирленини жисобла олни мумкин бўлмаган шарпларга тири эмасинига бигандек хозатдор мансудани? <input type="checkbox"/> Ха <input checked="" type="checkbox"/> Йўк Агар "Ха" бўлса, тифозияларни кўрсалтигин		
9. Сотиб олувчи чинниң таъсирларни куражжатниг таъсирлардан куражжатниг таъсирлардан верак бўлшинан интилактуши мунжидликларни фойзианинганинг учун тушуни язсан бўлган линсияни гўлончлари на бўлши тўшешар мансудани? <input type="checkbox"/> Ха <input checked="" type="checkbox"/> Йўк Агар "Ха" бўлса, тифозияларни кўрсалтигин; 16-усулуни тегини сумманни кўрсалтигин		
10. Узбекистон Республикаси оложона Кудуздаги олончиликнига таъсирланаётганнига кўзига кўлди, тоғрӯф ташким учида фойзианийдан келини тушумнига бевосити ёки бўлвесити сотувчига теганини козак бўлгани истадиган киийматни кийтариши билан боғлиқ пайттар мавжудлиги? <input type="checkbox"/> Ха <input checked="" type="checkbox"/> Йўк Агар "Ха" бўлса, тифозияларни кўрсалтигин; 17-усулуни тегини сумманни кўрсалтигин		
11. Декларантнига ишборлаган шакл оловозми: Фамилияси, исеми, ширифи Телефони:		
<b>ДИККАТ!</b> Декларант боажхона киийматини тасдиқлаш учун таъсиси таънини иш хуҷоатиравчи на ушибу шаклига курбася, яни барча мазлумотлар учун конуничиликка муофиқ жавобигар хисобланади. Декларант боажхона расмийлантируви жараёвига мазлум килиниги киийматни тасдиқлашни қўйичча куражжатларни ўз вактида боажхона органига таъсиси таънини шарт.		
12. Жой: <span style="border: 1px solid black; padding: 2px;">_____</span>		
<span style="border: 1px solid black; padding: 2px;">_____</span> 20_____ йилдан сона мурхи		

*(натуна тушаси).*

## **BQD-1 shaklining qo'shimcha varag'ini to'ldirish tartibi**

BQD-1 shaklining har bir qo'shimcha varaqlarida uchta turgacha tovarlar to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rsatiladi. Har bir qo'shimcha varaqda uning tartib raqami va BQD-1 shaklining ro'yxatga olish raqami ko'rsatiladi.

«Tovar raqami» ustunida BYuDning yoki uning qo'shimcha varag'inining aynan o'xhash ustunidagi tegishli tovarning raqami va TIF TN kodи ko'rsatiladi.

«Hisob-kitob qilish uchun asos» A bo'limida tovarning bojxona qiymatini aniqlash uchun asos bo'lgan amalda to'langan yoki to'lanishi kerak bo'lgan narx haqida ma'lumotlar keltiriladi. Agar tovarning yetkazib berish sharti (3-ustun) va shartnomaning boshqa shartlariga asosan mazkur narxga qo'shish yoki ayirish talab etilmasa, ko'rsatilgan narx olib chiqiladigan tovarning bojxona qiymatiga teng bo'lishi mumkin Bunday holda bojxona qiymatini belgilash va nazorat qilish taqdim etilgan hujjatlar asosida, zarur hollarda amalda to'langan yoki to'lanishi lozim bo'lgan narxga tuzatishlar kiritish (o'zaro bog'liqlik ta'siri, shartlar va cheklolvar) orqali tekshirish va tasdiqlash bilan amalga oshiriladi. Bunda, A bo'limning 14-ustunidagi jami 24 (a) ustunida qaytariladi.

13(a) - «Tovarning shartnomada belgilangan valutadagi qiymati» ustunida tovarning sotuvchiga amalda to'langan yoki to'lanishi lozim bo'lgan shartnomada belgilangan valutadagi qiymati ko'rsatiladi.

13(b) - «Sotuvchi - eksport qiluvchining buxgalteriya hisobidagi ma'lumotlar bo'yicha tovarning qiymati» ustunida olib chiqiladigan tovari ishlab chiqarish va sotishda qilingan xarajatlarni aks ettiruvchi sotuvchi - eksport qiluvchining buxgalteriya hisobi asosida belgilangan tovarning qiymati ko'rsatiladi.

13(d) - «Buxgalteriya ma'lumotlari bo'yicha tovarning qiymati» ustunida olib chiqiladigan aynan yoki shunga o'xhash tovarlarni kirim qilish va balansdan chiqarish to'g'risidagi buxgalteriya ma'lumotlari asosida aniqlangan tovarning qiymati ko'rsatiladi.

«A bo'limda kiritilmagan shartnoma narxiga qo'shimcha qo'shishlar» B bo'limida tegishli hujjatlar bilan tasdiqlangan (tovar olib chiqish uchun asos bo'lgan tashqi savdo shartnomasi va boshqa

hujjat, yuk-kuzatuv, hisob-kitob va boshqa hujjatlar) shartnoma narxiga qo'shishlar inobatga olinadi.

14 - 18-ustunlardagi barcha ma'lumotlar so'mda keltiriladi.

14 - «Sotuvchining xarajatlari» ustunida 13(a), 13(b) va 13(d) ustunlarida ko'rsatilgan tovar narxiga qo'shilmagan sotuvchining xarajatlari aks ettiriladi.

14(a)-ustunda agar oldindan oldi-sotdi narxiga sotuvchi tomonidan amalga oshirilgan vositachilik va brokerlik to'lovlari hamda boshqa vositachilik xizmatlari bo'yicha xarajatlar kiritilmagan bo'lsa, ko'rsatiladi. Agar BQD-1 shakli bir to'plamga kiruvchi bir necha nomdag'i tovarlar uchun to'ldirilsa va shartnoma shu to'plamdag'i barcha yoki bir necha tovarlarga taalluqli bo'lsa, vositachilik, brokerlik va boshqa vositachilik to'lovlari 13(a), 13(b) va 13(d) ustunlarida ko'rsatilgan har bir nomdag'i tovarlar o'rtasida qiymati bo'yicha proporsional ravishda taqsimlanadi.

14(b)-ustunda agar konteynerlar va (yoki) boshqa ko'p martalab ishlatiladigan taralarga tovar nomenklaturasiga muvofiq baholanayotgan tovar bilan bir butun sifatida qaralsa, sotuvchining konteynerlar va (yoki) boshqa ko'p martalab ishlatiladigan taralarga qilgan xarajatlari ko'rsatiladi. Agar ko'p martalab ishlatiladigan taralardan foydalanilsa, unda bir necha bor tovar yetkazib berishda ularning narxi har bir to'plamdag'i tovarlar miqdoriga proporsional ravishda taqsimlanadi. Taraga qilingan xarajatlarning proporsional ravishda taqsimlanishi (ya'ni uning qiymatini qismlarga bo'lib har bir to'plamga o'tkazish) shartnomada o'z aksini topgan yoki biror bir hujjat bilan tasdiqlangan bo'lsa, bojxona organi tomonidan qabul qilinadi. Tara uchun qilingan xarajatlarga tarani sotuvchiga qaytarish bilan bog'liq bo'lgan alohida to'lanadigan xarajatlar kiritilmaydi.

14(d)-ustunda sotuvchining joylash, shu jumladan joylash materiallari va joylash ishlari bilan bog'liq bo'lgan xarajatlari ko'rsatiladi.

15-ustunda olib chiqiladigan tovarlarni ishlab chiqarish va/yoki eksportga sotish uchun sotib oluvchi bevosita yoki bilvosita sotuvchiga bepul yoki pasaytirilgan narx bo'yicha ko'rsatadigan xizmatlar va yetkazib beradigan tovarlar qiymati o'z aksini topadi.

15(a)-ustunda xomashyo, materiallar, detallar, yarim tayyor fabrikatlar hamda olib chiqiladigan tovarning tarkibiy qismi hisoblanadigan boshqa butlovchi qismlarning qiymati ko'rsatiladi.

Sotuvchi tomonidan uchinchi shaxslardan ularni sotib olishda to'langan narx mazkur tovarlarning (xizmatlar) qiymati hisoblanadi. Agar mazkur tovarlar sotuvchi yoki u bilan bog'liq shaxs tomonidan ishlab chiqarilgan bo'lsa, sotuvchining tegishli buxgalteriya hujjatlari bilan tasdiqlangan ishlab chiqarish qiymati ularning ishlab chiqarish qiymati sifatida qabul qilinadi. Agar sotib oluvchiga sotuvchi tomonidan avval ishlataligan tovarlar taqdim etilsa, ularning qiymati sotuvchining buxgalteriya ma'lumotlari asosida eskirish darajasi hisobga olingan holda aniqlanadi. Agar sotuvchi tomonidan sotib oluvchiga xomashyo, materiallar, detallar, yarim tayyor fabrikatlar hamda olib chiqiladigan tovarning tarkibiy qismi hisoblanadigan boshqa butlovchi qismlarni qayta ishslash, yetkazib berish, saqlash va boshqa xiznatiplar ko'rsatilgan bo'lsa, mazkur xizmatlar qiymati (bojxona qiymatini hisoblashda) ularni sotuvchi tomonidan ishlab chiqarilgan yoki sotib olingan narxi e'tiborga olinadi.

15(b)-ustunda olib chiqiladigan tovarlarni ishlab chiqarishda foydalilanigan instrumentlar, shtamplar, shakllar hamda boshqa shu kabi jihozlar qiymati ko'rsatiladi.

15(d)-ustunda olib chiqiladigan tovarlarni ishlab chiqarishda sarflangan yordamchi materiallar qiymati ko'rsatiladi.

15(e)-ustunda sotuvchi tomonidan sotib oluvchiga muhandislik ishlanmalari, tajriba-konstrukturlik ishlari, dizayn, badiiy jihozlash, olib chiqiladigan tovarlarni ishlab chiqarish uchun bevosita zarur bo'lgan eskizlar va chizmalar borasida ko'rsatgan xizmatlari qiymati ko'rsatiladi.

16-ustunda sotib oluvchi olib chiqiladigan tovarlarni xarid qilish shartlari sifatida bevosita yoki bilvosita amalga oshirilishi kerak bo'ladigan intellektual mulk obyektlaridan foydalanganlik uchun to'lashi kerak bo'lgan litsenziya to'lovlari va boshqa to'lovlari.

17-ustunda olib chiqiladigan tovarni keyinchalik biron-bir tarzda qayta sotish, tasarruf etish yoki ulardan foydalinishdan olingan, tovar O'zbekiston Respublikasining bojxona hududidan olib chiqilgandan keyin sotuvchiga bevosita yoki bilvosita tegishli bo'ladigan tushumlarning istalgan qismi qiymati e'tiborga olinadi.

18 - «Tovarni yetkazib berishdagi xarajatlar» ustunida O'zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqiladigan tovarlarning bojxona qiymatini aniqlashda, tovarni O'zbekiston

Respublikasi bojxona chegarasidagi joygacha yetkazib berishda amalda vujudga keladigan xarajatlар inobatga olinadi.

18(a)-ustunda agar yetkazib berish shartiga muvofiq tovarlarning O'zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqish joyigacha bo'lган transportda tashish xarajatlari baholanayotgan tovar narxiga qo'shilmagan bo'lsa, ular ko'rsatiladi. Istalgan turdagи transport vositalari orqali tovarlarni yetkazib berishda, bojxona qiymatiga yukni transportda tashish davrida amalda bo'lган tegishli transportda tashish tariflari asosida hisoblab chiqilgan mablag' qo'shiladi. Agarda mazkur transport vositasida yukni tashish bo'yicha yagona tarif haqida ma'lumotlar mavjud bo'lmasa, transport xarajatlarni hisoblab chiqarishda xarajatlarning zarur moddalarini va elementlaridan iborat transport xarajatlarni kalkulatsiya qilish bo'yicha buxgalteriya hisobi ma'lumotlaridan foydalanish lozim. Agar BQD-1 bir necha turdagи tovarlar uchun to'ldirilsa, olib chiqish joyigacha bo'lган transport xarajatlari ularning og'irligiga proporsional ravishda taqsimlanadi.

18(b)-ustunda O'zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqish joyigacha amalgal oshirilgan yuklash, tushirish, qayta yuklash va ortish-tushirish xarajatlari baholanayotgan tovarning narxiga qo'shilmagan va sotuvchi tomonidan alohida (qo'shimcha) to'langan bo'lsa, mazkur bandda ushbu xarajatlari ko'rsatiladi. Agar BQD-1 bir necha turdagи tovarlar uchun to'ldirilgan bo'lsa, yuklash, tushirish, qayta yuklash va ortish-tushirish xarajatlari tovarlarning og'irligiga proporsional ravishda taqsimlanadi.

18(d)-ustunda yukni sug'urta to'lovi ko'rsatiladi.

18(e)-ustunda sertifikatlash va ekspertizadan o'tkazish bo'yicha xizmatlar qiymati ko'rsatiladi.

18(f)-ustunda tovarni saqlash uchun to'lovlar ko'rsatiladi.

18(g)-ustun tovarlar qayta eksport qilinganda to'ldiriladi. Bu ustunda ilgari O'zbekiston Respublikasi hududiga tovarlar olib kirishda to'langan bojxona rasmiylashtiruvи uchun to'langan yig'imlar ko'rsatiladi.

18(h)-ustunda tovarning qayta eksport qilinishi sababli qaytarilishi lozim bo'lган to'lovlar ayirilgan holda bojxona to'lovları summasi ko'rsatiladi.

18(z)-ustun tovarlar qayta eksport qilinganda to'ldiriladi. Bu ustunda boshqa xarajatlar ko'rsatiladi.

19 - «So'mdagi jami» ustunda 14(a), 14(b), 14(d), 15(a), 15(b), 15(d), 15(e), 16, 17, 18(a), 18(b), 18(d), 18(e), 18(f), 18(g), 18(h), - ustunlardagi summalarning jami ko'rsatiladi. Bunda, tovarning baholanayotgan narxiga «A» bo'limda qo'shilмаган va bojxona qiymatiga qo'shilishi lozim bo'lgan qo'shimcha hisoblashlar hisobga olinadi.

V «A bo'limning 2-ustunida ko'rsatilgan qiymatdan (so'mda ayiriladigan summalar) bo'lmida, agar hujjatlar (transportda tashish uchun hisob, transport xarajatlari kalkulatsiyasi va boshqalar) bilan tasdiqlangan bo'lsa, shartnomalar narxidan tovari O'zbekiston Respublikasi bojxona hududidan qayta olib chiqilgandan keyin tovari mo'ljal joyga yetkazish bilan bog'liq amalga oshirilgan jami xarajatlardan ayirilishi lozim bo'lgan xarajatlar ko'rsatilishi mumkin.

20 - 23-ustunlardagi barcha ma'lumotlar so'mda ko'rsatiladi.

20-«...dan keyingi tashish xarajatlari» ustunida tovari O'zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqish joyidan mo'ljal joygacha bo'lgan tashish xarajatlari ko'rsatiladi. Mazkur ustunda, hisob-fakturasida alohida ko'rsatilgan holda shartnomalar narxidan ayirish maqsadida tovari O'zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqish joyidan mo'ljal joygacha bo'lgan tashish xarajatlari deklarant tomonidan keltirilishi mumkin.

Agar shartnomada SIR (SIP), SRT (SPT), DDP (DDP), DDU (DDU), SIF (SIF) yetkazib berish shartlari ko'zda tutilgan bo'lsa va tovarning faktura qiymatiga mo'ljal joygacha yetkazib berish xarajatlari qo'shilsa, mazkur xarajatlarni shartnomalar narxidan ajratib olish yoki O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasidagi olib chiqish joyi va shu joydan mo'ljal joygacha bo'lgan transport xarajatlarini alohida hisobga olish maqsadida xarajatlarni hisob-fakturasida yoki shartnomaning tegishli shartida alohida keltirish lozim.

Tovarning mo'ljal joygacha bo'lgan transport xarajatlari bo'yicha hisob-fakturasida xarajatlar yuqoridagi tartibda ajratib ko'rsatilmagan bo'lsa, bojxona organiga «cheagaragacha» bo'lgan xarajat «mo'ljal joygacha» bo'lgan xarajatdan ancha pastligini tasdiqlovchi asoslangan ma'lumotlar taqdim etilsagina, tovarlarni «olib chiqish joyidan mo'ljal joygacha» xarajatlar ajratib olinishi mumkin.

21 - «Qaytarilishi lozim bo‘lgan to‘lovlar» ustunida tovarlar qayta eksport qilmayotganligi sababli qaytarilishi lozim bo‘lgan to‘lovlar ko‘rsatiladi.

22 - «So‘mdagi jami» ustunida 20 va 21-ustunlarda ko‘rsatilgan summalar yig‘indisi keltiriladi.

23(a)-ustunda 13-ustun + 19-ustun - 22-ustun tartibida hisoblangan bojxona qiymati so‘mda ko‘rsatiladi

23(b)-ustunda shartnomada belgilangan valutada qayta hisoblangan 23(a)-ustunda ko‘rsatilgan bojxona qiymati ko‘rsatiladi. Shartnomada belgilangan valutada qayta hisoblash A bo‘limda ko‘rsatilgan kurs bo‘yicha amalga oshiriladi. Agar shartnomada bo‘yicha hech qanday hujjatda xorijiy valuta turi ko‘rsatilmagan bo‘lsa, 23(b) ustunda ma’lumotlar AQSH dollarida keltiriladi.

24 - «Deklaratsiya imzolagan shaxs» ustunining 1(b) bandida ko‘rsatilgan korxona nomidan tovarlarni deklaratsiyalash vakolatiga ega bo‘lgan shaxs F.I.Sh., egallab turgan lavozimi va telefon raqami ko‘rsatiladi.

Quyida eksport bojxona qiymati deklaratsiyasining BQD-1 shakli qo‘sishimcha varag‘ining namunasi keltirilmoqda.

### BQD-2 shaklini to‘ldirish tartibi

 Deklarant 1(a), 1(b), 2, 3, 4(a), 4(b), 5, 6, 7, 8, 9, 10(a), 10(b), 10(d), 10(e), 10(f) va 11-ustunlarni to‘ldiradi.

1(a), 1(b), 2, 3, 4(a), 4(b) - ustunlar BQD-1 shaklidagi deklaratsiyaning tegishli ustunlarini to‘ldirish tartibi bo‘yicha to‘ldiriladi.

5 - «Qo‘sishimcha varaqlar soni» ustunida BQD-2 shakliga ilova qilingan qo‘sishimcha varaqlar soni ko‘rsatiladi.

6-ustunda bojxona qiymatini aniqlashga asos bo‘lgan ma’lumot manbasi «X» belgisi bilan belgilanadi.

7-ustunda bojxona organi tomonidan 6-ustunda belgilangan ma’lumotlar manbasi tavsiflanadi.

8 - «Deklaratsiya imzolagan shaxs» ustunida 1(b) ustunda ko‘rsatilgan korxona nomidan tovarlarni deklaratsiyalash vakolatiga ega bo‘lgan shaxs F.I.Sh., egallab turgan lavozimi va telefon raqami ko‘rsatiladi.

9 - «Joy va sana» ustunida BQD-2 to‘ldirilgan joy va sana ko‘rsatiladi.

Олиб чиқиладиган товарларнинг болжона қиймати декларацияси				
Көнчимча варик № БЮД номр рўйхатга ошиш ризами Бољсона қайслари учун	«Хисоб-китоб асоси» «А»		БКД-1 шакли Товар ризами Товар коди	Товар ризами Товар коди Товар коди
13 (а) Товарларни шартномада белгиланган санадаги қиймати (амалда тұлғанған еки тұлғаншын позим бўлган қиймати)				
Валота коди Кайта хисоблаш курси				
13 (б) олиб чиқиладиган товарларни иштаб чиқарни ва сотиш учун киризгани харәкәтларни ако эттиручи сотувчи экспорт югувчиларни бухгалтерия хисоб маълумотлари				
Нишота коди Кайта хисоблаш курси				
13 (в) олиб чиқиладиган айнан еки ўқидаш товарларни кирим жилиш ва балансдан чиқарни тұғриксек бухгалтерия макъумотлари				
Нишота коди Кайта хисоблаш курси				
«Б» «А» белгимиде хисобга олинмаган шартнома нархнің құшыншылар				
14 Сотувчининг харәкәтлари				
14 (а) воскитчышлик ва брокерлик ғулловлари				
14 (б) кондегине пар из (еци) бошқа кўп маргатлаб ишлатиладиган товарлар арслари, агар уларга ТИФ Тига мувофиқ баҳоланаётган товар йирдан бир бутун сифатида көрслөр				
14 (а) жойлаш қийматти, шу жумладан, жойлаш материяллари ва жойланни ишлари бигина бечилек харәкәтлар				
15. Олиб чиқиладиган товарларни иштаб чиқарни ва еки экспортга сотиш учун сотиб отуучи бевосита еки билоситта сотувчига белуп еки пасайтириштан нарх бўйича кўрастиган хисматлар ва етказиб берилган товарлар қийматини тегизлини юсми:				
15 (а) хом амал, материял, детаил, ярим гайдер фабрикатлар ва олиб чиқиладиган товарниң таркиби кисмни хисобланадиган бошқа бўлғанларни кисмлар;				
15 (б) инструментлар, штамповири ва олиб чиқиладиган товарларни иштаб чиқарилган Фордадиланганлан шаошка шу каби жиҳозлар;				
15 (в) олиб чиқиладиган товарларни иштаб чиқаришда сарфланган ёрдамчи материальлар;				
15 (г) муҳандислик ишленимлари, тажриба-инструкторлик ишлари, дигайн балийд жиҳозларни олиб чиқиладиган товарларни иштаб чиқариши учун бевосита зарур бўлган зоҳирлар ва чизмалар;				
16. Сотиб отуучи олиб чиқиладиган товарларни харит килиш шартларни сифатида бевосита еки билосита амалга оширилши керак бўлдиган интеллектуал мулук объектлардан фойдаланишганлик учун гўлланши керак бўлган лицензия ғулловлари ва бошқа тўноклар				
17. Олиб чиқиладиган товарни кейинчалик бирон бир тирзда кайт сотиш, тасарруф этлини еки улардан фойдаланишсан олиниган товар Ўзбекистон Республикаси болжона худудидан олиб чиқиладиган кейин сотувчига бевосита еки билосита тегизли бўлдишини 1чарчварининг истаган кисми қиймати				
18. Ўзбекистон Республикаси болжона худудидан олиб чиқиш жойигача бўлган тизими харәкәтлари.				
18 (а) 1чарчварининг истаган кисми қиймати				
18 (б) жойниш, түлшіриш, кайта юқсангани ва ортиш-түшириш харәкәтлари,				
18 (в) сугуруланиш 1чарчвар				
18 (г) кийматни тегизлишини 1чарчварининг истаган кисми қиймати				
18 (д) товарни саклаш учун 1чарчвар				
18 (е) кийматни тегизлишини 1чарчварининг истаган кисми қиймати				
18 (ж) товарларни реэкспорт киришини сабабин қайтарисиши позим бўлган ғулловлар афзигитин хотса болжона тўловлари.				
18 (з) бошқа харәкәтлар.				
19. Сумдаги замни «Б»				
«В» «А» белгимининг 2-услуниза қўнистилгем қийматидан (сўмла) айриладиган суммалар				
20. З болжона худудидан олиб чиқиш жойидан ишлажу жойигача бўлган харәкәтлари				
21. Товарни реэкспорт киришини сабабин қайтаритини позим бўлган				
22. Сумдаги замни «Б»				
23. Кўрастиган болжона қиймати				
24. Сўмла				
25. Шартномада белгиланган валотлар				
26. Декларация имзоланган шахснинг лавозими: Фамилияси, исми, шарифи: Генефон				Декларантнинг имзоли ва муҳри

## **BQD-2 shaklining qo'shimcha varag'ini to'ldirish tartibi**

Har bir varaqda uchtagacha tovarlar to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rsatilishi mumkin. Har bir qo'shimcha varaqda uning tartib raqami va BQD-2 shaklining ro'yxatga olish raqami ko'rsatiladi.

«Tovar raqami» ustunida BYuDning yoki uning qo'shimcha varag'ining aynan o'xhash ustunidagi tegishli tovarning raqami va TIF TN kodi ko'rsatiladi.

10(a)-ustunda olib chiqiladigan aynan yoki shunga o'xhash tovarlarning tashqi savdo shartnomaları bo'yicha narxlari ko'rsatiladi.

10(b)-ustunda olib chiqiladigan aynan yoki shunga o'xhash tovarlar qiymati (tannarxi) kalkulatsiyasi bo'yicha narxlari ko'rsatiladi.

10(d)-ustunda aynan yoki shunga o'xhash tovarlar uchun narxlarning birja kotirovkalari bo'yicha narxlari ko'rsatiladi.

10(e)-ustunda tegishli mintaqaviy bozorlardagi olib chiqilayotgan tovarlar bo'yicha narxlari ko'rsatiladi.

10(f)-ustunda olib chiqiladigan tovarlarning belgilangan tartibda amalga oshirilgan tovar-qiyomat ekspertizasi ma'lumotlari bo'yicha narxlari ko'rsatiladi.

11 - «Deklaratsiya imzolagan shaxs» ustunining 1(b) bandida ko'rsatilgan korxona nomidan tovarlarni deklaratsiyalash vakolatiga ega bo'lgan shaxs F.I.Sh., egallab turgan lavozimi va telefon raqami ko'rsatiladi.

Quyida eksport bojxona qiymati deklaratsiyasining BQD-2 shakli asosiy va qo'shimcha varag'ining namunasi keltirilmoqda.

### **Bojxona organi tomonidan BQDni to'ldirish va ro'yxatga olish**

Bojxona organlari tomonidan BQD shakli asosiy va qo'shimcha varaqlarining «BYuDning ro'yxatga olish raqami» va «bojxona qaydlari uchun» bandlari to'ldiriladi. BQD har bir nusxasining asosiy va qo'shimcha varaqlaridagi «bojxona qaydlari uchun» ustunida BQDning ro'yxatga olish raqami qo'yiladi, shuningdek, bojxona qiymatini nazorat qiluvchi mansabtor shaxs deklaratsiyani tekshirishi natijasida tegishli ma'lumotlarni qayd etadi, shaxsiy raqamli muhri va imzosi bilan tasdiqlaydi.

Олаб чиқиладиган товарларининг божхона қиймати декларациясининг  
БКД-2 шакли

0 013076 \*

**ЎЗБЕКИСТОН - UZBEKISTAN**

ОЛІНЬ ЧИҚИЛАДИ ГАИ ТОВАРЛАРИНИҢ БОЖХОНА ҚИЙМАТИ ДЕКЛАРАЦИЯСИ

АСОСИИ ВАРАК		БКД-2 ШАКЛИ	
1(а). Сотуши	КҮТУ / СТИР	БЮДжеттага олони риваем	
1(б). Декларант	КҮТУ / СТИР	Божхона кайслари учун	
2. Сенбоб шартни		3. Етказиб берган шартни	
Берилган шартни буюнда 9. жарнамасы		4(а). Товар олиғи чиқинига жаса бўлган якшеб-фактура бўнга бошта күрежатини, расами на санси	
		4(б). Шартнома ризуми за санаси (ягар ингрилома ишлана бўлса)	
		5. БКД-2га ишора ҳисзимдан кунимча таржидор сони	
6. Декларантга мавқуд бўйича мазмунотчилик асерини товарларни божхона қиймати нигерланадиги: а) олаб чиқиладиган айни бек Узбек товарларни бўйича таржидор сони; б) олаб чиқиладиган айни бек ухшаш товарларни қиймати (затнорхи) калъяланасини бўзича пархандар; в) айни бир хил еди ўзбек товарларни бирор жараёнда таржидор сони;			
<input type="checkbox"/> <input type="checkbox"/> <input type="checkbox"/> <input type="checkbox"/> <input type="checkbox"/>			
7. Тернови мостақалини бечорвариги ислаб чиқи-лаётган товарни бўйича таржидор сони;			
<input type="checkbox"/>			
8. Декларацияни имконияти ноках қиёзимин: Физиклар, юр. юр. жараён Телефон:			
ДИҚКАТ!		Декларант божхона қийматини тасдиқланти учун тиқдим этили ан ҳужжатлардати ва унбу шаклда кўрсати. Илан барча маълумотлар учун конунчиланти мутеффик жадолбетар хисобланадиги. Декларант божхона расмийлантирувчи жараённи маълум юнити кийматини тасдиқлантириб қўшимча ҳужжатларни ўз вақтида божхона органига тақтил чишини саварти.	
		Декларант имсони ва муарри	

(натуна нусакси).

ОЛЫМ ЧИКИЛДАГАН ТОВАРЛАРИНІҢ БОЖХОНА КИЙМАТИ ДЕКЛАРАЦИЯСЫ		
КУПИМЧА ВАРАК №	БЖЛ-2 ШАЛДЫРЫЛЫСЫ	
БЮДЖЕТТЕГІ ОНОШ РАКАЗЫ	Текущі ракамы	Төнкір ракамы
Божхона кабілділаре үчүн	Товар коды	Төнкір жөні
<b>Хисобшылыш үшін жаңы: Божхона орталығы тегелген көрсеткіш №</b>	<b>НІСАЛДЕ</b>	
10 (а) алғы чиқымдаған айдан біншінші төнкірлар бүтінші таңдаған санды шарттынаның көрсеткіші;		
а) келинчуктап валюта		
б) сұмда		
10 (б) алғы чиқымдаған айдан біншінші төнкірлар киншак (тапшархы) анықтуынан бўйича сарх ўзр;		
в) хужжатда кўрсатылған наимат		
б1 сўмда		
10 (к) алған ёки ухшаш товарлар үчүн пархларинин биржа котировашынди бўйича пархлари;		
в) хужжатда кўрсатылған наимат		
б2 сўмда		
10 (г) тегелген минималдан берорлардан санды чиқымдаған төнкірлар бўйича нарижлар;		
а) хужжатда курасилиш наимат		
б) сўмда		
10 (д) тегелгенни тартибда анықтаған алғы чиқымдаған төнкірлар бўйича төнкір-кіймет эксперттесин жалгузиги бўйича нахъяр		
а) хужжатда кўрсатылған наимат		
б) сўмда		
11. Декларанттың имайдалы пакеттегі: Фамилия, исем, суроғи; Телефон:		
<b>ДИККАТ</b> Декларант божхона кийматын тақдистеп учып тақдим етпеган хужжаттардан да үшінші наимат курасилиштегі барча мәжлюмоттар учын қонуцизилік мувоғык жағобгар хасобалығыда. Декларант божхона расчийлантаруви жарасынан майдау күлиниан кийматты тақдистеп очып күштінчи хужжаттардын туғызыны божхона орталығының тапшылығынан шарт.		Декларанттың нахъяри  Санды

(таптана нусахси).

Bojxona organi BQDni BYuD bilan bir vaqtida ro'yxatga oladi. Bunda ilova qilingan BQDga BYuDning ro'yxatga olish raqami (99999 /99.99.99 /999999) ko'chirib yoziladi. BQD tekshirib bo'lingandan so'ng, uning asosiy va qo'shimcha varaqlari «xizmat qaydlari uchun» bandiga BQDning ro'yxatga olish raqami qo'yiladi va BQD tekshiruvini amalga oshirgan inspektorning imzosi va shaxsiy raqamli muhri bilan tasdiqlanadi. Old varag'ida bojxona organining belgilangan bojxona qiymati bo'yicha qarori va tovarni deklarant foydalanishiga taqdim etish shakli to'g'risida yozib qo'yiladi.

Bojxona qiymati deklaratasiyası to'g'ri to'ldirilgan, bojxona qiymatini aniqlash usuli deklarant tomonidan qo'llanilgan va ma'lumotlar o'rnatilgan tartibda hujjatlar bilan tasdiqlangan taqdirda, BQD har bir varag'inining «bojxona qaydlari uchun» bandida «bojxona qiymati qabul qilindi» belgisi qo'yiladi va BQDni qabul qilgan mansabdor shaxsnинг imzosi va shaxsiy raqamli muhri bilan tasdiqlanadi.

BQDning asosiy va qo'shimcha varaqlarining biror-bir ustunida deklarant tomonidan ko'rsatilishi lozim bo'lgan ma'lumotlar uchun yetarli joy bo'lmasa, ushbu ma'lumotlar BQDning asosiy va qo'shimcha varaqlari orqa tomoniga tegishli ustuni ko'rsatilgan holda qo'shimcha ravishda yozilishiga ruxsat etiladi. Bunday yozuv deklarantning imzosi bilan tasdiqlanadi va BQDning tegishli ustunlarida «varaq orqasida» yozuvi ko'rsatiladi.

### Nazorat uchun savollar

1. Olib chiqilayotgan tovarlarning bojxona qiymatini belgilash tartibini izohlab bering?
2. Olib chiqilayotgan tovarlarning bojxona qiymatini deklarat-siyalash tartibi qanday?
3. Olib chiqiladigan tovarlarning bojxona qiymati deklarat-siyasini to'ldirish tartibi tushuntirib bering?
4. Bojxona organi tomonidan BQDni to'ldirish va ro'yxatga olish qanday amalga oshiriladi?
5. BQD-2 shaklining qo'shimcha varag'ini to'ldirish tartibini aytib bering?

6. BQD-1 shaklining qo'shimcha varag'ini to'ldirish tartibini izohlab bering?

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Bojxona Kodeksi.
2. O'zbekiston Respublikasining «Davlat bojxona xizmati to'g'risida»gi qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007-yil 19-sentabrdagi «O'zbekiston Respublikasining bojxona hududidan olib chiqiladigan tovarlarning bojxona qiymatini belgilash va deklaratsiyalash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi 198-son qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan 2000-yil 20-aprelda 920-raqm bilan ro'yxatdan o'tgan «Bojxona qiymatini o'zgartirish BQU-1 va BQU-2 ni to'ldirish tartibi to'g'risidagi yo'riqnomasi».
5. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan 2008-yil 5-mayda 1803-raqam bilan ro'yxatdan o'tgan «Olib chiqiladigan tovarlarning bojxona qiymati deklaratsiyasini to'ldirish bo'yicha yo'riqnomasi».
6. Davlat bojxona qo'mitasining 2009-yil 18-maydag'i «Eksport va import qilinayotgan tovarlar narx ma'lumotlari byulleteni» elektron bazasini yuritish tartibini tasdiqlash to'g'risida 135-son buyrug'i.
7. Davlat bojxona qo'mitasining 2011-yil 9-fevraldag'i «INKOTERMS-2010 xalqaro savdo shartlarini amaliyotga kiritilganligi to'g'risida»gi 1-ko'rsatmasi.
8. S.Aripov, T.Pardayev, «Bojxona tariflari va to'lovlari», o'quv qo'llanma. – T.: OHBI, 2008 y.

## «BOJXONA QIYMATI» FANIDAN TEST SAVOLLARI

**1. Qaysi yetkazib berish shartlari quydagи formulalarda aniqlanadi ya'ni:  $TC=S+S+P+R$**

- A. DDP/DES/DEQ
- V. FOB/FAS/EXB/CIP
- C. DDP/DES/DEQ/DDU
- D. FOB/FAC/EXB/FCA

**2. Inkoterms- 2010 yetkazib berish shartlarida sotuvchi va xaridorlar o'rtasida nechtadan majburiyatlar mavjud?**

- A. 8
- V. 9
- S. 10
- D. 12

**3. E guruhida qaysi xarajatlar sotuvchining xarajatlariga kirmaydi?**

- A. kontrakt bo'yicha tovar bilan ta'minlash
- V. tovarlarni tekshirish bo'yicha xarajatlar
- S. tovarlarni tashish uchun o'rash xarajatlari
- D. tovarlarni transport vositalarida yuklash bo'yicha xarajatlar

**4. S guruhiга nechta yetkazib berish shartlari kiradi?**

- A. 2
- V. 3
- S. 4
- D. 5

**5. Yukni boj to'lagan holda yetkazib berish sharti qaysi javobda berilgan?**

- A. DDP
- B. DAR
- C. DAT
- D. SIP

**6. CIF ning raqamli kodini aniqlang?**

- A. 06
- V. 04

S. 08

D. 09

**7. Inkoterms 2010 da baziz shartlari nechta guruhga bo'lingan?**

A. 3

V. 5

S. 6

D. 4

**8. FAS/FOB/CFR/CIF yetkazib berish shartlarida qaysi turdag'i transport vositalaridan foydalanish mumkin?**

A. avtomobil transport

V. dengiz trasporti va ichki suv transportidan

S. temir yo'l transportidan

D. har qanday transport turidan

**9. Yekazib berishning qaysi shaklida eng kam xarajat tovar sotuvchi zimmasiga yuklanadi?**

A. EXW

B. FOB

C. CPT

D DAP

**10. Inkoterms qoidalari birinchi martda qaysi tashkilot tomonidan ishlab chiqilgan?**

A. Xalqaro savdo palatasi tomonidan

V. BJT tomonidan

S. Umum Jahon Savdo Tashkiloti tomonidan

D. BMT tomonidan

**11. Birinchi Inkoterms nechanchi yili ishlab chiqilgan?**

A 1935

V 1936

S 1953

D 1967

**12 EXW/FCA/CPT/CIP/DDP yetkazib berish shartlarida qaysi turdag'i transport vositalaridan foydalanish mumkin?**

A. har qanday turdag'i transport vositasidan

V. dengiz va ichki suv transportidan

S. avtomobil transportidan

D. temir yo‘l transportidan

**13. Agar tovar O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga CIP yoki CIF shartlarida olib kirilsa, tovarning bojxona qiymatini topish formulasini aniqlang?**

A. TS=S

V. TS =S+S+P

S. TS =S

D. TS= S+S+P+R

**14. Yetkazib berish shartlari BYuDning qaysi grafasida aks ettiriladi?**

A. 22

V. 21

S. 20

D. 19

**15. DDR yetkazib berish shartlarining klasifikatordag'i kodi?**

A.13

V. 10

S. 11

D.12

**16. Hozirgi kunda qaysi Inkotermsdan foydalaniylmoqda?**

A. Inkoterms 2000

V. Inkoterms 2015

S. Inkoterms 2010

D. To‘g‘ri javob yo‘q.

**17. SIF atamasining nomi?**

A. qiymat. sug‘urta. fraxt

V. franko zavod

S. franko yuk tashuvchi

D. kema bortida erkin

**18. Quyida javoblarining qaysi birida faqat xaridor majburiyati ko‘rsatilgan?**

A. tovar bilan ta'minlash

- V. haqini to‘lash
- S. yetkazib berish
- D. markirovkalash

**19. F guruhi nechta shartdan tashkil topgan?**

- A. 2ta
- V. 3ta
- S. 4ta
- D. 5ta

**20. Inkoterms 2010 da nechta yetkazib berish shartlari bor?**

- A. 10
- V. 12
- S. 13
- D. 15

**21. SIF yetkazib berish shartida sug‘urta badali kimning zimmasida bo‘ladi?**

- A. sotuvchi
- V. xaridor
- S. vositachi
- D. yuklab beruvchi

**22. FAS yetkazib berish shartida qaysi transport vositasidan foydalaniladi?**

- A. dengiz va daryo transportidan
- V. havo transportidan
- S. suv transportidan
- D. temir yo‘l transportidan

**23. BQD-2 nechta grafadan iborat?**

- A. 24 ta raqamli va A,B,V,G grafalardan
- V. 25 ta raqamli va A,B,V grafalardan
- S. 23 ta raqamli va A.V.S, grafalardan
- D. 54 ta raqamli va A.V.S.D grafalardan

**24. Tovarning bojxona qiymatini aniqlash nima uchun zarur?**

- A. tovarning qiymatini sun’iy ravishda pasaytirib yoki oshirib yuborilmasligi uchun
- V. bojxona to‘lovlarini hisoblash uchun

S. valuta nazoratini olib borish uchun  
D. barcha javoblar to‘g‘ri

**25. Dengiz yoki daryo transportida yetkazib berishning qanday usullaridan foydalilaniladi?**

- A. FAS, FOB, CFR, CIF
- V. EXW, FSA, CIP, DAF, DDP
- S. FOB, CPT, DEQ, EXW, DDU
- D. to‘g‘ni javob yo‘q

**26. Bojxona qiymati nima?**

A. import tovarlari uchun stavkalar majmui  
V. bojxona hududiga olib kiriladigan tovarning bojxona qiymati tovarning bojxona qiymatini aniqlash usullaridan biri orqali aniqlanadigan va bojxona to‘lovlarini hisoblash maqsadida foydalilaniladigan tovar qiymatidir

S. bojxona chegarasidan olib o‘tiladigan O‘z.Res. TIF TN prinsiplari va qoidalariiga muvofiq holda bir tizimga solingan tovarlarga nisbatan qo‘llaniladigan boj stavkalarining to‘plamidir

- D. hammasi to‘g‘ri

**27. Bojxona qiymati kim tomonidan belgilanadi?**

- A. bojxona inspektori tomonidan
- V. deklarant yoki bojxona brokeri tomonidan
- S. xaridor va sotuvchi o‘zaro kelishib belgilaydi
- D. to‘g‘ri javob yo‘q

**28. Olib kiriladigan tovarning bojxona qiymatini aniqlashning nechta usuli mavjud?**

- A. 4ta
- V. 6ta
- S. 12ta
- D. to‘g‘ri javob yo‘q

**29. 1998-yil 13-yanvarda O‘R.si Adliya vazirligida 391-son bilan ro‘yxatga olingan «Bojxona qiymati deklaratsiyasini to‘ldirish bo‘yicha yo‘riqnomasi»ga ko‘ra bojxona inspektori qaysi nazoratini amalga oshiradi?**

- A. bojxona qiymatini to‘g‘ri belgilanganligim

V. deklarant tanlagan usulning to‘g‘riligini

S. taqdim qilingan hujjatlarning to‘liqligini hamda ularning belgilangan talablarga muvofiqligini

D.barcha javoblar to‘g‘ri

**30. Tovar yetkazib berishda «Konosament» qaysi funksiyalarni bajaradi?**

A. yukning kema bortiga yetkazib berilgani tasdig‘i

V. tashish shartnomasi guvohnomasi

S. tranzit yuk uchun huquqlarni boshqa tomonga, unga hujjatni taqdim etish orqali berish vositasi

D. barcha javoblar to‘g‘ri

**31. Qaysi belgilari bo‘yicha tovarlar aynan bir xil deb tushuniladi?**

A. fizik xususiyatlari

V. sifati va bozordagi qadri

S. qaysi mamlakatda ishlab chiqarilganligi va ishlab chiqaruvchisi

D. barcha javoblar to‘g‘ri

**32. Qaysi hollarda BQD to‘ldirilmaydi?**

A. bojxona hududiga olib kirlayotgan tovarlar turkumining bojxona qiymati bir ming AQSH dollariga teng ekvivalent summadan oshmasa, bundan bitta kontrakt (shartnoma, kelishuv) doirasida bir necha marta tovar yetkazib berish, shuningdek, turli kontraktlar (shartnomalar, kelishuvlar) bo‘yicha ayni o‘scha tovarni bir jo‘natuvchi tomonidan ayni o‘scha bitta oluvchining manziliga takror-takror yetkazib berish mustasno

V. olib o‘tiladigan tovarlar bojxona to‘lovlarini to‘lashdan ozod etilgan bo‘lsa

S. tovar boj olinmaydigan savdo bojxona rejimiga joylashtirilganda

D A,V

**33. BQD-1 qaysi usul bilan tovarning bojxona qiymati aniqlanganda to‘ldiriladi?**

A. 1 va 6

V. 2 va 3

S. 4 va 5

D. faqat 6

**34. Bojxona qiymatini aniqlash to‘g‘risidagi yo‘riqnomaga qachon ro‘yxatdan o‘tgan?**

A. O‘.R. Adliya vazirligidan 390-raqam 1998-yil 13-yanvar

V.O‘.R. Adliya vazirligidan 391-raqam 1998-yil 10-oktabr

S. Vazirlar Mahkamasining 154-Qarori 1999-yil 21-noyabr

D. to‘g‘ri javob yo‘q.

**35. Tovarlarning bojxona qiymatini aniqlashning 3-usuli?**

A. o‘xshash tovarga doir bitimning qiymatiga oid usul

V. qiymatlarni chegirib tashlash asosida bojxona qiymatini aniqlash

S. qiymatlarni qo‘sish asosida bojxona qiymatini aniqlash

D. to‘g‘ri javob berilmagan

**36. BQD – 1 ning 5-ustunida qanday ma’lumotlar ko‘rsatiladi?**

A. yetkazib berish shartlari

V. hisobvaraq raqami va sanasi

S. kontrakt raqami va sanasi

D. deklarant haqida ma’lumot

**37. Bojxona qiymati bojxona organlarida mavjud bo‘lgan narxlarga oid axborotlarga asoslanadigan usul qaysi?**

A. 2-usul

V. 3-usul

S. 6-usul

D. 2-usul

**38. Tovarning bojxona qiymatini aniqlashning 6-usulidan qachon foydalanish mumkin?**

A. 1,2,3-usullarda aniqlab bo‘lmasa

V. agar tovarning bojxona qiymatini boshqa usullarda aniqlab bo‘lmasa

S. hamma vaqt qo‘llash mumkin

D. 5-usuldan oldin qo‘llash mumkin

**39. 4-usulga ko‘ra bojxona qiymatini aniqlashda tovar birligining qiymatidan bojxona hududida amalga oshirilgan qaysi xarajatlar chegirib tashlanadi?**

A. to‘lanadigan yoxud to‘lashga kelishilgan vositachilik haqi yoki foyda uchun ustamalar hamda olib kirilgan o‘sha klassdagi va turdagisi tovarni bojxona hududida sotish bilan bog‘liq bo‘lgan umumiy xarajatlar;

V. tovarlarni olib kirish yoki sotish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasida to'lanishi lozim bo'lgan bojxona to'lovlarining va boshqa to'lovlarining summalarini;

S. bojxona hududida transportda tashish, sug'ortalash, yuklash va tushirish uchun sarflangan xarajatlar;

D. hammasi to'g'ri

**40. BQD-2 shakli qaysi usullar uchun mo'ljalangan?**

- A. 1,2,3-usullar uchun
- V. 2,3,4-usullar uchun
- S. 5,6-usullar uchun
- D. V va S javoblar

## «Bojxona qiymati» fanidan misollar

### 1-MISOL

Toshkent shahridagi «Mashal» firmasi Germaniyadan 5 litrli idish-larga qadoqlangan «Shell» markali avtomobillar motor moyini import qiladi. Yuk hujjalari (shartnoma, nakladnoy) bo'yicha ularning har birini narxi 5,0 AQSH. doll.dan (SIP) belgilangan. Shuningdek, taqdim qilingan hujjalarga asosan eksportyor bilan importyor o'rtasida hech qanday bog'liqlik mavjud emas va xaridorning tovarlarni tasarruf etishi yoki ular-dan foydalanishi bilan bog'liq hech qanday cheklashlar belgilanmagan.

Ayni shu vaqda Toshkent shahrida faoliyat ko'sratadigan A, B, S va D firmalari aynan bir xil bo'lgan «Shell» motor moylarini o'zaro bog'liq bo'lмаган sotuvchilardan import qiladi. Ularning narxlari (SIP) quyidagicha:

A	B	S	D
5,5 AQSH. doll.	5,6 AQSH doll.	5,75 AQSH. doll.	5,9 AQSH. doll

«Mash'al» firmasi import qilgan moyning bojxona qiymati qancha bo'ladi? Javobingizni izohlang.

### 2-MISOL

Rossiyadagi PO «Sintez» ishlab chiqargan selluloza mahsulotini O'zbekistondagi «Karbonam» va «Mingbuloqneft» AJ lari import qiladi. Korxonalar o'rtasida o'zaro bog'liqlik mavjud emas, lekin «Karbonam» ko'p yillik hamkor bo'lganligi uchun, shuningdek «Sintez»ning yillik 25 foiz mahsulotini import qilganligi uchun 5 foiz miqdorida chegirma belgilaydi.

Bu gal har ikki korxona «Sintez»dan 300 tonnadan selluloza import qiladi va nakladnoylarda quyidagicha narx belgilangan:

Yuk oluvchi: «Karbonam». Yetkazib berish sharti: SIP

Tovar	Miqdori	Narxi
Selluloza	300 tn	250 AQSH doll.
		Chegirma 5%

	Jami:	Umumiy qivmati	
AQSH doll		75000 AQSH doll.	71250
		<u>3750 AQSH doll</u>	

Yuk oluvchi: «Mingbuloqneft» Yetkazib berish sharti- SIP

Tovar	Miqdori	Narxi	Umumiy qivmati
Selluloza	300 tn	250 AQSH doll.	75000 AQSH doll.
		Jami:	75000 AQSH doll.

Har ikki holatni bojxona qiymatini aniqlang. Javobingizni izohlang.

### **3-MISOL**

Toshkent shahridagi «Sharq-biznes» firmasi Tolyatti shahridagi VAZ zavodidan har doim bevosita yengil avtomobilarni import qiladi. Navbatdagi avtomobillar partiyasini zavodning rasmiy dileri hisoblanadigan «Vostok-LADA» savdo uyi orqali sotib oladi. «Vostok-LADA» avtomobilarni eksportga tayyorlash bilan bo‘lgan 2% miqdoridagi xarajatlarni amalga oshiradi va zavod narxiga nakladnoyda 10% komission to‘lov qo‘sib yozib eksport qiladi.

Importyor bojxona rasmiylashtiruvni jarayonida avtomobilarni har doim bevosita zavodning o‘zidan 3000,0 AQSH doll.dan sotib olishini, bu gal esa zavodning dileri nakladnoyda narxni 3300,0 AQSH doll.dan belgilaganini ma’lum qiladi.

Siz avtomobilarni bojxona qiymatini qanday baholagan bo‘lar edingiz? Javobingizni izohlang.

### **4-MISOL**

«Shuhrat» supermarketi Qozogistondan 60 tonna un import qiladi. Yuk hujjalari (nakladnoy) bo‘yicha un birinchi nav bo‘lib, har bir tonnasiga SIP yetkazib berish shartida 170 AQSH doll.dan narx belgilangan. Lekin bojxona laboratoriysi tahlillari va tegishli tekshirish xulosalari mazkur unning oliy navga mansubligini tasdiqladi. Sizda muqaddam import qilingan oliy nav unning bojxona qiymati 220 AQSH doll. ekanligi to‘g‘risida ma’lumot mavjud. Qozog‘istonga jo‘natgan so‘rovnomangizga javoban eksportyor, haqiqatan ham mazkur partiyadagi un oliy navga tegishli ekanligi va uning uchun importyor 170 AQSH doll.dan to‘laganligi, lekin bundan oldingi partiyada «Shuxrat» supermarketiga jo‘natilgan, tonnasi 220 AQSH doll. bo‘lgan oliy navli un aslida birinchi nav bo‘lganligi ma’lum qiladi.

Baholanayotgan unning bojxona qiymatini qanday aniqlagan bo‘lar edingiz? Nima uchun?

### **5-MISOL**

O‘zbekistondagi «Kurapparatura» korxonasi Irkutsk shahridagi «Irgidromash» korxonasidan dizel dvigatellari uchun 1000 komplekt uzatish tasimalari 20 AQSH doll.dan import qiladi. O‘z navbatida «Irgidromash» korxonasi Moskvadagi «Selxozmash» uyushmasining tarkibiga kiradi va bu uvushma «Kurapparatura» aksiyalarini 19 foizga egalik qiladi. Importyor bilan eksportyorning o‘zaro bog‘liq bo‘lganligi uchun va tovarga belgilangan narx boshqa importyorlar olib kelgan aynan bir xil

**tovarlar** narxidan 15-20 foiz arzon bo‘lgani uchun Siz importyordan tovarning e’lon qilingan bojxona qiymatini haqqoniyligini isbotlab berishni talab qildingiz. Bunga javoban, importyor o‘zining eksportyor bilan hech qanday moliyaviy jihatdan aloqador emasligi, ular bir-biridan mustaqil ravishda faoliyat ko‘rsatishni tasdiqlaydigan hujjatlarni ko‘rsatadi va narxni kelishish hamda belgilash chog‘ida o‘zaro yozgan vozishmalarini nusxasini taqdim etdi.

Tovar qiymatini arzon belgilanganligi yuzasidan bildirilgan etirozingizga esa, aynan bir xil tovarlarga haqiqatan ham o‘xshash bo‘lgani bilan, u olib kelgan tasmalarning sifati ancha pastligi, ya’ni uning olib kelgan uzatish tasmalarining tarkibidagi setkalar sun’iy ipdan ekanligi va maxsus qutilarga qadoqlanmaganligi, boshqa importyorlar olib kelgan uzatish tasmalarining tarkibidagi setka kanop ipdan ekanligi va maxsus qutilarga joylab qadoqlanganligi uchun narxlarda farq borligini ma’lum qiladi.

**Aniqlang va izohlang.** Tovarning bojxona qiymati qancha bo‘ladi?

## 6-MISOL

Qarshi shahridagi korxonha «TTZ» korxonasi traktorlarning plunjер paralarini muntazam import qilish uchun ularning har birini qiymatini 20 AQSH doll.dan belgilab Rossiyaning Penza shahridagi «Mashservis» sho‘ba korxonasi bilan shartnomaga tuzdi va birinchi partiyada 1000 dona plunjер paralarini olib keldi. Siz ularni bojxona qiymatini aniqlashningiz lozim.

Sizda «TTZ» ana shunday mahsulotni import qiluvchi yagona importyor ekanligi, shuningdek, oxirgi bir yarim oy ichida «TTZ» o‘zaro bog liq bo‘Imagan Penza shahridagi «Topapparatura» zavodidan plunjер paralarini olib kelganligi va ularni har birini bojxona qiymati 26 AQSH doll.dan belgilanganligi haqida ma’lumot bor. Muloqot chog‘ida importyor «Topapparatura» zavodidan uzoq vaqt mobaynida ana shunday tovari olib kelib yurgani va hozirgi vaqtida zavodning ishlamayotgani sababli shu shaharda faoliyat ko‘rsatayotgan o‘zining mavjud sho‘ba korxonasi ana shunday mahsulot ishlab chiqarishga imkoniyati mavjudligi aniqlangan, faqatgina plunjер paralarining korpus qismini «TTZ» «Mashservis»ga bepul yetkazib berishi lozimligi to‘g‘risida kontrakt tuzilgani va ushbu korpus qismlari «Mashservis»ga bepul yetkazib berilganda tashish, sug‘urta va boshqa xaratjatlar uchun 6.5 AQSH doll.dan sarflanganini ma’lum qildi.

Tovarning bojxona qiymati qaysi tartibda aniqlanishi lozim? Bojxona qiymati qancha bo'ladi?

### 7-MISOL

Pop tumanidagi «Pap-Fen» qo'shma koxonasi paxta tolasidan to'qimachilik sanoati uchun ip-kalavalarni ishlab chiqaradi. Korxona o'zining ta'sischisi bo'lgan Turkiyadagi «Tek-Fen» korxonasidan ip o'rash uchun 10000 dona, har birini faktura qiymati AQSH doll. bo'lgan, karton konuslarni import qildi. Muqaddam «Tek-Fen» dastgohlar uchun ayrim ehtiyyot qismlarni o'zining tannarxi bo'yicha yetkazib bergen bo'lib, baholash paytida bitim qiymati sifatida qabul qilinmaganligi Sizga ma'lum. Korxonalarining o'zaro bog'liqligi va oldingi bitishuv shartlaridan kelib chiqqan holda Siz mazkur yukning faktura qiymatini haqqoniyligini asoslab berishni talab qildingiz.

O'z navbatida importyor haqiqatan ham, har doim ehtiyyot qismlar kerak bo'lgan paytda o'zining ta'sischisi bo'lgan «Tek-Fen» ularni hech qanday ustama va qo'shimchalarsiz o'zining tannarxida yetkazib berib kelganligi hujjatlar bilan asoslab, karton konuslar ehtiyyot qism hisoblanmasligi, balki yordamchi material bo'lganligi uchun uning narxiga korxonalarining o'zaro bog'liqligi ta'sir ko'rsatmaganligini ma'lum qiladi. Shuningdek importyor aynan bir xil tovar Turkiyadan Namangandagi «Asnam-Tekstil» qo'shma korxonasi tomonidan o'zaro bog'liq bo'lмаган eksportyordan bir oy muqaddam 4000 dona miqdorda import qilinganini va ularning har birini bojxona qiymati AQSH doll.dan belgilanganini, eksportyorming prayz-listi bo'yicha narxlar quyidagicha bo'lганни ма'lум qildi:

Miqdori:

Itadan-5000tagacha  
5000tadan-8000tagacha  
8000tadan ko`p

Chegirma:

chegirmasiz  
5% chegirma  
10%chegirma

Siz «Pan-Fen» olib kelgan 10000 dona karton konuslarni bojxona qiymatini qanday aniqlagan bo'lar edingiz? Bojxona qiymati qancha?

### 8-MISOL

Namangandagi «Tip-Top» qo'shma korxonasi meva sharbatlarini qadoqlash uchun Avstriyadagi «Juys JV» kompaniyasidan 5000 dona tetropak idishlarining yarim tayyor holatda, har 1000 donasini 263 AQSH doll.dan 26 iyun kuni import qiladi. Shveysariyadagi «Petroleks AG»

kompaniyasi «Tip-Top» ning 49% aksiyalarining, «Juys JV» ning esa 25% aksiyalarining egasi hisoblanadi.

O'zaro bog'liqlik tovar qiymatiga ta'sir etganligiga ishonch hosil qilish uchun Siz ushbu yukka tegishli yozishmalarni ko'rsatishni talab qildingiz Importyor yozishmalarni ko'rsatish o'miga boshqa importyolarning ana shunday tovar olib kelganidagi hujjatlarini ko'rsatadi. Unga ko'ra:

Sana:	Importyor:	Eksportyor:	Eksp.mamlakati:	Bojxona qiymati (AQSH doll)
16 iyun	«Durdon» Andijon	«Tetra»	Avstriya	316
Siyun	«Mevalar kamalagi» Qarshi	«Tetris»	Avstriya	252
2 may	«Frut-juys» Toshkent	«Tetro-Pak»	Avstriya	236

**Aniqlang va izohlang:** Ushbu holatda bojxona qiymati qanday aniqlanadi?

## 9-MISOL

Toshkent shahridagi «SLM» firmasi kir yuvish mashinalarini ishlab chiqarish uchun Moskva shahridagi «Rotor» firmasidan 5000 dona 1 kvt. quvvatli elektrodvigatellarni faktura qiymati bo'yicha har birini 28 AQSH doll.dan import qiladi. «SLM» «Rotor»ning shu'ba korxonasi hisoblanadi va kir yuvish mashinalarini uning savdo markasi bilan sotganligi uchun foiz to'laydi. Importyor bojxonada rasmiylashtirish paytida 25 kun muqaddam xuddi shunday elektrodvigatellarni Samarqand shahridagi «Sino» firmasi «Rotor»dan 22 AQSH doll.dan sotib olganligi va «Rotor» «Sino»ning 18% aksiyasining egasi bo'lganligi uchun faktura qiymati inobatga olinmasdan qivmatlarni qo'shish usuli bilan tovarning bojxona qiymati 27.1 AQSH doll.dan qabul qilingani, shuningdek, o'zaro bog'liq bo'lman Chirchiq shahridagi «Elita» va Moskvadagi «Yakort» firmalari o'rtaida xuddi shunday elektrodvigatel uchun 30 AQSH doll.dan bitim tuzilib. bu narx 20 kun muqaddam bojxona qiymati uchun qabul qilinganini hujjatlar asosida ma'lum qiladi.

**Aniqlang:** «SLM» olib kelgan elektrodvigatellarning bojxona qiymati qanday aniqlanadi? Javobingizni izohlab bering.

### 10-MISOL

«Kosonsoy-Tekmen» qo'shma korxonasi Avstraliyadan 500 tonna yuvilmagan junni import qiladi. Nakladnoy bo'yicha yuk qiymati 750000 AQSH doll.. Yukni yetkazib kelish bilan bog'liq bo'lgan va qo'shimcha xarajatlar (okean va quruqlikdan) har bir tonna uchun 100 AQSH doll. minus 10% chegirma (tashish uchun muqim buyurtma beruvchilarga). Shuningdek, importyor tovar qiymatining 0.5% miqdorida sug'urta to'lovi to'laydi.

**Aniqlang va izohlang:** Bojxona qiymati qancha bo'ladi?

### 11-MISOL

Namangandagi «Tip-Top» korxonasi Fransiyadan nakladnoy bo'yicha qiymati 22000 AQSH doll.. tashish va sug'urta xarajatlari 3000 AQSH doll. bo'lgan tropik meva sharbatini import qiladi. Tashish va sug'urta xarajatlari quyidagilardan iborat: 500 AQSH doll. kema turgan portgacha avtomobilda tashish: 1000 AQSH doll. Gruziya portigacha tashish uchun dengiz fraxti va sug'urtasi; 1500 AQSH doll. Gruziyadan O'zbekiston bojxona chegarasigacha temir yo'l transportida tashish xarajati. Dengiz fraxti tranzit mamlakatda yukni tushirish xarajatlarini o'z ichiga olsa-da, importyor vaqtidan yutish maqsadida Gruziya portida ijaraga kran oladi va tovarmi kemadan vagonga yuklab bergani uchun port ma'muriyatiga 100 AQSH doll. to'laydi.

**Aniqlang va izohlang:** Bojxona qiymati qancha bo'ladi?

### 12-MISOL

«Tip-Top» korxonasida Italiyadan konsentrat import qiladi. Masofa uzunligi quyidagicha: Italiya portidan Gruziya portigacha-2000 km., Gruziya portidan O'zbekiston bojxona chegarasigacha 1600 km., bojxona chegarasidan korxona omborigacha 400 km. Nakladnoy bo'yicha tovar qiymati 15000 AQSH doll.. Yukni zavod omborigacha tashib keltirish bilan bog'liq xarajatlar uchun tashuvchi-brokerga 3225 AQSH doll. to'lagan, shu jumladan:

Italiya Gruziya portigacha okean fraxti 1600 AQSH doll., Gruziya portida yukni tushirish va joylashtirish xarajatlari-375 AQSH doll., O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasigacha temir-yo'lda

tashish xarajatlari 1000 AQSH doll., va 250 AQSH doll. chegaradan zavod omborigacha tashish xarajatlari

Shuningdek, tovarning nakladnoydagı qiymatidan 2% miqdorida yukni Italiyadan zavod omborigacha yetkazib kelishning sug'urta to'lovi belgilangan

Tovarning bojxona qiymatini aniqlang.

### 13-MISOL

«Matlubotsavdo» korxonasi 20 ming tonna shakarni har bir tonnasini 400 AQSH doll.dan. shu jumladan 50 AQSH doll. tashish xarajatlari uchun, (kontraktda bu to'lov yuk tashib berishning o'matilgan o'rtacha oylik qiymati doirasida olingani to'g'risida kelishilgan) sotib olishga Meksikadagi «Sugar LTD» kompaniyasi bilan kontrakt tuzdi. «Sugar LTD» shakarni yetkazib berish uchun har xil tashuvchi kompaniyalar bilan eng qulay shart va narxlarda kontrakt tuzib, amalda jami tashish va boshqa xarajatlariga 650 ming AQSH doll. sarflab yukni yetkazib berdi.

«Matlubotsavdo» kontrakt qiymatidan 2% miqdorida alohida sug'urta uchun to'lovnini amalga oshirdi.

**Aniqlang va izohlang:** Tovarning bojxona qiymati qancha?

### 14-MISOL

O'zbekistondagi «Koka-kola» kompaniyasida «Ji-Ji-Ji» kompaniyasidan (Fransiya) 20 tonna konsentratni 50000 AQSH doll.ga, (shu jumladan tashish va sug'urta xarajatlari 5000 AQSH doll.) sotib olish uchun bitim tuzdi. Sharhnomaga ko'ra tovar temir yo'l transportida 30-maygacha yetkazib berilishi lozim va yo'l masofasi 20 kunlik bo'lganligi uchun yukni ushbu muddatdan kamida 20 kun oldin jo'natilishi taqozo etiladi.

Quyidagi sharoitlarda bojxona qiymati qanday aniqlanadi:

a) Mavsumiy sharoitlarga ko'ra «Koka-Kola»ning omborida 5-mayda konsentrantni avia transport yordamida 10 maygacha jo'natilishini iltimos qilib «Ji-Ji-Ji»ga murojat qildi. 5 tonna konsentrat 10-may kuni yetib keladi va buning uchun eksportyorning qo'shimcha 250 AQSH doll. sarflagani ma'lum bo'ldi. Qolgan 15 tonna konsentrat 30-may kuni yetkazib berildi.

b) «Ji-Ji-Ji»ning omborida mahsulot yetarli bo'lмаганлиги uchun 10-may kuni 15 tonna konsentratni temir yo'l konteynerida jo'natadi va 5 tonna konsentratni 25-may kuni avia transport orqali qo'shimcha 250

AQSH doll. sarflab jo'natdi va har ikkala yuk ham 30-may kuni importyorga yetib keldi.

Har ikkala holatni izohlab bering.

### 15-MISOL

Namangandagi «Yog'ochni qayta ishlash zavodi» Kransnoyarsk o'lkasida ma'lum gektar maydonagi o'rmonzorni sotib olish maqsadida agentga (vositachi) murojaat qiladi. Agent xaridor shartlarini qoniqtiradigan o'rmonzorni aniqlaydi va sotuvchi bilan uning narxini 50000 AQSH doll.ga kelishib bitim tuzadi. Xaridor agent xizmati uchun bitim qiymatidan 2% miqdorida komission haq to'laydi va o'rmondagi daraxtlarni kesib olish uchun bitta avtobusda 20 nafar ishchini yuboradi. Ishchilar bir oy davomida barcha daraxtlarni kesadi va temir yo'l vagonlariga yuklab jo'natadi. Bu ishlarni amalga oshirishiriladi:

Safardagi joriy xarajatlari :	900 AQSh doll.
Ish haqi:	2500 AQSh doll.
Transport xarajatlari:	45000 AQSh doll.
Mehmonxona xarajatlari:	1200 AQSh doll.
Boshqalar:	400 AQSh doll.

Yog'ochni bojxona qiymati qancha bo'ladi? Izohlang.

### 16-MISOL

Toshkentdag'i «Lak-bo'yq zavodi» Rossianing Bobrovsk shahridan sig'imi 200 litr bo'lgan sirlangan metall idishlarda kimyoviy erituvchi moddani 200 AQSH doll. dan (metall idishning qiymati bilan birga) impot qiladi. Zavod ushbu erituvchi moddani mayda idishlarga qadoqlab ichki bozorda sotish uchun sig'imi 1 litr bo'lgan plastmassa idishlar va karton qutilarni ham sotib oladi. Quyida yukni deklaratsiyalash uchun taqdim qilingan hisob varaqasidagi narxlari keltirilgan: (barcha narxlar SIP yetkazib berish shartida)

erituvchi modda -	1 AQSH doll.(1 litri uchun)
sig'imi 1 litr bo'lgan	
plastmassa idish -	0.3 AQSH doll. (1 donasi)
karton quti	0.2 AQSH doll. (1 donasi)

«Lak-bo'yq zavodi» import qilgan 250 ta metall idishlardagi kimyoviy erituvchan moddaning bojxona qiymatini aniqlang.

## 17-MISOL

Farg'onadagi «Quva tekistil» fabrikasi Rossiyaning «Mogilev SSZ» zavodidan to'qimachilik dastgohlarini sotib oldi. Zavod ishlab chiqargan dastgohlarni eksport qilishdan oldin avvalo yog'och ramalariga joylashtirilishi va ularni yog'och yashiklarga solib qadoqlashi lozim. Lekin zavodda vaqtincha yog'och materiallari mavjud bo'lмаганligi uchun importyor qadoqlanmagan dastgohlarni sotib olishga rozi bo'ladi. Shundan so'ng, importyor alohida shartnoma asosida maxsus firmaga buyurtma berib dastgohlarni belgilangan tartibda qadoqlash ishlarini amalga oshiradi va yukni temir yo'l transportida manzilga jo'natadi. Bunda quyidagi xarajatlarni amalga oshiriladi:

Dastgoh uchun to'lov-	120000 AQSH doll.
eksport mamlakatida	
tashish xarajatlari-	2000 AQSH doll.
qadoqlash ishlari-	6500 AQSH doll.
sh.j.: yogoch yashik va	
ramalar qiymati-	5500 AQSH doll.
temir yo'l transportida	
tashish xarajatlari-	10000 AQSH doll.

**Aniqlang:** tovarning bojxona qiymati qancha bo'ladi?

## 18-MISOL

Respublika «Oziq-ovqatta'minoti» ulgurji savdo bazasi Isroil davlatining «Agro shulema» kompaniyasidan 3000 tonna tovuq go'shtini sotib olish uchun bitim tuzadi. O'zaro kelishilgan hisob varaqasida quyidagi narxlari ko'rsatiladi:

Tovuq go'shti-	0.9 AQSH doll. 1 kg uchun
1 kg li paketlarga	
Qadoqlash-	0.1 AQSH doll. 1 paket uchun
Muzlatish -	0.2 AQSH doll. 1 paket uchun
Maxsus karton qutilarga	
10 tadan paketni qadoqlash	
(Karton qutini tan narxi	
bilan birga)-	0.3 AQSH doll. 1 quti uchun
sug'urta xarajatlari-	5400 AQSH doll.
Tashish xarajatlari-	30000 AQSH doll.

Aniqlang va izohlang! 300 tonna tovuq go'shtini bojxona qiymati qancha bo'ladi?

## 19-MISOL

Importyor A to‘qimachilik dastgohlarini ishlab chiqaradi. U dastgohning ayrim qismalarini X mamlakatidagi o‘zaro bog‘liq bo‘lмаган B zavodidan import kiladi. A import kiladigan qismlarni qo‘yish uchun B ga maxsus qolipni jo‘natadi. Shuningdek, A ichki bozordan sotib olingan alyuminiy xomashyosi bilan B ni tez-tez ta‘minlab turadi.

Yuqoridagi holatdan kelib chiqib quyida keltirilgan savollarga javob berishingiz talab qilinadi.

A qiymati 200000 AQSH doll. bo‘lgan qolipni B ga bepul yetkazib beradi va shu qolipda 75000 dona mahsulot (detal) qo‘yib berish uchun buyurtma beradi. Qolip 200000 dona mahsulot (detal) quyish uchun mo‘ljallangan. Eksportyor B ushbu qolip qiymatini birinchi partiyada jo‘natgan 25000 dona mahsulot qiymatiga qo‘shmaydi. Ushbu partiyadagi tovarlarning bojxona qiymatini aniqlashda quyida keltirilgan qaysi bir mulohaza to‘g‘ri?

a) Mahsulot qiymatiga qolip qiymatini 200000 dona detalga proporsional tarzda bo‘lgan holda qo‘shish lozim

b) Qolip qiymati bojxona qiymatining ajralmas qismi hisoblanadi. Qolip qiymatini to‘lanishi lozim bo‘lgan to‘lov miqdoriga proporsional taqsimlangan qismini qo‘shish lozim.

d) mahsulot qiymatiga qolip qiymatini 75000 dona buyurtma miqdoriga proporsional taqsimlangan qismini qo‘shish lozim.

e) bojxona qiymatiga qolip qiymatini qo‘shish kerak emas. B qolip qiymatini A ga qaytarish lozim.

2. A detallarni qo‘yishda ishlatish uchun B ga sug‘urta va to‘lagan holda aluminiyni bepul yetkazib beradi. Quyidagi mulohazalarni qaysi biri to‘g‘ri?

a) Bojxona qiymatiga aluminiy qiymatidan sug‘urta xarajatlarini avirib tashlagan qoldiq qiymat qo‘shiladi.

b) Bojxona qiymatiga va tashish xarajatlari qo‘shiladi.

d) Bojxona qiymatiga aluminiy qiymati va sug‘urta plus tashish xarajatlari qo‘shiladi.

e) Bojxona qiymatiga faqat aluminiy qiymati qo‘shiladi.

3. A muqaddam ishlatilgan, dastlabki qiymati 300000 AQSH doll. bo‘lgan qolipni B ga bepul yetkazib beradi va 30000 dona yetkazib berish uchun buyurtma beradi. B ga jo‘natgunga qadar mazkur qolipni ehtiyoj mustahkamligini taxminan 2/3 qismidan foydalaniłgan va 150000 dona detal qo‘yilgan. Ushbu qolipda B 20000 dona o‘zining ichki bozorida

sotish uchun qo'ydi va 15000 dona A ning 30000 donalik buyurtmasi doirasida detal qivib jo'natdi.

Agarda importyor ushbu qolipda qo'yiladigan detalning shartnomada belgilangan soniga qolip qiymatini proporsional taqsimlashni talab qilsa. bojxona qiymatini aniqlashda qo'shilishi lozim bo'lgan qolip qiymati miqdorini aniqlang.

4. A qiymati 200000 AQSH doll. bo'lgan yangi qoliplarni o'zaro bog'liq bo'limagan firmadan 50000 AQSH doll. evaziga ijara olib B ga jo'natdi va 50000 dona detal quyishga buyurtma berdi. B buyurtmani bajardi va A ga yuk bilan birga taqdim etgan narxida ijara to'lovini ko'rsatmaydi. Bojxona qiymatini aniqlashda qo'shilishi kerak bo'lgan qolip qiymatining mazkur partiva soniga proporsional bo'lgan qismini aniqlang.

## 20-MISOL

Chirchiq transformator zavodi « ChTZ » katta kuchlanishdagi GKTP – 10000 markali transformatorlarni Qozog'istonidagi A zavoddan import qiladi. «ChTZ» transformator moyini A ga bepul yetkazib beradi. A moylarni o'zi tayyorlagan. Transformatorga quyadi va ularni butlab ishchi holatga keltirib «ChTZ» ga jo'natadi. Birinchi partiyaga GKTP – 10000 transformatorlari 12600 AQSH doll. dan baholanib jo'natiladi. Eksportyor taqdim etgan hujjalarda quyidagi ma'lumotlar mavjud: (bir komplekt uchun)

Materiallar va butlovchi qismlar -	6500 AQSH doll.
sh.j transformator moyi (bepul) -	0.00 AQSH doll.
Mehnat xarajatlari -	2800 AQSH doll.
Foya va umumiylar xarajatlari -	1800 AQSH doll.
Qadoqlash xarajatlari -	300 AQSH doll.
Sug'urta va transport xarajatlari -	1200 AQSH doll.
<b>Jami:</b>	<b>12600 AQSH doll.</b>

Bepul yetkazib berilgan transformator moyini qiymati 1100 AQSH doll. Sug'urta va transport xarajatlari miqdori 500 AQSH doll. ga teng.

Aniqlang: a) Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar asosida bojxona qiymatini qo'shish asosida hisoblang.

b) Haqiqiy bahosi 1600 AQSH doll. (SIP-importyor A) bo'lgan transformator moyini A ga 800 AQSH doll. deb ko'rsatgan holda to'lovni to'lash sharti bilan yetkazib berilgan va A tomonidan yuqorida keltirilgan

ro'vxatning «materiallar va butlovchi qismlar» satrida ushbu summa hisobga olingan taqdirda bojxona qiymati qancha bo'ladi?

## 21-MISOL

U mamlakatidagi M ilmiy ishlab chiqarish konstrukturlik jamoasi yangi modeldag'i maishiy elektr suv nasosini tayyorlash uchun X mamlakatidagi A ishlab chiqaruvchiga buyurtma berdi. Shuningdek. M quyidagi xizmat va materiallarni A ga yetkazib berdi:

1. Qiymati 10500 AQSH doll. bo'lgan yangi modeldag'i maishiy elektr suv nasosining konstrukturlik chizmalari va loyihamlar.
2. Mazkur nasoslar uchun U mamlakatda ishlab chiqazilgan 5000 dona teskari klapanlar. Bir dona klapanning DAF chegara U qiymati 2,5 AQSH doll.. X mamlakatiga tashish xarajati 0,5 AQSH doll., M tomonidan X mamlakatida to'langan bojxona to'lovi 0,3 AQSH doll.
3. Nasos korpusini qo'yish uchun muqaddam ishlatilgan (eski) qoliplar.

Qoliplarning U mamlakatidagi dastlabki bahosi 1200 AQSH doll. bo'lgan va ularning mustahkamligi 20000 dona qo'yish uchun mo'ljallangan. U mamlakatida ulardan foydalanib 12000 dona korpus qo'yilgan. Qoliplarning qoldiq quvvati bilan yana 8000 dona quvish mumkin. Qoliplarni X mamlakatiga yetkazib berishda M tomonidan 200 AQSH doll. miqdorida transport xarajatlari va 50 AQSH doll. miqdorida bojxona to'lovlari amalga oshirilgan.

M ning A bilan tuzgan shartnomasida 5000 dona nasos sotib olish nazarda tutilgan va M da shartnomani yangilash imkoniyati mavjud. A ning birinchi partiyada jo'natgan 1000 dona nasosini baholash lozim. M qoliplar qiymatini shartnomada kelishilgan miqdorga amortizatsiya qilinishini talab qiladi.

Bojxona qiymatini hisoblashda importyor tomonidan bepul yetkazib berilgan tovarlar va xizmatlar qiymatining ma'lum qismi hisobga olinishi kerak. Dastlabki partiyada import qilingan 1000 dona nasosning bojxona qiymatini hisoblashda 1 ta nasos qiymatiga qo'shilishi lozim bo'lgan summani aniqlang:

1. Konstrukturlik chizmalari va loyihamlar bo'yicha.
2. Nasoslar uchun teskari klapanlar bo'yicha.
3. Nasos korpuslarini quyishda foydalilanigan qoliplar bo'yicha.

## **22-MISOL**

Toshkent shahridagi «SLM» firmasi changyutgich ishlab chiqaradi. Firma Moskva shahridagi «OKA» firmasi bilan aloqa o'matib, uning xususiy mulki bo'lgan patentlangan chang yutkich uchun elektrodivgatellarni ishlab chiqarish huquqini oladi. Buning uchun har bir ishlab chiqarilgan elektrodivgatellarni «SLM» firmasining o'zi ishlab chiqarish uchun Kivev shahridagi «LANA» firmasi bilan alohida kontrakt tuzadi. Shundan so'ng, ishlab chiqarilgan elektrodivgatellar «SLM» firmasi tomonidan import qilinadi:

Aniqlang va izohlang: «SLM» «OKA» to'langan royaltini bojxona qiymatiga qo'shish kerakmi?

## **23-MISOL**

Omsk shahardagi «Ob» firmasi «Rosa» salqin ichimligining ishlab chiqaruvchisi va patent egasi. Buxoro shahridagi «Amir» firmasi «Ob» firmasidan ichimlik uchun konsentratlarni olib kelib uni oddiy suv bilan aralashtiradi va idishlarga qadoqlab «Rosa» nom bilan sotadi. Oldi-sotdi shartiga ko'ra «Amir» tayyorlangan salqin ichimlikning ichki bozorda sotilishiga qarab konsentrat qo'shimcha tarzda «Ob» ga royalti to'lash lozim.

Aniqlang va izohlab bering: «Amir»ning «Ob» ga to'langan royaltisi bitim qiymatiga qo'shiladimi?

## **24-MISOL**

Toshkent shahridagi «Chorsu», «Xadra» va «Ufq» firmalari Germaniyadagi tegishli ishlab chiqaruvchilar «Alfa», «Beta» va «Gamma» firmalaridan ularning savdo markalariga ega bo'lgan audio kassetalarni import qiladi. Bu ishlab chiqaruvchilarning barchasi audio kassetalarini Yaponiyadagi «Ayva» firmasining litsenziysi bilan tayyorlaydi. Uchta bitimning shartlari quyidagicha va ularni alohida-alohida izohlang:

1. «Alfa» audio kassetalarni o'zining xomashyosidan tayyorlaydi. Lekin sotilgan audiokasseta qiyamatidan belgilab quvilgan (fiksatsiva) yagona foiz miqdorida «Ayva»ga litsenziya uchun to'lashi lozim. «Alfa» «Chorsu» ga eksport qilganda yuk hujjatida audiokassetaning qiyamatiga «Ayva» ga to'lashi lozim bo'lgan litsenziya to'lovini qo'shib yozadi.

**Aniqlang:** Litsenziya uchun to'lov miqdorini bojxona qiymatiga qo'shish kerakmi?

2. «Beta» audio kassetalarini o'zining xomashyosidan tayyorlaydi. Lekin, u O'zbekistondagi faqat «Ayva» belgilab bergen va litsenziya uchun to'lovnini amalga oshiradigan firmalargagina sotishi mumkin. Bitimni qo'shimcha shartiga ko'ra «Xadra» «Ayva»ga litsenziya uchun belgilangan yagona foizdagi to'lovnini to'lashi lozim.

**Aniqlang:** «Xadra»ning litsenziya uchun «Ayva»ga to'langan to'lovi bojxona qiymatiga qo'shiladimi?

3. «Gamma» audiokassetalarini «Ufq» tomonidan to'lovsiz yetkazib berilgan xomashyo hisobiga ishlab chiqaradi. Lekin «Gamma» litsenziya uchun «Ayva»ga to'lovnini amalga oshiradi va «Ufq»ga eksport qilish paytida yuk hujjati (nakladnoy) da ushbu to'lovnini qo'shib ko'rsatadi. Bojxona qiymatini aniqlashda bepul yetkazib berilgan xomashyonini tovar qiymatiga qo'shilganligi yoki tovar narxini pasaytirib ko'rsatganini Siz isbotlab bera olmadingiz.

Bojxona qiymati bu holatda qanday aniqlanadi? Izohlang.

## 25-MISOL

Koreyadagi «Ay-Di-Em» firmasi ipak qurtining hosildor elita urug'ini yaratdi va uning patentining egasi hisoblanadi. Chortoq tumanidagi «Pilla» hissadorlik jamiyati ipak qurtini yetishtirish uchun litsenzion bitim tuzadi. Oldi-sotdi shartiga ko'ra ipak qurti urug'ining qiymatiga qo'shimcha tarzda litsenziya uchun to'lovnini yetishtirilgan pilla xomashyosini sotish narxidan belgilab quyilgan (friksion) vagona foiz miqdorida amalga oshirishni o'z zimmasiga oladi.

**Aniqlang:** Bojxona qiymatini aniqlashda litsenziya uchun to'lovnini ipak qurti urug'i uchun amalda to'langan yoki to'lanishi lozim bo'lgan to'lovga qo'shish kerakmi? Izohlang.

## 26-MISOL

Samarqand shahridagi «Diod» korxonasi Malayziyadagi «ElektrA» firmasining sho'ba korxonasi hisoblanadi va ishlab chiqaradigan televizorlar uchun trubka va boshqa qismlarni «ElektrA»dan olib keladi. Bundan tashqari «Diod» sotadigan radiopriyomniklarni o'zining mahsuloti bo'lgan detallar va ichki bozordan sotib olingan ehtiyyot qismlardan

foydalanib ishlab chiqaradi. Radiopriyomniklar «ElektrA»ning litsenziysi bo'yicha tayyorlanadi. Litsenziya uchun «Diod» televizor va radiopriyomniklarning sotilish narxidan 2% miqdorida to'lov to'lashi lozim.

Aniqlang: 2% miqdoridagi litsenziya uchun to'lovnini televizorlar uchun olib kelgingan trubka va boshqa qismlarni bitim qiymatining bir qismi deb hisoblash mumkinmi? Izohlang.

## 27-MISOL

Xitoydagи «Ksing» kompaniyasi o'tga o'ta chidamli g'ishtlarni ishlab chiqarish jaravonini ixtiro etadi va patent egasi bo'ldi. Quva shahridagi «Devor» korxonasi ushbu g'ishtlarni ishlab chiqarish huquqini oladi va ularning sotilish narxidan 2% miqdoridagi roylatini «Ksing»ga to'lashga rozi bo'ladi. «Devor» patentlangan g'ishtlarni ishlab chiqarish texnologiyasiga moslab mashina loyihasini varatadi va 4 ta shunday mashinani yasab berish uchun Omsk shahridagi «Stal» firmasiga buyurtma beradi. Mashina tayyorlanadi va olib kelib o'matiladi.

Aniqlang: Bojxona qiymatiga ushbu mashina bilan ishlab chiqarilgan g'ishtlar uchun to'lanadigan roylati miqdori qo'shiladimi?

## 28-MISOL

«O'zyog'moytamakisoat» AJ ishlab chiqaradigan paxta yog'larini bir litrli polietilen idishlarga Qadoqlash maqsadida Germaniyaning «Oyl Pak Texnoloji» kompaniyasidan u yaratgan qadoqlovchi texnologik uskunani 65000 AQSH doll. ga sotib olish uchun bitim tuzadi. Bitim shartiga ko'ra bu narx EXV shartida belgilangan va uskunani qadoqlash-o'rash xarajatlari unga qo'shilgan. Shuningdek, yukni hisobvaraqaasiga (invoys) uskuna narxidan tashqari uni O'zbekistonga yetkazib berish bilan bog'liq transport va sug'urta xarajatlari uchun 5000 AQSH doll. va uskunani o'matish, sozlash va tekshirish ishlariiga 15000 AQSH doll. miqdorida xarajat ko'rsatilgan.

Bu holatda bojxona qiymati qanday aniqlanadi?

## 29-MISOL

Quyidagi A (tovar W,X), B (tovarY) va S (tovar Z) firmalari bitta mamlakatning ishlab chiqaruvchilari bo'lib o'xshash tovarlar ishlab chiqaradi. Ularning tovarlariga ko'rsatilgan qiymatlar bitim qiymatini tashkil etadi va muqaddam bojxona qiymati uchun qabul qilingan:

A	B	S
Tovar-W 1,02 AQSH doll.	Tovar-X 1,05 AQSH doll.	Tovar-Y 1,08 AQSH doll.
		Tovar-Z 1,00 AQSH doll.

Agarda har bir tovarning bojxona qiymatini aniqlashda uning ko'rsatilgan qiymatini bitim qiymati sifatida qabul qilishni imkonib o'lmasa, qolgan tovarlar qiymatidan foydalangan holda bojxona qiymati qanday aniqlanadi?

Tovar W-----  
 Tovar X-----  
 Tovar Y-----  
 Tovar Z-----

### 30-MISOL

Krasnoyarskdagi «Lesnik» firmasi O'zbekistonga konsignatsiya shartida o'zi tayyorlagan 20x16x600 sm o'lchamdagisi 2-nav sosna bruslarini olib kelib, ularning har birini narxini 18 AQSH doll. dan belgiladi.

Sizda xuddi shu o'lchamdagisi 2-nav bruslarning eksport qilgan quyidagi firmalarning bitim qiymatlari mavjud:

Tayyorlovchi	Mahsulot turi	Ishlab chiqaruvchi mamlakat	Narxi (AQSH doll.)
«Lestorg»	el	Rossiya	24
«Kedr»	sosna	Belorussiya	23
«Listvitsa»	el	Belorussiya	22
«Beryoza»	sosna	Rossiya	21

«Lesnik» olib kelgan tovarning bojxona qiymatini aniqlang va uni izohlang.

### 31-MISOL

«Lesnik» firmasi (Rossiya) qalnligi 50 mm bo'lgan 60 kubometr miqdorda sosna taxtalarini o'zining O'zbekistondagi sho'ba korxonasi bo'lgan «XOKO» firmasiga eksport qildi. Nakladnoyda bir kubometring narxini 48 AQSH doll. dan belgiladi va bojxona rasmiylashtiruv davomida «XOKO» belgilangan narxlarni haqqoniyligini asoslab bera olmadi.

Sizda aynan bir xil va o'xshash tovarlar narxlari yuzasidan o'zarob bog'liq bo'lmasan korxonalar tuzgan bitimlar bo'yicha quyidagi ma'lumotlar mavjud :

1. Pixtadan tayyorlangan qalinligi 50 mm bo'lgan taxtaning bir kubometri 42 48 AQSH doll. Sotuvchi: «Lesopttorg» Rossiya.

2. Sosnadan tayyorlangan qalinligi 32 mm bo'lgan taxtaning bir kubometri 46 48 AQSH doll. va qalinligi 50 mm bo'lgan taxtaning bir kubometri 55 48 AQSH doll. Sotuvchi: «Siblestorg» Rossiya.

3. Sosnadan tayyorlangan qalinligi 50 mm bo'lgan taxtaning bir kubometri 52 48 AQSH doll. Sotuvchi: «Kedr» Belorussiya

4. Sosnadan tayyorlangan qalinligi 50 mm bo'lgan taxtaning bir kubometri 60 48 AQSH doll. Sotuvchi: «Bereza» Rossiya.

«Xoko» firmasi nomiga kelgan taxtaning bojxona qiymatini aniqlang. Javobingizni izohlang.

### 32-MISOL

Chirchiq shahridagi «Mash'al» firmasi Avstriyaning «Eksim» firmasidan erkaklar ko'ylagini 0,65 48 AQSH doll. dan import qildi. «Eksim»ning yuk va baholash hujjatlariga ko'ra hamda «Mash'al» rahbari bilan og'zaki suhbatdan uning amakisi «Eksim» ning asosiy aksiyalarining egasi ekanligi ma'lum bo'ldi. Import qilingan yukning bahosi birorta bazaviy narxlariga mos kelmaganidan qarindoshlik tovar narxiga ta'sir ko'rsatgan deb guman qildingiz va Sizda mavjud, o'zaro bog'liq bo'lmagan korxonalar tomonidan Avstriyadan import qilingan o'xshash tovarlar narxini tahlil qilganingizda quyidagilar ma'lum bo'ldi:

Eksportyor «Marshall» aynan bir xil ko'yaklarni O'zbekistonndagi barcha xohlagan xaridorlarga 0,9 AQSH doll. dan muntazam sotadi. Oxirgi ulgurji partiya oldi-sotdisi 25 kun muqaddam baholangan.

Eksportyor «Bimeks» esa aynan bir xil ko'yaklarni O'zbekistonndagi faqat bitta chakana savdo bilan shug'ullanuvchi xaridorga 0,85 AQSH doll. dan eksport qiladi. Shuningdek, ulgurji xaridorlar uchun 0,8 AQSH doll. dan taklif mavjud, lekin bu narxga oldi-sotdi bo'lganligini tasdiqlovchi hujjatga siz ega emassiz.

Eksportyor «Omaks» aynan bir xil ko'yaklarni O'zbekistonndagi ma'lum ulgurji xaridorga 0,87 AQSH doll. dan sotgan va u 15 kun muqaddam bitim qiymati sifatida baholangan.

Aniqlang: «Eksim»ning «Mash'al»ga sotgan ko'yaklarini baholang.

### 33-MISOL

X mamlakatdagi M ishlab chiqaruvchidan O'zbekistonndagi A firmasi konsignatsiya sharti asosida DVPT mahsulotini 1 m<sup>2</sup> ni 0,2

AQSH doll. dan import qildi. Yuk X mamlakatidan 5 avgust kuni jo'natildi va 8 avgust kuni ushbu mamlakatning chegarasidan uchinchi tranzit mamlakat-U hududiga o'tdi va 14 avgust kuni uning hududidan chiqib ketgan.

Shunday tovarning bitim qiymati boshqa ishlab chiqaruvchilarda quyidagicha:

A) U mamlakatidagi N ishlab chiqaruvchi DVPT ni O'zbekistonga 0,3 AQSH doll. dan eksport qiladi.

B) X mamlakatdagi O ishlab chiqaruvchi DVPT ni O'zbekistonga 0,25 AQSH doll. dan eksport qilardi.

D) X mamlakatdagi P ishlab chiqaruvchi DVPT ni O'zbekistonga 0,3 AQSH doll. dan eksport qiladi. Shuningdek, nakladnoyda 20 avgustdan narx 10% ga oshishi haqida ma'lumot bor. Lekin bojxonada baholash vaqtida hali yangi narx bo'yicha tovar jo'natilmagan.

E) U mamlakatdagi S ishlab chiqaruvchi DVPT ni O'zbekistonga 0,27 AQSH doll. dan eksport qiladi.

F) X mamlakatdagi R ishlab chiqaruvchi DVPT ni O'zbekistonga 0,35 AQSH doll. dan eksport qiladi.

M dan A import qilgan DVPT ni bojxona qiymatini aniqlang.

### 34-MISOL

Chakana savdo bilan shug'ullanadigan «Chorsu» supermarketi 1-nav shakarni Polshadagi S firmasidan import qildi. Ma'lum sabablarga ko'ra uning faktura qiymatini bitim qiymati sifatida qabul qilib bo'lmaydi

Boshqa aynan bir xil tovarlar bo'yicha tuzilgan va taxminan bir xil vaqtda olib keltirilgan tovarlarning bitim qiymati asosida bojxona qiymatini aniqlash lozim bo'lsin:

1. Polshadagi R sotuvchi, Ukrainadagi M tayyorlagan aynan bir xil shakarni O'zbekistondagi xohlovchi xaridorga tonnasini 400 AQSH doll. dan sotadi.

2. Polshadagi O ishlab chiqaruvchi o'xhash shakarni O'zbekistondagi ulgurji va chakana xaridorlar tonnasini 380 AQSH doll. dan sotadi.

3. Polshadagi K ishlab chiqaruvchi barcha aynan bir xil bo'lgan shakar mahsulotini Rossiyadagi D xaridorga sotadi va o'z navbatida D O'zbekistondagi barcha chakana xaridorlarga tonnasini 390 AQSH doll. dan sotadi.

4. Polshadagi N ishlab chiqaruvchi aynan bir xil bo'lgan shakarni

O'zbekistondagi ulgurji xaridorlarga tonnasini 360 AQSH doll. dan sotadi.

Ushbu tovar partivasi chakana xaridorlarga xali sotilgan emas, lekin muqaddam chakana xaridorlarga 370 AQSH doll. dan sotilgan.

5. Polshadagi T ishlab chiqaruvchi aynan bir xil shakarni O'zbekistondagi barcha darajadagi xaridorlarga tonnasini 410 AQSH doll. dan sotadi.

#### Aniqlang:

a) Yuqoridagi holatlardan kelib chiqqan holda «Chorsu» import qilgan shakarni bojxona qiymatini aniqlang.

b) 1, 2, va 4-holatlardan kelib chiqqan holda «Chorsu» import qilgan shakarni bojxona qiymatini aniqlang.

d) 1 va 4 holatlardan kelib chiqqan holda «Chorsu» import qilgan shakarni bojxona qiymatini aniqlang.

### 35-MISOL

Janubiy Koreyaning «Seul Korporeyshn firmasi o'zbekistonlik ulgurji xaridor - «Ravnaq LTD» firmasiga 1000 dona tabiiy teridan tayyorlangan kurtkalarni har birini 50 AQSH doll. dan sotadi. Shuningdek, shartnomada ushbu narx «Ravnaq LTD» bir yil davomida yana 500000 AQSH doll. miqdoridagi turli xil teridan tayyorlangan liboslarni sotib olgan taqdirda o'zgarmay qolishi (haqiqiyligi) to'g'risida ko'rsatib o'tilgan.

Ushbu shart tufayli bojxona qiymatini aniqlashning 1-usulini qo'llab bo'lmasligi uchun quyidagi Janubiy Koreyadan import qilingan aynan bir xil tovarlar yuzasidan tuzilgan bitim qiymatlaridan foydalangan holda baholanayotgan tovarning bojxona qiymatini aniqlang.

#### 1-TOVAR

Eksportyor	Miqdori	Birlik qiymati	Importyor	Tijorat sharti
R	500	60 AQSH doll.	B	Chakana

R ning narxlari jadvaliga ko'ra barcha tijorat shartlari bo'yicha xaridorlarga belgilangan 60 AQSH doll. dan quyidagi miqdorda chegirmalar berilishi ko'rsatilgan:

Xarid miqdori	Chegirma miqdori
1-450	chegormasiz
451-900	5%
901-2000	10%
2001 dan ko'p	15%

		2-TOVAR			
Eksportyor	Miqdori	Birlik qiymati	Importyor	Tijorat sharti	
S	350	65 AQSH doll	S	Chakana	

S ning narxlar jadvaliga ko`ra kurtkalar chakana sotuvchilarga 65 AQSH doll. dan, ulgurji sotuvchilarga esa 5% miqdorida chegirma taklif qiladi. Miqdoriy ko`rsatkichlarga chegirma taklif qilinmaydi.

		3-TOVAR			
Eksportyor	Miqdori	Birlik qiymati	Importyor	Tijorat sharti	
T	250	70 AQSH doll.	D	Chakana	

T ning narxlar jadvalida ulgurji sotuvchilarga 5% miqdorida chegirma, shuningdek, barcha turdag'i xaridorlarga quyidagicha miqdoriy chegirmalar berilishi ko`rsatilgan:

Xarid miqdori	Chegirma miqdori
1-500	chegirmasiz
500-750	5%
751dan ko`p	10%

**Aniqlang va izohlang:** «Ravnaq «LTD» import qilgan kurtkalar-ning bojxona qiymatini aniqlang.

## **JAVOBLAR**

### **1-MISOL**

Yuk hujjatlarida (nakladnov) ko'rsatilgan tovar bahosini bitim qiymati sifatida qabul qilmashlikka asos yuq, chunki sotuvchi bilan xaridor o'rtaida o'zaro bog'liqlik mavjud emas. Boshqa importyorlarni aynan bir xil bo'lган tovarlarini bahosini yuqori bo'lishi baholanayotgan tovarning nakladnoyda ko'rsatilgan narxini amalda to'langan yoki to'lanishi lozim bo'lган bitim qiymati sifatida qabul qilinishiga to'sqinlik qila olmaydi. Tovarning bojxona qiymati 5,0 AQSH doll. dan qabul qilinishi lozim.

### **2-MISOL**

Har ikki holatda ham amalda to'langan yoki to'lanishi lozim bo'lган qiymat bitim qiymati sifatida qabul qilinishi lozim. «Karbonam»ga berilgan chegirma hisobga olinishi kerak va uning bitim qiymati 250 AQSH doll. minus 5% deb qabul qilinadi. «Mingbulog.neft» nomiga kelgan sellulozaning bitim qiymati 250 AQSH doll. dan qabul qilinishi lozim.

### **3-MISOL**

Agarda zavod narxi SIP yetkazib berish shartida belgilangan bo'lsa, tovari bojxona qiymati 3300.0 AQSH doll. dan qabul qilinishi kerak. EXW shartidagi narx bo'lган bo'lsa, tovari O'zbekiston Respublikasi bojxona hududigacha yetkazib kelish bilan bog'liq xarajatlar 3300.0 AQSH doll. ga qo'shilishi kerak. Bu holatda tovari sotilishi bilan bog'liq bo'lган komis-sion xarajatlar amalda to'langan yoki to'lanishi lozim bo'lган to'lovnинг bir qismini tashkil etadi va tovari bojxona qiymatiga qo'shilishi lozim.

### **4-MISOL**

Javob - 220 AQSH doll. 170 AQSH doll. to'g'ridan-to'g'ri (bevosita) to'lojni va 50 AQSH doll. egrni to'lojni (bilvosita) tashkil etadi. Sotuvchi xaridor oldidagi qarzini shu usulda uzmoqda. Tovarni bojxona qiymati bu – bitim qiymatidir.

### **5-MISOL**

Bojxona qiymati 20000 AQSH doll. Oldi-sotdi sharoitini o'rganib chiqish natijasida o'zaro bog'liqlik tovar qiymatiga ta'sir ko'rsatmagan.

### **6-MISOL**

Bojxona qiymati 26500 AQSH doll. ga teng bo'ladi. Nakladnov bo'yicha narx-2000 AQSH doll. qabul qilinishi lozim va 6500 AQSH

doll. (har bir plunjер parrasi uchun 6.5 AQSH doll.) miqdoridagi yetkazib berish xarajati qo'shilishi kerak.

### **7-MISOL**

Importyor olib kelgan tovarini bitim qiymatini o'zaro bog'liq bo'lmagan korxona olib kelgan o'xhash tovar qiymatiga maksimal darajada yaqin ekanligi isbotlandi. Bojxona qiymati har bir dona karton konus uchun 0.5 AQSH doll. qabul qilinishi lozim. O'zaro bog'liqlik tovar qiymatiga ta'sir ko'rsatmagan.

### **8-MISOL**

Tovarning bojxona qiymati har 1000 dona uchun 263 AQSH doll. Importyor bitim qiymati «Mevalar kamalagi» va «Fruit-juys» ning yaqin oralarda olib kelgan o'xhash tovarlari narxiga maksimal darajada yaqin ekanligi isbotlandi.

### **9-MISOL**

Har bir elektrosvigatelni bojxona qiymati 28 AQSH doll.dan. Importyor tovaming o'xhash tovarlar qiymatiga maksimal darajada yaqin ekanligini ko'rsata oldi.

### **10-MISOL**

Bojxana qiymati: - 798750 AQSH doll. shu jumladan: 750000 AQSH doll. - tovar qiymati: 45000 AQSH doll. - tashish xarajatlari: 3750 AQSH doll. - sug'urta xarajati. Jami: 798750 AQSH doll.

### **11-MISOL**

Bojxona qiymati: - 25100 AQSH doll. shu jumladan: 22000 AQSH doll. - tovar qiymati: 3000 AQSH doll. - tashish va sug'urta xarajatlari: 100 AQSH doll.-tushirish xarajatlari.

### **12-MISOL**

Bojxona qiymati - 18245 AQSH doll., shu jumladan nakladnoy bo'yicha tovar qiymati -15000 AQSH doll..

Brokeriga to'langan 3225 AQSH doll.ning 250 AQSH doll. importyor hududiga tashishga sarflangan uchun uni hisobga olish lozim, ya'ni  $3225-250=2975$  AQSH doll. Sug'urta uchun to'langan 2% to'lov 300 AQSH doll.ni tashkil etadi va u 4000 km. masofadan tashish uchun mo'ljalangan. Respublika ichkarisidagi tashish masofasi-400 km.ga

$300 \cdot 4000 \times 400 = 30$  AQSH doll.ni hisobga olish kerak, ya'ni  $300 - 30 = 270$  AQSH doll. bojxona qiymatini aniqlash uchun qo'shish lozim bo'lgan sug'urta xarajatlarini tashkil etadi. Shunday qilib, tovarning qiymati:  $15000 + 2975 + 270 = 18245$  AQSH doll.

### 13-MISOL

Javob: 8160000 AQSH doll.

Kontrakt bo'yicha shakar qiymati har bir tonnasi uchun tashish xarajatlari bilan 400 AQSH doll.ni (shu jumladan tashish xarajati 50 AQSH doll.) tashkil etadi. Bitim qiymatini hisobga olmaslikka asos yo'q. Eksportyor amalda to'langan tashish xarajati – 650 ming AQSH doll. xaridor amalda to'langan va to'lashi lozim bo'lgan to'lov bo'la olmaydi. Kontrakt sharti bo'yicha xaridor amalda har bir tonna shakar uchun 50 AQSH doll. jami- $50 \times 20000 = 1000000$  AQSH doll. to'langan va bojxona qiymati  $(20000 \times 400) + 2\% = 8160000$  AQSH doll.ni tashkil etadi.

### 14-MISOL

- a) Tovarning bojxona qiymati 50250 AQSH doll.
- b) Tovarning bojxona qiymati 50000 AQSH doll.

### 15-MISOL

Yog'ohnning bojxona qiymati 100000 AQSH doll ga teng. Agentga to'langan komission haq bojxona qiymatiga qo'shilmavdi, chunki bu holatda komission haq tovarlarni sotib olish bilan bog'liq xizmatlar uchun to'lanyapti.

### 16-MISOL

Bojxona qiymati 50000 AQSH doll.

Bu holatda metall idishlarni tovar konteyneri sifatida qabul qilinadi. Plastmassa idishlar va karton qutilar alohida baholanishi lozim.

### 17-MISOL

Javob: 138500 AQSH doll. Tovarning bojxona qiymatiga agarda bitim qiymatida nazarda tutilmagan bo'lsa, o'rash qiymati, shu jumladan, o'rash materiallari va o'rashga doir ishlar qiymati qo'shilishi lozim.

### 18-MISOL

Javob: Bojxona qiymati- 404400 AQSH doll.

Tovuq go'shti -	270000 AQSH doll.
1 kg li paketlarga qadoqlash -	30000 AQSH doll.

Muzlatish xarajati-	60000 AQSH doll.
Karton qutilarga qadoqlash-	9000 AQSH doll.
Sujurta xarajati -	5400 AQSH doll.
Tashish xarajatlari-	30000 AQSH doll.
<b>Jami</b>	<b>404400 AQSH doll.</b>

### 19-MISOL

1. (b)

2. (v)

3. Javob: 2.0 AQSH doll., ya'ni qolipning qoldiq ehtiyyot mustahkamligining 1/3 qismiga proporsional qiymati:  $300000 \times 1/3 = 100000$  AQSH doll. tayyorlangan mahsulotning 20000 donasi eksport mamlakatining ichki bozorida sotish uchun, 30000 donasini importyor buyurtmasi tashkil etadi.  $100000 : 50000 = 2$  AQSH doll.

4. Javob: 1.0 AQSH doll., ya'ni 50000 AQSH doll.:  $50000 \text{ dona} = 2$  AQSH doll.

### 20-MISOL

Javob: a) 14200 AQSH doll.

b) 13400 AQSH doll.

### 21-MISOL

Konstruktorlik chizmalari va loyihibar import mamlakatida tayyorlangani uchun ularning qiymati qo'shilmaydi.

1. Nasos qiymatiga 3 AQSH doll. qo'shilishi lozim ya'ni klopan qiymati  $2.5 + \text{transport}$  xarajatlari  $0.5 + \text{bojxona to'lov} = 0.3$ .

2. Qoliplarning qoldiq quvvati:  $8000 / 20000 = 2/5$  qism qoldiq qiymati esa:  $1200 * 2/5 = 480$  AQSH doll.

Plyus tashish xarajati: 200 AQSH doll..

Plyus bojxona to'ovi: 50 AQSH doll.

Jami: 730 AQSH doll.

Javob: Har bir nasos qiymatiga  $730 / 5000 = 0.146$  AQSH doll. qo'shilishi lozim.

### 22-MISOL

«Lana» firmasi elektrosvigatellarni «SLM» firmasiga eksport qilishida «SLM» ning «OKA»ga to'lashi lozim bo'lgan roylati to'lov bitimning oldi-sotdi sharti bo'la olmaydi. Shuning uchun uni bojxona qiymatini aniqlashda bitim qiymatiga qo'shib bo'lmaydi.

## **23-MISOL**

«Amir»ning «Ob» ga to‘lagan rovalti to‘lovi import qilingan tovarga tegishli va bitim shartiga ko‘ra, u oldi-sotdi sharti bo‘lib hisoblanadi. Shuning uchun bu to‘lov bojxona qiymatiga qo‘shilishi lozim.

## **24-MISOL**

1. Litsenziya uchun to‘lov amalda to‘langan yoki to‘lanishi lozim bo‘lgan to‘loving bir qismini tashkil qilganligi uchun uni yana bojxona qiymatiga qo‘shish kerak emas.

2. «Xadra» ning litsenziya uchun «Ayva» ga to‘lagan to‘lovi «Beta» bilan tuzilgan bitimning oldi-sotdi shartida belgilangan. Shuning uchun u bojxona qiymatiga qo‘shilishi lozim.

3. Litsenziya uchun to‘lov amalda to‘langan yoki to‘lanishi lozim bo‘lgan to‘loving bir qismi bo‘lganligi uchun uni yana bojxona qiymatiga qo‘shish mumkin emas. Lekin masala shundaki, bepul yetkazib berilgan xomashyo miqdoran noaniq bo‘lganligi uchun bojxona qiyamatini aniqlashning 1-usulini qo‘llab bo‘lmaydi.

## **25-MISOL**

Litsenziya uchun to‘lov bitimda oldi-sotdi sharti bo‘lib import qilingan tovarga bevosita tegishli bo‘lganligi uchun u tovar qiymatiga qo‘shilishi lozim. Agarda yetishtirilgan pilladan ikkilamchi ipak qurti urug‘i olinsa, uning sotilishidan to‘langan litsenziya to‘lovi bitim qiymatiga qo‘shilmaydi, chunki import qilingan tovarga uning aloqasi yo‘q.

## **26-MISOL**

Litsenziya uchun 2% miqdordagi to‘lov televizor ehtiyyot qismlariga tegishli emas, balki radiopriyomniklar uchun tegishlidir. Shuning uchun uni bitim qiymatiga qo‘shish kerak emas.

## **27-MISOL**

Rovalti mashinalarga tegishli bo‘lmay, balki g‘ishtlarning ishlab chiqarish jarayoniga tegishli.

Shuning uchun uni mashina qiymatiga qo‘shib bo‘lmaydi.

## **28-MISOL**

Uskunaning bojxona qiymati 70000 AQSH doll. ga teng. Ushbu holatda uskunani o‘rnatish, sozlash va tekshirish xarajatlari bojxona qiymatiga qo‘shilmaydi

## **29-MISOL**

Tovar W=1,05 AQSH doll., chunki bitta ishlab chiqaruvchining tovari.

Tovar X=1,02 AQSH doll., chunki bitta ishlab chiqaruvchining tovari.

Tovar Y =1,00 AQSH doll., chunki bu 3 ta o‘xhash tovarning eng past narxi.

Tovar Z=1,02 AQSH doll., chunki bu 3 ta o‘xhash tovarning eng past narxi.

## **30-MISOL**

Tovar konsignatsiya shartida olib keltirilgani uchun unda shartnomaga qiymati, ya`ni oldi-sotdi qiymati mavjud emas. Shuning uchun aynan bir xil yoki o‘xhash tovarlarning bitim qiymatlaridan foydalanib bojxona qiymati aniqlanishi lozim.

Sizda mavjud ma‘lumotlarga ko‘ra ikkita holatda sosna bruslari uchun bitim qiymati mavjud va uning bittasi aynan shu mamlakatda (Rossiya) ishlab chiqazilgan, ya`ni bojxona qiymati 21 AQSH doll.dan qabul qilinishi lozim.

## **31-MISOL**

Ushbu holatni o‘zaro bog‘liq bo‘lgan korxonalar o‘rtasidagi oldi-sotdi va belgilangan narx asoslab berilmagani uchun o‘zaro bog‘liqlik tovar qiymatiga ta’sir ko‘rsatgan deb qarash lozim. Shuning uchun o‘xhash tovarning bitim qiymati bo‘yicha bojxona qiymatini aniqlash kerak bo‘ladi.

Sotuvchi «Lesopttorg»: taxta sosna emas, shuning uchun uni aynan bir xil yoki o‘xhash tovar deb qabul qilib bo‘lmaydi.

Sotuvchi «Siblestorg»: Ikki xil o‘lchamdagisi mahsulot mavjud va ularning har ikkisi ham sosna. Shuning uchun ularni o‘xhash tovar deb qarash mumkin va narxini 55 AQSH doll. deb qabul qilish kerak.

Sotuvchi «Kedr»: taxta sosnadan tayyorlangan va o‘lchamlari bir xil, lekin ishlab chiqarilgan mamlakat boshqa. Shuning uchun aynan bir xil yoki o‘xhash tovar deb qabul qilib bo‘lmaydi.

Sotuvchi «Beryoza»: Bu mahsulot barcha talablar bo‘yicha baholanayotgan tovar bilan aynan bir xil va narxi 60 AQSH doll..

Baholanayotgan tovar bilan aynan bir xil bo‘lgan ikkita tovarning eng past narxini bojxona qiymati uchun qabul qilish lozim, ya`ni 55 AQSH doll..

### **32-MISOL**

Qarindoshlik natijasida o'zaro bog'liqlik mavjudligi va bitim qiymatini mavjud emasligi tufayli belgilangan narxni bojxona qiymati sifatida qabul qilib bo'lmaydi. Buning uchun aynan bir xil yoki o'xhash tovarlar bitim qiymatlaridan foydalanish lozim.

Sotuvchi «Marshall»: aynan bir xil tovar va bir xil tijoratchilik sharti mos keladi va narxi 0,9 AQSH doll.

Sotuvchi «Bimeks»: aynan bir xil tovar, lekin bir xil tijoratchilik sharti uchun bitim qiymati mavjud emas. Narxi 0,8 AQSH doll.

Sotuvchi «Omaks»: aynan bir xil tovar va bir xil tijoratchilik sharti va narxi 0,87 AQSH doll

Baholanayotgan tovar bilan aynan bir xil tovar va tijoratchilik sharti ham bir xil bo'lgan faqat bitta qivmat mavjud: - «Omaks», qiymati 0,87 AQSH doll. ni bojxona qiymati sifatida qabul qilish to'g'ri bo'ladi.

### **33-MISOL**

Yuk konsignatsiya shartida keltirilgani uchun bitim bahosiga ega emas. Aynan bir xil yoki o'xhash tovarlar yuzasidan tuzilgan bitim narxlariga murojaat etamiz:

A) Ishlab chiqarilgan mamlakat boshqa bo'lganligi uchun tovar aynan bir xil yoki o'xhash deb qarab bo'lmaydi.

B) DVP ni DVPT bilan aynan bir xil deb qarab bo'lmaydi. Ularni o'xhash tovar deb qarash mumkin.

D) P ning tovari aynan bir xil va narxi 0,3 AQSH doll dan. Narxning 10% ga oshirilgan miqdorda qabul qilish mumkin emas, chunki hali bu narx bo'yicha tuzilgan bitim qiymatiga ega emasmiz.

E) Ishlab chiqarilgan mamlakat boshqa bo'lganligi uchun tovar aynan bir xil yoki o'xhash deb qarab bo'lmaydi.

F) Baholanayotgan tovar bilan aynan o'xhash tovar va bahosi 0,35 AQSH doll.

Ikkita aynan bir xil tovar bo'yicha tuzilgan bitim qiymati 0,3 va 0,35 AQSH doll. dan eng past qiymatni bojxona qiymati sifatida qabul qilish lozim.

### **34-MISOL**

1. R sotuvchining tovari aynan bir xil yoki o'xhash tovar bo'la bo'lmaydi, chunki ishlab chiqazilgan mamlakat boshqa.

2. O ishlab chiqaruvchining tovari o'xhash va o'zgartirish kiritish (korrektirovka) talab qilinmaydi.

3. K ishlab chiqaruvchining tovari aynan bir xil va o'zgartirish kiritish talab qilinmaydi. Lekin xaridorlarga nisbatan cheklashlar mavjudligi, ya'ni barcha tovar birlamchi ulgurji miqdorda D ga (Rossiya) sotlishi va D ni chakana xaridorlarga sotishi ushbu narxni qo'llashni inkor etmaydi.

4. N ishlab chiqaruvchining tovari aynan bir xil, lekin xaridorlar darajasiga nisbatan o'zgartirish (korrektirovka qilish) kiritish lozim.

5. T ishlab chiqaruvchining tovari aynan bir xil. O'zgartirish kiritish talab qilinmaydi.

a) 1. Qiymat qabul qilinmaydi. Aynan bir xil yoki o'xhash tovar yo'q.

2. O'xhash tovar. O'zgartirish kiritish talab qilinmaydi. Qabul qilish mumkin.

3. Aynan bir xil. O'zgartirish kiritish talab qilinmaydi.

4. O'zgartirish kiritish (korrektirovka) talab qilinadi.

5. Aynan bir xil. O'zgartirish kiritish talab qilinmaydi.

To'g'ri javob: -3. Eng past qiymat bo'lganligi uchun baholanayotgan tovarning bojxona qiymati sifatida 390 AQSH doll. ni qabul qilish o'rini bo'ladi.

b) 1. Qiymat qabul qilinmaydi. Aynan bir xil yoki o'xhash tovar yo'q. Ishlab chiqarilgan mamlakat boshqa.

2. O'xhash tovar. Aynan bir xil tovar avval ko'rib chiqilishi kerak.

4. Tijoratchilik darajasiga nisbatan korrektirovka kiritish sharti bilan aynan bir xil. To'g'ri javob: -4. Bojxona qiymati 370 AQSH doll. qabul qilinadi va keyinchalik chakana xaridorlarga sotilish narxi nakladnoylardan olinib korrektirovki qilinishi lozim.

d) 1. Qabul qilinmaydi.

4. Tijoratchilik darajasiga nisbatan korrektirovka kiritish sharti bilan aynan bir xil. To'g'ri javob: -4. Bojxona qiymati 370 val. bir.

### 35-MISOL

1-TOVAR. Miqdor jihatdan o'zgartirish (korrektirovka), 60 AQSH doll.  $10\% = 54$  AQSH doll.

2-TOVAR. Tijoratchilik sharti jihatdan o'zgartirish:

65 AQSH doll.  $5\% = 61,75$  AQSH doll.

3-TOVAR. Barcha darajada (guruh miqdori va tijoratchilik sharti a) o'zgartirish:

70 AQSH doll.  $- 5\% - 10\% = 59,85$  AQSH doll.

«Ravnaq LTD» import qilgan kurtkaning bojxona qiymati 54 AQSH doll., ya'ni uchta qiymatning eng pasti qabul qilinadi.

## FOYDALANILGAN QISQARTMALAR VA ATAMALAR RO'YXATI

**AT** – axborot texnologiyalari

**BYuD** – bojxona yuk deklaratsiyasi;

**BQD** – bojxona qiymati deklaratsiyasi;

**DBQ YaAAT** – Davlat bojxona qo'mitasi yagona avtomatlashgan axborot tizimi;

**GATT** – tariflar va savdo bo'yicha bosh kelishuv;

**KTS** – bojxona qiymatini o'zgartirish;

**QQS** – qo'shilgan qiymat solig'i;

**MDH** – Mustaqil davlatlar hamdo'stligi;

**NMB** – Narx ma'lumotlar byulleteni

**XYT** – xalqaro yo'llarda tashish;

**HBB** – hududiy bojxona boshqarma

**TIF TN** – tashqi iqtisodiy faoliyat tovarlar nomenklaturasi;

**Barter (barter)** – pul yordamisiz amalga oshiriladigan tovar ayriboshlanishi.

**Boj tarifi** – tovarlar guruhlari bo'yicha bir tizimga solingan bojlar ro'yxati.

**Bojxona boji** – chegara orqali o'tkaziladigan tovarlarga doir soliq. Olib kirish va olib chiqish uchun bojxona bojlari mavjud.

**Bojxona qiymati** – O'zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksiga muvofiq belgilanadigan va bojxona to'lovlarini hisoblab chiqarish maqsadida foydalaniladigan tovar qiymatidir.

**Depozit** – saqlashga topshirilgan pul summasi yoki boshqa xil boylik; ko'pmcha banklarga pul summalarini yoki qimmatli qog'ozlarning omonatlari sifatida qo'llaniladi.

**Bojxona rasmiylashtiruvi** – tovarlar va transport vositalari ustidan bojxona nazoratini ta'minlash maqsadida bojxona organlarining mansabdon shaxslari amalga oshiradigan operatsiyalar majmui.

**Bojxona rejimi** – O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali olib o'tiladigan tovarlar va transport vositalarining maqomini bojxona maqsadlari uchun belgilovchi qoidalar majmui

**Bojxona chegarasidan olib o'tish** – tovarlar yoki transport vositalarini har qanday usulda, shu jumladan xalqaro pochta

jo'natmalarini yuborish, quvur transportidan hamda elektr uzatish liniyalaridan foydalanish yo'li bilan bojxona hududiga olib kirish yoki olib chiqish harakatlarini amalga oshirish.

**Valuta nazorati** – milliy valutani olib chiqishni cheklashga yo'naltirilgan va to'lov balansining yomonlashuviga qarshi qo'llaniladigan hukumat siyosati. Odatda mahalliy valutaning kursi oshganda qo'llaniladi.

**Deklarant** – tovarlarni olib o'tuvchi, tovarlar va transport vositalarini o'z nomidan deklaratsiyalovchi, ko'rsatuvchi va taqdim etuvchi shaxs yoki tovar olib o'tuvchi shaxs nomidan ish olib borayotgan bojxona brokeri

**Inkoterms** – xalqaro tijorat shartlari.

**Lizing** – asosiy fondlarni uzoq muddatga ijaraga berish. Lizing kompaniyalari ijaraga berish uchun uskunalarini sotib oladilar.

**Litsenziya** – muayyan iqtisodiy faoliyatni yuritish uchun davlat yoki mahalliy hokimiyat organlari tomonidan beriladigan maxsus ruxsatnoma.

**Reeksport** – tovarni uni ishlab chiqargan mamlakatdan o'z iste'moli uchun emas, balki sotish uchun uchinchi mamlakatlarga olib chiqish; ilgari mamlakatga olib kelingan tovarni olib chiqish.

**Sug'urta** – sug'urtalovchining pul badallari hisobiga maqsadli sug'urta fondini shakllantirish va undan zararni qoplash va sug'urtalovchining pul badallari hisobiga maqsadli sug'urta fondini shakllantirish va undan zararni qoplash va sug'urta summalarini to'lash uchun foydalanishiga doir iqtisodiy munosabatlar majmui.

**Tovarlar** – har qanday ko'char mol-mulk, shu jumladan valuta va valuta boyliklari, elektr, issiqlik energiyalari va energiyaning boshqa turlari, transprt vositalari (yo'lovchilar va tovarlarni tashish uchun foydalaniladigan vositalar, shu jumladan, konteynerlar va boshqa transport uskunalaridan tashqari), intellektual mulk obyektlari.

**Transport vositalari** – yo'lovchilar va tovarlarni tashish uchun foydalaniladigan vositalar, shu jumladan, konteynerlar va boshqa transport uskunalarini.

**Tovarlar va transport vositalarini olib o'tuvchi shaxslar** – tovarlar va transport vositalarining mulkdorlari, ularning sotib oluvchilari, egalari yoxud o'z nomidan amalga oshirish uchun qonun

hujjatlariga muvofiq yetarli bo‘lgan boshqacha tarzda ishtirok etuvchi shaxslar.

**Ustav fondi** – korxonaning uni barpo etish chog‘ida mol-mulkini tashkil etadigan vosita va mablag‘lar summasi.

**Chet el valutasi** – muomalada bo‘lgan va tegishli xorijiy davlatlarda qonunning to‘lov vositalari hisoblanadigan banknotalar, xazina chiptalari, tangalar ko‘rinishidagi pul belgilari.

**Shartnoma** – taraflarning huquq va majburiyatları, bitimni amalga oshirish shartlari, muddati va hokazolarni belgilaydigan asosiy xo‘jalik, tijorat hujjati. Oldi-sotdi, kredit, sug‘urta, pudrat, marketing ishlarini o‘tkazishga oid va hokazo shartnomalar ayniqsa keng tarqalgan.

**Shartli chiqarib yuborish** – shaxsning belgilangan cheklashlar, talablar yoki shartlarga rivoja qilish majburiyatlarini o‘z zimmasiga olishi bilan bog‘liq holda tovarlar va transport vositalarini chiqarib yuborish.

**Chiqishga ruxsat berish** – bojaxona organlarining bojaxona rasmiylashtiruvidan o‘tgan tovarlar yoki transport vositalarini shaxsning to‘la ixtiyoriga berishi.

**Chet el tovarlari** – O‘zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilmagan tovarlar yoki O‘zbekiston Respublikasi hududida erkin muomalaga chiqarilmagan tovarlar.

**O‘zbekiston tovarlari** – O‘zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilgan tovarlar yoki O‘zbekiston Respublikasi hududida erkin muomalaga chiqarilgan tovarlar.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning 2014-yilning asosiy yakunlari va 2015-yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 16-yanvardagi majlisidagi ma'ruzasi. Xalq so'zi gazetasi 2015-yil 17-yanvar soni.
2. I.Karimov. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralar. Toshkent: «O'zbekiston» - 2009.
3. GATT (Tarif va savdo bo'yicha bosh kelishuv) 1979-yil 12-aprelda («Tokio raundi» deb ataluvchi) qabul qilingan bojxona baholash to'g'risida nizom «GATTning 7-moddasini qo'llash to'g'risida kelishuv».
4. MDHga a'zo davlatlar bojxona xizmatlari rahbarlari kengashining 1995-yil 14-sentabrdagi qarori bilan qabul qilingan «Tovarlarning bojxona qiymatini e'lon qilish va nazorat qilish prosedurasining yagona Qoidalari».
5. MDH davlatlari bojxona xizmatlari o'rtasidagi «Tovarlarning bojxona qiymatini aniqlash va nazorat qilish bo'yicha zarur bo'lgan ma'lumotlarni o'zaro almashish to'g'risida»gi bayonnomasi.
6. O'zbekiston Respublikasining Bojxona Kodeksi.
7. O'zbekiston Respublikasining «Davlat bojxona xizmati to'g'risida»gi qonuni.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 15-maydagi «Xususiy mulk, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ishonchli himoya qilishni ta'minlash, ularni jadal rivojlantirish yo'lidagi to'siqlarni birtaraf etish chora-tadbirlari to'g'risida» PF-4725-son Farmoni.
9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 30-sentabrdagi «Eksport va import operatsiyalari monitoringini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 416-sonli qarori.

10. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007-yil 19-sentabrdagi 198-sonli qarori bilan tasdiqlangan «O'zbekiston Respublikasining bojxona hududidan olib chiqilayotgan tovarlarning bojxona qiymatini belgilash va deklaratsiyalash tartibi to'g'risidagi Nizom».
11. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan 1998-yil 13-yanvarda 390-son bilan ro'yxatdan o'tgan «O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kelinadigan tovarlarning bojxona qiymatini belgilash bo'yicha yo'riqnomा».
12. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan 1998-yil 13-yanvarda 391 son bilan ro'yxatdan o'tgan «Bojxona qiymati deklaratsiyasini to'ldirish tartibi».
13. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2016-yil 6-aprelda 2773-son bilan ro'yxatdan o'tgan «Bojxona yuk deklaratsiyasini to'ldirish tartibi to'g'risida»gi yo'riqnomা.
14. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan 2000-yil 22-fevralda 899-raqam bilan ro'yxatga olingan «O'zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kelinadigan tovarlarga bojxona qiymatini belgilash va uni nazorat qilish tartibi» bo'yicha yo'riqnomা.
15. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan 2000-yil 20-fevralda 920-raqam bilan ro'yxatga olingan «Bojxona qiymatini o'zgartirish bo'yicha KTS-1 va KTS-2 deklaratsiya shakllarini to'ldirish tartibi bo'yicha yo'riqnomা».
16. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan 2008-yil 5-mayda 1803-son bilan ro'yxatga olingan «O'zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqiladigan tovarlarga bojxona qiymatini deklaratsiyasini to'ldirish tartibi» bo'yicha yo'riqnomা.
17. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2013-yil 3-iyunda 2465-son bilan ro'yxatga olingan «O'zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblar to'g'risida»gi Nizom.
18. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2013-yil 12-iyunda 2467-raqam bilan ro'yxatga olingan «Yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan valuta operatsiyalari o'tkazilishi asosliligi ustidan monitoringni amalga oshirish tartibi».

19. Davlat bojxona qo'mitasining 2009-yil 18-maydag'i «Eksport va import qilinayotgan tovarlar narx ma'lumotlari byulleteni» elektron bazasini yuritish tartibini tasdiqlash to'g'risidagi 135-sonli buyrug'i.
20. Davlat bojxona qo'mitasining 2009-yil 19-sentabrdagi «Eksport va import qilinayotgan tovarlar narx ma'lumotlari byulleteni»ni ishlab chiqish tartibi bo'yicha vaqtinchalik yo'riqnomani tasdiqlash to'g'risidagi 275-sonli buyrug'i.
21. Davlat bojxona qo'mitasining 2010-yil 12-apreldagi «Import qilinayotgan tovarlarning bojxona qiymatini belgilanishini DBQ Yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimi asosida nazorat qilish bo'yicha Vaqtinchalik yo'riqnomani amaliyotga kiritish to'g'risida 92-sonli buyrug'i.
22. Davlat bojxona qo'mitasining 2010-yil 30-sentabrdagi «Tovar va transport vositalarini chiqarishga ruxsat berilgandan keyingi tekshiruvlar natijasida aniqlangan qo'shimcha hisoblangan bojxona to'lovlarni undirish bo'yicha» 331xfu-sonli ko'rsatma xati.
23. DBQning 2011-yil 9-fevraldag'i «INKOTERMS-2010 xal-qaro savdo shartlarini amaliyotga kiritilganligi to'g'risida»gi 1-sonli ko'rsatmasi.
24. Davlat bojxona qo'mitasining 2010-yil 30-sentabrdagi «Tovar va transport vositalarini chiqarishga ruxsat berilgandan keyingi tekshiruvlar natijasida aniqlangan qo'shimcha hisoblangan bojxona to'lovlarni undirish bo'yicha» 331xfu-sonli ko'rsatma xati.
25. Davlat bojxona qo'mitasining 2003-yil 23-yanvardagi «Import qilinayotgan tovarlarni bojxona qiymati ustidan nazoratni kuchaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi 15-sonli ko'rsatma xati.
26. Davlat bojxona qo'mitasining 2010-yil 24 martdag'i 03-04/8-72xfu-sonli «Bojxona rasmiy lashtiruvidan keyingi tekshiruvlar natijasida import qilingan tovarlar yuzasidan qo'shimcha hisoblangan bojxona to'lovlarni undirish bo'yicha metodik qo'llanma».

## MUNDARIJA

<b>KIRISH</b>	3
<b>I BOB. BOJXONA QIYMATINING MOHIYATI VA AHAMIYATI</b>	
1. Bojxona qiymatining mohiyati, predmeti, obyekti va vazifalari.....	5
2. Bojxona qiymatining huquqiy asoslari.....	11
3. Bojxona qiymatini belgilash hamda uni nazorat qilish.....	13
<b>II BOB. BOJXONA ISHIDA INKOTERMS-2010 XALQARO QOIDALARINING QO'LLANILISHI</b>	
1. Inkoterms xalqaro qoidalaring mohiyati va uni yaratilish tarixi.....	18
2. Tovarlarni yetkazib berishning tijorat shartlarining turlari..	24
<b>III BOB BOJXONA QIYMATINI ANIQLASHDA TOVARLARNI YETKAZIB BERISH E VA F GURUH TIJORAT SHARTLARINING MOHIYATI HAMDA XARAJATLARINING TARKIBI</b>	
1.Xalqaro yetkazib berish shartlarida xarajatlarni hisobga olgan holda bojxona qiymatini aniqlash formulaları.....	35
2.Tovarlarni yetkazib berish E guruh tijorat shartida xarajatlarining tarkibi.....	36
3.Bojxona qiymatini aniqlashda tovarlarni yetkazib berish F guruh tijorat shartlarining mohiyati hamda xarajatlarining tarkibi.....	40
<b>IV BOB BOJXONA QIYMATINI ANIQLASHDA TOVARLARNI YETKAZIB BERISH S VA D GURUH TIJORAT SHARTLARINING MOHIYATI HAMDA XARAJATLARINING TARKIBI</b>	
1.Yetkazib berish shartining S guruhining tavsifi.....	58
2.Yetkazib berish shartining D guruhining tavsifi.....	83
<b>V BOB OLIB KIRILADIGAN TOVARGA DOIR BITIM QIYMATIGA OID USUL HAMDA NAZORAT QILISH ALGORITMI</b>	
1 Olib kiriladigan tovarning bojxona qiymatini aniqlash usullari.....	91

2. Olib kiriladigan tovarga doir bitim qiymatiga oid usul (1-usul).....	95
3. 1-usulini qo‘llanilishini nazorat qilish algoritmi.....	117
<b>VI BOB AYNAN BIR XIL VA O‘XSHASH TOVARGA DOIR BITIMNING QIYMATI BO‘YICHA BOJXONA QIYMATINI BELGILASH HAMDA NAZORAT QILISH ALGORITMI</b>	
1. Aynan bir xil tovarga doir bitimning qiymatiga oid usul (2-usul) hamda nazorat qilish algoritmi.....	131
2. O‘xhash tovarga doir bitimning qiymatiga oid usul (3-usul) .....	137
<b>VII BOB QIYMATLARNI CHEGIRIB TASHLASH ASOSIDA BOJXONA QIYMATINI ANIQLASH HAMDA NAZORAT QILISH ALGORITMI</b>	
1.Qiymatlarni chegirib tashlash asosida bojxona qiymatini aniqlash (4-usul).....	142
2. 4-usul qo‘llanilishini nazorat qilish algoritmi.....	145
<b>VIII BOB QIYMATLARNI QO‘SHISH VA ZAXIRA USULLARI ORQALI BOJXONA QIYMATINI ANIQLASH HAMDA NAZORAT QILISH ALGORITMI</b>	
1 Qiymatlarni qo‘shish asosida bojxona qiymatini aniqlash usuli (5-usul).....	150
2. Zaxira usul asosida bojxona qiymatini aniqlash (6-usul) va uni nazorat qilish algoritmi.....	154
<b>IX BOB EKSPORT VA IMPORT QILINAYOTGAN TOVARLAR NARX MA’LUMOTLARI BYULLETENIDAN FOYDALANISH</b>	
<b>X BOB IMPORT TOVARLARGA BOJXONA QIYMATI DEKLARATSIYASINI TO‘LDIRISH TARTIBI</b>	
1 Bojxona qiymati deklaratsiyasi haqida tushuncha va uni qo‘llash xususiyatlari.....	172
2.Bojxona qiymati deklaratsiyasi BQD-1 shaklini to‘ldirish qoidalari.....	175
3.Bojxona qiymati deklaratsiyasi BQD-2 shaklini to‘ldirish qoidalari.....	191

<b>XI BOB BOJXONA QIYMATINI O'ZGARTIRISH DEKLARATSIYASI VA UNI TO'LDIRISH TARTIBI</b>	
1.Bojxona qiymatini o'zgartirishning mohiyati.....	200
2.Bojxona qiymatini o'zgartirish deklaratsiyasini to'ldirish tartibi.....	205
3.Tekshiruvlar natijasida aniqlangan, qo'shimcha hisoblangan bojxona to'lovlarni unditish.....	214
<b>XII BOB O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING BOJXONA HUDUDIDAN OLIB CHIQILAYOTGAN TOVARLARNING BOJXONA QIYMATINI BELGILASH VA DEKLARATSIYALASH TARTIBI</b>	
1.O'zbekiston Respublikasining bojxona hududidan olib chiqiladigan tovarlarning bojxona qiymatini belgilashning mohiyati.....	229
2.O'zbekiston Respublikasining bojxona hududidan olib chiqiladigan tovarlarning bojxona qiymatini belgilash tartibi..	235
3.O'zbekiston Respublikasining bojxona hududidan olib chiqiladigan tovarlarga bojxona qiymati deklaratsiyasini to'ldirish tartibi.....	242
<b>Foydalanilgan qisqartmalar va atamalar ro'yxati.....</b>	295
<b>Foydalanilgan adabiyotlar.....</b>	298